

" ILMİY TADQIQOTLAR,
INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA
AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI "
mavzusidagi Respublika ko`p tarmoqli, ilmiy
konferensiya



№ 2
OKTYABR
2022 yil



<https://ojs.rmasav.com>

Tahririyat a'zolari

Berdialiev A. f.f.d., prof.
Nurullaeva Sh.U. ped.f.d., prof.
Tursunov K.Sh. ped.f.d., prof.
Babadjanova D. tarix.f.d., prof.
Ernazarova G.O. ped.f.d., prof.
Abduraximova D.A. ped.f.d., prof.
Мадымаров Т.Т. yur.f.d., prof.
Мурзаева С.Р. fil.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Xolliyev A.E. bio.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Salaeva M.S. psi.f.n., dotsent
Salayeva M.S. ped.f.d., prof.
Tojiboyeva M.A. fil.f.d., dotsent
Sabirova N.E. fil.f.d., dotsent
Norboyeva U.T. bio.f.d., dotsent
Yarmatov R.B. ped.f.d., dotsent

Egamberdiyeva N.A. tarix.f.d., dotsent
Achilov N.K. fil.f.d., dotsent
Imomova G.M. fil.f.n., dotsent
Zakirova H.R. f.f.n., dotsent
Tuhtahujaev H.B. ped.f.f.d., dotsent,
TFA Akademik
Bakiyev Z.A. ped.f.n., dotsent
Razzakov H.K. tex.f.n., f.f.d., dotsent
Ortikov O.A. tex.f.f.d., dotsent
Djuraeva M.Y. f.f.f.d.
Nabikhodjaev A.A. iqt.f.n., dotsent
Otadjanova M.O. f.f.d.
Tajibaeva M.A. fil.f.d., dotsent
Hasanov A.M. fil.f.f.d.
Kholmurodov A.E. fiz.m.f.d., dotsent
Aripov O.A. iqt.f.d., dotsent
Safarova U.A. fil.f.d., dotsent

Mas'ul kotib: M.Yusupov

**THE JOURNAL OF
INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH
ISSN 2181-3558**

**ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA
AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI
№ 2 SONLI RESPUBLIKASI KO'P TARMOQLI, ILMIY KONFERENSIYA
20-OKTYABR 2022-YIL**

**RESEARCH OF SCIENTIFIC RESEARCH, INNOVATION,
THEORETICAL AND PRACTICAL STRATEGIES
2ST REPUBLIC OF MULTIFIELD SCIENTIFIC CONFERENCE
OCTOBER 20, 2022**



MUNDARIJA

Абраева Ш.Э. Латин ва юнон морфемаларини семантик синфлар бўйича ажратиш мезонлари ва таҳлил принциплари	5
Байжанов Д.С. Инвестиция фаолиятини ислом молия инструментлари орқали молиялаштириш тамойиллари ва усуллари	7
Nurullayeva L.Sh. Rivojlanayotgan O'zbekistonda qonun ustuvorligi	10
Сиддиқова Н.К. Нинабаргли дарахтлардаги ёш ниҳолларидан аниқланган замбуруғларнинг таҳлили	11
Malikov K.G. Aksonometrik proyeksiyalarni hosil qilish apparati va undan foydalanish	16
Омонбоева М. Использование информационно-коммуникативных технологий в учебно-воспитательном процессе у детей дошкольного возраста	19
Ergasheva M.A., Tursunova S.I. Yangi O'zbekiston	21
Rakhmatullaev A. Археология тадқиқотларининг ўлка қадим тарихи.....	23
Rakhmatullaev A. Фарғона ва зарафшон воҳасида ўтказилган археологик тадқиқотлар	27
Tashxodjayeva P.B. Tibbiyotda oliygoh talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	31
Turayeva A.A. Advantages of teaching methodology of social and humanitarian sciences in cluster conditions	32
Usmanov U.R. Lean environment nox emission control technologies.....	36
ДЖумаев Ф.Т. Саноатдаги таркибий ўзгаришларга таъсир кўрсатадучи омиллар	40
Eshmuratova Q.O. Xorijiy sotsiologiyada til siyosati	43
Abduraxmonov S.T. O'zbekiston sharoitida melafen biologik preparati yordamida neft bilan ifloslangan tuproqlarni tozalash.....	45
Shoyimqulova Z. Jamiyat taraqqiyotida tilning ta'siri	47
Sohibova Kumush Yodgorovna Sotsiologiyada omillar	49
Jumanazarova Husnibonu Sotsiologiyada qarashlarning shakllanishi	51
Temirova.M.U. Tog'lari baliqlar sistemikasi.....	52
Zaylobiddinov.T.M. O'zbekiston suv havzalarida ovlanadigan baliqlar.....	53
O'rinboyev Z.M. Олий таълим муассасаларида smart технологиялардан фойдаланишга кўйиладиган педагогик талаблар.....	54
Eshqulova N. Normo'minovna Sotsiologiyada sohasida tilni standartlashtirish muammolari	58
Тлеуов М.А. Банклараро соғлом рақобатни шакллантиришнинг долзарб масалалари ...	60
Бегбудиева П.Ш. Основные этапы становления и развития научно-методической и творческой деятельности М.Бегбудиевой.....	63
Холбоева Д. Инглизча «халқаро туризм» терминология гуруҳларида синонимия ҳолати	66
Холбоева Д. Инглиз тилидаги терминология гуруҳида синонимия ҳолати.....	70
Nurillayeva H.A. Adabiyot darsliklarida ijodkor biografiyasining berilishi haqida mulohazalar	72
Muhitdinova M.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz ko'nikmalarini takomillashtirish metodikasi	75
Исмоилова Н.У. “Тафсири ҳилол” асаридаги содда, мураккаб ва таркибли ўхшатишлар	78
Uzoqova L.M. Pedagogga xos hislatlar haqida so'z.....	81

Mubinova A. Muhammad Yusufning "nega yig'lar qrim-tatar dunyoda "she'ridagi fitonim obrazlar tahlili	82
Tursunov I.R. Davlat sog'liqni saqlash muassasasi xodimlarini boshqarishning tarkibiy qismi sifatida rag'batlantirish tizimini rivojlantirish istiqbollari	88
Qurbonov N.M., Gazieva R.T. Paxta urug'ining xususiyatlari asosida linterning uzatish funksiyasini aniqlash.....	90
Achilov M.N. Ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalarida rus tilini o'qitishning kommunikativ kompetensiyalari	94
Нуркулова Р.Р. Абдуллахон II ва хўжа Саъд	97
Abdumannopov K.G'. Budget tizimi byudjetlari ijrosi nazoratining shakllari va usullari	102
Солметов F.A. Тижорат банкларида активлар сифатини таснифлаш ҳисоботи	109
Abdug'aniyeva M. Kungaboqar navlarining barg sathiga ekish tizimlari va mineral o'g'itlar me'yorlarining ta'siri	114
Alpomishova N.B. Neyminglarning milliy tilga ta'siri	119
Шукуров Ф.Б. Бюджет ташкилотларида давлат молиявий назорати тизимини такомиллаштириш	121
Achilov K. XVI-XIX asrda Buxoro xonligi va Rossiya davlati o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning xususiyatlari	125
Б.Норбекова Оилада болалар ва ўсмирларнинг этнопсихологик хусусиятларини шакллантиришнинг психологик самарадорлиги	127
Sh. Xudoyberdiyev XXI asr boshlarida Rossiya Federatsiyasining ichki va tashqi siyosati .	131
Болтаева М.Ж. Тарих ўқитувчиларида тарихий идеалларга доир билимларни ривожлантиришнинг ахамияти.....	136
Эшмуратова Д.У. Теолингвистика замонавий фан сифатида.....	139
А.М.Шодмонкулов Определение продолжительности сушки хлопка-сырца в зависимости от числа оборотов барабанной сушилки	141
Almatova Z.X. Ekologik madaniyatning rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida tutgan o'rni.....	143

**ЛОТИН ВА ЮНОН МОРФЕМАЛАРИНИ СЕМАНТИК СИНФЛАР
БЎЙИЧА АЖРАТИШ МЕЗОНЛАРИ ВА ТАҲЛИЛ ПРИНЦИПЛАРИ**

Абраева Шахноза Эсоновна

Тошкент Тиббий Академияси

Ўзбек ва хорижий тиллар кафедраси ўқитувчиси

abravevashaxnoza1990@gmail.com

Аннотация. Мазкур мақолада француз тили тиббий терминологиясида лотин ва юнон морфемаларининг қўлланилиши ва семантик синфларга ажратиши мезонлари хусусида фикр-мулоҳаза юритилган.

Калит сўзлар: термин, тиббий атама, синонимик морфема, француз тили, лотинча ва юнонча сўзлар, тизим, элемент.

Аннотация. В данной статье рассматриваются критерии употребления латинских и греческих морфем во французской медицинской терминологии и их классификация по семантическим классам.

Ключевые слова: термин, медицинский термин, синонимичная морфема, французские, латинские и греческие слова, система, элемент.

Ҳар бир замонавий фанлар ўз терминологиясида классик тилларнинг элементларини самарали ишлатадилар. Нутқнинг ҳар хил даражаларида лотинча ва юнонча элементларнинг концентрацияси бир хил эмас, морфемалар нутқда кўпинча морфеманинг ўзи ва ўзи учрайдиган кичик соҳа тили билан боғлиқ турли функционал вазифани бажаради.

Морфемаларнинг нутқда қўлланилишининг фарқ қилувчи белгилари уларни семантик синфларда таҳлил қилганда кўринади, олинган натижалар тадқиқ қилинаётган морфемаларнинг кичик соҳа тиллари ва даражалар бўйича кўрсаткичлари каби муҳим аҳамиятга эгадир.

О.С.Ахманованинг таъкидлашича: “Морфема морфологик даражадаги бирлик сифатида ушбу тилнинг моделлари бўйича ифода тизимининг энг кичик ва мунтазам қайта тикланадиган, мазмун тизимининг тегишли элементи билан ўзаро боғлиқ бўлган бирлигидир”. (Ахманова О. С., 16, 240-бет).

Туб морфемалар семантик нуқтаи назардан сўзнинг ядросини ҳосил қилади; деривацион морфемаларга қарама-қарши ўлароқ улар сўз ясада ҳаракатчанлиги билан характерланадилар яъни ўнг ёки чап валентликларга эга бўлишлари (gastroscopie, épigastre) ёки оралик позицияни эгаллашлари мумкин (epigastralgique). Улар фақат туб морфемалар билангина эмас, балки аффиксал морфемалар билан ҳам муваффақиятли бирга қўшиб ишлатилишлари ҳам мумкин (масалан, bradycardique, endocardique, épícardique, péricardique, sténocardique, tachycardique, transmyocardique,

extracardiaque, juxtacardiaque, mésocardiaque, rétrocardiaque, sténocardiaque, supracardiaque, tonicardiaque, intracardiaque).

Биз маънолари умумлаштирувчи тушунчалар билан бирлашадиган (масалан, ҳаракат, замон, макон ва ҳ.к.) сўзларнинг ёпиқ лексик-семантик гуруҳларини семантик синфлар деб атаймиз. У ёки бу морфеманинг маълум семантик синфда пайдо бўлиши унинг муҳити билан боғлиқ. Сўзларни у ёки бу семантик синфга киритишнинг мезонлари бўлиб сўзнинг мантиқий-предметли мазмуни ва маълум сўз туркумига тегишлилиги хизмат қилади.

Отлар 17 та семантик синфлар, сифатлар - 14 та, феъллар - 11 та ва равишлар 2 та семантик синфлар бўйича тақсимланган.

1. Отларнинг семантик синфларига қуйидагилар киради:

а) аппарат ва приборлар номлари (carburateur),

б) касалликларнинг (multinévrite),

в) ўлчов бирликлари (calorie),

г) моддалар (antiglobuline),

д) микроорганизмлар ва ҳужайралар (entérocoque),

е) фан ва техника соҳалари (endocrinologie),

ж) органларнинг ва тана аъзоларининг (endocarde),

з) симптомлар (bradysphygmie),

и) ўсимликлар (chenopode), шунингдек,

к) касб эгаси ва мутахассислар (anatomy-pathologiste),

л) метод ва медицина кўриги натижаси (hémoculture),

м) сифат кўрсаткичи (perméabilité),

н) бирор нарсага белгиланганлик (anti-rein),

о) умумлашганлик ва жамланганлик (collection),

п) таркибий қисмнинг (hémococoncentration) семантик синфлари, шунингдек, отларнинг семантик синфларига юқорида келтириб ўтилганларни барчаси киради.

2. Сифатлар касалликларнинг номларига тегишли бўлган сифатларнинг семантик синфларига тақсимланди, масалан, а) инсон органлари ва тана аъзолари (cutane, phlébitique), б) моддалар (séro-hématique), в) фан ва техника соҳалари (medico-chirurgical), г) органларнинг симптомлари (pseudo-tumoral), д) тўқима ва ҳужайралар (cytomégalique) номларига тегишли бўлган сифатлар киради.

3. Гапириш ва нутқий хабар бериш феъллари семантик синфларга кирадилар.

4. Равишлар: а) аслий (radicalement) ва б) темпорал (post-opératoirement) равишлар семантик синфлар бўйича тақсимланади.

Семантик синфларни шакллантириш морфемаларнинг у ёки бу семантик синфда квантитатив концентрациясини ва ўртача кўрсаткичдан четга чиқишини кореллятив вазифа ёрдамида лотинча ва юнонча морфемалардан алоҳида аниқлаш имконини берди. Шунингдек, таҳлил қилинаётган бирликларнинг морфологик бўлинишини ҳисобга олиб, у ёки бу семантик синфга кирувчи морфемаларнинг аниқ сони ажратиб олинади.

Лотинча элементларнинг юнонча элементларга қараганда сўз яшаш характеристикалари сўз ҳосил қилишнинг статистик характеристикалари билан чегараланиб қолинса, талабга тўла жавоб берадиган бўлмайди. Тадқиқ қилинаётган элементлар нимани ҳосил қилади? – деган саволга тадқиқ қилинаётган лотинча ва юнонча морфемаларнинг квантитатив таҳлилини ҳисобга олиб, отларни, сифатларни, феълларни ва равишларни семантик синфларга таснифлаш ёрдамида жавоб бериш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. ПОРЕЦКИЙ Я. И. Элементы латинского словообразования и современные языки. - Минск: 1977. - 123 с.
2. DECKERS M.-C. Le vocabulaire de Theilhard de Chardin. Les éléments grecs. - Gremloux: Duculot, 1968. - 212 p
3. KOSTITCH A. Le problème de la terminologie médicale. - La Presse médicale, 1971, N1, p.20.
4. БЕЖЕНАРЬ Г.И. Структурно-семантическая характеристика французских медицинских терминов: Автореф. дисс. ...канд. филол. - Л., 1973. - 20 с.

ИНВЕСТИЦИЯ ФАОЛИЯТИНИ ИСЛОМ МОЛИЯ ИНСТРУМЕНТЛАРИ ОРҚАЛИ МОЛИЯЛАШТИРИШ ТАМОЙИЛЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ

Байжанов Дамир Сарсенгалиевич

Қорақалпоқ давлат университети мустақил изланувчиси
rimad8448@yandex.ru

Бугунги кунда исломий молиялаштириш бутун дунёда, шу жумладан мусулмон бўлмаган мамлакатларда ҳам машҳурликка эришган самарали воситага айланмоқда. Йирик молия бозорлари исломий молиялаштириш аллақачон глобал молия тизимига қўшилганлигини ва ўта қашшоқликни тугатиш ҳамда умумий фаровонликни ошириш муаммоларини ҳал қилишда ёрдам беришини исботламоқда.

Исломий молиялаштириш адолатли, кафолатли, ахлоқий, барқарор, экологик ва ижтимоий масъулиятли молиялашдир. Пул билан ишлашнинг

бундай шакли асосан рискларни тақсимлашга ёрдам беради, молия секторини реал иқтисодиёт билан боғлайди ва молиявий интеграция ва ижтимоий таъминот муҳимлигини таъкидлайди.

Исломий молиялаштириш мамлакат инвестиция фаолиятининг ривожланишига ва молиявий интеграцияни кенгайтиришга хизмат қилади.



1.2 – расм. Инвестиция фаолиятида исломий молиялаштириш тамойиллари

Исломий молиялаштириш тизимининг асосий тамойилларидан бири молиявий битим бўйича рибо (фоиз) олиш ва тўлашнинг тақиқланиши ҳисобланади. Рибо атамаси ҳар қандай қизиқиш шакллари қамраб олади ва фақат судхўрлик ёки ҳаддан ташқари қизиқиш билан чекланмайди. Шунининг ёдда тутиш керакки, исломий ҳуқуқ пулни ва пул воситаларини товар эмас, фақат айирбошлаш воситаси деб қабул қилади.

Демак, ҳар қандай фойда активга ёки иштирокка ва қўшма корхонада рискни қабул қилишга боғлаб қўйилган бўлиши лозим. Соф қарз қимматли қоғози «активлар билан боғлиқ» қимматли қоғоз билан, реал активни тўғридан-тўғри молиялаштириш, энг мақбул улуш асосида молиялаштириш бўлган турли ҳамкорлик шакллари билан алмаштирилади.

Фоизлар тақиқланишидан ташқари, молиявий операцияларга таъсир этиши мумкин бўлган яна бир нечта муҳим қоидалар бор. Улар қаторига «ғарар» (ахборот носимметрияси ёки ноаниқлиги), «майсир» (қимор ўйинлари, чайқов), дунёпарастлик, шунингдек тақиқланган товарлар (масалан, чучқа гўшти ва спиртли ичимликлар) билан савдо қилиш тақиқланиши киради.

Исломий молиялаштиришнинг ўзига хос муҳим хусусиятларидан бири – воқеликдаги (реал) активлар асосида молиялаштиришдир. Молиявий соҳанинг оддий капиталистик концепциясида банк ва молиявий муассасалар фақат пуллар ва монетар мажбуриятларни сотиб оладилар ва сотадилар. Бошқа томондан ягона илоҳга эътиқодда пуллар савдо предмети сифатида тан олинмайди. Пуллар ўзича ҳеч қандай қийматга эга эмас, у фақат

алмашинув воситаси, товар ёки хизматнинг пулдаги эквивалентидир. Қандайдир қийматга эга бирон нарса пулга сотилса ёки турли валюталар бири-бирига алмашганда, фойда пайдо бўлади. Пуллар (бир валютада) ёки уларнинг ўрнини босувчи қоғозлар билан кредитқарз амалиётлари натижасида олинган фойда ўзида пуллик қўшимча қийматни ифодалайди, демак, у ман этилган ҳисобланади.

Исломий молия тузилишига кўра тижорат ва ижтимоий ислом молиясига бўлинади. Ислом тирожат молияси ҳам ўз навбатида ислом банклари, ислом инвестиция фондлари, такофул ҳамда сукукни ўз ичига олади. Ҳозирги кунда ислом банклари нафақат мусулмон мамлакатларида балки, номусулмон мамлакатларда ҳам ўзининг ҳалол иш фаолияти билан қизиқиш уйғотмоқда.

Мамлакатимизда ислом молия инструментларининг жорий этилиши хорижий инвестициялар ҳажмининг ошиши ҳамда банк ва молия тармоғида шаффоф рақобат муҳитини яратиш имкониятини беради. Натижада аҳолининг молия бозоридаги фаоллиги ошади, аҳоли ва тадбиркорлар ихтиёрида бўлган бўш пул маблағлари мамлакат иқтисодиёти ривожланишида максимал иштирок эта олиши имконияти яратилади, капитал бозорининг ривожланишига туртки бўлади, янги молиявий муассасалар ташкил қилиш имконияти яратилади.

Бугунги кунда исломий молиялаштириш анъанавий молиялаштиришнинг деярли барча инструментларидан фойдаланмоқда. Улар саноат, аграр сектор, тижорат ва хизмат кўрсатиш соҳаларига катта маблағлар инвестиция қилмоқда.

Мазкур исломий молиялаштириш қуйидаги тамойиллар асосида фаолият юритади.

Мушорака – шерикчилик асосида, яъни банк ва тадбиркор томонидан лойиҳани биргаликда амалга ошириш. Ислом банкларида амалга ошириладиган банк операцияларининг мушорака турида банк молиялаштиришдан кўзлаган мақсад муайян фоиз олиш эмас, балки олиниши керак бўлган фойдада иштирок этишдир.

Мушоракада олинган фойда қуйидагича тақсимланади:

- фойданинг бир қисми иш ҳақи, бошқарув ёки лойиҳани амалга оширишдаги бошқа иштироки учун шерикка ажратилади;

- фойданинг қолган қисми эса шериклар, яъни банк ва тадбиркор ўртасида лойиҳага тикилган маблағнинг нисбатига кўра пропорционал равишда тақсимланади,

Бирок, шуни таъкидлаш жоизки, иш натижаси зарар билан якунланса, у ҳам шериклар ўртасида молиялаштиришдаги иштирокига кўра пропорционал равишда тақсимланади.

Тадбиркор лойиҳа ташаббускори бўлгани боис, менежментни ўз қўлига олади. Банк эса шартномага қатъий риоя қилган ҳолда лойиҳанинг бажарилишини назорат қилиб боради. Бу билан у ўзи ва шериги томонидан иш учун тикилган капитални ҳимоя қилади.

RIVOJLANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA QONUN USTUVORLIGI

Nurullayeva Laylobonu Shavkat qizi

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti talabasi

Annontatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimiga oid islohotlar, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, islohotlar va qonunlarning qonun tizimidagi mavqei muallif tomonidan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Uchinchi Renessans, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, qonun ustuvorligi, huquq tizimi, adolat va haqiqat g‘oyasi, fuqarolik jamiyati va hokazo.

*“Qayerda qonun hukmronlik qilsa,
o‘sha yerda erkinlik bo‘ladi.”¹
(Amir Temur)*

Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan islohotlarni yodga olar ekanmiz, mustaqillikning zaminida yurtimizda yangi demokratik qadriyatlar ildiz otganini, inson huquqlari, erkinliklari va uning burchlarini ta‘minlashga qaratilgan huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatiyati shakllanganini qayd qilish lozim. Prezidentimiz aytganidek, *“Adolat va haqiqat g‘oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarini qamrab olmog‘i lozim. Adolat va haqiqat g‘oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo‘nalishi bo‘lmog‘i shart”*.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta‘minlashga, fuqarolar huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Sud-huquq tizimi yangidan isloh qilindi. Insonlar hamma narsaga chidashi mumkin, adolatsizlikka chiday olmaydi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov boshchiligida keng ko‘lamli islohotlarni hayotga tatbiq etish, ularning samaradorligini va amaldagi kuchini yuksaltirishda qonuniy asoslarni mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar mamlakatimizning har tomonlama taraqqiy etishiga xizmat qilib kelmoqda. Davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish

¹ “Temur tuzuklari”. Milliy davlatchiligimiz tarixining mumtoz namunasi. B.Ahmedov, A.Ahmedov

bo'yicha qilingan ishlar dunyo hamjamiyatining ham yuksak e'tirofiga va e'tiboriga sazovor bo'lmoqda.

Keyingi yillarda davlatimizda islohotlar o'z mevalarini berib, O'zbekistonda Yangi uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor qo'yilmoqda. Bu yangilanishlar aynan sud-huquq tizimining samarasini oshirishga qaratilgani muhim ahamiyatga egadir. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi² ikkinchi yo'nalishi “mamlakatda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish”da quyidagi 8 ta maqsad belgilab qo'yilganligi bejizga emas.

- Mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash;

- Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezon sifatida belgilash;

- Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik subektlarining odil udlovga erishish darajasini oshirish;

- Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish;

- Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlarini, qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish;

- Sud va boshqa organlar hujjatlarining o'z vaqtida va to'liq ijrosini ta'minlash;

- Advakatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish;

- Faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar o'rtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish.

НИНАБАРГЛИ ДАРАХТЛАРДАГИ ЁШ НИХОЛЛАРИДАН АНИҚЛАНГАН ЗАМБУРУҒЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ

Сиддиқова Нодира Камилджановна

*Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти
Ўрмонлар МДХ давлатларининг энг муҳим табиий бойликларидан биридир.*

² “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son.

МДХ Статистика қўмитаси маълумотларига кўра, МДХ давлатларининг ўрмон майдони 930 миллион гектардан ошади, шу жумладан 886 миллион гектардан ортиғи - Россия Федератсияси ўрмонлари (дунё ўрмонларининг қарийб бешдан бир қисми).

Ушбу улкан ресурслардан самарали фойдаланиш МДХга аъзо давлатларнинг барқарор ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг, МДХ доирасидаги ўзаро ҳамкорликни такомиллаштириш ва интеграция алоқаларини кенгайтиришнинг муҳим таркибий қисмига айланиши мумкин ва бўлиши керак.

МДХ Давлат статистика қўмитасининг 2011-йил 9 ойлик маълумотларига кўра, ёғочни қайта ишлаш ва ёғоч маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажми 2010 йилнинг шу даврига нисбатан 9,6 фоизга, Беларус Республикасида 6,5 фоизга ошган. Қозоғистон-10%, Қирғизистон - 8%, Молдова Республикаси – 3,5%, Россия Федератсияси – 5,7%.

(<https://e-cis.info/cooperation/2905/77126/>)

Беларус ўрмонлари 8 миллион гектарни ёки унинг ҳудудининг 38,3 фоизини эгаллайди. Мамлакат табиий ландшафтининг энг катта ва функционал жиҳатдан муҳим қисми; экологик мувозанат ва барқарор ривожланишнинг зарур омили. (<https://lesprominform.ru/jarticles.html?id=4343>)

Кавказ ва Марказий Осиёнинг саккизта мамлакатларидаги ўрмонлар ва бошқа ўрмон эрларининг умумий майдони 30 миллион гектарни ташкил этади, бу Италиянинг майдонига тўғри келади. Кавказдаги ўрмонлар ҳудуднинг 15% дан камроғини, Марказий Осиёда эса 10% дан кўп бўлмаган қисмини эгаллайди.

Республикада Ўрмон хўжалиги тизимида 7 та вилоят марказий ўрмон хўжаликлари ва уларнинг таркибида 54 та ўрмон хўжалиги, 8 та мустақил ўрмон хўжалиги, 8 та махсус ўрмон хўжалиги, 6 та қўриқхоналар, 5 та ов хўжалиги, 1 та миллий табиий боғ ва 21 ишлаб чиқариш участкалари мавжуд.

Ҳар йили республика ўрмон фонди ерларида 42 минг гектар майдонида янги ўрмонзорлар барпо этилмоқда.

Кейинги йилларда уруғдан сепиб маданий ўрмонзорлар барпо этиш яхши самара бермаётганлиги сабабли кўчатдан экиш усули кенг қўламда қўлланилмоқда. Бу ўз навбатида ўрмон билан қопланган майдонга ўтказишни таъминлашда яхши натижа бермоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони: Республикамиз ўрмон ресурсларининг бой салоҳиятидан тўла-тўқис ва оқилона фойдаланишни таъминлаш, ўрмон хўжалиги бошқарув тизимини янада такомиллаштириш, ривожлантириш мақсадида: **Ўзбекистон Республикаси**

Ўрмон хўжалиги давлат қўмитасини ташкил этиш тўғрисида. (2017 йил 11 май ПФ-5041). Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 19 июлдаги 530-сон қарорига асосан Ўзбекистон Республикаси Ўрмон хўжалиги давлат қўмитаси тўғрисида НИЗОМ қабул қилинган.

Лекин манзарали нинабаргли дарахт ва буталарда ташқи омиллар таъсири натижасида патоген микроорганизмлар таъсирида хар хил касалликлар ривожланиши кузатилмоқда. Бу эса ўсимликларни манзарарилик хусусиятларининг пасайиши, умрининг қисқариши ҳамда айрим замбуруғ турларининг атроф мухитга спораларини чиқариши оқибатида инсонлар саломатлигига ҳам маълум маънода рахна солиши мумкин. Бунга сабаб ҳозирги фан ва техника ривожланишининг революцияси даврида ўсимликлар дунёсига антропоген, техник омиллар, микроорганизмлар салбий таъсири доираси кенгайиб бораётганлиги оқибатида ўсимликлар ривожланишида стресс ҳолатларни келтириб чиқармоқда.

Ҳозирги экологик шароитда, антропоген омилларнинг экотизимга таъсири йилдан-йилга ортиб бораётган бир даврда, сапротроф замбуруғ вакилларининг паразитлик хусусияти кучайиб бормоқда. Бу жараён замбуруғнинг янги шакллари ҳосил бўлишига ва фитопатоген хусусиятларини ўзгаришига сабаб бўлмоқда.

Манзарали ўсимликлар микобиотасига оид айрим маълумотларни биз Н.И.Гапоненко (1959) олиб борган микологик тадқиқотлари «Очерк микологической флоры низовьев Амударьи»да муаллиф 28 тур ҳақида маълумот берган, 1965 йилда Бухоро вилояти худуди бўйича олиб борган тадқиқотларида 19 тур, 1963 йилда Т.С.Панфилова и Н.И.Гапоненко (1963) томонидан «Микофлора бассейна р.Ангрен» монографияси чоп этирилиб 47 тур, Ф.Г.Ахмедова томонидан жанубий-ғарбий Тянь-Шан (1960) микофлораси ўрганилиб 40 тур, Т.К.Роткевич (1960) томонидан Туркистон тизмасининг шимолий қисми (Гуралаш кўриқхонаси) микофлораси ўрганилиб 21 та тур рўйхатга олинган. Бу маълумотларнинг ҳаммаси Флора грибов Узбекистана (1983-1997) монографияларида чоп этирилган.

Кейинчалик микологик тадқиқотларни С.Я.Солиева [1989, 3-21с.] Сурхондарё вилоятининг юксак ўсимликлар микромицетларида ўрганган. Илмий изланишлари давомида 4 синф, 9 тартиб, 19 оила, 82 туркум, ва 352 тур ва формаларни аниқлаган. Булардан Ascomycetae 136 тур, Deuteromycetae 122 тур, Basidiomycetae ва Oomycetae 84 турни аниқлаган. Ўрганилган микромицетлардан 2 тур фан учун, 2 туркум ва 27 тур Ўзбекистон микобиотаси учун илк бор аниқланган.

Республикамиз миколог ва фитопатолог олимлар томонидан чоп этилган илмий адабиётларни таҳлил қилиш натижасида шу нарса маълум бўлдики, айнан нинабаргли ўсимликларнинг биохилма-хиллиги, тур таркиби ва уларнинг географик тарқалиши, экологик хусусиятлари ҳамда касалликларига оид маълумотлар тўлиқ эмас. Нинабаргли дарахтлар шаҳар кўчалари ва хиёбонларига кўрк ва чирой беради, атроф - мухит мусаффолигини сақлайди. Лекин, бу вегетация давомида Нинабаргли дарахтлар ҳашаротлар ва патоген микроорганизмлар таъсирида зарарланиб, манзаралилик хусусиятлари ёмонлашиши ёки уларнинг бутунлай нобуд бўлиш ҳоллари кузатилмоқда. Ўзбекистоннинг тоғли ҳудудларида дарахт ва буталарда учрайдиган облигат паразит ва факультатив паразит замбуруғлардан 120 тури аниқланган. Улардан *Deuteromycetas* синфига мансуб 57 тур, *Basidiomycetas* 43 ва *Ascomycetas* синфига мансуб 20 та турлар қайд этилган [58; 248-260-б.].

Фарғона водийси нинабаргли дарахт ва буталарда Pleosporales тартиби вакилларига мансуб 3 тур учраши аниқланди. Бу тартибининг вакилларида Pleospora туркуми турлари сон жиҳатдан устун бўлиб, 16 тур учраши кузатилди. Бу тур замбуруғлар ўсимликларни барги, пояси ва қуриган ўсимлик шоҳларида учраши аниқланди. *Pleospora* туркумларидан 2 та тури учраши қайд этилган. Бу туркум вакилларида Pleospora sp. *P.vulgaris* Nees. турлари сапрофит замбуруғлар бўлиб, кўпинча дарахт ва бутларнинг қуриган танасида учраши кузатилди.

Botryo sphaeriales тартиб вакиллари ҳудудда 1 туркумга мансуб 1 тур учраши қайд қилинган. Бу тур *Pinus eldarica* Medw ўсимлигида учраши қайд этилди.

Олинган маълумотларни ўрганиш асосида турли касалликларнинг учраш даражасида эътиборли фарқлар мавжуд. Ушбу *Alternaria infectoria*, *Cladosporium pini*, *Fusarium oxysporum* ва *F. Solani*, *Pythium debaqrrianum* (кўчатхоналарда), *Phoma juniperi* (Desm.) Sacc., *Ph. inopinata* Oudem., *Gymnosporangium confusum* Plowr., *Cronartium flaccidium* Wint. турлар ҳар йили учраши сабабли, ушбу касаллик қўзғатувчи турларни кенг тарқалган турлар гуруҳига киритишимиз мумкин.

Юқоридаги маълумотларга асосланиб, биз патоген турларнинг тарқалиш ва биоэкологик хусусиятлари тўғрисида ҳулоса қилишимиз мумкин.

Тадқиқотларимиз давомида нинабаргли дарахтларнинг экилган уруғлари ҳамда униб чиққан ниҳолларида касаллик қўзғатувчи 3 та синф, 4 та тартиб, 5 та оила, 9 та туркумга мансуб 13 та замбуруғ турлари аниқланди (1-жадвалга қаранг).

жадвал 1.

Нинабаргли дарахтларнинг экилган уруғларидан униб чиққан ёш
ниҳолларидан аниқланган замбуруғларнинг таҳлили

Замбуруғларнинг систематик гуруҳлари				
Синф	Тартиб	Оила	Туркум	Тур
Oomycetes	Peronosporales	1	1	1
Deuteromycetes	Hyphomycetales	6	5	7
	Acervulales	1	1	2
Coelomycetes	Sphaeropsidales	1	2	3
3	4	5	9	13

Жадвал маълумотларига асосан уруғ ва ёш ниҳолларда энг кўпчилик замбуруғ турлари Hyphomycetales ва Sphaeropsidales тартибига мансуб бўлиб, улардан 12 та тур сўлиш, чириш, касалликларини кўзгатади, кейин 8 та тур доғланиш касалликларини ва бошқа касалликларни кўзгатувчи замбуруғларнинг 3 турдан иборатлиги қайд этилди.

Замбуруғларнинг синфлар бўйича тақсимланишига эътибор қиладиган бўлсак, энг кўпчилик турлар Deuteromycetes синфи вакиллари бўлиб, улар 1 тартиб, 2 оила, 8 туркумга мансуб, 11 турдан иборат эканлиги қайд этилди.

Уруғ ва ниҳолларда ҳавфлиги жиҳатдан энг муҳим чириш касаллиги бўлиб, бу касалликни *Fusarium oxysporum*, *F. solani*, *Altenaria altemata*, *Botrytis cinerea*, *Verticillium dahlia* ва *Pythium debarianum* каби замбуруғ турлари кўзгатиши қайд этилди. Айниқса ушбу касаллик туфайли қрим қарағайи уруғлари унувчанлиги 70% гача камайиши, ниҳоллар эса 90% нобуд бўлиши қайд этилди.

Хулосалари. Уруғ ва ниҳолларда ҳавфлиги жиҳатдан энг муҳими чириш касаллиги бўлиб, бу касалликни *Fusarium oxysporum*, *Sporotrichioides*, *Altenaria altemata*, *Botrytis cinerea*, *Verticillium dahlia* ва *Pythium debarianum* каби замбуруғ турлари касаллик кўзгатади. Энг кенг тарқалган касаллик қарағай ва қора қарағайда доғланиш касаллиги бўлиб, уларда 14 тадан 16 тагача замбуруғ тури иштирок этади. Олинган натижаларга асосан илдиз чириш касаллигининг ривожланиши Қрим қарағайи ниҳолларида апрель охиридан май ойларида кучли бўлиши кузатилади.

Фойдаланган адабиётлар

1. Билай В.И. Фузарий–Киев: Изд. АНУ, 1977. 441 с.
2. Киргизбаева Х.М., Сагдуллаева М.Ш., Рамазанова С.С., Гулямова М.Г., Кучми Н.П., Азимходжаева М.Н., Салиева С.Я. Флора грибов Узбекистана Т. VIII. Пикнидиальные грибы.–Ташкент: Фан, 1997,-190 с.

3. Солиева Я.С. Микробиоты сосудистых растений Сурхандарьинской области.: Автореф. дис... канд. биол. наук.–Ташкент, 1989.-21 с.
4. Камилов Ш.Г., Нуралиев Х.Х., Сиддкова Н.К., Микобиота семян хвойных культур в условиях Андижанской области. “Агро кимё ҳимоява ўсимликлар карантини” илмий-амалий журнал. № 5. 128-129 бет. Тошкент. 2020 йил.
5. Камилов Ш.Г., Сиддкова Н.К. Защита сеянцев хвойных культур от корневой гнили Защита растений и карантин. Международный научный журнал. № 5. 17-19 стр. 2020 год. Россия.
6. Камилов Ш.Г., Сиддкова Н.К. Мирзайтова М.К., Абдуллаева Г.Д. Fusarium Oxysporum And Dealing With Them. Palarch's Journal Of Archaeology Of Yegypt/Yegyptology 17(6), 1-14. (skobus) 3658-3661pega.

AKSONOMETRIK PROYEKSIYALARNI HOSIL QILISH APPARATI VA UNDAN FOYDALANISH

K.G.Malikov

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Аннотация. Ушбу мақолада илк бор ишлаб чиқилган аксонометрик проекцияларни қонуний ҳосил қилиш модели-аппарати баён қилинган. Бу аппарат олдан-асосий кўринишдаги координата ўқлари (OX, OY, OZ)дан, V текислик билан устм-уст олинган аксонометрик текисликдан ва OY ўқни ҳаракат (ХОУ-Н ва YOZ-W координаталар текисликларининг биссектор) текислигидан иборат.

Калит сўзлар: Аксонометрия, стереометрия, коэффициент, график.

Аннотация. В данной статье изложен, разработанный впервые модель-аппарат образования закономерной аксонометрической проекции. Этот аппарат состоит из координатных осей (OX, OY, OZ) главного вида, аксонометрической плоскости, совмещенной с фронтальной плоскостью проекций, а также биссекторной плоскости относительно H и W, как плоскость движения оси OY.

Ключевые слова: Аксонометрия, стереометрия, коэффициент, графика.

Annotation. In given article is stated designed for the first time model-device of the reception natural axonometric to projections. It consists of coordinate arises (OX, OY, OZ) main type, axonometric to planes, combined with frontal plane of the projections, as well as bisectornoy to planes of the planes H and W, as plane of the motion to axis OY

Key words: Axonometry, stereometry, coefficient, graphics.



Ushbu maqolada ilk bor ishlab chiqilgan aksonometrik proyeksiyalarni hosil qilish apparati va undan foydalanib standart aksonometriyalarni hosil qilish qonuniyatlari hamda bu model OY o'qni XOZ burchakning (H va W tekisliklarning) bissektor tekisligida H , V va W tekisliklar tizimi bilan aksonometrik tekislikka nisbatan og'irib harakatlantirish jarayonidan iboratligi, bu jarayonda OX , OY va OZ o'qlarni o'zgarish koeffitsiyentlarini va ular orasidagi burchak qiymatlarini, OY o'q bilan aksonometrik tekislik orasidagi burchakka nisbatan o'zaro bog'lanish diagrammasi-grafigi mavjudligi, va bu diagrammadan foydalanib, aksonometriyaning asosiy parametrlarini grafik usulda aniqlash nazariy va amaliy ishlab chiqildi.

Biz o'z tadqiqotlarimizda, agar aksonometrik proyeksiyalarning hosil bo'lish qonunlarini, ya'ni o'qlari orasidagi burchak va o'qlar bo'ylab qisqarish (o'zgarish koeffitsiyentlari) qiymatlarini grafik usul bilan aniqlash modeli-apparatini ishlab chiqishga erishsak, o'quvchi va talabalarning bu mavzuning mazmun hamda mohiyatini o'zlashtirishlari oson va qulay kechadi degan ilmiy farazni ilgari surib izlanish va tadqiqotlarimizni olib bordik. Buning uchun:

1. Fazodagi aksonometrik Pak tekislik sifatida frontal proyeksiyalar-oldan ko'rinish tekisligiga parallel yoki u bilan qo'shib qolgan tekislik olinadi: $V \parallel Pak$ yoki $V \equiv Pak$.

2. Aksonometrik proyeksiyalarni hosil qilishda ko'rsatmalilikni ta'minlash maqsadida, nuqta o'rnida hajmli geometrik figura kubning oldan ko'rinishi, ya'ni bosh ko'rinishi olindi. Bunda kordinatalar o'qi 1-rasmdagidek, $OX = OY = OZ = 100$ mm; OY o'q V ga, ya'ni aksonometrik Pak tekislikka perpendikulyar bo'lgani uchun u nuqtaga tasvirlanadi.


Proyeksiyalash yo'nalishi XOZ tekislikning bissektor tekisligida yotib, aksonometrik tekislik Pak ga, ya'ni V ga perpendikulyar bo'ladi. 1-rasmda uning izi V_V tasvirlangan. 2-rasmda XOZ tekislikning bissektor tekisligiga perpendikulyar yo'nalishda koordinata o'qlari, aksonometrik va V tekislik yon boshdan tasvirlangan.



Agar OY o'qni 3-rasmdagi Y_1 yoki Y_2 yoki Y_3 yo'nalishlarda aksonometrik, ya'ni V ga nisbatan og'irilsa, ikki o'lchamli kubning tekis tasviri yaqqol hajimli tasvirga, ya'ni aksonometrik proyeksiyaga o'tib qoladi (4, 5 va 6- rasmlar). Ya'ni uchchala OX , OY va OZ o'qlar aksonometrik tekislikka tasvirlanib qoladi va bu o'qlar bo'ylab tasvirdagi obyektlarning hajmiy xususiyatlari uning rasmdagidek osongina anglab yetiladi-o'qiladi.

Agar o'qni Y_1 yo'nalish bo'ylab og'irilsa, u XOZ tekislikning bissektor tekisligida yotganligi uchun OX va OZ o'qlar aksonometrik tekislikka teng burchaklarda og'ib (ularni 3-rasmda kuzatish mumkin), teng o'zgarish koefitsiyentiga va ularni OY o'q bilan hosil qilgan burchaklari ham teng bo'ladi. Bunday holni 4-rasmda keltirilgan kubning yaqqol tasvirida ko'rish mumkin.

Bunda OY o'q Y_2 yoki Y_3 kabi o'ng yoki chap yo'nalishlar bo'ylab og'irilganda, birinchi bobda ta'kidlanganidek, trimetriya, ya'ni koordinata o'qlari aksonometriya tekisligiga turli burchaklarda og'ib, turlicha o'zgarish koefitsiyenti va oraliq burchaklar hosil qiladi:



Agar $\beta = 0$ bo'lsa, ya'ni OY o'qni aksonometrik tekislikka nisbatan og'irish burchagini 90 gradusdan, har 10 gradusga 0 gacha kamaytirib borilsa, u aksonometrik tekislikda joylashib qoladi. Oqibatda $Y = 100$ mm va $X = Z$ lar 70,71 mm bo'lib aksonometrik tekislikka tasvirlanib qoladi.

Adabiyotlar

1. Murodov Sh., Tashimov N. Grafik tasvirlash asoslari (grafika tarixi). O'quv qo'llanma, 8-12 va 36-40 b. T. 2013 y. TDPU, 225 bet
2. Shah M. B., Rana B. C. Engineering Drawing. India, Sai Print-O-Pack Pvt. Ltd., 2011.
3. – P. 345-355, 567 p.
4. Михайленко В. Е., Пономарев А. М. Инженерная графика. Киев: “Вища школа”, 1985. – 293 с.
5. Кузнецов Н.С. Начертательная геометрия. Учебник. 2-е изд., перераб. и доп. М.: “Высшая школа”, 1981. – 262 с.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Омонбоева Мухлиса

Магистрант 2-го курса Андижанского Педагогического института

Аннотация. в статье рассматривается использование информационно-коммуникативных технологий в учебно – воспитательном процессе у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: дошкольный возраст, техника, информатизация, информация, компьютер, процесс.

Использование информационно-коммуникативных технологий в учебно-воспитательном процессе у детей дошкольного возраста — это одна из самых новых и актуальных проблем в дошкольной педагогике. Специфика введения персонального компьютера в процесс воспитания дошкольников в нашей стране состоит в том, что компьютеры сначала используются в семье, далее в детском саду (при условии, что они есть) — в условиях коллективного воспитания. Использование компьютера как средства воспитания и развития творческих способностей ребенка, формирования его личности, обогащения интеллектуальной сферы дошкольника позволяют расширить возможности педагога, создает базу для приобщения детей к компьютерным обучающим программам..

Развитие науки и техники, всеобщая компьютеризация определяют возрастающую роль предшкольной подготовки детей дошкольного возраста. Современные технологии передачи информации открывают перед нами совершенно новые возможности в области образования. На сегодняшний день стремительно возросла роль информационных технологий в жизни, как взрослых, так и совсем юных людей. Современный мир включился в глобальный процесс, называемый информатизацией. Этот процесс

предоставляет для каждого из нас возможность доступности к источникам информации, проникновение информационных технологий в научные, производственные, общественные сферы, высокий уровень информационного обслуживания. Данные процессы способствуют не только ускорению научно-технического прогресса, интеллектуализации всех видов человеческой деятельности, но и созданию качественно новой информационной среды социума, обеспечивающей развитие творческого потенциала ребенка. Главным направлением процесса информатизации современного общества является информатизация образования, представляющую собой систему методов, процессов и программно-технических средств, интегрированных с целью сбора, обработки, хранения, распространения и использования информации с использованием компьютера. Становится ясно, что информатизация накладывает свой отпечаток и непосредственно на деятельность людей, педагогов и детей. Перед ними открываются более широкие перспективы в получении, хранении, обработке, передаче, оформлении самой разнообразной информации. Современные исследования свидетельствуют о возможности овладения ребенком компьютером только с 5 лет. Это обусловлено сложностью умственных операций, которые приходится реализовывать ребенку в опосредованной компьютером деятельности, и психической зрелостью. Более того, чрезмерно раннее введение компьютера в жизнь ребенка способно затормозить нормальное развитие традиционных форм игры. Игра обеспечивает полноценное личностное и психическое развитие дошкольника. Наиболее правильно, если дети начнут знакомиться с информационными технологиями с помощью специально разработанных игрушечных компьютеров. С их помощью дети могут получать базовые навыки общения с настоящей информационной техникой. В условиях детского сада возможно, необходимо и целесообразно использование информационных технологий в различных видах образовательной деятельности. Занятия в детском саду имеют свою специфику, они должны быть эмоциональными, яркими, с привлечением большого иллюстративного материала, с использованием звуковых и видеозаписей. Все это может обеспечить нам компьютерная техника с её мультимедийными возможностями. При этом компьютер должен только дополнять воспитателя, а не заменять его. Конкретные практические навыки обращения с компьютером, которые должны быть усвоены детьми на занятиях, многообразны и многочисленны, поэтому полезно провести их определенную систематизацию. Применение компьютерной техники

позволяет сделать занятие привлекательным и по-настоящему современным, решать познавательные и творческие задачи с опорой на наглядность.

Список литературы

1. Беспалько В.П. Образование и обучение с участием компьютеров (педагогика третьего тысячелетия) /В.П. Беспалько. – М.: НПО «Модэк», 2002. – 274 с.
2. Горвиц Ю.М. Новые информационные технологии в дошкольном образовании /Ю.М. Горвиц, Л.Д. Чайнова, Н.Н. Поддьяков, Е.В. Зворыгина и др. – М.: ЛИНКА-ПРЕСС, 1998. – 189 с.
3. <https://moluch.ru/conf/ped/archive/98/4610/>

YANGI ÒZBEKISTON

Ergasheva Muxlisa Abdullayevna
Termiz davlat pedagogika institute
Boshlang'ich ta'lim yònalishi 1-kurs talabasi

Tursunova Saida Isakovna
Termiz davlat pedagogika institute
Boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada asosan yurt madhi, uning rivojlanishi, «Yangi Òzbekiston» ravnaqi va uning taraqqiyoti, shu kunga yetishguncha chekilgan zahmatlar qadr-qimmati, jon kuydirgan haqiqiy vatanparvarlar shanining ulug'lanishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit sòzlar: Taraqqiyot, qarorgoh, gòsha, rivojlanish,, ”Yangi Òzbekiston“, demokratiya, strategiya, uzluksiz, islohotlar, insoniyat, tabiat, ulug' ne'mat, III Renessans.

O'zbekiston zamonaviy, faol rivojlanayotgan davlat bo'lib, xalqi bu boradagi maqsad va ustuvorliklarini azaldan belgilab olgan. Bu mamlakat do'stlik mamlakatidir.

Qaysi zamoni, millatni, uning tarkibidagi odamlarni olmaylik barchasini istak xohishi - yagona òzidan iz qoldirish, òrnak sifatida avlodlarni tarbiyalashdir. Eng, avvalo barcha òtgan asr hayotini esga oladigan bòlsak, ularning mehnati, jon talvasada kurashishlarining asosini Markazlashgan davlat barpo etish tashkil etgan. Buyuk sarkardalar, jadid olimlari, sharq mutafakkirlari barcha-barchasi òsha mashhur erkinlikka, ozodlikka, òz haq-huquqlarini erkin talab qilish uchun qanchadan-qancha harakatlar qilishgan. Izlanishlar besamar ketmadi. Mustabid tuzimidan charchagan, tinch-totuv hayotni orzu qilgan xalq bor kuchi bilan vatanparvar insonlarga ishonishgan. Ana shunday tahlikali vaziyatda yurtni Mustaqillikka chorlagan, uni erkin va ozod hayot sari yetaklagan shaxs Òzbekiston

Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovdir. Mustaqillik ne'matlarini, tinch hayotni, musaffo osmonni his etar ekanmiz bu buyuk insonni tilga olmaslikning iloji yòqdir. Bu buyuk inson - Vatan ravnaqi uchun xizmat qilgan, xalqni, elni sevgan deb yashagan vatanparvar insonlardan biridir. Mustaqillikka erishgan Òzbekiston juda qiynalgan, o'g'ir ahvolda, xalqi charchagan, ruhiy, jismoniy azoblarni kòpini kòrgan edi. Ammo, Birinchi Prezidentimiz xalqni qòllab-quvvatladi, unga yuksak ishonch bildirdi, qancha qiyin bòlsa ham barcha shar-sharoitlar yaratishga urindi. Bir sòz bilan aytsak, yurtni "Yangi yurt" bòlishi uchun tamal toshini qòydi. Bu kabi ezgulik, yaxshilik arig'idan su'gorilgan xalq Vatan ravnaqi uchun sidqidildan bel bo'gladi. Hozirgi kunda bòlayotgan keng islohotlar Òzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshchiligida juda katta ijobiy natijalar bilan yaratilmoqda. Prezidentimiz mustaqil diyorni yanada ravnaq topdirish uchun uzluksiz mehnat qilmoqda. Ketma-ket qabul qilinayotgan rivojlanish strategiyalarini joriy qildi, yoshlarga e'tibor qaratdi, o'tgan mashhur allomalarimiz ruhi yod etildi, turizm sohasi rivojlandi, viloyat, tumanlarda katta o'zgarishlar ro'y berdi, kelajak avlod uchun barcha turdagi o'quv muassasalari faoliyat yurita boshladi. Bularni barchasi rivojlanayotgan yurt barpo etilishining asosidir.

XXI asr ushbu davrda yurtimizda III-Renessans,"Yangi Òzbekiston" sòzlari uy'gun va hamohang tarzda yangramoqda. Barchamizga ma'lumki, Òzbekiston diyori qadimda ikki buyuk uy'gonish davriga Birinchi (ma'rifiy-IX-XII asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar-XIV-XV asrlar) renessansga beshik bòlgan. Bu jahon ilm-fanida o'z isbotini topgan va tan olingan tarixiy va abadiy haqiqatdir. Hozirgi kunda yurtimizda III-renessans hukm surmoqda, bu davrda eng ulkan maqsadlar, ma'naviy-ma'rifiy uy'gonishlar, kelajak avlod uchun gozal Vatan barpo etishdek ajoyib ma'suliyatlar yuklangandir. Bu vaqtda buyuk allomalarimiz ruhi yod etilib,ularning yodi abadiylashtirilmoqda, mashhur asarlari dunyo yuzini kòrmoqda. Yurtimiz demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar, amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. Sòzimiz isboti qilib: maqsadning aniq qòyilganligi strategiyalarni aytishimiz mumkin. Zero, maqsadning aniqligi harakatlar samarasini ta'minlaydigan eng muhim mezondir. Bundan besh yil oldin va joriy yilda qabul qilingan ulkan maqsadlar kiritilgan strategiyalar "Yangi Òzbekiston"ni barpo etish va III Renessans poydevorini yaratishdek buyuk vazifalarning rejasi va tamal toshidir. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etish, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyat institutlarini, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamiyat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bòyicha adolatli, tizimli ishlarni amalga oshirdi. "Yangi Òzbekiston" dek buyuk

davlat ustuni mustahkam òrnatilgan adolat, keng imkoniyat, tinch-osuda hayot kabi mukammallik bilan barpo etilmoqda. Zero, buyuk Amir Temur bobomizning Shaxrisabzdagi Oqsaroy qarorgohi peshtoqiga bitilgan: “Adolat-davlatning asosi va rahbarlar shioridir” sòzlarida chuqur ma'no va mazmun mujassamdir. Shundan kelib chiqib mustaqil diyorimizda, musaffo osmonimizda adolatli davlat hokimiyati hukm surmoqda. Bundayin ajoyib: keng mamlakatda, tinch-totuv hayotda, har jabhasi gullarga burkangan boğ-u roğlarda, turli-tuman bir-biridan qiziq shaharlarda hayot kechirishimizning òzi aslida baxtdir, bu baxt uchun, eng avvalo yaratganga hamda yurtboshimizga tasannolar aytishimiz lozim. Biz kelajak avlod uruğlari yurtni asrashimiz, uning madhini yangratişimiz, ramzlarini dunyolarga tanitishimiz, qadamimizdan òq chaqnatishimiz, ota-onamizga, yurtimizga kerakli, jonkuyar, fidoyi kadr, mehribon farzand bòlmoğimiz darkor. Zero, kelajak yoshlar qòlida, yurt ustuni unib-òsib kelayotgan yosh avloddir

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M Òzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yònalishi bòyicha “Harakatlar strategiyasi”. -T.: Òzbekiston, 2017-yil
2. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch .-T.:”Ma'naviyat 2008-yil.
3. «O‘zbekiston – do‘stlik mamlakati», Tursunova Saida Isakovna, Termiz davlat pedagogika instituti. Web of Scientist: International Scientific Research Journal <https://wos.academiascience.org/index.php/index>, DOI: <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/354CX>, Vol. 2 No. 07 (2021): wos, Published: Jul 31, 2021.

АРХЕОЛОГИЯ ТАДҚИҚОТЛАРИНИНГ ЎЛКА ҚАДИМ ТАРИХИ

Rakhmatullaev Akhadulla

Jizzax davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Аннотатсия. Ушбу мақолада археология тадқиқотларининг ўлка қадим тарихи, бу масала юзасидан олиб борилган изланишлар натижаси муҳокама қилинади. Бундан ташқари ушбу мақолада “Туркистон ўлкасини бошқариш ҳақидаги Низом”нинг асосий белгилари ҳам кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: Мустамлакачилар, Туркистон, Россия империяси, истиқлол, маҳаллий бошқарув, кўчирувчилик сиёсати, доиравий жавобгарлик, ёш археологлар тўғараги.

Мустамлакачилар Туркистон халқлари турмушида нимаики уларнинг истиқболига тўғаноқ бўлса, нимаики уларни озодлик учун курашдан чалғитса, ҳаммасини қўллаб-қувватлаган ҳолда, истиқлолга хизмат қилажак барча интилишларнинг пайини қирқдилар. Россия империяси ўлкани Туркистон генерал-губернаторлиги, Бухоро амирлиги ва Хива хонлигидан

иборат уч қисмга бўлиб, туб жой аҳоли бирлиги ва сиёсий қудратини синдириш йўлида барча воситалардан фойдаланди. Минг йиллардан бери давом этиб, авлоддан-авлодга ўтиб яшаётган миллий давлатчилик ва кадриятларни йўқ қилишга қаратилган чора-тадбирларни ишга солди. «Туркистон ўлкасини бошқариш ҳақидаги Низом» ўз моҳият-эътиборига кўра шу мақсадга қаратилди. Унинг асосий белгилари қуйидагилардан иборат бўлди:

а) маҳаллий бошқарув, урф-одат ва қонун-қоидалардан миллий давлатчиликнинг барча асосларини таг-туғи билан йўқотиш;

б) ўлка турмушига буткул ёт ва бегона бўлган уезд, участка, волост каби маъмурий-ҳудудий бирликларни жорий этиш;

в) қишлоқ йиғини ва волост курултойини таъсис қилиб, сунъий тарзда қишлоқ бошқарувини ташкил қилиш;

г) сиёсий тусга эга бўлмаган барча ички бошқарувда сайлов тизимини таъсис этиш ва бу билан аҳоли «ўзини-ўзи бошқаруви»ни шаклан гавдалантириш;

д) рус ва русийзабон аҳоли нуфузини ошириш, шу мақсадда ўлка шаҳарларини «ески ва янги» қисмларга ажратиб идора қилиш;

ж) маҳаллий бошқарувга миршаб-жосуслик тусини бериб, қуйи амалдорларни итоаткор малайларга айлантириш;

е) ўлкани руслаштириш ва янги «Рус Туркистони» ни барпо этиш.

Булар мустамлака идорасининг барча бўғинларида ўз ифодасини топди.

Россиянинг Туркистондаги аграр сиёсати ўзида метрополия дворян-помешчиклари ва буржуазиясининг иқтисодий ва сиёсий манфаатларини яққол гавдалантирди. Бу сиёсатнинг бош мақсади ўлкани империя саноатининг хом ашё маконига айлантириш еди.

Империя икки ҳукмрон синф манфаатларини кўзлаб иш тутди. Аграр сиёсатда дворянлар талабига кўра Туркистон халқига тегишли ерларни зўрлик билан тортиб олди ва рус посёлкаларини барпо этди. Буржуазиянинг талабига кўра эса, қишлоқларда пахта яккаҳоқимлигини ўрнатиш учун барча зарур чора-тадбирларни амалга оширди. Россиянинг Давлат Кенгаши, Вазирлар Қўмитаси ва Давлат Думасида Туркистон ҳақида қабул қилинган қонун-қоидаларда дворян-помешчиклар ва буржуазия манфаатлари ўз аксини топди.

Санкт-Петербург ўтроқ аҳолининг ерларини қишлоқ жамоалари ва йиғинларига бириктирган ҳолда, солиқ бўйича доиравий масъулиятлик қондасини жорий этиш билан судхўрликни авж олдирди.

Империянинг кўчирувчилик сиёсати, доиравий жавобгарлик сингари, ўлка аҳолисининг ерсизланишини кучайтирди. ЧорРоссиясининг еса моддий ва сиёсий жиҳатдан нуфузини оширди.

Аграр сиёсат империянинг ҳарбий, ижтимоий ва иқтисодий сиёсатининг узвий қисмига айлантирилди. Рус посёлкалари ва туб жой аҳоли яшаб турган қишлоқларда рус хўжаликларининг вужудга келтирилиши ана шу сиёсатнинг амалдаги ижроси бўлди. Туркистондаги ҳар бир рус посёлкаси бутун бир баталон хизматини ўтовчи ҳарбий кучга айлантирилди.

Амалга оширилган иқтисодий сиёсат ер-сувни, яйловларни ва барча табиий бойликни чор ҳукумати қўлида жамлади, улар нўмай даромад манбаига айланди.

Метрополия ўлкани хом ашё маконига айлантириб, пахтачилик, ипакчилик, қоракўлчилик ва бошқа муҳим хом ашё маҳсулотлари етиштириш тармоқларига катта эътибор берди. Саноат қурилиши соҳасида чоризм метрополия буржуазияси манфаатларига мос - хом ашёни дастлабки ишловчи корхоналар қурилишини қувватлаб, ўлкада қайта ишиаш, тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқариш саноати ривожига тўсқинлик қилиб келди.

Россиянинг мустамлакачилик сиёсати Туркистонни рус товарлари сотиладиган, тайёр маҳсулотлар харид қилинувчи бозорга айлантирди. Бу еса маҳаллий ҳунармандчиликни инқирозга олиб келиб, ягона миллий бозорнинг ривожланишига йўл бермади.

Империянинг мустамлакачилик сиёсати халқ маорифи ва маданий ҳаётида ҳам ўз аксини топди. У мактаб ва мадрасалар фаолиятига деярли эътибор бермади, аксинча уларнинг ривожланишига тўсқинлик қилди. Асосий эътибор ўлкада руслаштиришга хизмат қилувчи рус-тузем мактаблари тармоғини юзага келтиришга қаратилди.

Умуман олганда, Россия империяси илм-фан, халқ маорифи, матбуот ва маданият соҳасида Туркистон халқларининг қадимий тарихи, тили, урф-одатлари, миллий ғ урури ва эрксеварлик туйғуларини йўқотишга, қисқаси, уларни ўзлигидан жудо қилишга қўлидан келганча ҳаракат қилди. Бу сиёсатнинг асосий мақсади ўлкадаги миллий давлатчилик, миллий онг, миллий ўзликни англашга қаратилган барча ҳаракатларни таг-туғи билан қўпориб ташлаш эди.

Шунга қарамасдан, Туркистонда илм-фан ривожланиши тўхтаб қолган эмас. Бу даврда яратилган кўпгина илмий асарлар ҳозиргача ўз аҳамиятини йўқотмаган. 1867 йилда метеорология стансияси ташкил этилиши билан ўлканинг иқлими, табиий шарт-шароитлари ўрганила бошлаган бўлса, 1871 йилда Ўрта Осиё олимлар жамияти тузилиши ўлканинг илмий жиҳатдан

Ўрганилишини кенг миқёсда олиб борилишига йўл очди. Шу жумладан, ўлканинг бой тарихини ўрганишга бўлган қизиқиш ҳудудни археологик тадқиқотлар асосида ўрганилишини бошлаб беради. Археологлар дастлаб «география жамияти» таркибида иш бошлаган бўлсалар, 1895 йилда Туркистон ҳавоскор археологлар тўғараги ташкил этилиши билан мустақил фаолият олиб бора бошладилар. Туркистон ҳавоскор археологлар тўғараги томонидан олиб борилган тадқиқотлар илк илмий аҳамиятга эга бўлишига қарамадан археология фанининг ривожланишида муносиб ҳисса қўшишди.

Ўрта Осиё тарихини ўртанишда рус шарқшуносларининг роли айтарли даражада маълум. XIX асрнинг иккинчи ярмида Ўрта Осиё чор қўшинлари томонидан босиб олингач, бу ерга рус олимлари келиб, кўплаб тадқиқот ишларини олиб бордилар. Авваламбор бу иш чор ҳукумати фойдасига бўлсада, аммо, бажарилган илмий ишларнинг аҳамияти ҳам айтарли эди. Шундай мураккаб ва оғир шароитда ҳам тарихчилар, шарқшунослар, археологлар ўз фикр ва мулоҳазаларини эркин баён этишга ҳаракат қилган, асарлар яратган. Аммо, мустамлака сиёсатмандлари халқ оммасининг миллий онгини ўстиришга ёрдамлашишни асло маъқул кўрмасада, фан учун хизмат қилувчилар ҳам бор эди. Уларнинг фаолиятлари ҳам мавжуд шароитга нисбатан қийин кечган, албатта. Сабаби, чор ҳукумати амалдорлари омма ўртасида тарихий билимларни тарғибот қилиш, улар диққатини қадимги замон ёдгорликларини ўрганишга тортиш каби ишлардан чўчир эдилар. Бинобарин, Ўрта Осиёнинг янги-янги ҳудудларида Россия ҳукмронлигининг ўрнатилиши, уларнинг умумроссия иқтисодий тараққиёт йўлига қўшиб юборилиши туфайли турмушнинг ўзи илмий тадқиқотлар ўтказиш зарурлигини тақоза қиларди. Ўрта Осиёнинг яхшироқ ўрганилмаганлиги мустамлака маъмуриятининг мақсадларини рўёбга чиқаришда ҳалақит берар эди. Илмий тадқиқот ишларининг маълум бир қисми, ўзларининг кўп асрлик тарихига, ўз урф-одатлари, хусусиятлар, турмуш тарзига эга бўлган кўп сонли Ўрта Осиё халқлари оммасини эксплуатация қилиш тизимини кучайтиришга ёрдам бериши кўзда тутилар эди. Табиий бойликлари, маданий мероси ғоят бой бўлган ва кам текширилган бу ҳудуд рус зиёлиларининг тараққийпарвар қисмини жуда қизиқтирарди. Шунинг учун ҳам, дарвинизмнинг эътиқодли тарафдорларидан бири бўлган машхур рус олими-зоолог, зоогеограф ва оташин сайёҳ Н.А. Северсов (1827-1886), машхур рус географи П.П.Семенов-Тяньшанский (1827-1914), табиацхунос ва сайёҳ А.П.Федченко (1844-1873), геолог ва географ И.В.Мушкетов (1850-1902), машхур олим, ҳозирги замон илмий тупроқшунослигига асос солган В.В.Докучаев (1846-1903) сингари

жонкуяр олимлар Ўрта Осиёни ўрганиш борасида катта илмий тадқиқотлар ишлари олиб бордилар, бой манбалар тўплашга эришди. Бир гуруҳ ҳарбий топографлар эса табиий контрастлари бир-биридан кескин фарқ қиладиган жуда катта худудни кенг кўламда суратга тушириш, хариталаштиришдек машақатли вазифаларни бажарди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Шамукарамова Ф.Ш. Самарқанд осори-атиқаларини ўрганиш ва сақлашда Василий Вяткиннинг хизматлари // СамДУ илмий ахборотнома. Самарқанд, 2016. №2. 26-31-б.
2. Исомиддинов М.Х., Матбобоев Б.Х. Ўзбекистонда археология фанини пайдо бўлиши ва ривожланиши тарихи. Фарғона, 2012.
3. Мирзо Олим Махдум хожи. Тарихи Туркистон. Тошкент: Янги аср авлоди, 2008.
4. Набиев А. Тарихий ўлкашунослик (Ўлкани ўрганишнинг асосий манбалари). Тошкент “Ўқитувчи”, 1996. 11-б.
5. Холматов Н.У. Тошкент ва Зарафшон ҳавзаси тош даври жамоалари маданияти хусусида // Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент, “Фан”, 2009. 17-б.
6. Ширинов Т.Ш., Бердимуродов А.Э., Пардаев М.Х. Ўзбекистонда археология фанининг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан // Ўзбекистон археологияси. Самарқанд, 2010. № 1. 3-10-б.
7. Абаган А.М. Жизнь и деятельность членов туркестанского кружка любителей археологии // Вестник КазНПУ // <https://articlekz.com/article/18134> (04.05.2020)
8. http://www.uzbekistonovozi.uz/uz/articles/index.php?ELEMENT_ID=66264

ФАРҒОНА ВА ЗАРАФШОН ВОҲАСИДА ЎТКАЗИЛГАН АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

Rakhmatullaev Akhadulla

Jizzax davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Аннотатсия. Ушбу мақолада Фарғона ва Зарафшон воҳаси худудларида олиб борилган археологик тадқиқотлар ва кузатув-қидирув ишлари натижалари муҳокама қилинади.

Калит сўзлар: Туркистон генерал-губернаторлиги, археологик кузатув, қадимий шаҳар қолдиқлари, топилмалар, Императорлик Археология Комиссияси.

Туркистон генерал-губернаторлиги ташкил топгандан кейинги даврда Тошкент ва унинг атроф ҳудудлари каби Ўрта Осиёнинг Россия империяси таркибига критилган Фарғона ва Зарафшон воҳаси ҳудудларида ҳам археологик кузатув ва қидирув ишлари олиб борила бошланди. Бу асосан марказий шаҳарларда мавжуд бўлган қадимий шаҳар қолдиқларини тадқиқ этиш, ёки асосан эҳтимолий топилган археологик топилмалар асосида манзилгоҳни қайд этиб, тадқиқ этиш кўринишида амалга оширила бошланган эди. Шу боисдан ҳам бу давр ҳақида фикр юритганда, асосан катта шаҳар харобаларининг тадқиқ этилганлигида дуч келамиз.

Фарғона водийсида тадқиқ этилган дастлабки археологик ёдгорликлардан бири Ахсикент шаҳар харобалари ҳисобланади. Ахсикентни XIX аср охири - XX аср бошларида рус шарқшунос ва археолог олимларидан, академиклар А.Миддендорф ва В.В.Бартольд, профессорлардан Н.И.Веселовский ҳамда А.Н.Бернштам, тадқиқотчи-шарқшунослар И.А.Кастане, В.Наливкин, Н.П.Остроумов, Н.Павлов ва бошқалар Акси, Ахсикат ёки Ахсикент, деганда фақатгина битта макон – Сирдарёнинг ўнг қирғоғидаги жойлашган Эски Акси ёдгорлигини назарда тутганлар.

Ёдгорлик ҳақидаги дастлабки маълумот «Туркестанские ведомости» газетасининг 1884 йил 12-сонидан берилган. Шундан кейин 1885 йилнинг феврал ойида Россия императори ҳузуридаги Археология Комиссияси томонидан Санкт-Петербург университети профессори Н.И.Веселовский Ахсикентга келади ва қазишма ишларини олиб боради. Унинг тадқиқот хулосалари Императорлик Археология Комиссиясининг 1882-1888 йиллардаги фаолияти юзасидан берган ҳисоботида чоп этилди.

Археология ва география соҳасининг таниқли вакили И.А.Кастане 1913 йилнинг апрел ҳамда июн - июл ойларида Россия императори ҳузуридаги География жамиятининг Туркистон бўлими топшириғига кўра, Тошкент ва Наманган уездларида тарихий-этнографик тадқиқотлар ўтказишга икки марта юборилган эди. У ўз тадқиқотлари натижаларини 1914 йил нашр эттирди. Тадқиқотчининг Ахсикент ҳақида қолдирган хабарлардан энг аҳамиятлиси, қазиш чоғида Ахсикентдан ҳаммом, мадраса, карвонсарой қолдиқлари топилганини ҳам таъкидлаб ўтганлигидир.

Маҳаллий археолог олимлардан Ишоқхон Ибрат Ахсикентни ўрганган, тадқиқ этган илк олимлардан бири ҳисобланади. «Туркистон вилоятининг газети»нинг 1913 йил 23 июн № 48 сони, 7 июл № 52 сони, 11 июл № 53 сони, 18 июл № 55 сонларида Ибрат ўзининг Ахсикент ҳақидаги туркум мақолаларини эълон қилган. «Фарғона ўбластаида қадимги замонларда

пойтахт бўлиб турган Ахси ёки Ахсикат деган катта шаҳар бўлган... Умар Шайх Мирзонинг қабри алҳол Ахсидадур... Умар Шайх Мирзо ва Шайбонийхон авлодларидан Жонибекхонга Ахси шаҳри бир неча вақт пойтахт бўлиб, бу шаҳарда ҳукмронлик қилган экан...». Унинг ёзган мақолаларидан кўриниб турибдики, машҳур ахсикатийлар етишиб чиққан Ахси, теурийлар даври Ахсикенти, зилзилада вайрон бўлган Ахси – бу битта макон ҳозирги Эски Ахси ёдгорлигидир.

Ибрат домла Эски Ахсининг бузилган санаси 1030 ҳижрийда рўй берганлигини, яъни милодий ҳисоб билан 1621 йилда содир бўлганлигини ёзган. Бу айнан «Ажойиб ат-табоқот» асарида тасвирланган Ахси зилзиласи санасидир. Агар шаҳар мўғуллар томонидан вайрон этилган бўлганида араб ва форс тилларининг чуқур билимдони, мутафаккир олим буни ёзиб, эслатиб ўтган бўлар эди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 16 октябрдаги «Наманган вилоятининг Тўрақўрғон туманида «Ахсикент» археология мероси объектини муҳофаза қилиш ва тадқиқ этиш ёдгорлик мажмуасини ташкил этиш тўғрисида» 831-ҳамда Наманган вилояти ҳокимининг 2017 йил 31 октябрдаги 761-қарорлари қабул қилинди. Ушбу қарорлар асосида мажмуани сақлаш, унинг иш фаолиятини самарали ташкил этиш мақсадида вилоят ҳокимлиги муассислигида давлат унитар корхонаси шаклидаги «Ахсикент» археология мероси объектини муҳофаза қилиш ва тадқиқ этиш дирекцияси ташкил этилиб, унинг олдига Ахсикент тарихини ёритиш, мазкур ҳудудни халқаро туризм маконига айлантириш, Ахсикентдан етишиб чиққан олимлар ҳаёт-фаолиятини ўрганиш ва илмий-бадий меросларини халққа етказиш, дунё музейлари, кутубхоналарида сақланаётган Ахсикентга оид осори-атиқаларни аниқлаш каби кенг кўламли вазифалар кўйилди.

Бу даврда Самарқанднинг ўтмишига қизиқиш катта эди. Шу нарсани қайд қилиб ўтиш керакки, Самарқанд тарихини ўрганишга рус олимлари катта ҳисса қўшди. Россиянинг территория жиҳатидан Ўрта Осиёга яқинлиги, айниқса, ўтган асрнинг иккинчи ярмида Ўрта Осиёнинг, шу жумладан, Самарқанднинг Россияга қўшиб олиниши бу ишга кўп жиҳатдан ёрдам берди. XIX асрнинг охириги чорагида ҳозирги Самарқанднинг шимолий қисмида жойлашган, қадимий ва ўрта асрлар даврига оид бўлган Афросиёб харобасида илмий мақсадда археологик қазишма ишлари бошлаб юборилди.

Туркистон ҳаваскор археологлар тўғараги (1895-1917) Самарқандни тарихий-археологик жиҳатдан ўрганишга катта эътибор берди. Бунинг учун

ноқоридаги ўринда қайд этиб ўтганимиздек, 1905 йилдан кейин ҳавоскор археологлар, тарихчилар, этнографлар Самарқанд тўғарагини ташкил этишга ҳаракат қилиб кўришди, бироқ тўғаракнинг амалий фаолияти кенг қулоч ёзмади.

Ўрта Осиё тарихида муҳим ўрин тутган Самарқанднинг тарихи ва маданий меросига катта қизиқиш билан қараган рус шарқшунослари – В.В. Бартольд, Н.И. Веселовский, В.Л. Вяткин каби олимлар бу даврда қаровсиз қолган шаҳар тарихи, унинг моддий ёдгорликларини ўрганишга катта эътибор қаратиб, қатор тадқиқотлар олиб бордилар. Зеро, бир неча минг йиллик тарихга эга бўлган кўҳна Самарқанддаги бой маданий мероснинг таърифи ҳатто Европа мамлакатларига ҳам етиб борган бўлиб, жаҳон маданияти тарихида катта ўрин тутар эди. Аммо маъмуриятнинг маданий меросга эътиборсизлиги туфайли кўпгина ёдгорликлар бу даврда қаровсиз аҳволга тушиб қолди.

Фойдаланилган адабиётлар

9. Шамукарамова Ф.Ш. Самарқанд осори-атиқаларини ўрганиш ва сақлашда Василий Вяткиннинг хизматлари // СамДУ илмий ахборотнома. Самарқанд, 2016. №2. 26-31-б.
10. Исомиддинов М.Х., Матбобоев Б.Х. Ўзбекистонда археология фанини пайдо бўлиши ва ривожланиши тарихи. Фарғона, 2012.
11. Мирзо Олим Махдум хожи. Тарихи Туркистон. Тошкент: Янги аср авлоди, 2008.
12. Набиев А. Тарихий ўлкашунослик (Ўлкани ўрганишнинг асосий манбалари). Тошкент “Ўқитувчи”, 1996. 11-б.
13. Холматов Н.У. Тошкент ва Зарафшон ҳавзаси тош даври жамоалари маданияти хусусида // Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган Халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент, “Фан”, 2009. 17-б.
14. Ширинов Т.Ш., Бердимуродов А.Э., Пардаев М.Х. Ўзбекистонда археология фанининг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан // Ўзбекистон археологияси. Самарқанд, 2010. № 1. 3-10-б.
15. Абаган А.М. Жизнь и деятельность членов туркестанского кружка любителей археологии // Вестник КазНПУ // [хттпс://артислекз.ком/артисле/18134](https://artisлекз.com/artисле/18134) (04.05.2020)
16. [хттп://www.uzbekistonovoz.uz/uz/artислес/индех.пхп?ЭЛЕМЕНТ И Д=66264](http://www.uzbekistonovoz.uz/uz/artислес/индех.пхп?ЭЛЕМЕНТ И Д=66264)

**TIBBIYOTDA OLIYGOH TALABALARIGA INGLIZ TILI FANINI
O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Tashxodjayeva Patima Bakiyevna

Toshkent tibbiyot akademiyasi

O'zbek va xorijiy tillar kafedrası katta o'qituvchisi

Tashxodjaevapatimal1963@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiyot oliygoh talabalariga ingliz tili fanini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda integral yondashuv, ya'ni o'qish, yozish, tinglash kabi ko'nikmalar orqali bo'lajak shifokorlarni tayyorlash qaratilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, professional ta'lim, tibbiyot, kasbiy yondashuv, metodika, filologiya.

Аннотация. Данная статья посвящена комплексному подходу к обучению английскому языку студентов медицинского вуза с использованием современных инновационных технологий, то есть обучению будущих врачей посредством таких навыков, как чтение, письмо и аудирование.

Ключевые слова: английский язык, профессиональное образование, медицина, профессиональный подход, методика, филология.

Annotation. This article focuses on an integrated approach to the teaching of English to students of the medical university using modern innovative technologies, that is, training future doctors through skills such as reading, writing, and listening.

Key words: english language, professional education, medicine, professional approach, methodology, philology.

Til bu asosiy aloqa vositasidir, usiz inson jamiyatining borligi va rivojlanishini tasavvur qilish qiyindir. Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish professional ta'limning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Yurtimizda chet tillarni o'qitilishida yangicha bosqich, yangicha davr boshlandi. Chet tili darslarining o'qitilishi jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning yangicha tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili

fani 4 aspektga (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda.

Shu bilan birgalikda mamlakatimizda tibbiy ta'lim, kadrlarning ilmiy salohiyatini oshirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Tibbiyot xodimlari va talabalarining ingliz tilini mukammal bilishi masalasi ham dolzarb hisoblanib boshladi. Shuning uchun tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarining ingliz tilini o'qish, yozish, gapirish, tinglash kabi kompleks yondashuvlar asosida o'qitish uslublarini takomillashtirishga qaratilgan.

Dunyoda ingliz, fransuz, nemis va boshqa ilg'or xorijiy tillarni o'qitishga oid ilmiy adabiyotlarda o'quv topshiriqlarining mazmuni, foydalilik darajasi, o'quv jarayonida savol, topshiriq va mashqlardan unumli foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan. Xalqaro amaliyotda o'quv vazifalari o'zaro ta'sir samaradorligiga qaratilgan. Amaliyotda qo'llaniladigan amaliy vazifalar oldindan belgilangan ma'lum mezonlar asosida shakllantiriladi.

Talabalar ingliz tilida faqat ba'zi ko'nikmalarni rivojlantiradilar (chunki ular tilning tashuvchilari), asosan o'zlari ega bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Xususan, bo'lajak ingliz tili va adabiyoti o'qituvchilari ingliz tilida matn yoki suhbatni tushunish, o'qish, gapirish va yozish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda tibbiyot fakulteti talabalarining eshitganlarini tushunish, adabiy tilda ravon va mantiqiy so'zlash, matnni o'qish va tushunish, to'g'ri va mazmunli yozish ko'nikmalarini shakllantirish ingliz tili o'qitish metodikasining asosiy vazifasi hisoblanadi. Albatta, bu mas'uliyatli vazifani o'quv topshiriqlarini takomillashtirish orqali amalga oshirish mumkin. Shu ma'noda ingliz filologiyasi ta'limida ingliz tili bo'yicha topshiriqlarni ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish masalasi nihoyatda dolzarbdir.

Bundan tashqari, talabalar o'rtasida ingliz tilida doimiy ravishda muloqot qiluvchilar yetishmovchiligi ham mavjuddir. Natijada ingliz tilini o'rganish va ushbu tilda muloqot qilish qiyinlashadi. Asosan, o'quv materiallari, kitoblar, audio materiallar o'quv jarayonida yordam beruvchi vositalar hisoblanadi. Agar talaba o'rganilayotgan ingliz tili yuzasidan berilgan topshiriqlarni audio va video orqali kuzatib borsa, so'zlar va jummalarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadi. Shu boisdan chet tilini o'rganuvchilar doimo intiluvchan bo'lishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Medicine 2. (Sam McCarter. Oxford English for careers).Oxford university press.2014
2. Deepak KK. Integrated teaching: A less trodden path. Indian J. Physiol Pharmacol 2014; 58: 189-91.

3. Schmidt HG, Machiels-Bongaerts M, Hermans H, ten Cate TJ, Venekamp R, Boshuizen HP. The development of diagnostic competence: Comparison of a problem-based, an integrated, and a conventional medical curriculum. *Acad Med* 1996; 71:658-64.
4. Lachman va Pawlina, 2006

ADVANTAGES OF TEACHING METHODOLOGY OF SOCIAL AND HUMANITARIAN SCIENCES IN CLUSTER CONDITIONS

Turayeva Azizakhon Abdujalol kizi

Tashkent region Chirchik State Pedagogical University

Fundamentals of spirituality. Stage 2

Master student

Abstract. This article talks about the methodology of teaching social and humanitarian sciences in cluster conditions. It is necessary to create a platform with an analytical spirit, which categorizes the materials in the social and humanitarian sphere and illuminates the essence of the content. These proposals are important in bringing the industry to a new level of quality.

Key words: education, technology, spirituality, cluster, humanitarian sciences, methodology, renaissance, value, education.

In our view, the sharpest and sharpest edge of the global problem is the devaluation of human dignity. Yes, it is the devaluation of human dignity that is the main root of all global problems. Because the total negative vices covering human existence (drug addiction, greed for wealth, injustice, nationalism, shamelessness, indifference, betrayal, treachery, brutality, dishonesty, etc.) cause him to treat nature and society cruelly. Also, the world view, which reflects the colorful changes, requires the awareness and vigilance of all the people living on earth.

At the same time, it can be noted with regret that there is still no comprehensive concept of how much and in what directions, in what form and in what content social sciences should be taught and taught at the stages of continuous education, especially in higher education.

In fact, the fact that man is the highest being of this light world, the highest value, is repeatedly repeated in all religions and sciences. However, today both scientists and people are powerless to follow it. What is the value of a person? When is a person recognized as a valuable being? The value of a human being is primarily due to the fact that he is a conscious being, his knowledge, thinking, faith, his ability to create beauty, his ability to spread the seeds of goodness, his ability to show kindness, and his ability to recognize hearts as the Kaaba.

If we approach the issue more seriously, how are the qualities and qualities that are valued by a person formed, who teaches them and when and in what ways? We find the answer to these directly from science and education. It is the social and humanitarian sciences that form the spiritual maturity of a person and human dignity.

The problems arising in the teaching of social and humanitarian sciences cause the loss of human dignity, the emergence of instability in society, the emergence of indifference, coldness, and irresponsibility in people.

It is known that Uzbekistan is a country rich in natural resources, economic and human potential. But we have another priceless wealth, which was given to us by the creation itself, which is the incomparable intellectual and spiritual competence of our people.

The painstaking scientific research of the representatives of science, so to speak, our hard-working scientists who dig a well with a needle, is very important for the current and future development of our country. President of the Republic of Uzbekistan Sh.M.Mirziyoyev stated that we will mobilize all our strength and capabilities in order to create favorable conditions for these selfless people.

Indeed, in recent years, we can see that the reforms implemented in our country are developing in an irreversible and unstoppable way. Today, the international public is paying attention to the changes in our country and is showing great interest.

This puts responsibility on every citizen who is a member of this society. The place and role of specialists in the social and humanitarian field is extremely important in explaining the essence of this concept to the hearts and minds of the population, especially young people.

The influence of social and humanitarian sciences in strengthening principles such as inter-ethnic harmony, inter-religious tolerance, humanitarianism and solidarity in the society is considered high. However, at present, the scope and scale of some problems are expanding and a number of systemic problems remain.

In particular, in the conditions of intense struggle and competition, the negative influence of various foreign ideas on the processes of national identity awareness and the intolerance to occupy people's hearts and minds, demands the revitalization of fundamental, practical and innovative work in the field of social humanitarianism.

Also, the low level of understanding of the essence of the various processes taking place on the world stage, the insufficient formation of integrated concepts and imaginations in this regard, is an effective system and continuous operation in the fight against terrorism, extremism, fanaticism, separatism, human trafficking,

popular culture, drug business and various cross-border threats. a mechanism should be created. The development and application of effective methods and means of combating the ideological threats aimed at destroying the way of life of our people formed over the centuries, which are directed against the peace of our country, the stability of our society and our universal, national and religious values, are lagging behind the requirements of the times.

Therefore, human value, measures aimed at increasing human value are first of all closely related to how social humanities are taught. First of all, it is necessary to humanize continuous education and increase the effectiveness of research work in the field of social humanitarianism. In theory, the implementation of scientifically based ideas serves to ensure the integration between science and production. It's no secret that for a long time, theory has been disconnected from practice, and it has become a rather complicated process to unite everyone around a single idea based on various concepts, ideas and principles put forward in it. This increases the importance of social and humanitarian sciences today and shows that there is still a lot of work to be done. In this regard, it is advisable to do the following:

- in the teaching of social and humanitarian sciences, he must first seriously analyze the educational programs;
- it is necessary to avoid repeated topics, to integrate them into the content of similar topics;
- the priority tasks set by our state, each teacher of social and humanities, based on his field, should analyze his specific direction in depth and understand what the future personnel should pay attention to in order to fulfill these tasks;
- creation of new quality literature related to social and humanitarian sciences is an important task for specialists in the field;
- development and implementation of effective technologies for teaching social and humanitarian sciences in the educational system;
- to find a solution to the problems accumulated in the social and humanitarian sphere in the society, to establish the activity of research and intellectual centers in order to popularize advanced scientific theories;
- it is necessary to create a platform with an analytical spirit that categorizes materials in the social and humanitarian sphere and illuminates the essence of the content. These proposals are important in bringing the industry to a new level of quality.

At a time when violent processes are taking place, the economic and financial crisis continues, dangerous conflicts are happening around us and the "expansion" of foreign cultures is on the rise, the issue of bringing up a mentally and physically

mature generation and educating modern mature personnel is a nationwide issue, it is appropriate to emphasize once again that it remains a nationwide task.

It is known that young people need to understand the necessity of harmony of national and universal values while acquiring intellectual potential and advanced technologies.

What explains this necessity? Intellectual potential and advanced technologies primarily serve to strengthen the material foundations, economic development and military power of society. At the same time, it affects the material well-being of society members to a certain extent. The degree to which this service and impact is beneficial for society and its members depends on the use of intellectual and advanced technologies to achieve what goals. For this reason, the main emphasis is on the harmony of national and universal values, on the deep understanding of national spirituality, that is, on the formation of a culture of thinking. "At the same time, the task of forming a modern and broad-minded generation of young people who have a clear civic position, who protect the interests of society and the state, actively participate in changes and reforms in the life of the people, is extremely important."

Social sciences play an important role in forming the concepts of national and universal values and national spirituality in the minds of young people.

No matter how much we talk about the third renaissance, how much we try, its essence cannot be instilled in the minds of young people without the help of social and humanitarian sciences. Social and humanitarian sciences are the "catalyst" of the beginning and development of the third Renaissance. They are the power capable of awakening the nation and the people.

References

1. Shavkat Mirziyoev. Strategy of New Uzbekistan -T, 2021. -B.228.
2. From national revival to national rise, Youth Publishing House Tashkent-2019, page 118.
3. National database of legislative information, 29.01.2022, No. 06/22/60/0082)
4. Lalikhon Ashuralieva Mukhamedzhanova. —The role of morality in public consciousness. Scientific Bulletin of Namangan State University 2019. No. 9 C - 86-91

LEAN ENVIRONMENT NO_x EMISSION CONTROL TECHNOLOGIES*Usmanov Umidjon Ravshan o'g'li**Master of science, Lecturer in Mechanical and Aerospace department in
Turin Polytechnic University in Tashkent**Turin Politexnika Universiteti Mashinasozlik va aviakosmik injiniring
kafedrası o'qituvchisi*

Abstract. Combustion engines emit variety of noxious pollutant emissions, among which nitrogen oxides are considered to the most hazardous one. Apart from being primary pollutant emission, NO_x is a source of secondary pollutants, like acidification of rains and photochemical smog. These factors emphasize the importance of NO_x elimination from exhaust gases. There are a number of available techniques to mitigate NO_x, depending on engine operation condition. In this article, a currently available technologies, intended for NO_x mitigation in lean environment are discussed. In particular, the operation principle, characteristics and architecture of lean NO_x trap, selective catalytic reducer with ammonia and selective catalytic reducer with hydrocarbons are briefly introduced.

Keywords: lean NO_x pollutants, lean NO_x trap, selective catalytic reduction with ammonia, selective catalytic reduction with hydrocarbons.

Introduction. For a compression ignition engine, where mixture inside combustion chamber is highly non-uniform and not premixed, the NO_x formation mechanism is complex. Oxidation of atmospheric nitrogen gas proceeds under extremely high temperature ($T > 1800$ K), which usually can be reached in burned gas region [1]. The share of nitrogen monoxide is higher than nitrogen dioxide (70-90 % of NO and 10-30 % of NO₂). The fact that diesel engines usually operate unthrottled makes it difficult for engine aftertreatment system to reduce NO_x emissions. In contrast to spark-ignition (SI) engines, where stoichiometric mixture combustion makes it possible for three-way catalyst (TWC) to eliminate at the same time carbon monoxide, hydrocarbons and nitrogen oxides, diesel oxidation catalyst in diesel engines has almost no effect on nitrogen oxides. The reason is that the reduction efficiency of a catalyst embedded with precious metals in lean environment is extremely low. Therefore, it is required to implement different technologies for NO_x reduction in lean environment. These are

NO_x adsorber-catalyst system (lean NO_x trap)

Selective catalytic reduction with ammonia (SCR)

Selective catalytic reduction with hydrocarbons (deNO_x or lean NO_x catalyst)

All these systems have both advantages and disadvantages, different operating mechanism and various elimination efficiencies which will further discussed.

NO_x adsorber-catalyst system (lean NO_x trap, LNT). This system operates on a principle of chemisorption (adsorption with further chemical transformation) of nitrogen oxides by barium or lanthanum oxides. The mechanism is described if

Figure 1. Nitrogen oxides are stored as nitrate (NO_3) and eliminated during the regeneration of catalyst [2]. There are in general two operating phases:




Figure 1. Lean NO_x trap

Loading phase: engine normal operation mode (lean air-fuel mixture), where nitrogen oxides are trapped by LNT.

Regeneration phase: additional fuel (hydrocarbons) are post injected, enrichment of mixture, where LNT is cleaned from NO_x and the storage capacity is recovered. Usually, this is a short duration phase (5-8 sec.).


LNT noble metals are responsible for the following two actions:

Oxidation of NO to NO_2

Reduction of released NO_x to N_2 during regeneration

The activity of NO_x adsorbers covers a fairly wide catalyst temperature window, extending from about 200°C to $450\text{-}500^\circ\text{C}$. The lower end of the temperature window is determined by the catalyst activity in regards to the oxidation of NO to NO_2 , as well as NO_x release and reduction [3]. The upper temperature is related to the thermodynamic stability of nitrates, which undergo thermal decomposition at higher exhaust temperatures, even under lean conditions.

The major issue of LNT is the susceptibility to sulphur poisoning. Even ultra-low sulphur diesel fuels are not sufficient for the commercialization of NO_x adsorbers. Thus, a proper sulphur management strategy, including periodic desulphation, are required for the proper operation. The LNT desulphation requires temperature levels, in the order of between 500 and 700°C , accompanied by mixture enrichment [3]. On the other side, frequent regeneration and desulphation phases lead to fuel consumption penalties and accelerated thermal deterioration of catalyst.



Selective catalytic reduction with ammonia. Selective Catalytic Reduction is used as an aftertreatment system to reduce NO_x emissions by the injection of a specific fluid into a specific catalyst placed on the exhaust line. The gas is injected with a reducing agent before it reaches the catalyst bed. For stationary diesel engines and industrial sources, SCR procedures utilizing nitrogen-containing reductants like ammonia or urea, which are commercially available [2]. Depending on the temperature of the SCR substrate, the injected fluid produces ammonia (NH₃) by thermolysis and hydrolysis, which accumulates (stores) on the catalyst substrate, where the NO_x flow and the NO_x reduction events (along with other undesirable reactions) occur. A dosing valve installed on the exhaust pipe is used to inject the fluid, which is kept in a designated tank.

The normal operating range for SCR catalysts, such as V₂O₅/TiO₂ catalysts, is between 250 and 450 °C. For diesel engines running at modest loads, the low temperature activity is insufficient. Increasing the NO₂ level of the exhaust stream is one way to enhance the catalyst's low temperature performance. Increased NO₂ levels can be realized in practical installations by an oxidation catalyst which promotes oxidation of NO.

The oxidation catalyst is placed upstream of the urea injection point. With the use of the oxidation catalyst, the light-off temperature of V₂O₅ catalysts can be decreased to as low as 150°C [3].

The main advantage of SCR—which helped make it so popular in industrial applications—is its high NO_x conversion efficiency, which can exceed 90%. SCR has drawbacks such as high price, space limitations, and ammonia emissions (ammonia slip). Compared to other catalyst methods, SCR technology uses substantially larger catalysts [4]. To improve the efficiency of the SCR catalyst and/or to limit ammonia slip, supplementary catalysts are also included in the majority of auxiliary systems. A sophisticated injector/control system for reductant is also required, as well as on-board storage space. All of this translates to high estimated SCR system costs. Regulatory authorities are concerned that vehicles

may be operated without urea, rendering SCR systems inactive, as there is no incentive for the vehicle operator to replenish used reductant [4]. The absence of distribution infrastructure and the wintertime freezing of urea solutions are further issues.

Selective catalytic reduction with hydrocarbons. Catalysts that promote the reduction of nitrogen oxides over the competitive, non-selective oxidation of hydrocarbons by oxygen are commonly referred to as deNO_x or lean NO_x catalysts (LNC). In this system, reducing agent is hydrocarbons [5]. This selective deNO_x chemistry can be realized using either hydrocarbons emitted by the engine (so called “passive deNO_x” configuration) or else through the addition of extra hydrocarbons, such as diesel fuel, upstream of the catalyst (“active deNO_x”). Active deNO_x systems have higher NO_x conversion efficiency at a cost of increased system complexity and a fuel economy penalty. Narrow temperature windows, poor thermal durability, and/or sulphur tolerance are the main limitations of LNC catalysts. In addition, deNO_x catalysts have peak NO_x conversions in the region of 40–60%. These figures correspond to just 10–20% NO_x conversions of passive systems during regulatory test cycles, when combined with relatively small temperature activity windows [5]. DeNO_x catalysts are therefore not now considered to be a technology equipped to handle the strict future emission standards.

Conclusion. Stringent limitations in terms of engine pollutants forces manufacturers to use more advanced aftertreatment systems. Efficient mitigation of nitrogen oxides in lean environment is a major issue. However, some technologies like NO_x adsorber catalyst system, selective catalytic reduction with ammonia and selective catalytic reduction with hydrocarbons make this possible. Each system has different conversion efficiency, operating temperature window, system complexity as well as susceptibility to poisoning.

References

1. W. Addy Majewski. *What are diesel emissions?* DieselNet technology guide. https://dieselnet.com/tech/emi_intro
2. Marco Badami, F Mallamo, F Mollo, EE Rossi. *Influence of multiple injection strategies on emissions, combustion noise and BSFC of a DI common rail diesel engine.* Society of Automotive Engineers, Inc. Pages 1118-1129, January 2002.
3. Reşitoğlu, İ.A., Altinişik, K. & Keskin, A. The pollutant emissions from diesel-engine vehicles and exhaust aftertreatment systems. *Clean Techn Environ Policy* 17, 15–27 (2015)
4. Saad, Marwa & Białas, Anna & Grzywacz, Przemysław & Czosnek, Cezary & Samojeden, Bogdan & Motak, Monika. (2020). Selective catalytic reduction of NO with ammonia at low temperature over Cu-promoted and N-modified activated carbon.

САНОАТДАГИ ТАРКИБИЙ ЎЗГАРИШЛАРГА ТАЪСИР КЎРСАТАДУВЧИ ОМИЛЛАР

ДЖУМАЕВ Фаррух Тошмуратович,

ТерДУ, Ахборот технологиялари кафедраси ўқитувчиси

Аннотация. Мақолада миллий иқтисодиётда таркибий ўзгаришларни амалга ошириш молиявий аҳволни яхшилаш, ривожланиш устувор йўналишларини белгилаш, халқаро майдондаги мавқеини мустаҳкамлашда муҳим аҳамият касб этиши қайд этилган. Шу билан бирга, саноатда таркибий ўзгаришларни амалга ошириш ижобий ёки салбий натижага олиб келадиган турли омиллар таъсирида бўлиши кўрсатилган. Шунинг учун бозор муҳити омилларини ўрганиш муҳим рол ўйнайди.

Калит сўзлар: таъсир этувчи омиллар, ижобий омиллар, салбий омиллар, таркибий ўзгаришлар, омилларни танлаш.

Кириш. Ҳозирги вақтга келиб мамлакат, минтақалар миқёсида халқ хўжалигида турли давомийликдаги иқтисодий тараққиётни, молиявий барқарорликни таъминловчи таркибий тармоқ ўзгаришлари рўй бермоқда. Шунингдек, саноатда амалга оширилаётган таркибий ўзгаришлар натижаси минтақа иқтисодиётининг ҳолатига таъсир кўрсатмоқда. Таркибий ўзгаришларнинг самарадорлигини таъминлаш учун унга таъсир этувчи омилларни аниқлаш, ўрганиш ва ҳисобга олиш мақсадга мувофиқдир. Бу эса саноатда таркибий ўзгаришларга таъсир этувчи омилларни ўрганишдаги назарий ва услубий ёндашувларни таҳлил қилишни тақозо этади. Сабаби, саноатда таркибий ўзгаришларни амалга оширишда таъсир қилувчи омиллар танланмаган.

Иқтисодиётдаги таркибий ўзгаришлар аҳолининг ўзгарувчан эҳтиёжлари, капитал жамғариш, ижтимоий эҳтиёжларнинг ривожланиши, давлатнинг иқтисодий сиёсати, ташқи иқтисодий алоқалар, фан-техника тараққиёти, инновацион жараёнлар, аҳолининг миграцияси, меҳнат фаолиятини яхшилаш таъсирида содир бўлади.

Саноатдаги таркибий ўзгаришларга таъсир кўрсатадиган ва салбий силжишларга олиб келиши мумкин бўлган бозор муҳитининг омилларига қўйидагиларни киритиш тавсия этилади:

- саноат учун хом ашё, материаллар нархининг ўзгариши ва валюта курсининг ўзгариши;
- аҳоли даромадлари сонининг ўзгариши ва камайиши, уларнинг эҳтиёжларининг ўзгариши;
- кадрлар алмашинувининг кўпайиши ва уларнинг янада ривожланган ҳудудларга кетиши;

- етказиб берувчилар ва рақобатчилар бозоридаги ўзгаришлар;
- мамлакатдаги пул тизимининг мураккаблиги;
- минтақавий бозорга киришда тўсиқларнинг мавжудлиги;
- давлат даражасидаги бозор;
- ҳар бир соҳадаги саноатнинг ўзига хос хусусиятлари;
- истеъмолчи эҳтиёжларининг динамиклиги;
- мамлакат ва минтақадаги иқтисодий вазият;
- молия бозорининг ҳолати;
- ички бозорни ривожлантириш;
- сиёсий вазиятнинг беқарорлиги;
- қонун ҳужжатларининг саноат фаолиятини тартибга солиш йўналишидаги ўзгаришлари;
- саноат учун ўз хомашё базасининг йўқлиги;
- хорижий давлатларнинг экспорт-импорт операцияларига оид қонун ҳужжатларидан хабардорликнинг пастлиги;
- саноатда эскирган ускуналарнинг тарқалиши;
- солиқ тизимининг номукамаллиги ва катта солиқ юки;
- божхона сиёсатининг мураккаблиги;
- саноат маҳсулотлари бўйича экспорт-импорт операцияларининг мураккаблиги;
- юқори технологияли саноатнинг аҳамиятсиз улуши;
- саноатнинг хом ашё ва материалларга импортга боғлиқлиги ва уларни ноқулай шартларда етказиб беришнинг сезиларли даражаси;
- саноатнинг материаллар ва энергия сарфини ошириш;
- атроф-муҳитнинг саноат ифлосланиши;
- саноатни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш ва молиялаштиришнинг паст даражаси.

Сурхондарё вилояти саноати ривожланишини таъминловчи, яъни таркибий ўзгаришларга ижобий таъсир кўрсатувчи омилларга қуйидагилар киради:

- мулкчилик шакли бўйича хўжалик юритувчи субъектнинг тузилиши;
- минтақанинг саноат маҳсулотларига ҳам ички, ҳам ташқи бозорларда талабнинг ўсиши;
- вилоят саноати билан хорижий корхоналар ўртасида алоқаларни ўрнатиш;
- саноат маҳсулотларининг рентабеллиги, ишлаб чиқариш ва сотиш ҳажмининг ўсиши;

- саноат учун ахборот базасини шакллантиришнинг дастлабки шартлари;
- саноатда маҳсулот ишлаб чиқаришнинг янги технологияларининг пайдо бўлиши; халқаро бозорларга чиқиш;
- инфратузилманинг ривожланиши ва географик жойлашуви;
- саноатнинг очиклиги, минтақа иқтисодиёти;
- минтақавий даражада доимий буюртмалар мавжудлиги;
- саноатни ривожлантириш дастурлари;
- малакали кадрлар улуши ва меҳнат унумдорлиги даражасини ошириш;
- саноатни инвестицион ривожлантириш;
- илмий-техник тараққиёт;
- инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш;
- минтақавий даражада молиявий ва инвестициявий қўллаб-қувватлаш;
- илмий ва маркетинг тадқиқотларини амалга ошириш имконияти;
- минтақада логистика тизимининг мавжудлиги;
- инновацион ривожланиш истиқболлари ва имкониятлари, шунингдек илмий-тадқиқот ишларини амалга ошириш;
- минтақада малакали кадрларнинг салмоқли қисми;
- худуд саноатининг инновацион фаолиятни фаоллаштиришга тайёрлиги;
- илмий, илмий ва техник ишларни бажариш учун кенг имкониятлар.

Хулоса қилиб айтганда, таркибий ўзгаришларни амалга оширишдан кутилаётган самарани таъминлаш бозор муҳити омилларининг таъсирини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилади. Тармоқ миқёсидаги таркибий ўзгаришлар доирасида омилларни таснифлаш ва танлашга илмий-услугий ёндашув такомиллаштирилди, у иккита компонентни, яъни омилларни икки гуруҳга бўлиш ва омилларни танлаш тартибини амалга оширишни ўз ичига олади. Омилларнинг таснифига келсак, рағбатлантирувчи ва дистимуляция қилувчи омиллар таъкидланган бўлиб, уларни ҳисобга олиш таркибий ўзгаришларга ижобий таъсир қилади. Кўрсаткичларни аниқлагандан сўнг, уларни танлаш тартиби амалга оширилади, бу эса энг муҳимларини ажратиб кўрсатиш ва таркибий ўзгаришларни амалга оширишда уларни ҳисобга олиш имконини беради. Бу ҳаракатларнинг барчаси соҳадаги таркибий ўзгаришлардан кўзланган натижаларга эришишни таъминлайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Расулев А. Ф. Тенденции и перспективы развития экономики Узбекистана в условиях мирового финансово-экономического кризиса и посткризисный период. *Економічний вісник Донбасу*. 2013. №1 (31). С. 83-88.

2. Расулова Х. А. Управление структурными сдвигами в контексте устойчивого развития региональной экономики (на материалах Согдийской области Республики Таджикистан): дис. канд. эконом. наук. Душанбе: Худжандский государственный университет им. акад. Б. Гафурова, 2019. 207 с.
3. Таран Е. А. Конвергентные структурные сдвиги в экономике: автореферат дис. канд. эконом. наук. Красноярск, 2020. 27 с.
4. Трофимова Н., Таймасов А. Анализ структурных факторов развития российских регионов. *Экономика и управление: научно-практический журнал*. 2017. №4 (138). С. 30-33.

XORIJIY SOTSIOLINGVISTIKADA TIL SIYOSATI

Eshmuratova Qunduz O‘roqovna
TerDU, 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Dunyo tillarining ahamiyati, siyosiy faoliyatda tildan foydalanishdan asosiy maqsad, til siyosatida qonunlarning qabul qilinishi.

Kalit so‘zlar: siyosat tili, rahbariyat tili, ijtimoiy til, tashviqot tili, mahalliy til, norasmiy til.

Abstract. The importance of world languages, the main purpose of using language in political activities, the adoption of laws in language policy.

Key words: political language, leadership language, social language, propaganda language, local language, informal language.

Аннотация. Значение мировых языков, основная цель использования языка в политической деятельности, принятие законов в языковой политике.

Ключевые слова: политический язык, язык руководства, социальный язык, пропагандистский язык, местный язык, неформальный язык.

Xorijiy sotsiolingvistikaning muhim jihati deb o‘rganuvchi qismi bu – har bir davlatning o‘ziga xos til siyosatidir. G`arb tilshunosligida ijtimoiy-siyosiy hayot tilini o‘rganar ekan, uni nomlashda “ijtimoiy til”, “fikrlar tili”, ”jamoat arboblari tili”, “siyosat tili” va “rahbariyat tili “ kabi nomlar edi. Tilshunoslar “siyosat tili”ni keng miqyosda tushungan. “V.Bergsdorf “siyosat tiliga quyidagi ost tizimlarni kiritgan: 1) qonun chiqarish va sud qarorlari tili; 2) rahbariyat tili bo‘lib, uning vazifasi turli qarorlar, buyruqlar diplomatik muzokaralar tili); siyosiy tarbiya tili (maktablarda ommaviy axborot qo‘llaniladi); siyosiy tashviqot tili”³.

Tilshunoslar siyosiy faoliyatda tildan foydalanishdan asosiy maqsad til vositalari yordamida odamlarning xulq-atvoriga ta`sir o‘tkazishini ta`kidlaydi.

³ Bergsdorf W. Herrschaft und Sprache. Studie zur politischen Terminologie der Bundesrepublik Deutschland. - Neske-Verlag. -P.34

Muayyan davlatda hayot kechirayotgan har bir elat va millatlarning bir- biriga ta`siri , tillararo munosabat va til siyosatini o`rganar ekansiz, ijtimoiy har xillikka duch kelasiz. Bunga biz Amerika til siyosatidagi qonunlarga e`tabor qilishdan boshlaymiz. Rasmiy til siyosati borasidagi munozaralarga Amerikada chek qo`yilgan. Amerika inqilobidan oldin ingliz tili norasmiy tarzda rasmiy til sifatida belgilangan bo`lsa-da, rasmiy til maqomini 1980-yilda oldi.

GFRda til siyosatiga qiziqish 50- yillarda divergent jarayonlar bilan bog`liq holda vujudga keldi. Bu o`rinda X.Moser, L. Makensen va V. Bestlarning ishlari maqsadga muvofiqdir.

Fransiyada ichki til siyosati birinchi galda fransuz tilini unifikatsiya qilish, uni yoyish va mashhur qilishga qaratilgan. Fransuz hukumatining 1989-yil 2-iyundagi dekreti bilan Fransuz tili boshqarmasi (DGLF) tashkil etildi. Bu tashkilotning vazifasi fransuz tilini to`g`ri qo`llash va uni yoyishga ko`maklashadigan boshqarmalar, davlat va nodavlat tashkilotlarini nazorat qilish, til masalalari bilan shug`ullanishdan iborat edi.

“Fransuz tili boshqarmasi davlat til siyosatini uch tamoyil asosida hayotga tatbiq qilish vakolatini oldi:

- 1) Respublika tili bo`lgan fransuz tili obro`yini oshirish;
- 2) fransuz tilining xalqaro muloqotdagi rolini mustahkamlash;
- 3) turli til va madaniyatlarni hurmat qilish hamda plyurilingvizmni qo`llab-quvvatlash”⁴. Xalqaro hamjamiyatda fransuz tili alohida o`rin egallaydi, u qator xalqaro tashkilotlarning rasmiy tili hisoblanadi. Rossiya uchun til siyosati xalqlararo munosabatlarning eng muhim muammosi hisoblanadi. 1990- yilning ikinchi yarmidan boshlab Rossiya Federatsiyasidagi barcha respublikalarda rus tili bilan bir qatorda boshqa milliy tillarga ham davlat tili maqomi berildi. Hozirda Rossiya Federatsiyasida 21 ta til davlat tili maqomiga ega. Yaponiyada til siyosati yarim asr davomida ikkita adabiy til – bungo va kogo qo`llanib kelindi. Ikkinchi jahon urushidan keyin tilni me`yorlashtirish muammosi keskinlashdi.

Xorijiy tillar siyosatini o`zbek tili siyosatiga solishtirsak, mamlakatimizda demokratik, baynalmilal tamoyillarga roiya qilinib, har bir millat va elatning erkin rivojlanishi, ularning til mustaqilligi va tengligi ta`minlangan.

Ta`lim- tarbiya ishlari o`zbek tilidan tashqari tojik, rus, qozoq, koreys, turkman, qirg`iz tillarida ham amalga oshiriladi. Xorijiy sotsiolingvistika fanini o`rganar ekansiz , har bir davlatning bir –biriga o`xshamas til siyosatiga duch kelasiz. Bundan ko`zlangan maqsad , tilning nufuzini oshirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

⁴ Dadaboyev H., Usmonova Sh. Xorijiy sotsiolingvistika. –Toshkent, 2014. 36-bet

1. Bergsdorf W. Herrschaft und Sprache. Studie zur politischen Terminologie der Bundesrepublik Deutschland. - Neske-Verlag. - P.34
2. Dadaboyev H, Usmonova Sh. Xorijiy sotsiolingvistika. Toshkent-2014., -P. 36.
3. [http#ru.Wikipedia.org](http://ru.wikipedia.org).

O'ZBEKISTON SHAROITIDA MELAFEN BIOLOGIK PREPARATI YORDAMIDA NEFT BILAN IFLOSLANGAN TUPROQLARNI TOZALASH

Abduraxmonov S.T.

Termiz davlat universiteti Fizikaviy kimyo kafedrasida o'qituvchisi

Neft qazib olish va neftni qayta ishlash sanoatining rivojlanishi natijasida tasodifan neftning to'kilishi xavfi va natijada atrof-muhitning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlarining o'zgarishida namoyon bo'ladigan ekologik salbiy ta'sir kuchayadi. Neft va neft mahsulotlari atrof-muhitni ifloslantiruvchi birinchi o'ringa ega. Zotan, ba'zi neft qazib chiqaradigan hududlar atrof-muhit holati tufayli ekologik ofat zonalariga yaqinlashmoqda. Turli xil tabiiy zonalarda - Shimoldan mamlakat janubiga qadar tabiiy tizimlarning ishlashi va hayot sifatidagi o'zgarishlarning barqaror va tez-tez qaytarib bo'lmaydigan o'zgarishi xavfi mavjud. Atrof muhitning deyarli barcha tarkibiy qismlarida chuqur o'zgarishlar mavjud: tuproqlar va tuproq qoplaminin tuzilishi, zaminlar, er usti va er osti suvlari, biotabiat va havoda ham. Neft ifloslanishining tuproqqa ta'siri uning fizik, fizik-kimyoviy va kimyoviy xususiyatlarining o'zgarishi, biologik jarayonlarning intensivligini tahlil qilishida namoyon bo'ladi. Surunkali neft to'kilishi yer unumdorligining tez yo'qolishiga yoki landshaftlarning to'liq buzilishiga olib keladi. Buzilgan yerlarni tiklash bilan ifloslanish oqibatlarini bartaraf etish bilan bog'liq barcha tadbirlarda asosiy prinsipdan kelib chiqish kerak: ekotizimga allaqachon ifloslanish oqibatida yetkazilganidan ko'proq zarar yetkazmaslik kerak.

Bugungi kunga kelib, tabiatdagi sanoat ta'siri shu darajaga etganki, mintaqaviy yashash muhitini saqlab qolish uchun jiddiy tashvish tug'dirmoqda. Qisqa vaqt ichida biologik faol harorat juda sekin o'z-o'zini tozalashga olib keladi va neftni parchalash uchun ishlatiladigan standart mikrobiologik vositalarning ta'sirini cheklaydi yoki inkor etadi. Fanda tabiatni tiklash yo'nalishini rivojlantirish va uning natijalarini amaliyotga tatbiq etish nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi murakkab muammo hisoblanadi. Faol iqtisodiy faoliyatning imkoniyati post-texnogen hududlarni samarali ravishda tiklash, o'zlarining biologik xilma-xilligi bilan yo'q qilingan ikkilamchi zonali ekotizimlar o'rnida shakllantirish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq. Shunday qilib, nafaqat hududning biosfera barqarorligini, balki mahalliy aholi hayoti va iqtisodiy faoliyatining resurs bazasini saqlashga erishiladi. Adabiyotdan ma'lumki, neft bilan ifloslangan yerlarni bioremediatsiya qilish jarayonlari noqulay omillar bilan cheklanadi, masalan: shamollatish va namlikning etarli emasligi, ozuqa moddalarining past konsentratsiyasi. Shu munosabat bilan, bir qator mualliflar

neft uglevodorodlarining parchalanishini tezlashtirish va mikrofloraning hayotiy faoliyati uchun maqbul fizik-kimyoviy sharoitlarni yaratish uchun biologik mahsulotlardan foydalanishni biogen qo'shimchalar kiritish bilan birlashtirishni maqsadga muvofiq deb bilishadi. Ushbu ilmiy ishni O'zbekistonning neft bilan ifloslangan hududlaridan birida amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Bu sintetik preparat "Melafen" N-P-organik preparat sifatida o'rganildi. Ishning maqsadi "YYY" ferment preparati va "Melafen" N-P-organik tarkibini tayyorlashning O'zbekiston tuproqlarida neft qoldiqlarining yo'q qilinish jarayonlariga ta'sirini o'rganish va solishtirish edi. Ekstremal Janubning neft ishlab chiqaradigan korxonalari hududida atrof-muhitga tushadigan yukning pasayishini ta'minlovchi, neft bilan ifloslangan tuproqlarni qayta tiklash.

Belgilangan maqsadga muvofiq, asosiy vazifalar aniqlandi:

- O'zbekistonda neft ifloslangan taqdirda tuproqlarni o'z-o'zini tozalash imkoniyatlarini aniqlash;

- "Melafen" preparatining tuproqdagi neft qoldiqlarini yo'q bo'lish jarayonlariga ta'sirini o'rganish;

- yog'li ifloslangan tuproqlarni tozalash jarayoni eng samarali bo'lgan "Melafen" preparatining optimal konsentratsiyasini aniqlash; ushbu preparatni qo'llash usulini ishlab chiqish;

- tuproqning mikrobiologik namunalarni kuzatish;

- O'zbekistonning neft ishlab chiqaradigan korxonalari uchun neft bilan ifloslangan tuproqlarni qayta tiklash texnologiyasini ishlab chiqish.

Bu jarayonlarning ilmiy yangiligi birinchi marta "Melafen" preparati tuproqdagi neft qoldiqlarini yo'q qilish uchun tekshirildi va sinovdan o'tkazildi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda sanoatning rivojlanishi va ko'tarilishi iqtisodiyotni barqarorlashtirish va umuman mamlakatdagi umumiy vaziyat uchun ijobiy moment hisoblanadi. Yoqilg'i-energetika kompleksi, xususan, neft qazib olish, yangi konlarni o'zlashtirish hisobiga rivojlanib bormoqda, neft qazib olishning o'sishi zaxiralarning maksimal darajada qayta tiklanishini ta'minlaydigan yangi texnologiyalarni joriy qilish hisobiga, atrof-muhitga bosimning bunday darajasi bilan uning holati katastrofik ravishda yomonlashadi. Neft ishlab chiqarish tabiiy muhitning barcha tarkibiy qismlariga va birinchi navbatda tuproq landshaftlariga ta'siri bilan bog'liq. Tuproqlarning neft bilan ifloslanishi alohida xavf tug'diradi, chunki shimoliy tuproq ekotizimlarining o'z-o'zini tozalashi va qayta tiklanishi neftning ifloslanishi bilan buzilgan, bu biotsenozni bosqichma-bosqich tiklash bilan bog'liq bo'lgan ifloslantiruvchi moddalarning transformatsiyasining murakkab biogeokimyoviy jarayoni. Tuproq biosferaning juda o'ziga xos tarkibiy qismidir. U nafaqat ifloslanish tarkibiy qismlarini to'playdi, balki atmosferaga, gidrosferaga va tirik moddalarga kimyoviy elementlar va birikmalarning o'tishini boshqaruvchi tabiiy bufer vazifasini ham bajaradi. Shu sababli, hozirgi vaqtda neft bilan ifloslangan tuproqlarni bioremediatsiyalash texnologiyalarini ishlab chiqish va takomillashtirish muhim ekologik vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ш.С. Арсланов, Т.В. Ривкина, В.С. Рыбалченко. Технология переработки нефти и газа. Учебник для студентов высших учебных заведений. – Ташкент, издательство «Fan va texnologiya». 2019. 268 с.
2. Neft bilan ifloslangan tuproqlarni mikrobiologik rekultivatsiyasi / N. A. Kireeva va boshq. - M.: "VNIOENG" OAJ, 2001.
3. Pikovskiy, Yu. I., Solntseva, NP Sod-podzolik tuproqlarning neft oqimi ta'sirida geokimyoviy o'zgarishi / Yu. I. Pikovskiy, NP Solntseva // Landshaftlardagi moddalarning texnogen oqimi va ekotizim holati. -M.: Fan, 1981.
4. Galiev, RA. Neft loyining fitoremediatsiyasi: muallif. dis. ... Cand. biol. Fanlar / R. A. Galliev. Qozon, 2007.
5. Glazovskaya, MA Atrof-muhitning o'zini o'zi tozalash qobiliyati / MA Glazovskaya, // Tabiat. 1979.

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TILNING TA'SIRI

Shoyimqulova Zarnigor
TerDU 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu tezisda til va jamiyatning o'zaro munosabati, sotsiolingvistikaning o'rganish obyekti, tilning jamiyatga ta'siri haqida qisqacha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: sotsiolingvistika, til va jamiyat, til siyosati.

Til bor ekan, millat barhayotdir. Til – ijtimoiy hodisa bo'lib, doim jamiyat bilan aloqada bo'ladi. Til jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanib boradi, tilning grammatik shakli ham takomillashadi. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'langan. Shu bois, zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda boshqa fanlar yutuqlaridan ham keng foydalanilib tilshunoslik fani taraqqiy etmoqda. Ana shunday o'rganishlarning samarasi o'laroq, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, psixolingvistika, etnopsixolingvistika, pragmalolingvistika kabi sohalar rivoj topmoqda va bu sohalar tilga, an'anaviy strukturalizmdan farqli ravishda doimiy harakatdagi, o'sish-o'zgarishdagi hodisa sifatida yondashayotgani bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sotsiolingvistika ham jamiyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada paydo bo'lgan soha sifatida tilning asoslarini jamiyatdan, jamiyatning asoslarini tildan qidiradi, ijtimoiy-siyosiy omillarning tilga ta'siri, til siyosati kabi bir qator masalalar bilan shug'ullanadi.

Tadqiqotlarda sotsiolingvistikaning rasman AQSHda shakllangani ko'p aytilsa ham uning markaziy masalasi bo'lgan til va jamiyatning o'zaro ta'siri, tilning jamiyatda tutgan o'rni, milliy tillar va davlat tili, til siyosatiga doir qarashlar

hind, yapon, ingliz, nemis va chex tilshunosliklarida sotsiolingvistika nomi ostida bo‘lmasada, avvaldan tadqiq etilgan edi.

O‘zbek tilshunosligida tilning ijtimoiy tabiati, jamiyatning tilga ta’siri masalasiga o‘tgan asrning 80 yillarida “Tilshunoslikka kirish” qo‘llanmasida alohida to‘xtalgan bo‘lsa ham til va jamiyat muammolari ancha avvalroq tilga olina boshlangan. Fitrat, Elbek, Botu singari jadidlarning asarlarida ozmi-ko‘pmi shunga oid qaydlar bor. M.Mirtojiyev va N.Mahmudovning “Til va madaniyat” risolasida ham tilning ijtimoiyligi, davlat tili va til siyosati haqida so‘z ketgan o‘rinlar mavjud. Mutaxassislar S.Mo‘minovning “O‘zbek muloqot nutqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari” nomli doktorlik dissertatsiyasini sotsiolingvistik aspektidagi ilk ish sifatida qayd etadi.

Keyingi yillarda bu boradagi tadqiqotlar ko‘lami ancha kengaydi. Lingvistik adabiyotlarda til va jamiyat munosabati, tilning sotsial farqlanishi, jamiyatdagi lisoniy vaziyat, til ijtimoiyligi, til va ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy omillarning tilga ta’siri, ikki tillilik va ko‘p tillilik, til siyosati, millat va milliy til muammolari sotsiolingvistikaning muhim vazifalari sanaladi. Shu jihatdan tilning sotsial farqlanishi turli maslak, turlicha kasb-kor, turfa aqliy-ruhiy imkoniyatdagi jamiyat a’zolaridan tashkil topganidan kelib chiqadi va bunga mos ravishda har qaysi ijtimoiy guruhning faol hamda nafaol lug‘at tarkibi bo‘ladi. Jamiyat a’zolarining hududiy mansubligi ham, tabiiyki, har xil. Binobarin, sotsial va hududiy dialektlar ijtimoiy guruhlarning maslak, kasb-kor, aqliy-ruhiy imkoniyat va hududiy kelib chiqishiga ko‘ra, tildan foydalanish tarzlaridir. Shu ma’noda hozirgi zamon sotsiolingvistikasidan sotsial va hududiy dialektlarni shunchaki qayd qilish, lingvistik tabiatini tushuntirishgina emas, balki ulardan unumli foydalanish yo‘llarini ko‘rsatish ham talab etiladi.

Menimcha, tafakkur quroli bo‘lgan til vositasi doimiy ravishda jamiyatga ta’sir etib, jamiyatni muntazam harakatlantirib turadi va bu tarz ta’sirlashuvning eng ibtidoiy aksi uning axborotni shakllantirish va uzatish vazifasida ko‘rinadi. Tilning jamiyatga ta’siri natijalari tilshunos qayd qila biladigan til materiallarida ifoda topmaydi, balki ijtimoiy hayotning o‘zida bo‘y ko‘rsatadi.

Xullas, til va jamiyat o‘rtasida doimiy ta’sirlashuv kechadi. Zero, adabiy tilni boyitish, o‘zlashma terminlarga milliy muqobillarni topishda sotsial va hududiy dialektlar muhim leksik-semantik manba bo‘lishi aniq. O‘zbek sotsiolingvistikasi ana shunday ta’sirlashuvlarni xolis baholashi, milliy til va davlat tili manfaati nuqtayi nazaridan ish ko‘rishi lozim bo‘ladi. Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tilga kamdir-ko‘pdir ta’sirlar bo‘lib turadi. Ba’zan uzoq vaqt tilning biror sathi jamiyat, inson omili bilan bog‘liq ta’sirlarga, o‘zgarishlarga uchramaydi yoki tilga ta’sir umummilliy miqyos kasb etmaydi. Biroq yozuv va imlo borasidagi

o'zgartirish yoki yangilanishlar umummilliy miqyosda, jamiyatning ongli aralashuvi ostida hal qilinadi.

SOTSIOLINGVISTIK OMILLAR

Sohibova Kumush Yodgorovna
TerDU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada sotsiolingvistika haqida ma'lumotlar, hamda ushbu fanning shakllanishida sotsiolingvistik olimlarning qarashlari, tilning jamiyat tarixi bilan bog'liqligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Sotsiolingvistika, ijtimoiy muhit, jamiyat, milliy qadriyat, ijtimoiy dialekt, noadabiy til.

Tilning paydo bo'lishi, takomillashib borishi, insoniyatning bu ne'matga bo'lgan ehtiyoji ortib borishida ijtimoiy muhitning, kishilik jamiyatining, oila a'zolari singari birliklarning hal qiluvchi omil ekanligi inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir. Shunday ekan so'zga bo'lgan moyillik tilshunoslik va jamiyatshunoslik singari fanlarningi kesishmasidagi yangi fanning paydo bo'lishiga zamin yaratdi

Sotsiolingvistika (lot. *societas* – jamiyat+lingvistika) tilshunoslik va sotsiologiya fanlari aloqasi asosida yuzaga kelgan bo'lib, tilning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy vazifalarini, til taraqqiyotidagi ekstralingvistik omillarni, til siyosatini, lisoniy muhitni hamda tilning jamiyat hayotidagi o'rni bilan bog'liq muammolarni o'rganuvchi soha⁵.

XX asrning boshlarida Fransiya, Rossiya, Chexiya singari rivojlangan davlatlar olimlari tomonidan tilning ijtimoiy tabiatiga katta ahamiyat berilgan. I. A. Boduen de Kurtene, Y.D. Polivanov, G. O. Vinokur singari tilshunoslarning ilmiy g'oyalari sotsiolingvistikaning fan sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi⁶. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, sotsiolingvistlar sotsiologlardan ko'plab metodlarni, jumladan, anketalashtirish, so'rovnomalar, ommaviy tadqiqot, intervyu kabi metodlarini o'zlashtirib, ulardan foydalanilayotgani ma'lum. Sotsiolingvistlar ushbu metodlar asosida til egalari bilan ishlashga qaratilgan xususiy metodik usullar yaratishmoqda.

Til jamiyatsiz rivojlanmaydi, buni ko'plab dalillar orqali kuzatishimiz mumkin. Jumladan, Akbarshoh tomonidan o'tkazilgan g'aroyib tajriba hamda bo'ri uyasidan topilgan Kamola va Amola taqdiri til faqatgina jamiyatda shakllanishining yorqin isbotidir. Til biologik hodisalardan, ijtimoiyligi bilan ajralib turadi⁷. Bola tug'ilganida harakat qilishi, atrofga talpinishi, ovqatlanishi

⁵ N.Uluqov. Tilshunoslik nazariyasi. O'quv qo'llanma. – T.: “Barkamol fayz mediya”, 2016, 192-bet.

⁶ Беликов В. И., Крысин Л. П. Социоллингвистика. – М., 2001. – С. 7.

⁷ N.Uluqov. Tilshunoslik nazariyasi. O'quv qo'llanma. – T.: “Barkamol fayz mediya”, 2016, 192-bet.

mumkin, ammo atrofidagilar bilan so‘zlashish va fikrlash uchun kishilik jamiyati bo‘lishi zarur.

Muayyan davlatda istiqomat qilayotgan har xil millat vakillarining birga hayot kechirishi natijasida bir-biriga ta’siri, tillararo munosabatlar ko‘zga tashlana boshlangan, bu kuzatishlar esa sotsiolingvistik tadqiqotlarga, sotsiolingvistik izlanishlarga sabab bo‘lgan.

Sotsiolingvistikada grammatika muhim omil hisoblanmaydi, grammatikadan ko‘ra lisoniy vositalarning ijtimoiy axboroti yuqori o‘rin egallaydi. Ushbu holat sotsiologiya va lingvistikaning farqli jihati hisoblanadi. Shuning uchun ham sotsiolingvistika bevosita nutq, tildan unumli foydalanish jarayoni haqidagi sohadir. Sotsiolingvistikaning predmetini aniqlashda nemis sotsiolingvistlari quyidagi fikrlarni bildirishgan. Jumladan, A.N. Dittmar sotsiolingvistikaning predmetini shunday izohlagan: “Sotsiolingvistika predmetini tilshunoslik va ijtimoiy fanlarning metodlaridan foydalanib: kim kim bilan qaysi tilda, qanday ijtimoiy muhitda va qanday maqsadda gaplashyapti, nutq aktining oqibati qanday bo‘ladi? kabi bir qator savollarga javob beruvchi tarzida tushuntirish mumkin”⁸, - deb aytadi.

Fanning nazariy poydevori o‘z-o‘zidan falsafa fanlariga borib taqaladi.

Yuqoridagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, xorijiy sotsiolingvistika fani jahon mamlakatlarida rivojlangan va rivojlanib kelayotgan sohalardan biridir.

Insonlarning fikrlashi, nutqini bayon qilishi, kommunikativ aloqaga kirishi kishilik jamiyati bilan kechadi. Birgina, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy qadriyatlar, an’analar, o‘zbek xalqining, qolaversa qardosh xalqlarning ham ma’naviy merosi til va jamiyatsiz shakllanmaydi. O‘zbek millatiga xos bo‘lgan osoriy qadriyatlar, marosimlar ularning areal nuqtayi nazaridan tarqalishini o‘rganish uchun uchun bevosita, adabiyotlarga murojaat qilinadi, so‘rovnomasi usulidan foydalaniladi. Bu ham o‘z-o‘zidan tilga ehtiyojni tug‘diradi.

Fan-texnika shiddat bilan rivojlanayotgan hamda jahon tillariga bo‘lgan talab va qiziqishning ortishi kechayotgan bir zamonda, ijtimoiy dialektlar va noadabiy tilning shakllaridan foydalanish ham kuzatilayotgani ayni haqiqat. Shu o‘rinda, shoir To‘ra Sulaymonning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinlidir: “Til – millatning ko‘zgusi”, deydi. Bu ko‘zguni gard-g‘uborlardan, chang-to‘zonlardan soniya sayin tozalay borish har birimizning farzandlik, fuqarolik burchimizdir. Til o‘zagimizning, o‘zligimizning, o‘ziga bekligimizning bosh belgisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ulug‘ov N. Tilshunoslik nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Barkamol fayz mediya”, 2016, 192-bet.

⁸ Sh. Usmanova, N. Bekmuxamedova, G. Iskandarova. Sotsiolingvistika. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent.: 2014

2. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социоллингвистика. –М., 2001. –С. 7.
3. Usmanova Sh., Bekmuxamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. O'quv qo'llanma. – Toshtent, 2014.

SOTSIOLINGIVISTIK QARASHLARLARNING SHAKLLANISHI

Jumanazarova Husnibonu

TerDU magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada sotsiolingvistika fanining o'rganilish tarixi, uning fan sifatida rivojlanishida hissa qo'shgan tilshunos olimlar va ularning fikrlari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Til, sotsiologiya, sotsiolingvistika, ekstrolingvistika, J.A.Fishman qarashlari, ijtimoiy sharoitlar.

Sotsiolingvistika-tilning jamiyat hayotidagi roli, uning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy omillarining tilga bo'lgan ta'sir mexanizmi bilan bog'liq masalalarni o'rganadigan tilshunoslikning sohalaridan biridir. Sotsiolingvistika tilshunoslikning tilni va uning mavjud bo'lgan ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liqligini o'rganadigan sohasida. Ijtimoiy sharoitlar deganda, amaldagi til rivojlanayotgan shart-sharoitlar majmuyi, mazkur tildan foydalanayotgan kishilar jamiyati, bu jamiyatning ijtimoiy strukturasi, til egalarining yoshi, yashash joylar orasidagi farqlar, ularning muloqot vaziyatiga bog'liq bo'lgan nutqiy muomalasidagi farqlar tushiniladi. Sotsiolingvistikaning o'rganilish tarixi qanday?

Sotsiolingvistika haqida dastlabki fikrlar XVII asr boshlarida vujudga keladi. Tilning ijtimoiy jihatlari zamonaviy ma'noda birinchi bo'lib 30-yillarda hind va yapon tilshunoslari tomonidan o'rganilgan. Sotsiolingvistika atamasi birinchi marta Tomas Kallan Xodson 1939-yilda nashr ettirgan "Hindistondagi sotsiolingvistika" maqolasida ishlatilgan. Keyinchalik termin sifatida birinchi marta fanga 1952-yilda amerikalik sotsiolog G.Karri tomonidan kiritiladi. J.A.Fishman "Til jamiyatidagi ma'ruzalar" nomli to'plamiga kirgan 50-yillarning lingvistlari, sotsiologlari, kommunikatsiya sohasi mutaxassislarining maqolalarida sotsiolingvistikaga oid muommolar ko'rib chiqadi[4:11-13]. J.A.Fishman til sotsiologiyasida tadqiqotlarning kashshofi bo'lib, populyatsiyalarga ta'sirini va odamlarning ijtimoiy dinamikasi va xarakterini o'zgartirish usullarini tahlil qiladi. Shu tariqa u sotsiolingvistika o'z hissani qo'shadi. Ayrim sotsiolingvistlarning fikricha, sotsiolingvistikaning ildizlari rus tilshunosligidan izlash kerakligini aytishadi. Sotsiolingvistikaning shakllanishida I.A.Boduen de Kurtenining til hodisalarining ijtimoiy shartlanganligi, tilning qo'llanilishi va rivojlanishiga ekstrolingvistik ijtimoiy omillar ta'siri borasidagi tadqiqotlari muhim rol o'ynagan. 1974-yilda "Русский язык зарубежом" jurnalida e'lon qilingan maqolada N.G.Mixaylovskaya

Kurtenini "rus va sovet tilshunoligidagi sotsio-etnolingvistik tadqiqotlarning asoschisi" tarzida atagan. XX asrning 1-yarmida Fransiya, Rossiya, Chexiya tilshunoslik maktablarida tilning ijtimoiy tabiatiga katta jamiyat berilgan. Sotsiolingvistikani fan sifatida shakllanishiga rus tilshunoslaridan Y.D.Polivanov, L.P.Yakubin, fransuz tilshunoslaridan F.Bruno, A.Meye, M.Koen, chex tilshunoslaridan B.Gavraneklar ilmiy g'oyalari turtki bo'ladi [1:4-5]. Shuningdek, A.Meye til-jamiyat hayoti bilan bevosita aloqada bo'lgan ijtimoiy haqida bo'lgani uchun rivojlanishida differentsiatsiya va unifikatsiya jarayonlari mavjudligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, sotsiolingvistika tilning jamiyatga, jamiyatning tilga munosabatini, tilning jamiyatdagi mavqeyini belgilovchi, tilning mavjud ijtimoiy sharoit bilan rivojlanishini ochib beruvchi soha ekanligi, jamiyat va tilni bir-biridan ayro o'rganib bo'lmashligi, jamiyat rivoji tilga va uning ishlatilish darajasiga ham ta'sir ko'rsatishini, sotsiolingvistikani o'rganish orqali o'sha jamiyatning milliy tilini, dialektini o'rganishimiz mumkinligi haqida ma'lumot beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmonova Sh., Bekmuxamedova N., Iskandarova G. "Sotsiolingvistika" Toshkent – 2014.
2. Dadaboyev H., Usmonova Sh. "Xorijiy sotsiolingvistika". – Toshkent, 2014.
3. Arxiv.uz
4. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социоллингвистика. – М., 2001.

TOG'LARI BALIQLAR SISTEMATIKASI

Temirova.M.U

Andijon davlat pedagogika insituti
[temirovamavluda023.@gmail.com](mailto:temirovamavluda023@gmail.com)

Annotatsiya. Tezisdagi Tog'ayli baliqlar sinfi evolyutsiyasi, ahamiyati va sistematikasi haqida keltirilgan.

Annotation. The thesis presents the importance and systematics of the evaluation of the class of large fish.

Kalit so'zlar: Sinf, turkum, oila, tur, dengiz, akula, soat, baliq, ahamiyati.

Tog'ayli baliqlar eng qadimgi baliqlar hisoblanadi. Asosan dengiz va okean suvlarida tarqalgan. Skeleti tog'aydan tashkil topgan, ba'zilarida ohak tuzlari to'planishi mumkin, lekin suyak bo'lmaydi. Terisi plakoid tangacha bilan qo'llangan. Baliq qoldiqlari, tangachalar va qalqon shaklida faqat silur oxirlaridan (430 mln yil) ma'lum bo'lgan. Tog'ayli baliqlar Xordalilar tipini Jag'og'izlilar bo'limi Baliqlar sinfiga kiradi. Tog'ayli baliqlar sinfi plastinkajabralilar (Elasmobranchii) yoki akulasimonlar (Plagiostoma) hamda yaxlitboshlilar yoki

ximerasimonlar (Holocephali) kenja sinflariga bo'linadi. Tog'ayli baliqlar hozirgi kunda 700-730 tadan 900 tagacha tur kiradi boshqa adabiyotlarda 600 ta tur borligi aniqlangan. Akulalar bo'limiga 400 dan ortiq tur kiradi. Skatlarga shu sinf yarmidan ko'proq turi kiradi. Akulalar bo'limiga galeomorflar (Galeomorphi) va skvalomorflar (Squalomorphi) katta turkumlari kiradi. Har xil tishli buqasimon akula (Heterodontiformes) turkumiga 1oila, 1avlod, 8-9 tur kiradi. Ko'pjabralisimon (Hexanchiformes) turkumiga 7 oila, 32 tur kiradi. Gilamsimon yoki mo'ylovli (Orectolobiformes) turkumidagi 1ta oila, 1tur kirad. Lamnasimon (Lamniformes) turkumiga 6-7 oila, 15 tur kiradi. Katransimonlar ya'ni tikanli akulalar turkumi (Squaliformes) 6ta oila 100 tur kiradi. Arraburunsimon akulalar turkumi (Pristiophoriformes) 1oila 2urug' 4-5tur kiradi. Dengiz avliyolar turkumi (Squatiformes) 1 oila, 1avlod, 15-18tur kiradi. Skatlar (Batoidea) bo'limiga hozirda 4 turkum, 17ta oila va 530 yaqin tur ba'zi adabiyotlarda 300-350 tur keltirilgan. Arrabaliqlar (Pristiformes) 1 oila, 2 avlod, 7tur. Qoziqdumsimonlar (Myliobatiformes) 10 oila, 180 tur kiradi. Elektr skatlar (Torpedinidae) 4oila, 280 tur kiradi. Yaxlitboshlilar (Holocephali) kenja sinf Ximerasimonlar turkumi (Chimoeriformes) 3ta oila, 33tur kiradi. Dunyoda ovlanadigan baliqlarning 1,5-2% ni tog'ayli baliqlar tashkil etadi. Ayniqsa tog'ayli baliqlar go'shti Avstraliya va Yaponiya aholisi ovqat sifatida iste'mol qiladi. Yevropa va AQSHDA tog'ayli baliqlar mahsulotlari qishloq xo'jaligida foydalaniladi. Baliq yog'idan A vitamiga boyligi uchun tibbiyotga foydalaniladi. Hozirda har yili 300 mingtagacha akula ovlanadi. Akula va skatlar terisidan turli-tuman teri buyumlar, jumladan poyabzal tayyorlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Dadayev, K.Saparov "Umurtqalilar zoologiyasi,, Toshkent-2019
2. A.R.Jabborov "Baliqlar sistematikasi,, Samarqand-2020
3. J.L.Laxanov "Umurtqalilar zoologiyasi,, Toshkent-2005
4. S.Dadaev, Q.Saparov "Zoologiya,, Toshkent-2009

O'ZBEKISTON SUV HAVZALARIDA OVLANADIGAN BALIQLAR

Zaylobiddinov.T.M

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Bu tezisda O'zbekiston suv havzalarida baliqlarning ovlanishi va saqlanishi haqida ma'lumot ketirilgan.

Annotation. In this thesis information is given about the conservation of fish in the water bodies of Uzbekistan.

Kalit so'zlar: Baliqlar, Amudaryo, Sirdaryo, cho'rtan, laqa, oqcha, Amur, zog'ora, suv, mamlakat,

Tabiatda suv muhitidagi organizmlar juda katta ahamiyatga ega, ular biofiltr, ozuqa manbai, va boshqalar uchun kerakli organizmlar. Insonlar iste'mol qiladigan hayvon oqsilning turli xil mamlakatlarda 17%dan 83% gacha, o'rtacha 40% miqdori baliqlarga to'g'ri keladi. Suv muhitidagi inson ozig'ining 85% ini baliqlar tashkil etadi. Ovlanadigan baliqlarning 90% dan ortig'i dengiz va okeanlarga to'g'ri keladi. O'zbekistonda asosan Amudaryo va Sirdaryolardan baliqlar ovlanadi. O'zbekiston suv havzalarida baliqlarni 84 turi uchraydi. Shulardan 17ta tur "O'zbekiston Respublikasi Qizil kitob,,ga kiritilgan. Sirdaryo kurak buruni, Amudaryo kichik kurak buruni, zog'ora, oqcha, cho'rtan, oq qayroq, Orol mo'ylov baliq, qorako'z, va boshqalar. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda bir qancha baliqchilik xo'jaliklarida zog'ora baliq, laqqa, oqcha, tobon, qora baliq, ilonbosh, qizilko'z, oqqayroq, va boshqalar ovlanadi. Seldsimonlardan keyingi ovlanadigan baliqlar qatoriga zog'ora baliqlar kiradi, ya'ni ovlanadigan baliqlarning 14-20 %ini tashkil etadi. Karpsimonlar ichida asosan ovlanadigan baliq oqcha hisoblanadi. Oqcha baliq asosan Qora va Kasbiy dengiz havzalaridan ovlanadi. Lososlar hozirgi vaqtda kam ovlanadi. Buning sababi ular miqdori kamayib ketganligi. Lososlardan eng ko'p ovlaniladigan turlar gorbusha, keta va nerkalar kiradi. Lososlar go'shti va ikrasi mazali bo'ladi. O'zbekiston suv havzalariga ham Amur daryosidan Amur xumboshi va oq amur baliqlari olib kelib iqlimlashtirilmoqda. Ovlanadigan baliqlarni tabiiy sharoitda saqlash va ko'paytirish maqsadida davlatimiz tomonidan ko'plab chora tadbirlar amalga oshirish rejalashtirilgan. Bulardan quyidagilar kiradi: 1 Baliqlarning ko'paytirish joylarini himoya qilish. 2 Suv havzalarini ortiqcha chiqindilardan tozalab turish. 3 Daryo, ko'l va hovuzlarni sanoat korxonalaridan chiqqan zaharli oqava suvlardan va neft quyilishidan qo'riqlash. 4 Qimmatbaho baliqlarni iqlimlashtirish. 5Turlar va sonlari kamayib ketayotgan hamda O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob,,ga kiritilgan baliqlar turlarini muhofaza qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. S.Dadayev, K.Saparov "Umurtqalilar zoologiyasi,, Toshkent-2019
2. J.L.Laxanov "Umurtqalilar zoologiyasi,,Toshkent-2005
3. S.Dadayev, K.Saparov " Zoologiya,,Toshkent-2009

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА SMART ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФЙДАЛАНИШГА ҚЎЙИЛАДИГАН ПЕДАГОГИК ТАЛАБЛАР

Z.M.O`rinboyev

Sharof Rashidov nomidagi SamDU tayanch doktoranti

Замонавий ўқитиш жараёнида SMART технологиясидан фойдаланишга катта аҳамият берилмоқда, бинобарин SMART технологиялари ўқитишда

самарали бўлиб, ўқитиш сифатини оширишга хизмат қилади. Ўқув жараёнида SMART компьютер ва планшетлардан ўринли фойдаланиш муваффақиятли натижаларга олиб келади.

SMART технологиялар орқали фойдаланиладиган электрон ресурсларнинг афзалликларидан бири мустақил таълим олишни, ижодий фикрлашни, кўникма ва малакаларни шакллантириш орқали ўқув материаллари ва илмий маълумотларни ҳар томонлама чуқур ўзлаштирилишига мўлжалланганлигидадир. Шунингдек, ушбу турдаги қўлланмалар илмий маълумотларнинг жамланганлиги, таълим олувчиларнинг ёши ва физиологик хусусиятларини ҳисобга олиниши жиҳатидан анъанавий ўқув қўлланмаларидан афзалроқдир.

SMART технологиялар ёрдамида фойдаланиладиган электрон қўлланмада матнлар жозибали, таъсирли шаклда баён этилади, асосий тушунча ва таърифлар аниқ ва равшан ёзилади, шу билан бир қаторда фойдаланувчиларнинг билимларини назорат қилиш имкониятига эгадир.

Сўнгги вақтларда SMART технологиялар ёрдамида таълим соҳасида илмий аппарат шаклланиб, олий ўқув юртлари профессор-ўқитувчилари томонидан масофавий таълим тизимига мўлжалланган ўқитиш тизими яратишга катта аҳамият берилмоқда.

Бу давлат таълим стандартининг мутахасссислик ва йуналишлар бўйича фанларнинг алоҳида муҳимроқ бўлимлари бўйича тайёрланган электрон нашрлар, намунавий ва ишчи режалар, шунингдек, машқлар ва масалалар тўпламлари, харита ва схемалар альбомлари, тузилма атласлари, фанлар бўйича хрестоматиялар, диплом лойиҳаси бўйича кўрсатмалар, маълумотномалар акс этган электрон манбадир. SMART технологиялар ёрдамида дастурлаш тилларидан бирида ёки html тилида яратилган бирор фан ёки курс бўйича тугал мультимедиали ёки виртуал материални ўзида акс эттиради. SMART технологиялардан фойдаланишнинг икки хил, яъни on line ва off line вариантлари мавжуд. On line (очик) варианты фойдаланувчининг узоқ вақт глобал ёки локал тармоқда бўлишини назарда тутаяди, Off line (ёпиқ) варианты эса вақти-вақти билан тармоққа киришни назарда тутаяди.

SMART технологиялар асосида фойдалаш мумкин бўлган электрон ресурсларни яратишга қўйиладиган умумий талаблар мавжуд бўлиб, у қуйидаги расмда ўз ифодасини топган (1.2.1- расм).

SMART технологиялар асосида фойдалаш мумкин бўлган электрон ресурсларни яратишга қўйиладиган умумий талаблар

- SMART технологиялар асосида фойдалаш мумкин бўлган электрон ресурсларни яратишга услубий ҳайъат томонидан тасдиқланган ўқув дастурига мос келиши ва ўқув-услубий нашрларга қўйилган оддий талабларга жавоб бериши керак;
- Ўрганилаётган курснинг (ёки унинг қисмининг) мазмунини очиб бериши ва ўқув-услубий мақсадига эришиш учун етарли ҳажмга эга бўлиши керак;
- Ўқув-услубий мақсадларга эришишга хизмат қилувчи иллюстратив элементларни ўз ичига олиши керак (яъни, компьютернинг мультимедиали имкониятларидан мумкин қадар максимал даражада фойдаланиш лозим);
- Қўлланманинг бошқа бобларига гипермуружаат қилиш каби, зарур бўлганда ташқи веб-манбалар ва ресурсларга ҳам муружаат қилишни ўзида жамлаши керак;
- Талабанинг материални ўзлаштириши мустақил баҳолаш учун ўз-ўзини текшириш имконини берувчи назорат ва тест саволларига эга бўлиши керак.

Олий ўқув юртлири учун яратиладиган SMART технологиялар асосида фойдалаш мумкин бўлган электрон қўлланмалар олдида қуйидаги талаблар қўйилади:

- танланган фан мазмуни, таълим мақсадларига ҳамда давлат таълим стандартларига мос келиш;
- талабаларнинг мустақил билим олишини таъминлаш;
- бошқа фанлар билан уйғунлашиш (интеграция);
- фанга оид етарли миқдордаги маълумотларни ўзида мужассамлаштириш;
- талабага ўз-ўзини ёки профессор-ўқитувчига талабалар билимини баҳолаш ва назорат қилиш имкониятини яратиш.

Шу билан бир қаторда талабаларнинг мустақил фаолият кўникмаларини ривожлантиришга, ўзлаштирилган билимларни кундалик турмуш амалиёти билан боғлашга, таълим ва тарбияни ўзаро чамбарчас боғлашга, ўзлаштирилган билимларни мустаҳкамлашга хизмат қилмоғи зарур.



Турли хил услублар, ўқитиш шакллари маълум дидактик тизимни ташкил этади. Бу тизим ўқитишда шахсий йўналтирилган ёндашувни акс эттиради, танқидий ва ижодий фикрлашни етарлича муваффақиятли шакллантиришга ёрдам беради, ахборот билан ишлаш малакасини шакллантириш имконини яратади.

Буларга қуйидагилар киради:

- кичик гуруҳларда ўқитиш;
- ҳамкорликда ўқитиш (cooperative learning);
- лойихалар усули;
- турли даражали ўқитиш;
- “талаба сумкаси”;
- Интернет-технологиялар

Adabiyotlar

1. Сурхаев М.А. Развитие системы подготовки будущих учителей информатики для работы в условиях новой информационно-коммуникационной образовательной среды: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. / М.А. Сурхаев. М., 2010. – 46 с.
2. Тайлаков Н.И., Алламбергенова М.Н. Информатикадан интерактив ўқув мажмуалар яратишга қўйиладиган талаблар. Журнал “Физика, математика ва информатика”. -2009. -№2. –Б. 82-88.
3. Тайлаков Н.И., Алламбергенова М.Х. Информатика курсидан интерактив ўқув мажмуалар. Олий таълим муассасалари учун.

- Ўзбекистон Республикаси Давлат патент идорасининг расмий ахборотномаси. -2009. -№4. –Б. 271–272.
4. Тайлаков Н.И., Тайлақов У.Н. Узлуксиз таълим тизимида электрон малака ошириш тизимини яратиш муаммолари. Узлуксиз таълим сифат ва самарадорлигини оширишнинг назарий-услубий муаммолари. Республика илмий конференция материаллари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2012. –Б. 36-37.

SOTSIOLINGVISTIKA SOHASIDA TILNI STANDARLASHTIRISH MUAMMOLARI

Eshqulova Nargiza Normo'minovna
Termiz davlat universiteti II bosqich magistranti
eshkulovanargiza8@mail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning sotsiolingvistika sohasi, tilning ijtimoiy jamiyatdagi tutgan o'rni, tilni standartlashtirishning amaliy ahamiyati. Sotsiolingvistikada til holati va ijtimoiy muloqot jarayonida kod almashinuv jarayoni.

Kalit so'zlar: sotsiolingvistika, til holati, standartlashtirish, kod almashinuvi, asosiy til, o'rta til, elita til.

Milliy birlikni ta'minlash- ommaviy savodxonlikni oshirish va ilm-fanni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tilni to'kis tadqiq etish uchun tilshunoslik doirasidagina ish ko'rishning kamligi bugun shu fan mutaxassislarning hech biriga sir emas. Shu bois, zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda boshqa fanlar yutuqlaridan ham keng foydalanilmoqda.

Ana shunday urinishlarning samarasi o'laroq sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, psixolingvistika, pragmalolingvistika kabi sohalar rivoj topmoqda va bu sohalar tilga, an'anaviy strukturalizm dan farqli ravishda doimiy harakatdagi, o'sish- o'zgarishdagi hodisa sifatida yondashoyotgani bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sotsiolingvistika ham jamiyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada paydo bo'lgan soha sifatida tilning asoslarini jamiyatdan, jamiyatning asoslarini tildan qidiradi, ijtimoiy-siyosiy omillarning tilga ta'siri va yana boshqa masalalarni tekshiradi.

Til o'zining tabiiy tizimidan tashqari individual, ijtimoiy va madaniy institut bo'lib, hayotning barcha sohalarini bilan chambarchas bog'liqdir. Binobarin, til shaxslar o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarda eng muhim muloqot vositasidir. Til jamiyatni shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Jamiyat va til bir xil institutlar emas. Til farqlarini yuzaga keltiradigan eng aniq omillar zamon, makon va ijtimoiy tuzilishdir. Til shuningdek, etnik xususiyatlarga, statistikaga, oilaga, jinsga, yoshga, individuallikka va boshqa omillarga qarab o'zgaradi.

Shaxsning tili asosan uning oilasi va yaqinlari doirasi shakllanadi. Boshqa tomondan, standart til, odatda, rasmiy ta'lim va ommaviy axborot vositalari orqali yordamchi til sifatida olinadi. Til va jamiyat o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar sotsiologiya va tilshunoslik kesishgan murakkab jarayonlarni yuzaga keltiradi. Boshqacha qilib aytganda, muloqotda inson xatti-harakatlarining oldindan aytib bo'lmaydigan sifati ikki shaxmatchining o'zaro harakatlariga o'xshash grammatik tuzilishga asoslangan xatti-harakatlarning qarama-qarshiligi bilan bog'liq hodisaga o'xshash. Shaxmat donalari harakati jarayonida noverbal munosabat mavjud bo'lib, og'zaki muloqotda, xuddi shaxmatda bo'lgani kabi, cheklangan qoidalarga qaramay, ma'lum muhitda cheksiz turdagi turli xil narsalarni aytish va tushunish uchun mos sifat mavjud. Biroq, tilning vazifalari faqat ma'lumot uzatish, jo'shqinlik, murojaat, munosabat, referent boshqalar bilan chegaralangan. Ular istalgan vaqtda gaplashib, ushbu funksiyalarning biridan boshqasiga o'tishadi. Ya'ni, nutqiy til har doim ham bir xil bo'lavermaydi, u turli muhit va vaziyatlarga mos ravishda o'zgarib turadi. Bir til vaziyati doimiy ravishda boshqa til vaziyati bilan almashinib turadi. Til maqomi- ijtimoiy yoki mintaqaviy o'zgarishlardan tashqari, muayyan maqsadlar uchun tilni farqlashdir. Til vaziyatlari nutqning mavzusi yoki sohasiga, yozma, og'zaki, elektron muhitga va rasmiyatchilik darajasiga qarab farqlanadi. Masalan, "ona shaharda" yoki do'stona muhitda ishlatiladigan til rasmiy jarayonda ishlatiladigan til bilan bir xil emas. Bu moslashuvchanlik ko'p jihatdan muloqotda nizolar va salbiy holatlarning oldini oladi. Aynan mana shu o'zgaruvchanlik va xilma-xillik lingvistik muloqotni boshqa nolisoniy muloqotdan ajratib turadi.

Umuman olganda, sotsiolingvistikada uchta til holatini qayd etish mumkin:

1. Asosiy til - bu do'stlar, oila va boshqalar davralarida ishlatiladigan juda norasmiy kundalik suhbatlar, mahalliy shevaga oid so'zlar, jargon, qo'pol so'zlar va boshqalar kiradi. Bu asosiy til doirasiga kiradi. Asosiy til - jamoatchilik tomonidan past obro'li til maqomi va "to'g'ri tildan og'ish" sifatida qaraladi.

2. O'rta til - rasmiy sharoitlarda o'qimishli odamlar tomonidan qo'llaniladigan til turi.

3. Elita til - bu tildan rasmiy foydalanishning eng yuqori darajasi. Giperto'g'ri shakllar grammatika va lug'atda birinchi o'rinda turadi. Juda rasmiy sharoitlarda ishlatiladigan tantanali til turlari ushbu qatlam doirasiga kiradi.

Ijtimoiy muuloqot jarayonida kod almashinuv jarayoni faol olib boriladi. Og'zaki muloqotda tilning bir funktsiyasidan ikkinchisiga, bir til holatidan ikkinchisiga yoki bir tildan (variantdan) boshqa tilga (variantga) o'tish **kod almashinuvi** deb ataladi. Masalan, oilasi bilan o'zbek tilida gaplashadigan, ish

joyida rus tilida muloqot qiladigan va arab tilida namoz o'qigan kishi ko'p tilli muhitda til tanlash, ya'ni kodni o'zgartirishga misol bo'la oladi.

Uyida oilasi bilan nonushta qilib, ishga ketayotgan davlat xizmatchisi ish vaqtida turli ijtimoiy qatlamlardan bo'lgan shaxslar bilan uchrashganda, rahbariga "hisobot" berganda, kechki payt xonadondagi ijtimoiy ob'ektlarda do'stlari bilan dam olayotgan davlat xizmatchisi, o'zining individual tilini ijtimoiy jarayonlardagi munosabatlar sifatiga va og'zaki muloqotda turli grammatik darajalarga moslashtiradi, ya'ni kodni o'zgartiradi.

Kodning o'zgarishi, shuningdek, jins, yosh, psixologik holat, ijtimoiy-iqtisodiy daraja kabi turli xil o'zgaruvchilarga bog'liq bo'lib, davomiylik va hajm uchun hech qanday o'lchov berilmaydi. Bundan tashqari, bir so'z yoki bir nechta kod jumlarini o'zgartirish mumkin. Jismoniy yaqinlik-masofa, yuzma-yuz, yurish-yugurish, turish-o'tirish kabi omillar ham kodni o'zgartirishda til holatiga qarab funksiyalarga ega. Talabani minbardan chaqirayotgan o'qituvchi, fuqarolar bilan muloqotda bo'lgan davlat amaldori yoki sudlanuvchilar va guvohlarga "yuqoridan" qaraydigan sudya ham jismoniy va lingvistik jihatdan "vaziyat ustunligiga" ega.

Muhtasar qilib aytganda, til sotsializatsiyani ta'minlovchi institutlardan biri bo'lishidan tashqari, milliy unitar siyosiy tizimning ta'minlanishi va suverenitetni amalga oshirish vositasidir. Davlat til siyosati bilan respublikaning bir tilli unitar tuzilmasini makrodarajada saqlab qolgan holda, standart tilni ijtimoiy hayotning barcha jarayonlarida hukmron bo'ladigan chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak, bu esa uning mikrodarajada mavjudligining ajralmas qismidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. AKSAN Dog'an, Tilshunoslik tanlovi, 1982Anqara: TDK nashrlari.
2. ANSHEN Frank "Tilni rejalashtirish", Tilshunoslik bo'yicha qo'llanma 2003 Oksford: Blekvell.
3. BRINDLEY Susan (tahrirlangan), ingliz tilini o'qitish metodikasi 1995 London va Nyu-York: The
4. Dadaboyev. H , Usmonova.Sh. Xorijiy sotsiolingvistika. 2013. O'quv qo'llanma.

БАНКЛАРАРО СОҒЛОМ РАҚОБАТНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

М.А. Тлеуов

Қорақалпоқ давлат университети, мустақил изланувчиси

Тараққий этган мамлакатларнинг тажрибаси кўрсатадики, соғлом банклараро рақобатни шакллантириш мамлакат банк тизимининг

барқарорлигини таъминлашнинг муҳим аҳамиятга эга бўлган зарурий шarti ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг дастлабки йилларидан бошлаб мамлакатимизда бозор муносабатлари талабларига жавоб берадиган икки поғонали банк тизимини шакллантириш вазифаси қўйилди ва ушбу вазифани бажариш учун жиддий чора-тадбирлар амалга оширилди. Хусусан, 1993-1996 йилларда “Асакабанк” (автомобиль саноати корхоналарини кредитлаш мақсадида), “Ғаллабанк” (ғалла етиштиришни молиялаштиришга), “Тадбиркорбанк” (кичик бизнес субъектларини молиялаштиришга), “Алоқабанк” (алоқа ва телекоммуникация корхоналарини ривожлантиришга) мўлжалланган бир қатор ихтисослаштирилган банклар ташкил этилди⁹.

Кейинчалик ушбу ихтисослаштирилган банклар фаолиятини ривожланиши уларни универсал тижорат банкларига айлантириш имконини берди. Бу эса, ўз навбатида, банклараро соғлом рақобат муҳитини яратиш учун замин яратди.


Бироқ, республикамиз банк тизимини ривожлантиришнинг замонавий босқичида банклараро соғлом рақобат муҳитини шакллантиришга тўсқинлик қилаётган айрим омилларнинг мавжудлиги кузатилмоқда. Ана шундай омиллардан бири – бу хусусий тижорат банклари фаолиятининг ривожланиш даражасини паст эканлигидир.

2022 йилнинг 1 январь ҳолатига, Ўзбекистон Республикаси тижорат банклари активларининг 81,5 фоизи давлат банклари активларининг ҳиссасига тўғри келди, бошқа банкларнинг улуши атиги 18,5 фоизни ташкил қилди¹⁰. Бу эса, акциядорлик-тижорат банклари ва хусусий банклар фаолиятининг ривожланиш даражасининг паст эканлигидан далолат беради.

Республикамизда банклараро соғлом рақобат муҳитини шакллантириш жараёнига салбий таъсир этаётган омиллардан яна бири бўлиб, йирик банкларнинг ихтисослашув жараёнини чуқурлашиб бораётганлиги ҳисобланади. Хусусан, Агробанкнинг қишлоқ хўжалигига, Саноатқурилишбанкнинг йирик саноат корхоналарига молиявий хизматлар кўрсатишга ихтисослашувини чуқурлашаётганлигини кузатиш мумкин. Бу эса, банклараро рақобат муҳитини шакллантиришга нисбатан салбий таъсирни юзага келтиради. Бунинг натижасида, тижорат банкларининг кредит портфелини диверсификация қилиш имконияти чекланиб қолмоқда.

⁹ Ўзбекистон Республикаси банк тизими. Ф.М. Муллажонов таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. -Б. 31-32.

¹⁰ Банк тизимининг таққослама кўрсаткичлари//www.cbu.uz (Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки).



1-расм. Ўзбекистон Республикаси тижорат банклари кредитларининг умумий ҳажмида муаммоли кредитларнинг салмоғи¹¹

1-расм маълумотларидан кўринадикки, 2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикаси тижорат банклари томонидан берилган кредитларнинг умумий ҳажмида муаммоли кредитларнинг салмоғи ўсиш тенденциясига эга бўлган. Бунинг устига, 2022 йилнинг 1 январь ҳолатига кўра, ушбу кўрсаткичнинг амалдаги даражаси унинг умумэтироф этилган даражасидан (3,0%) сезиларли даражада юқори бўлган. Ушбу ҳолатлар тижорат банкларининг ликвидлигига нисбатан кучли салбий таъсирни юзага келтиради.

2021 йил 1 январь ҳолатига муаммоли кредитларнинг таркибида иқтисодий тармоқлари кесимида саноатнинг улуши 28 фоизни, савдо ва умумий овқатланиш 13 фоизни, қишлоқ хўжалиги 11 фоизни, уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш 8 фоизни, қурилиш 5 фоизни, транспорт ва коммуникация, моддий ва техник таъминотни ривожлантириш 1 фоизни ҳамда бошқа соҳаларнинг улуши 32 фоизни ташкил этди¹².

Юқорида қайд этилган муаммоларни ҳал қилиш, фикримизча, қуйидаги чора-тадбирларни амалга оширишни тақозо этади:

1. Хусусий тижорат банклари фаолиятини молиявий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш мақсадида, биринчидан, улар тўлайдиган фойда солиғи ставкасини пасайтириш лозим (солиқ ставкасини тижорат банклари учун белгиланган 15% қилиб эмас, балки корхоналар учун белгиланган 8% қилиб белгилаш лозим); иккинчидан, хусусий банкларнинг кредитларини пул

¹¹ Расм муаллиф томонидан Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг статистик маълумотлари асосида тузилган.

¹² Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг 2020 йилдаги фаолияти тўғрисида ҳисобот//www.cbu.uz.

массасининг ўсишига таъсирини сезиларсиз эканлигини ҳисобга олган ҳолда, уларга нисбатан қўлланилаётган мажбурий захира ставкаларини пасайтириш лозим.

2. Йирик давлат тижорат банкларига нисбатан кредит портфелининг тармоқ хусусиятига кўра диверсификация мезонини пруденциал талаб сифатида ўрнатиш керак.

Халқаро банк амалиётида умумэтироф этилган мезондан келиб чиққан ҳолда, тижорат банклари кредитларининг битта тармоқда тўпланадиган қисмига нисбатан 25 фоизли юқори меъёрий чегара ўрнатиш лозим.

ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ И ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ М.БЕХБУДИ

Бегбудиева П.Ш.

*Старший преподаватель кафедры
английского языка и литературы
Самаркандский государственный
институт иностранных языков
parvinabegbudieva@gmail.com*

Аннотация. В данной статье рассматриваются фундаментальные, научно-методические идеи М.Бехбуди по вопросам обеспечения процветания и устойчивого развития Туркестана через реформирование системы образования в сфере науки. Высказаны предварительные мнения о деятельности школ, созданных в Туркестане, и необходимости деятельности национальных интеллектуалов в этих школах.

Ключевые слова: Просвещение, джадидизм, Туркестан, философия, история, образование, политический деятель.

М.Бехбуди в историю туркестанской религиозно-общественной мысли вошел как величайший мыслитель, лидер джадидского движения, известный просветитель, философ, литератор, политический деятель и драматург. Бехбуди происходил из зажиточной семьи. Отец Махмудходжи был крупным специалистом ислама, занимавшийся исследованиями по вопросам религии. Это не могло не сказаться и на мировосприятии мальчика.

Помимо литературы, истории, географии он глубоко изучал политологию. Через газеты и журналы знакомился с новостями, которые происходят в мире. Поездки в Мекку, Египет и Стамбул коренным образом изменил его мировосприятие. Он стал сотрудничать и печататься в газетах и журналах, проблемы, которые он поднимал в своих статьях были направлены на улучшение образования и развитие искусства. Окончив медресе, он

занимал должность муфтия (толкователя шариата) при казийских судах Самарканда, а также занимался торговой деятельностью.

М. Бехбуди сыграл немаловажную роль в развитии джадидизма. Его считают отцом туркестанского джадидизма. «Едва ли кто из туркестанских джадидов того времени, — писал Ф. Ходжаев, — может сравниться с ним по политической, общественной деятельности и разнообразию знаний»[1]. А старейший востоковед Л. Азизода еще в 1926 г. ставит его в ряд величайших гуманистов и мыслителей Востока: «Если в Узбекистане следует увековечить третье лицо в науке и культуре после Навои и Улугбека, несомненно, это должен быть памятник Бехбуди».[2]

Бехбуди был не только знатоком исламской традиции в философии. Он часто обращается к наследию Канта, серьезно интересуется новейшими течениями в европейской философии: позитивизмом, неокантианством, неогегельянством, махизмом. Все работы Бехбуди посвящены судьбоносным проблемам Туркестана, от просвещения до обретения независимости. Совокупность его взглядов выстраивается в стройную теоретическую концепцию развития общества и страны с разработкой практических методов ее осуществления.

В рамках традиционной религиозно-ориентированной системы образования Бехбуди настаивает на преподавании и освоении широкого спектра естественных и общественных наук, которые он объединяет под общим понятием «интеллектуальные науки» («аклли илим-лар»), тем самым, возрождая традиции рационализма. Большое значение мыслитель придает изучению истории и географии, тем самым он преподает историю и географию в собственной школе, которую он открыл. По его мнению, история объясняет все: причины расцвета и упадка государств, состояние веры людей, причины эволюции мусульманства, извращения канонических устоев ислама. Ни одно знание не совершенно без знания истории. «Прошлое есть мера будущего» — в этом знаменитом изречении мыслителя формулируется его методологическое кредо по отношению к истории и историческому знанию.

1. Ф. Ходжаев. Избр. Труды в 3-х томах. Т. 1. С. 78.

2. Л. Азизода. Бехбудий. «Маориф ва уқитувчи», 1926, № 2.

В статье «История и география», опубликованной в созданном им журнале «Ойна» («Зеркало»)*Бехбуди пишет: «Чтобы верить в жизнь, чтобы быть совершенным и справедливым, надо изучать историю и знать ее». И далее: «Для каждого человека, стремящегося быть сведущим о небесной и

земной жизни, надо изучать историю, ибо в истории познаются истоки и происхождение всего сущего».[3]

Бехбуди связывал прогресс своего народа не только с просвещением, но и с коренным изменением его политического статуса, с обретением независимости. Во многих своих статьях и в своей деятельности он разоблачал колониальную политику русского царизма и Временного правительства, критиковал их законы, направленные на ухудшение положения местного населения. Но независимость невозможно обрести без борьбы, убежден Бехбуди. «Необходимо знать, - пишет он, - что права завоевываются, а не даются. Народ каждой нации и страны завоевывает свои религиозные и политические права путем действий».[4]

Перу Бехбуди принадлежит проект устройства Туркестана, включивший в себя выборные органы власти (Марказ и Мажлис), отмену системы казийских судов и введение вместо них государственных судов, апелляционных комиссий и Высшей судебной палаты.

Весьма разнообразен диапазон тем, которые поднимает Бехбуди. Это вопросы образования, политическая проблематика, вопросы брака и гендерного воспитания, историко-географические темы, вопросы языковой политики, проблемы этнографии, и многие другие. Главным детищем Бехбуди явился созданный им в 1913 г. Журнал «Ойна», ставший рупором джадидов и быстро получивший широкую популярность. Публикации журнала классифицировались по тематике и жанру на научно-познавательные и литературные.

3.«Ойна». 1914. № 27. С. 503-504.

4. М.Бехбудий. Баёни хдк.ик.ат. «Улур Туркистон», 1917 йил 12 июн.

Журнал широко освещал новые процессы в культурной и социальной жизни общества; в нем также содержалась информация о кино, театрах, новых библиотеках и читальных залах. Особое место занимали научные статьи по общественным дисциплинам. Диапазон корреспонденций из зарубежных стран был весьма широк: от Японии до Америки.

Литература

1. Ф. Ходжаев. Избр. Труды в 3-х томах. Т. 1. С. 78.
2. Л. Азизода. Бехбудий. «Маориф ва ук,итувчи», 1926, № 2.
3. «Ойна». 1914. № 27. С. 503-504.
4. М.Бехбудий. Баёни хдк.ик.ат. «Улур Туркистон», 1917 йил 12 июн.
5. П.Бегбудиева” XORIY FILOLOGIYA”, til • adabiyot • ta’lim ilmiy–uslubiy jurnal Samarqand 1(78)/ 2021

**ИНГЛИЗЧА «ХАЛҚАРО ТУРИЗМ» ТЕРМИНОЛОГИЯ
ГУРУҲЛАРИДА СИНОНИМИЯ ҲОЛАТИ**

*Дилдора ХОЛБОЕВА,
Тошкент тиббиёт академияси
Ўзбек ва хорижий тиллар кафедраси
инглиз тили ўқитувчиси
dildora.kholboeva1985@gmail.com*

Аннотация. Мақола турлича эшитиладиган, лекин маъносига кўра бир хил бўлган ёки ўхшаш, яқин маъносига эга бўлган сўзлар яъни синонимлар ҳақида сўз юритилади. Умумий истеъмол қилинадиган тилда ва терминологияда синонимия тушунчаси деганда, баъзан бир хил бўлмаган ҳолатлар тушунилади.

Калит сўзлар: синоним, абстракт, дублетлар

Аннотация. В статье говорится о синонимах, словах, по-разному звучащих, но одинаковых по значению или имеющих сходное, близкое значение. В просторечии и терминологии понятие синонимии иногда относится к разнородным случаям.

Ключевые слова: синоним, реферат, дублеты.

Annotation. The article talks about synonyms, words that sound differently, but are the same in meaning or have a similar, close meaning.

In common parlance and terminology, the concept of synonymy sometimes refers to dissimilar cases.

Key words: synonym, abstract, doublets.

Сўзнинг семантик таркибий тузилишининг таҳлили унинг маъноси мустақиллигининг даражасини ва унинг чегараларини очиқ-ойдин кўрсатади, яъни бунда бир сўзнинг даражасида тизимли муносабатлар тавсифланади, синонимия (synonimia – бир номлилик) эса маъноси яқин бўлган сўзларнинг гуруҳларида тизимли лексик муносабатларнинг ёрқин ва ишончли исботи деб ҳисобланади. Айнан иккита ва ундан ортиқ лексик бирликларнинг синонимлашуви мумкинлиги уларнинг бир-бири билан ўзаро семантик алоқасининг кучи ҳақида гапириш имконини яратади. Терминларнинг синонимияси -терминлар тушунчалари ва терминлар номувофиқлиги турларидан бири деб ҳисобланади, яъни бу ерда тушунчани расман ифодалашнинг воситалари ортиқчалиги намоён бўлади. Терминларнинг синонимияси, яъни бир тушунчани номлаш учун бир нечта махсус лексик бирликлардан фойдаланиш муаммоси атамашуносликнинг асосий ва энг муҳим муаммоларидан бири бўлиб қолмоқда.

Тушунчалар ва тасаввурлар номланиши синонимиясининг муаммоси

ҳам махсус, ҳам умумистеъмол қилинадиган лексикада мавжуд бўлади.

Энг аввало, умумий истеъмол қилинадиган тилда ва терминологияда синонимия тушунчаси деганда, баъзан бир хил бўлмаган ҳолатлар тушунилишини қайд этиш лозим.

Умумий адабий тилда синонимлар – турлича эшитиладиган, лекин маъносига кўра бир хил бўлган ёки ўхшаш, яқин маъносига эга бўлган сўзлар. А.А. Реформатский бундай таърифни ноаниқ ва тушунарли бўлмаган, деб баҳолайди ва ушбу ҳолатни тушунишга жиддий кўшимча киритади, бу кўшимча шундан иборатки, синоним сўзлар «худди шу нарсани номлайди, лекин уни турли тушунчалар билан боғлайди, ва шу билан унинг номи орқали ушбу нарсанинг турли хусусиятларини очиб беради».

Синонимлар матннинг стилистик жиҳатдан амалга ошувига, шунингдек нутққа бойлик ва турли-туманликни бағишлашга ўта ижобий даражада таъсир этади. Лекин бу хусусияти фақат умумий истеъмол қилинадиган тилда қимматли бўлади. Умумий истеъмол қилинадиган лексикада маъносининг тўлиқ эквивалент бўлиши амалда учрамайди, деб фикр юритиш учун асос бор. Умумий адабий синонимлар терминологик синонимлардан айнан ушбу энг жиддий белгилари билан фарқ қилади. Терминологияда синонимлар айни бир хил тушунча билан боғланади.

Бунда илмий нутқ ахборотни узатиш учун мўлжалланганлигини ҳисобга олиш лозим. Стилистик нейтраллик кўпчилик атамашунослар томонидан терминнинг, атаманинг ажралмас хусусияти, белгиси сифатида қаралади.

Лекин, масалан, гуманитар фанларда баъзи тушунчаларни субъектив талқин этиш имконияти тушунчаларнинг чегаралари ювилиб кетишига, яъни йўқолишига олиб келади, бу эса терминлар маъносининг беқарор бўлишига сабаб бўлади, яъни уларнинг контекстдан мустақил маънога эга бўлиши даражасини камайтиради. Турли мафкуралар ўртасида кураш, ҳамда тушунчаларни субъектив талқин этиш нутқдаги терминларнинг ҳис-туйғу-эмоционал бўёқлари пайдо бўлишига олиб келади. Бунда энг кўп қарор топган эмоционал-баҳолаш коннотациялари айрим ҳолатларда тилга ҳам кириб бориши, яъни контекстдан ташқарида ҳам сақланб қолиши мумкин.

Бундай ҳолатларда терминологик дублетлар, яъни маъносига кўра тўлиқ бир хил бўлган терминлардан ташқари, синоним терминлар, яъни маъносига кўра тенг бўлган, ва эмоционал бўёқларнинг йўналиши ва даражаси билан фарқ қиладиган терминлар пайдо бўлади. Бу ҳолатларда ҳам, ёки вариантлардан бирининг ягона вариант сифатида мустақамланб қолиши, ёки не только терминларнинг нафақат стилистик, балки маъно жиҳатидан ҳам фарқлана бошлаши йўли билан, бир тушунча учун битта термин

сақланишига терминологик мойиллик намоён бўлади, деб тахмин қилиш жоиз бўлади.

Терминологияда синонимлар (дублетлар) пайдо бўлишининг сабаблари ва манбалари қисман умумий адабий тил билан бир хил бўлса-да, қисман ундан фарқли бўлади.

Синонимия (ўзининг намоён бўлишининг барча шаклларида) терминологик тизим шаклланишининг илк босқичлари учун, энг яхши терминни табиий (ва сунъий) танлаш ҳали юз бермаган, ва терминологик номлашнинг кўпгина таклиф этилган вариантлари биргаликда мавжуд бўлган даври учун айниқса хос бўлади. Буни ҳозир ҳам, биз томонимиздан ўрганилаётган лексик-семантик тизим мансуб бўлган янги билим соҳалари юзасидан терминология шаклланиши мисолида кузатиш мумкин.

Терминларнинг синонимияси одатда кўпгина замонавий терминологияларнинг нуқсонлари каби қайд этилади. Бир нечта синонимик терминларнинг мавжудлиги улардан фойдаланувчи мутахассисларда уларнинг орасидаги фарқни (кўпинча бу фарқ жиддий бўлмаса ҳам) излаб топишга интилиш ҳосил қилади (бу ҳолат турли сўзлар турли маънога эга бўлишига ўрганиб қолганлиги билан изоҳланади), бу эса уларнинг мазмуни ўзгариб, бузиб кўрсатилишига олиб келади.

Тил фаолияти ва ривожланишининг умумий лексик-семантик конуниятлари терминологик тизимларга ҳам тааллуқли бўлади.

Демак, терминлар синонимияси ҳақида гапирганда, ушбу белгининг маълум ва реал мавжуд бўлган тааллуқлилигини, мансублигини ҳисобга олиш лозим. Баъзи тадқиқотчилар бу жиҳатдан қатъийроқ фикр билдиради, ва умумий изоҳ луғатида термин сўз фақат сўзнинг ўзи, тил тизимининг элементи сифатида таърифланиши лозим, деб ҳисоблайди. Терминларга тилдаги бирорта ҳолат бегона бўлмайди. Уларга антонимия (ҳаттоки ўлчаш усули сифатида яқин бўлади), синонимия (синонимларнинг тенг маъноли сўзлар сифатида одатдаги фарқи уларнинг номлаш усулига кўра, хусусан маънони белгилашнинг термин орқали ифодалаш мавжудлиги ёки йўқлигига кўра фарқи), полисемия хос бўлади. Лексик ҳолатларнинг тил хусусиятлари абстракт ва терминологик бўлмаган лексикага ҳам, муайян ва терминологик лексикага ҳам хос бўлади.

Адабиётлар

1. Покровский М.М. Избранные работы по языкознанию. – М.,1959. – Б.82.
2. Гринев- Гриневич С.В. Терминоведение. Учебное пособие. – М.: Академия, 2008. – Б.102-104.
3. Реформатский А.А. Введение в языковедение. – М.,2005. – Б. 97

ИНГЛИЗ ТИЛИДАГИ ТЕРМИНОЛОГИК ГУРУХДА СИНОНИМИЯ
ҲОЛАТИ

Дилдора Холбоева

Тошкент тиббиёт академияси

Ўзбек ва хорижий тиллар кафедраси

инглиз тили ўқитувчиси

dildora.kholboeva1985@gmail.com

Аннотация. Ушбу мақолада синонимик терминларнинг таҳлили мисоллар орқали курсатилган. Инглиз рўйхатида график синонимларни ажратиб кўрсатиш соф шартли ҳолат деб ҳисобланади.

Калит сузлар: вариативлик, абсолют синоним, композит.

Аннотация. В данной статье показан анализ синонимичных терминов с примерами. Выделение графических синонимов в англоязычном списке считается чисто условным.

Ключевые слова: вариация, абсолютный синоним, составной.

Annotation. This article shows the analysis of synonymous terms with examples. The selection of graphic synonyms in the English-language list is considered conditional.

Key words: variation, absolute synonym, composite.

Баъзи тадқиқотчилар синонимия ва вариантликни фарқлайди ва вариантликни синонимиянинг бир тури сифатида қараш мумкин эмас, деб ҳисоблайди. Лекин ҳатто бир ҳарфи билан фарқланадиган лексемалар ҳар хил мустақил терминлар бўлиб, абсолют синонимлар белгиларига мос бўлади, чунки улар бир тушунчани номлаш учун хизмат қилади.

Абсолют синонимлар – айнан тенг маъноли синонимлар; **шартли синонимлар** – ўхшаш маъноли синонимлар (маълум шароитларда абсолют синонимлар сифатида қўлланади)

С.В.Гринев-Гриневич абсолют синонимларни биринчи навбатда *вариантларга* – термин шаклининг ўзгариши орқали ҳосил қилинган абсолют синонимлар, ва *дублетларга* – турли шакли бўлган абсолют синонимларга ажратади.

Тадқиқ этилган инглиз терминологик гуруҳида терминлар вариативлигининг қуйидаги мисоллари аниқланган:

1. door-keeper – doorkeeper; time-table – timetable; custom-house – customhouse; eco-tourism – ecotourism – *ушбу терминлар график вариантларга киради, чунки улар ўзининг график кўриниши билан, яъни ёзилиши билан фарқланади.*

Инглиз рўйхатида график синонимларни ажратиб кўрсатиш соф шартли

ҳолат деб ҳисобланиши мумкин, чунки замонавий инглиз тилида икки хил (баъзан уч хил) ёзилиш шаклига эга бўлган ниҳоятда кўп сўзлар бор, ва бу оддий ҳолат деб қаралади.

2. *campground – campsite; itinerancy – itineration* каби фақат сўз ясовчи аффикслари билан фарқланадиган терминлар жуфтлари, сўз ясовчи вариантлари сонига киритилган.

3. *chartered flight – charter flight* терминлари фақат сўз ўзгартувчи аффикс билан фарқланадиган морфологик вариантларга мисол бўлади.

4. Синтаксик вариантлар – синтактик ясалиши модели (сўзларнинг тартиби ва уларнинг ўртасидаги муносабат) билан ажралиб турган сўз бирикмаларидан иборат бўлган терминларнинг вариантлари: *package tour – tour package; round-the-world trip – world round trip*.

5. *Композит вариантлар - сўзларни қўшиш ёки кўп компонентли термин асосларини қўшиш билан ҳосил қилинган морфологик-синтактик вариантлар: air terminal- airterminal; round trip ticket – round-trip ticket; return ticket – return-ticket; air hostess - air-hostess; guide interpreter - guide-interpreter; jeep safari – jeep-safari; baggage room – baggage-room; baggage man – baggage-man; boarding house - boarding-house; round trip – round-trip; half pension – half-pension; guide book – guidebook; self drive tour – self-drive tour; sex tour – sex-tour; custom house – custom-house; custom house – customhouse; tour leader – tourleader; tour operator – touroperator.*

Полилексемали терминнинг ичида ҳатто битта термин элементида композиция жараёни аниқланган бўлса ҳам, синонимларни композит вариантларга киритиш мақсадга мувофиқ бўлишини қайд этиш лозим.

6. Эллиптик вариантлар, яъни кўп компонентли терминнинг маъноси ўзгартирилмаган ҳолда, уни эллипсис (қисқартириш) орқали ҳосил қилинган вариантлари ҳам морфологик-синтактик вариантларга мисол бўла олади: *Pullman coach - Pullman; Pullman coach – coach; air terminal – terminal; single ticket - single; return ticket – return; air hostess – hostess; tour voucher – voucher; lounge pavilion – lounge; departure lounge – lounge; all-inclusive tour – all-in; cruise liner – liner; double room – double; duplex apartment – duplex; single room – single; triple room – triple; public house - pub; full pension - pension; Full American Plan – American Plan; return trip - return; charter flight – charter; safari tour – safari; buffet style – buffet; tour leader – leader; all-expense sightseeing tour – sightseeing tour; tour guide – guide; express train – express.*

7. *boat hotel – boatel* каби терминлар аббревиатура – қисқартма вариантларга, яъни кўп компонентли терминнинг сўзлари қисмларини қўшиш орқали ҳосил қилинган вариантларга киритилган.

8. Бир сўзли тўлиқ вариантнинг охиридаги қисмини кесиб ташлаш орқали ҳосил қилинган кесилган варианты ҳам, қисқа вариантнинг бир тури ҳисобланади, масалан: cancellation – canx; return-ticket– return; air-hostess – hostess; railroad – road; railway – rail; all-inclusive tour – inclusive tour; camping – camp; luncheon – lunch; passenger – рах; familiarization trip – fam trip; tourleader – leader.

Вариантларни абсолют синонимларнинг, яъни бир хил маънога эга бўлган синонимларнинг иккита базавий туридан бири деб ҳисоблаш мумкин. Дублетлар эса уларнинг иккинчи тури ҳисобланади. Агар вариантларни термин шаклининг ўзгариши натижасида олинган абсолют синонимлар, деб қарайдиган бўлсак, дублетлар эса турлича шаклга эга бўлган абсолют синонимлар каби таърифланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Alieva M.T. Razvitiya industrii turizma // Mezhdunarodnye Plekhanovskie chteniya, April 19 REA. im.G.V. Plekhanova. - M., 2006.
2. Ушаков Д.С. Технология выездного туризма. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2009. – С. 240.
3. Aliyeva M.T., Mirzayev M. va boshqalar. Turizm huquqi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Talqin, 2003. – B. 245.
4. Алиева М.Т. Развития индустрии туризма // Международные Плехановские чтения, 19 апреля РЭА. им. Г.В. Плеханова. – М., 2006.
5. Алиева М.Т. Тенденции развития туризма в Узбекистане // Пятнадцатые международные Плехановские чтения, 27 апреля РЭА. им. Г.В. Плеханова. – М., 2002.

ADABIYOT DARSLIKLARIDA IJODKOR BIOGRAFIYASINING BERLISHI HAQIDA MULOHAZALAR

Nurillayeva Hulkaroy Azizulloxon qizi

ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti talabasi

xulkaroynurullayeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek umumta’lim maktab adabiyot darsliklaridagi yozuvchi hayoti va ijodining berilishi yuzasidan ayrim mulohazalar yuritiladi va qo‘shimcha takliflar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: maktab darsliklari, ijodkor biografiyasi, takliflar.

Annotation. This thesis provides some insights into the life and works of the writers in school literature textbooks and makes additional suggestions.

Key words: school textbooks, creator's biography, proposals.

Kirish. Ushbu maqola adabiyot darsliklari bilan bog‘liq bo‘lgani uchun avval adabiyot darsliklaridagi yutuq va kamchiliklarga to‘xtalib o‘tiladi, so‘ng yangi mulohazalar hamda takliflar haqida so‘z boradi.

Manbalar tahlili. Adabiyot darslarida yozuvchi hayoti va ijodi izchil, sinfdan sinfga o‘tganda ketma-ketlikda, o‘quvchining yoshiga mos tarzda berilgan. Qolaversa, izchillik, ya’ni bir yozuvchini faqat bir marta o‘tish bilan chegaralanmay, ayrim yozuvchilarni har yili yoki oradan bir yil o‘tganidan so‘ng berilishini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Alisher Navoiy hayoti va ijodi 5-sinfdan to 11-sinfga qadar har yili beriladi. Ammo har yili bir xil ma’lumot emas, o‘quvchining yoshiga mos tarzda berib boriladi. Ijodidan, asarlaridan ham o‘quvchi yoshiga, uning aqliga, tafakkur qobiliyatiga mos tarzda asarlari tanlangan. Misol uchun, 5-sinflar uchun “Hayrat ul-abror” asarining 10-maqolati va “Sher ila durroj” hikoyati keltirilgan. Ushbu maqolat va hikoyatlar 5-sinf o‘quvchilari uchun ta’limiy, axloqiy xarakterga ega. Qolaversa, yoshiga mos fazilatlarni, masalan, rostgo‘ylik, to‘g‘rilikni ulug‘laydigan, yolg‘onchilik, firibgarlik, egrilik kabi illatlarni qoralaydigan didaktik, pand-nasihat ruhidagi asar hisoblanadi.¹³

6-sinf adabiyot darsligida esa Alisher Navoiyning hayoti haqida 5-sinf darsligidagi kabi hayoti emas, tug‘ilgan yili yoki yashagan shaharlari haqida emas, balki, uning bugungi kunda jamiyatdagi mavqeyi haqida so‘z boradi. Masalan, darslikda Islom Karimovning Navoiy haqida o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida yozgan fikri keltirilgan.¹⁴ Ijodidan esa “Mahbub ul-qulub” asari berilgan. Bu asar ham o‘quvchining tarbiyasiga, axloqiga, ma’naviyatiga ijobiy ta’sir etadigan asar hisoblanadi.

Mulohaza va takliflar. Ammo darsliklarda yozuvchi hayoti va ijodi berilishida ayrim o‘zgartirishlar kiritsak ziyon qilmaydi. Masalan, birinchidan, darsliklarda rasm va suratlar juda kam, ularni qo‘shish kerak, bu badiiy asar qimmatini va o‘quvchining qiziqishni oshiradi, qolaversa, dunyoqarashini o‘stiradi, tasavvur olamini boyitishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, darslikda hamma yozuvchi va shoirlar hayoti bir xil qolipda berilgan, bu zerikish paydo qiladi. Har bir yozuvchining hayot yo‘li bilan bog‘liq qiziqarli voqealarni qo‘shish, yoki yozuvchilarni o‘zining shaxsiy hayoti gapirganini haqida qo‘shish maqsadga muvofiq bo‘ladi, ya’ni, bu usul eslab qolish uchun oson bo‘lishini va tarjimai holning o‘qishli bo‘lishini, bir xillikdan qochishlikni, kreativ yondoshishni

¹³ Qarang; S. Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo‘chqorov, Sh. Rizayev: 5-sinf adabiyot 2-qism; Sharq nashriyoti, Toshkent-2015, 93-105-b.

¹⁴ Qarang: S. Ahmedov, R. Qo‘chqorov, Sh. Rizayev: 6-sinf adabiyot 2-qism; Ma’naviyat nashriyoti, Toshkent-2017; 31-b

ta'minlaydi. Misol uchun, 10-sinf adabiyot darsligida Abdulla Oripovning hayoti "Ko'rgan-bilganlarim" sarlavhasi ostida batafsil yoritilgan. Uning qachon, qanday shoir bo'lgani, bu kasbni kimga taqlid qilib tanlagani, yoshlikdan qofiyalarni izlagani juda qiziqarli tarzda berilgan. Qolaversa, ijodining tug'ilishi, har bir she'ri hayotidagi voqealardan kelib chiqib yozilishi haqida shoirning o'z tilidan so'zlab berishi o'qishlikni ta'minlagan.¹⁵

Xuddi shunday tarzda O'tkir Hoshimov hayoti ham "Mashaqqatli safar – kitobxon bilan ikki og'iz suhbat" sarlavhasi ostida yoritilgan.¹⁶

Bu darslikning yutuq tomoni va qolgan yozuvchilarni ham boshqacharoq yoki shunga o'xshash usulda hayoti yoritilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Uchinchidan, surat va hayoti, ijodi uyg'un bo'lishi kerak, zamonaviy yozuvchi, shoirlarga o'tgan zamondagi suratlarni, xira, nursiz fonlarni berish to'g'ri bo'lmaydi, agar zamonaviy shoir va yozuvchilarga zamonaviy fon, zamonaviy rasm tanlansa, umumlishtirib aytganda, har bir ijodkorga o'z zamonasi davriga mos rasm va fonlar tanlansa, o'quvchining badiiy didi va tafakkuri o'sishiga erishish mumkin. Demak, bu yerda darslik va ma'lumotlarni berishda dizayn o'ziga xosligiga e'tibor qaratish zarur.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, darsliklar nafaqat ilmiy jihatdan mukammallashgan, balki, she'r yoki matnga mos rasmlar berilgan bo'lishi, yozuvchi hayoti (biografiyasi) beriladigan matnlar ham chiroyli surat va fonlar bilan bezatilgan bo'lishi, yozuvchi hayoti va ijodi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi, ijodkor hayoti bir xil qolipda emas, aksincha har xil usullarda, masalan, uning o'z tilidan hayotini hikoya qilishi shaklida yoki yana ham innovatsion usulda berilsa, darslik ham ilmiy, ham ijodiy jihatdan o'quvchilarga manzur bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov S, Qosimov B, Qo'chqorov R, Rizayev Sh: 5-sinf adabiyot 2-qism; Sharq nashriyoti, Toshkent-2015, 176 b.
2. Ahmedov S, Qo'chqorov R, Rizayev Sh: 6-sinf adabiyot 2-qism; Ma'naviyat nashriyoti, Toshkent-2017, 160 b.
3. To'xliyev B, Karimov B, Usmonova K; 10-sinf adabiyot 2-qism; "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2017; 184 b.

¹⁵ Qarang: B. To'xliyev, B. Karimov, K. Usmonova; 10-sinf adabiyot 2-qism; "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent-2017; 103-105-b.

¹⁶ Qarang: B. To'xliyev, B. Karimov, K. Usmonova; 10-sinf adabiyot 2-qism; "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent-2017; 115-119-b

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TALAFFUZ
KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

Muhitdinova Mahliyo Ahad qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti, Magistratura bo'limi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz ko'nikmalarini takomillashtirish metodikasi, boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsadi va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutishligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: savodxonlik, talaffuz va ahloqiy-ta'lim, talaffuz, lug'ati, sintaktik qurilishi.

Ishonchimiz va tayanchimiz bo'lmish navqiron yosh avlodni barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlash buyuk kelajagimiz poydevorini mustahkamlash yo'lidagi orzu-maqсадlarimizdan biridir. O'bekiston kelajagi buyuk davlat darajasiga ko'tariladigan ijodkor shaxsni yaratishda boshlang'ich ta'lim poydevor vazifasini bajaradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy maqsadi kelajakda yetuk avlodni tarbiyalashdan iborat. O'quvchining ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayonida mohirona tadbiiq eta olishi ilg'or pedagogik tajribalardan mohirona foydalana olishi, ta'lim berishning yangi usullarini ishlashi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi tez o'zgaryotgan dunyo insoniyat oldiga, yoshlar oldiga yangi-yangi buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Ayniqsa mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalarida tub islohatlar, o'zgarishlar, ta'lim mazmuni va sifatini yangilashga doir bir qancha chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsadi va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki, uning zaminida savodxonlik, talaffuz va ahloqiy-ta'lim tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'quvchi matnni tog'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlanadi.

Talaffuz va uni o'stirish tushunchasi. Talaffuz - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Talaffuz o'zaro aloqa va xabar funksiyasini, o'zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan talaffuz jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa talaffuz maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. talaffuz o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, talaffuz o'stirish deganda, tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) aktiv amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq

o‘stirish deganda, o‘quvchilar tilning talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishva bog‘lanishli nutqni muhim aktiv egallashlariga yordam beradigan metod va ish turlarini qo‘llash tushuniladi. Talaffuz faoliyati uchun, shuningdek, o‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi talaffuzining yuzaga chiqishi uchun talab bo‘lishi kerak. O‘quvchilartalaffuzini o‘stirishning metodik talabi o‘quvchi o‘z fikrini, nimanidir og‘zaki yoki yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi,

2. Har qanday talaffuzning mazmuni, materiali bo‘lishi lozim. Bu material qanchalik to‘liq, boy, qimmatli bo‘lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo‘ladi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so‘z, so‘z birikmasi, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo‘ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o‘stirishning uchinchi sharti - nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Talaffuz egallashning qator aspektlari mavjud.

Bular: 1. Adabiy til normalarini o‘zlashtirish.

2. Jamiyatimizning har bir a‘zosi uchun zarur bo‘lgan muhim nutq malakalarini, ya’ni o‘qish va yozish malakalarini o‘zlashtirish.

3. O‘quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish. talaffuz o‘stirishda uch yo‘nalish aniq ajratiladi: 1) so‘z ustida ishlash; 2) so‘z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog‘lanishli nutq ustida ishlash.

Tovushga taqlid qilishni bolaning turli faoliyatlariga qo‘shish bolalarning nafaqat turli ko‘rinishdagi tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlarini aniqlash va mustahkamlashga yordam beradi, balki tovushlar hamda so‘zlarni aniq va tushunarli qilib talaffuz etishlariga erishishda ham ko‘maklashadi. Aynan bir xil tovush taqlidlarini bir necha marta qo‘shib talaffuz qilish nutqiy nafasning rivojlanishiga yordam beradi. To‘g‘ri talaffuzga o‘rgatishning asosiy bosqichlari. To‘g‘ri talaffuzga erishish yo‘li 3 bosqichni o‘z ichiga oladi:

1-bosqich-ayrim tovushlar talaffuzini shakllantirish- bu qattiq va yumshoq, jarangli va jarangsiz undoshlar talaffuzi ustida ishlashni ko‘zda tutadi. B-lab undoshi, portlovchi, jarangli undoshdir. So‘zning oxirida, boshida va o‘rtasida kelishi mumkin. boshida kelsa-B..., oxirida kelsa-...B, o‘rtasida kelsa ...b..., b-v kabi aytiladi. Masalan, aroba-arava, kabob-kavob. P –lab undoshi, portlovchi jarangsiz undosh tovush. P..., ...p...,...p, b va f undosh tovushlari o‘rnida talaffuz qilinadi, fabrika-pabrika, kelib-kelip. D-til oldi, portlovchi, jarangli undosh tovushdir. D..., ...d..., ...d, t undosh tovushi qilib talaffuz qilish mumkin. Masalan, o‘tdi-o‘tti, ketdi-ketti shaklida. S – til oldi, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh tovush. So‘zning boshida, oxirida, o‘rtasida kelishi mumkin. U o‘zining jarangli jufti – z tarzida talaffuz qilinish hollari kuzatiladi.Masalan, soatsoz.

2-bosqich-ayrim soʻzlar talaffuzini shakllantirish-bu leksikani toʻgʻri talaffuz qilish, urgʻu berish, soʻzda urgʻu boʻgʻinini ajratishdan iboratdir. Leksik jihatdan: “Koʻklam keldi” biri faslning nomini, 2-si harakatni anglatadi. “Kul” soʻzining biri-harakatni anglatadi, ikkinchisi esa narsa maʼnosini anglatadi. “Oʻt ” soʻzining ham bir maʼnosi-harakat maʼnosida, ikkinchi maʼnosi esa oʻtmaysa maʼnosini anglatadi. Urgʻu soʻzning oxirgi boʻgʻiniga tushib, soʻzdagi boʻgʻinning boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz qilishni bildiradi: tikuvchi, ti-kuv-chi. Sandiq, san-diq shu boshqalar.

3-bosqich- namunaviy gaplar talaffuzini shakllantirish- bu oʻzgacha gap ohanglari ustida maxsus ishlashni koʻzda tutadi. Masalan, chumchuq-kichkina qushcha. Bizning bogʻchamiz-sevimli makon. Onajonim-mehribonim. Agarda 3 yoshli bolalar-s, z, sh, ch, r, l kabi tovushlarni yetarli darajada yaxshi talaffuz qila olmasa, darhol ularni mashq qilishga kirishish kerak emas, chunki bu bolalarning ularni notoʻgʻri talaffuz qilishga odatlanib qolishlariga olib kelishi mumkin.

5 yoshdan 7 yoshgacha boʻlgan davrda tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilishni shakllantirish bolalar tomonidan koʻpincha aralashtirib talaffuz qilinadigan tovushlarni tabaqalashtirish ishlari bilan bogʻliq holda amalga oshirish mumkin. bunda asosan jarangli va jarangsiz tovushlarni, v-f, z-s, j-sh, b-p, d-t, g-k, shuningdek, l va r tovushlarining talaffuziga eʼtibor berish darkor.

Foydalangan adabiyotlar

1. Sodiqova Sh. “Maktabgacha pedagogika”. T.:”Fan va texnologiya”. 2012.
2. Babayeva D.R. “Nutq oʻstirish nazariyasi va metodikasi”-T.,”Barkamol fayz media”-2018.
3. I.A.Karimov Barkamol avlod – Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori T “Sharq” 1997 y
4. T.Gʻaffarova, Sh.Nuraliyeva, z.Mirzahakimova 2-sinf oʻqish kitobi “Sharq” nashiryoti 2016 y
5. M.Umarova, X. Hamraqulova. R.Tojiboyeva 3-sinf oʻqish kitobi “Oʻqituvchi” nashiryoti Toshkent 2016 y
6. S.Matchanov. A.Shojalilov, X.Gʻulomova, Sh. Sariyev, Z.Dalimov 4 sinf oʻqish kitobiToshkent “Yangiyoʻl Poligraf Servis” 2017 y

**“ТАФСИРИ ҲИЛОЛ” АСАРИДАГИ СОДДА, МУРАККАБ ВА
ТАРКИБЛИ ЎХШАТИШЛАР**

Исмоилова Нодирабегим Усмонжон қизи
Андижон давлат университети
Бошланғич таълим методикаси кафедраси
ўқитувчиси, эркин тадқиқотчи
prof-ismoilov@umail.uz

Ўхшатиш узвларининг тўрт компонентдан иборат экани ҳақидаги қарашларга таяниш тадқиқ объекти сифатида олинган барча ўхшатишларни тўлақонли изоҳлашда қўл келади. Н.Маҳмудов ўхшатиш компонентларини тавсифловчи формулани тақдим этади: $\{A [(B) \beta] C\}$. Мазкур формулада келтирилган A – қиёс субъектининг символи, B – қиёс эталони символи, β – қиёснинг формал кўрсаткичи, C – қиёс асосининг символини [3,65-68] ифодалайди. Шу асосда Қуръони Каримнинг тафсирида [3] келтирилган ўхшатиш турларини аниқлаш, тавсифлаш ва таснифлаш муҳим аҳамият касб этади.

Ўхшатиш конструкциясида тўрт компонентнинг бир, икки ёки ундан ортиқ миқдорда иштирокига кўра 1) содда ўхшатишлар 2) мураккаб ўхшатишлар 3) таркибли ўхшатишлар каби уч гуруҳ фарқланади.

I. Содда ўхшатишларда ўхшатиш компонентлари: A – қиёс субъектининг символи, B – қиёс эталони символи, β – қиёснинг формал кўрсаткичи ва C – қиёс асосининг символи биттадан бўлади. Бундай ўхшатишлар “Тафсири Ҳилол”да миқдор жиҳатидан салмоқли ўрин эгаллайди, яъни ўхшатишларнинг деярли барчаси содда ўхшатишларга тўғри келади. Масалан, “Одамлар ичида Аллоҳдан ўзга тенгдошларни тутадиганлар ва уларни Аллоҳни севгандек севадиганлар бор. Иймон келтирганларнинг Аллоҳга муҳаббатлари қаттиқдир. Зулм қилганлар азобни кўрган чоғларида, албатта, барча қувват Аллоҳга хослигини ва, албатта, Аллоҳнинг азоби шиддатли эканини билсалар эди!” (Қуръони Карим. Бақара, 165-оят); “Ва эргашиганлар: “Қани энди бизга бир ортга қайтиши бўлса эди, биздан тонганларидек, биз ҳам улардан **тонар эдик**”, дерлар. Шундай қилиб, Аллоҳ уларга амалларининг ўзларига ҳасрат бўлганини кўрсатур. Ва улар дўзахдан чиқувчи эмаслар” (Қуръони Карим. Бақара. 167-оят); “Эй, Одам болалари, шайтон **ота-онангизни** ўзларига авратларини кўрсатиши учун устларидан либосларини ечиб, **жаннатдан чиқарганидек**, сизни ҳам **фитнага солмасин**. Албатта, у ва унинг ёрдамчилари сизни сиз кўрмайдиган томондан кўрадир. Биз, албатта, шайтонларни иймон келтирмайдиганларга дўст қилганмиз (Қуръони Карим. Аъроф. 27-оят); “Агар уларни ҳидоятга

даъват қилсангиз, эшитмаслар. Уларни сенга назар солиб тургандек кўрасан. Холбуки, улар кўрмаслар деб айт” (Қуръони Карим. Аъроф, 198-оят); *“У қавмни қувишида бўи келманг. Агар алам чекаётган бўлсангиз, улар ҳам сиз алам чекаётганингиздек алам чекмоқдалар. Сиз эса, Аллоҳдан улар умид қилмаган нарсани умид қилмоқдасиз. Аллоҳ билувчи ва ҳикматли Зотдир*” (Қуръони Карим. Нисо. 104-оят) ва ш.к.

М.Мукаррамов ўз таснифида [1] ўхшатиш компонентлари учта эканини эътироф этиш билан бирга *содда ўхшатишларда* қиёсланаётган нарса ва ходисаларнинг сони ҳисобга олинишини таъкидлайди. Мазкур гуруҳда биз ўз таснифимизда ўхшатиш компонентлари тўртта эканини эътироф этар эканмиз β – *қиёснинг формал кўрсаткичи* ҳам тилшунос айтгандек, табиий тақазо билан битта бўлиши талаб этилади. “Тафсири Ҳилол”даги ўхшатишларнинг ўзига хослиги ўлароқ β – *қиёснинг формал кўрсаткичи* битта ўхшатиш конструкциясида бир эмас иккитадан қўллангани ҳам аниқланди. Хусусан, “*мисоли*”, “*худди*” каби кўмакчилар битта ўхшатиш таркибида бирданига ҳар иккаласининг ёнма-ён қўлланилиши кузатилди. Бу эса ўхшатишдан кўзланган бадий-эстетик таъсирнинг ғоятда кучли бўлишини таъминлайди. Масалан,

а) *мисоли худди ... -га ўхшайди ... гўё формал кўрсаткичлари* иштирокидаги ўхшатиш: “*Аллоҳ осмонлар ва ернинг нуридир. Унинг нурининг мисоли худди бир тоқча, унинг ичига чироқ қўйилган, чироқ эса ишиша ичида, ишиша эса, гўё дурдан бўлган бир юлдуз бўлиб, шарқий ҳам, ғарбий ҳам бўлмаган муборак зайтун дарахтидан ёқиладир. Унинг мойи ўзига олов тегмаса ҳам, ёритиб юборай дейдир. (Бу) нур устига нурдир. Аллоҳ хоҳлаган одамни Ўз нурига ҳидоят қилур. Аллоҳ одамларга мисолларни келтирур. Аллоҳ ҳар бир нарсани ўта билгувчидир*”. (Қуръони Карим. Нур, 35-оят).

б) *мисоли худди ... -га ўхшайди формал кўрсаткичлари* иштирокидаги ўхшатишлар: “*Куфр келтирганларнинг мисоли худди қичқириқ ва сасдан бошқа нарсани эшитмайдиганларга бақираётганларга ўхшайди. Улар кар, соқов ва кўрдирлар. Улар ақл шилатмаслар* (Қуръони Карим. Бақара, 171-оят); “*Молларини Аллоҳнинг йўлида сарфлайдиганларнинг мисоли худди бир донна донга ўхшайдир. Ундан етти бошоқ ўсиб чиқади, ҳар бошоқда юзтадан дон бор. Ва Аллоҳ кимга хоҳласа, яна кўпайтириб берадир. Ва Аллоҳ қамраб олувчи ва билувчи Зотдир* (Қуръони Карим. Бақара. 261-оят); *Бу икки гуруҳнинг мисоли худди кар-у кўр ҳамда эшитувчи ва кўрувчига ўхшайдир. Улар бир-бирларга баробар бўла оладиларми? Ибрат олмайсизларми?* (Қуръони Карим. Ҳуд. 24-оят) ва ш.к. Бундай ўхшатишлар Қуръони Каримда 8 тани ташкил этади.

II. Мураккаб ўхшатишларда мураккаб ўхшатишларда ўхшатиш компонентлари: A – қиёс субъектининг символи, B – қиёс эталони символи, β – қиёснинг формал кўрсаткичи ва C – қиёс асосининг символи иккитадан бўлади. Изланишларимиз давомида “Тафсири Ҳилол”даги турли ўхшатиш воситалари ёрдамида боғланган ўхшатиш конструкциялари орасида бундай турдаги ўхшатишлар мавжуд эмаслиги аниқланди.

III. Таркибли ўхшатишларда A – қиёс субъектининг символи, B – қиёс эталони символи, β – қиёснинг формал кўрсаткичи ва C – қиёс асосининг символи иккитадан ортиқ бўлади. Изланишларимиз давомида “Тафсири Ҳилол”даги турли ўхшатиш воситалари ёрдамида боғланган ўхшатиш конструкциялари орасида бундай турдаги ўхшатишлар мавжуд эмаслиги аниқланди.

Агар эътибор берилса, ўхшатишларни турларга ажратишда ҳал қилувчи компонент – B (*қиёс эталони символи*) экани кўринади, яъни A (*қиёс субъектининг символи*)нинг миқдори ўхшатишни турларга ажратишда аҳамиятли эмас. Масалан, *У: “Йўқ. Сизлар ташланг”, деди. Бирдан уларнинг арқонлари ва асолари унга сеҳрларидан худди ҳаракатланаётгандек бўлиб кўринди. Тоҳа. 66); Ер юзидаги ҳар бир юривчи жонзот ва икки қанот ила учувчи қуш борки, ҳаммаси сиз каби умматлардир. Китобга ҳеч нарсани қўймай ёзганмиз. Сўнгра Роббиларига жамланурлар. Анъом, 38-оят) ва ш.к.*

Ўхшатишдек фалсафий, мантикий, бадий, эстетик, лингвистик хусусиятларни ўзида жамлаган категорияга хос ўхшатишнинг барча турларини диний матнлар сирасида муқаддас диний манба – Қуръони Карим тафсирида барча узвий жиҳатларини ҳисобга олган ҳолда ўрганиш тилшунослик илми учун бой илмий материал бериши шубҳасиздир.

Адабиётлар

1. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. Монография. – Тошкент: Фан, 1976. – 88 б.
2. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. VII жузлик. – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2007.
3. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларида ўхшатиш: Монография. – Тошкент, 2003. – Б. 65-68.

PEDAGOGGA XOS HISLATLAR HAQIDA SO'Z

Uzoqova Lobar Maxmudovna

Samarqand viloyati Oqdaryo tumani XTB tasarrufidagi 10-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada bugungi kun pedagogiga qo'yilayotgan talablar va bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Pedagog, milliy qadriyatlar, yosh avlod, kreativlik, ta'lim, mustaqil shaxs.

Biz bugun zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda yashamoqdamiz.

Bir kun yangiliklardan bexabar qoladigan bo'lsak, qisqa muddat ichida uzilishga duch kelishimizni hammamiz yaxshi bilamiz. Shunday vaziyatga tushmaslik uchun tinimsiz harakatda bo'lishimiz va o'z ustimizda muntazam ishlashimiz lozim.

Chunki yosh avlodga zamonaviy bilim berish, kasb-hunar o'rgatish, iqtidorini, qobiliyatini va intellektual salohiyatini oshirish uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlarni yaratish, ayni paytda ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ezgu fazilatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash masalasi davlatning doimiy e'tiboriga aylandi.

Xo'sh, o'ylab ko'raylik-chi, yosh avlod qarshimizda, ta'lim berishimiz uchun imkoniyat va sharoitlar yaratilgan, biz yetuk salohiyatli, komillikka intilayotgan shaxsni tarbiyalash uchun o'zimizning salohiyatimiz qanday?

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 23-avgust kuni o'tkazilgan videoselektrdagi ma'ruzasida shunday fikrlarni aytdi:

„Bu kasbning obro'sini faqat o'qituvchining o'zi fidokorona mehnati, o'z ustida tinimsiz ishlashi, boshqalarga o'rnak bo'lishi bilan oshira oladi“. Demak, barcha gap o'zimizda ekanligini anglab yetgan holda ta'lim sohasiga, xususan, pedagogning oldiga qo'yilgan maqsadini oshirishda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida“gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hayotga tatbiq etilishi, mazkur dasturning mantiqiy davomi bo'lgan „Maktab ta'limini rivojlantirish

Davlat umummilliy dasturi“ va boshqalar doirasida amalga oshirilayotgan ishlar zahirida farzandlarimizni komil insonlar qilib tarbiyalash orqali yurtimiz taraqqiyotining poydevorini mustahkam qilib qo'yish, uning buyuk kelajagini bunyod etishda fidokor, faol va eng muhimi yuksak salohiyat egasi bo'lishimizni unutmashimiz va bunga haqqimiz yo'qligini anglab yetmog'imiz darkor.

Aytishimiz mumkinki, bugungi kundagi ta'lim sohasidagi islohatlar, amalga oshirilayotgan ishlar, yaratilayotgan imkoniyatlar tahsinga loyiq. Mana shunday imkoniyatlarga labbay, - deb javob berish va davlatimiz, xalqimizning porloq

kelajagi uchun har tomonlama yetuk, mustaqil va kreativ fikrlovchi, yengilmas irodaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash ta'lim sohasining fidokor pedagoglariga bog'liq ekanligini qalban his qilishimiz shart.

Jumladan, ona tili va adabiyot ta'limi oldiga yuksak salohiyatli, nutqi ravon, o'zida notiqlik san'ati rivojlangan, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlovchi, barkamol avlodni tarbiyalash mas'uliyati, vazifasi qo'yilgan. Yana shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, bugungi ta'lim o'qituvchidan darsga innovatsion yondashuvni talab etadi.

Bizga ma'lumki, maktablarda o'qitishning asosiy maqsadi oiy ta'limga kiritish emas, balki erkin fikrlovchi, keng mushohada qila oladigan, biror mushkul ishga duch kelganda tushkunlikka tushmay, uni bartaraf etish yo'llarini topishga harakat qiladigan shaxsni tarbiyalashdir. Bunday shaxsni tarbiyalash uchun esa o'qituvchining o'zi ham shaxsiy, ham kasbiy, ham ijobiy sifatlarga ega bo'lmog'i kerak. Shaxsiy jihatdan insonga xos ijobiy fazilatlari bilan namuna bo'lsa, kasbiy jihatdan mahoratli va bilimli bo'lsa, amaliy jihatdan o'zining xatti-harakatlari bilan o'quvchilarga o'rnak bo'la olsa kutilgan natijaga erishiladi. Ijtimoiy hayotni o'quvchi ko'z oldiga yaqqol keltirish orqali o'quvchiga o'z kelajagini ko'rsata olishimiz kerak. Bunda biz fanlarning o'zaro aloqadorligiga e'tibor qaratishimiz kerak. Bizga ma'lumki, yangi o'quv yilida 6-,7-,10-sinf o'quvchilarining darsliklari tubdan yangilandi va ushbu darsliklarda (ona tili va adabiyot arslklarini nazarda tutyapman) davr talabidan kelib chiqib mavzular va topshiriqlar berilgan. Masalan, unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, global muammolar bilan tanishtirish va uni bartaraf etishga fikrlar berish, tibbiy yo'riqnoma bilan ishlash, tabiatdagi muvozanat, foyda va zarar, tabiat va inson singari qator manbalar o'quvchilarni erkin fikrlashga, ijtimoiy mustaqil hayot haqida tushunchaga ega bo'lishga yordam beradi. Faqatgina bu mavzularni yoritish o'qituvchidan yuksak salohiyat va bir qator iste'dodlarni: notiqlik, lug'atshunos, ssenarist, rejissiyor, aktyor, san'atkor, kitobxon, jurnalist, ijodkorlik kabilarni talab etadi. Sanab o'tilgan sifatlarning barchasi mujassam bo'lsa, bularni o'z o'rnida mashg'ulotlarimiz bilan uyg'unlashtira olsak, natijamiz kutilgandek bo'ladi va oquvchilarimiz ham bilimda, zukkolikda har qanday yoshlar bilan tenglasha oladi.

O'qituvchi, ustoz jamiyatning kelajagini tarbiya qilar ekan, bu jarayonda xatoqilishga, o'z ishimizga sovuqqonlik qilishga hech kimning haqqi yo'qligini anglab yetmog'imiz darkor.

Zero, mudom buyuk atalgan, ardoqlangan, kasblarning ichida onadek mehribon, otadek ulug' qiyofa kasb etgan sharafli nomga munosib bo'lish barchamizga nasib etsin.

**MUHAMMAD YUSUFNING "NEGA YIG'LAR QRIM-TATAR DUNYODA
"SHE'RIDAGI FITONIM OBRAZLAR TAHLILI***Mubinova Aziza*

Buxoro davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi
Annotatsiya. Ushbu maqolada Muhammad Yusuf ijodiga mansub "Nega yig'lar Qrim-tatar dunyoda" she'ridagi fitonim timsollar tahlil qilindi, ularning semantik aloqasi va bog'liqligi o'rganildi.

Kalit so'zlar: fasl, shoir, shukronalik, yoshlik, muqaddas, ayollar, mashaqqat, Vatan, gul, hid

Annotation. In this article, phytonym images in the poem "Why is the Crieman Tatar crying in the world?" were analyzed, their semantic connection and differences were studied .

Key words: season, poet, gratitude, youth, holy, women, hardship, homeland, flower, smell

Bugun qardosh qrim-tatar xalqining totalitar sovet tuzumi tomonidan o'z yurtidan surgun qilinganiga 78 yil bo'ldi. Mana shu yillar davomida bu xalq boshiga ko'plab judoliklar, mash'um voqealar solindi, qiyinchiliklarni , azob-uqubatlarni yengib o'tishda bu xalq aholisi sabr-qanoatli, matonatli , irodali bo'lishga intildi. O'zbek she'riyatida qrim-tatar surguni mavzusi qay darajada aks ettirilgani, Olim Otabekovning "Rauf Parfining "Qrim xayollari" nomli maqolasini hisobga olmaganda, adabiyotshunos olimlar tomonidan chuqur o'rganilib, tahlil qilingani yo'q. Bu o'rganishga va izlanishga arziydigan , ma'lum xulosalar chiqarishga, qiziqarli jarayonlarni bevosita kuzatishga yordam beradigan mavzu sanaladi. Quvg'inga uchragan qrim-tatar mavzusi Rauf Parfi ijodidan boshlanadi.

Buning bir qancha sabablari bor. Birinchidan, shoirning yoshlik yillari yurtidan surgun qilingan qrim aholisi bilan birga kechgan edi. Ikkinchidan qrim aholisi o'rtasidagi munosabatlarni, urf-odat va an'analarni o'rgandi. R. Parfi bir suhbatida ulardan biri haqida shunday xotirlaydi:

"Otamning do'stlari ko'p edi. Hammasi eski jadidlar. Vafot etmagan. . . Ular bilimdon va savodli kishilardan edi. Adabiyot ilmi bilan ham shug'ullanishadi. Endi bilsam , Vatan tuyg'usini shakllantirgan narsa ularning qismlari va hikoyalari ekan".

Qadimdan Qrim-tatar aholisi o'zbek xalqi bilan qarindoshdek birga hayot kechirib kelgan. 1944-yilning 18-may kuni Sovet Ittifoqi rahbari Iosif Stalin tomonidan "Qrimdagi tatar xalqini yoppasiga O'zbekistonga ko'chirish" to'g'risidagi buyruq chiqarildi. Sabab sifatida ularning urush vaqtida dushmanga ko'mak bergani aytiladi. Qrim-tatar xalqi yuqori aytib o'tilganlarning barchasini boshidan o'tkazgan. . .

Har yil bahor uch kun yashar boychechak,
Ariqlarning bo'yidagi moychechak,
Yalpizning ham Vatani bor dunyoda,
Nega yig'lar qrim-tatar dunyoda?

Muhammad Yusuf she'rini fasllar kelinchagi "bahor"ni yodga olish bilan boshlaydi. Shoir she'rning birinchi misrasida har yil bahor mavsumi kelganida boychechak gulini uch kun yashashini aytish bilan o'z fikrini ta'kidlab o'tadi. Nega aynan boychechak guli bahorda ochiladi-yu, uch kun yashaydi? Bahor-yangilanish, yoshlik, yasharish, qayta tug'ilish ayyomidir. Bu fasl yurtimizga kirib kelishi bilan gullar qiyyg'os ochila boshlaydi, ona tabiat uyqudan uyg'onadi. Boychechak, moychechak, binafshalarning xushbo'y ifori butun tabiatda tarala boshlaydi, bahor insonlarga baxt-u shodlik, omad ulashadi. Bahor faslining ilk nafasini biz boychechakning ochila boshlaganidan bilsak bo'ladi. Boychechak-sariq rangli, muqaddas va shifobaxsh gul. Bu gul necha asrlardan buyon qadrlanib , e'zozlanib kelinmoqda. Boychechak haqida ko'plab afsonalar, dostonlar, lirik qo'shiqlar , o'zbek xalq og'zaki ijodining ko'plab namunolari yaratilgan. Masalan:

Boychechagim boylandi,
Qozon to'la ayrondir,
Ayroningdan bermasang ,
Qozon tovog'ing vayrondir. (Qo'shiq)

She'r tahliliga qaytamiz. Bolalar bahor kelganida endi ochilayotgan boychechaklarni qo'llariga olib, ularning xushbo'y hidini taratib, keksalarga tarqatib chiqadilar. Shifobaxsh va dorivor xususiyatlarga ega gulning hidi xonadonlarga taraladi. Katta yoshdagi insonlar , nuroniylar boychechakni ko'zlariga surtib, yana bir bahorga sog'-u salomatlikda yetkazgani uchun Allohga shukronalar aytadilar. Boychechakni bolalar endi ochilayotganida uzib, hovlilarga tarqatib yurishgani va natijada uning umri qisqa bo'lishi adib tomonidan mahoratli chizgilar yordamida "Har bahorda boychechak uch kun yashar" nihoyatda chiroyli tasvirlab berilgan. Bundan ko'zlangan maqsad-o'rganuvchi ko'z oldida go'zal tabiat manzarasini yaratish va ifodalab berishdan iborat bo'lgan. Misrada boychechakni biz tinchlik, shukronalik ramzi sifatida talqin qilishimiz ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

She'rning ikkinchi misrasida moychechak guli tilga olingan. Moychechak deganda barchamizning ko'z o'ngimizda oppoq bargli, nafis , dorivor xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan o'simlik gavdalanadi. Misra moychechakning makoni-ariq bo'yi ekani, uning ariq bo'yida o'sishini aytish bilan boshlanadi. Moychechak gullagan vaqtida juda chiroyli ko'rinishga ega bo'ladi, ochilganida xushbo'y hidi, tarovati, nafisligi , ko'plab kasalliklarga qarshi kurashda shifo vazifasini bajarishi

bilan ajralib turadi. O'simlik dunyosining birorta vakili yovvoyi tabiatning bu ta'sirchan va kamtar a'zosi kabi yorqin va o'ziga xos tarzda o'zbek xalq og'zaki ijodida yozilmagan. Moychechak ko'p asrlar oldin rus tabiatining ramzi bo'lishga mo'ljallangan edi. O'sha davrning tibbiy adabiyotida o'simlik "Rim guli" deya nomlangan. O'simlik nomining kelib chiqishi qadimgi Misr tibbiyotiga borib taqaladi. Bir necha asrlar oldin moychechak guli ayollar kasalliklarini davolovchi vosita sifatida keng qo'llanilgan.

Rossiya qizlari fol ochish, taqdirilariga yozilgan qismatlarini oldindan bilish uchun moychechakdan foydalanishgan va oq gullardan gulchambarlar yasab, ularni suvga tashlab, tilaklarini aytishgan. Bu rus xalq og'zaki ijodida an'ana darajasiga ko'tarilgan, bugungi kunda ham saqlanib qolgan odatlardan biri. Bu foydali o'simlikning yigirmadan ortiq turi mavjud.

XX asr boshlarida moychechak ramz, timsol sifatida adabiyotimizga, xususan, she'riyatimizga kirib keldi. Bugungi kunda ko'p qo'llaniladigan obrazlardan biri sifatida talqin qilinmoqda. She'rning uchinchi misrasida she'riyatimizda ko'p bora ishlatiladigan yalpiz o'simligi tasviri yaratib berilgan. Uni tahlil qilishga harakat qilamiz, shoirning bu o'simlikni tilga olishidan asl maqsadi nima ekanligini aniqlaymiz.

Dunyodagi har bir tirik jonning o'z Vatani, tug'ilib o'sgan, kindik qoni to'kilgan makoni bo'ladi. Shoir bu yerda "Yalpizning ham Vatani bor dunyoda" degan fikrni ilgari surish bilan Vatan, yurt tushunchasining naqadar muqaddas, qadrli ekanligiga ishora qiladi. Bu obrazni keltirish bilan shoir Vatan tushunchasining semalarini yoritishga harakat qiladi. Vatan-ona kabi mo'tabar, har bir inson uchun qadrli va aziz bo'lgan, dunyoga kelib, kamolga yetgan, ilk qadamini qo'ygan tuproq, sajdagoh kabi ulug' makon.

Olamda Vatanidan ayro yashashga mahkum etilganlar qancha? Vatanini sotgan, uni boyliklari uchungina yaxshi ko'radigan, aslida o'z manfaatlarini hamma narsadan ustun qo'yguvchilar qancha? Bejizga dono xalqimiz: "Guruch kurmaksiz bo'lmaydi" deya so'zlamagan.

Har bir insonning tug'ilib o'sgan diyori -bu uning Vatani. Bugungi kun yoshlari XXI asrda farovon, tinch, osoyishta o'lkada erkin fikrlab, mustaqil izlanib, ilm olib, Vatan rivoji, ravnaqiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shish uchun tinimsiz harakat olib bormoqdalar.

Misrada "Yalpizning ham Vatani bor" deya bu o'simlikning ham Vatani bo'lgani, u o'sha yerda unib-o'sgani, keyin boshqa hududlarga bu o'simlikning tarqalganligi aytib o'tilgan. Misraning ma'nosi yakunlovchi bandda batafsil izohlanilgan.

Ya'ni Muhammad Yusuf bu yerda qrim-tatar xalqining necha ming yillar davomida mashaqqatlarga giriftor bo'lganini, qiyinchiliklardan o'tishda sabr-toqatli, mustahkam irodali ekanligini, ularning o'z yurtidan quvg'in qilinib, Vatan, vatan deya yig'laganini nihoyatda ta'sirli tasvirlay olgan" Nega yig'lar qrim-tatar dunyoda?. "Qrim-tatar xalqi Vatanidan ayro yashagani, uni har on sog'inib ko'ziga yosh olganini tasvirlagan. Dunyoda yurt sog'inchidek qiyin azob bo'lmasa kerak. Begona insonlar o'rtasida sodiq do'st topmoqlik qiyin, albatta. Ammo bu taqdirning ularga bergan sinovi edi. . Qrim -tatar yurtini bosqinchilar bosib olib, dushman uni mahv etib, egallab olganini, natijada millionlab tatar xalqi boshpanasiz, ko'chada qolib, yordamga muhtoj bo'lganini tasavvur qilish oson, ammo bu dardni his qilish juda og'ir. Yakunlovchi badda shoirning qalami o'tkir ijodkor ekanligiga yana bir bor guvoh bo'lamiz. Adib she'r yozar ekan, tarix sahifalaridagi voqea-hodisalardan ham bevosita xabardor bo'ladi. Bu yerda biz shoirning tarix va adabiyot fanlari o'rtasidagi uyg'unlikni yaqqol ko'rsatib berganini, ularning bog'liqligini namoyon etganini, uni tarixiy misol bilan isbotlab, badiiy jihatdan ifodalab berganiga guvoh bo'lamiz.

Tolkosaday makoni bor ayronni,
Yantoq asrar sayyodlardan jayronni,
Qamishzorda yayrab yurgan qobonni,
To'ng'izni ham Vatani bor dunyoda,
Nega yig'lar qrim-tatar dunyoda?

Shoir she'rning 2-bandini chiroyli o'xshatish, ya'ni istiora san'atini qo'llash bilan, ayronni tolkosaday makoni borligini aytish bilan boshlab beradi. Ya'ni shoirning qarashicha, ayronning makoni bu-tolkosa. Chunki ayron kosaga solinib, so'ng iste'mol qilinadi. Ayron bilamizki, qatiqdan tayyorlanadigan, ko'plab kasalliklarni davolashda yordam beradigan shifobaxsh ichimlik. Ammo uni ko'tarolmaydiganlarga uni iste'mol qilish tavsiya etilmaydi. Shoir bu yerda kosaning toldan yasalganini tolkosa jumlasini qo'llash bilan ifodalaydi. Ayron uchun tolkosadan yaxshi, tinch, osuda makon yo'q, uni o'ziga Vatan deb biladi.

Keyingi misrada yantoq o'simligi timsol sifatida yoritilgan. Barchamizga ma'lumki, yantoq dasht, cho'llarda o'sadigan ko'p yillik o'simlik. Bu o'simlik Rossiya Federatsiyada ham keng tarqalgan. May-sentabr oylarida gullaydi. O'simlikning yer usti qismi qishda qurib qoladi. Daraxtsiz cho'llarda yantoqdan o'tin sifatida foydalaniladi. Ekin ekiladigan yerlarda, ariq bo'yida u o't, maysa sifatida o'sadi, asosiy makoni-cho'l. Asarda qo'llangan sayyod so'zini tahlil qilamiz. Sayyod-ovchi so'zining qadimiy nomlanishi. Jayron-kiyik, ohu. Tanasining uzunligi 94-115 smni tashkil etadi, bo'yi 60-65 sm, og'irligi 25-30 kgni tashkil etadi. Aprel-may oyida ko'payadi. Jayron noyob va yo'qolib borayotgan

jonivor bo'lgani uchun O'zbekiston Qizil Kitobiga kiritilgan. Buxoro viloyatidagi "Jayron" pitomnigi nafaqat O'rta Osiyo, balki butun dunyodagi yagona ekologik maskandir. Shoir she'rning bu misrasida yantoqni himoyalovchi obraz sifatida o'rganuvchi ko'z o'ngida gavdalandiradi. Bugungi kunda Yer yuzida jayronlarning ko'p qismi yo'qolib ketmoqda. Ko'plab ovchilarning uni qonunga xilof ravishda ovlashlari va natijada hayotiga zomin bo'lishlari bunga sabab bo'lyapti. Jayronni asrash nimaga kerak? Chunki jayron ona tabiatning bir bo'lgi, muhim qismi . Tabiatni, undagi har bir tirik jonni asrab-avaylash insonning oliy burchidir. Misradan ko'zlangan maqsad jayron yo'qolib ketishining oldini olish, bu noyob jonivorni saqlab qolish uchun barcha chora-tadbirlarni amalga oshirish, ona tabiatning ne'matlaridan oqilona foydalanish.

Keyingi misrada ijodkor qamishzorni o'ziga makon tutgan, unda yayrab, xursand bo'lib yashayotgan qobonni tasvirlaydi. Qobon so'zining bugungi kundagi ma'nodoshi-to'ng'iz. Demak, bu misradan biz to'ng'izning makoni qamishzor ekanini bilishimiz , ilg'ab olishimiz mumkin. Bu jumla semasi keyingi baytda to'la izohlanilgan. Shoir to'ng'izning ham Vatani borligini aytar ekan, band oxirida tatar xalqining ko'z yosh to'kishiga achinadi, tatar xalqiga Vatanini bosqinchilar qo'lidan tortib olishga yordam berishni istaydi, ularning ham baxtli hayot kechirishga haqqi borligini his qilib, o'zbeklarga xos rahimlilik, mehmondo'stlik xususiyatlarini namoyon etadi. Misra "Nega yig'lar qrim-tatar dunyoda " degan jumla bilan yakunlanadi.

Xulosa: Muhammad Yusufning "Nega yig'lar qrim-tatar dunyoda ? " she'ri Vatan deya atalgan makonning qanchalik ulug'ligini ifoda etadi, kishilarning qalbida ona Vatanga bo'lgan muhabbatning , samimiyatning oshishiga xizmat qiladi. She'r bizni shukronalikka da'vat etadi, tinch, farovon, osmoni musaffo Vatanning kelajagi porloq farzandi ekanligimizni his qilishimiz uchun milliy g'urur tuyg'usini uyg'otadi. Vatanni ardoqlashga, ko'z qorachig'idek asrashga undaydi. She'rning hayotimizda tutgan tarbiyaviy ahamiyati benihoya yuksak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. X. Davron kutubxonasi. wwkh davron. uz
2. M. Yusuf: "Saylanma". She'rlar. Dostonlar. Xotiralar. -T: " Sharq " , 2007. - 288 . 6
3. 3. M. Yusuf: "Saylanma". She'rlar, nazm, qissalar, dostonlar -T: "Sharq " , 2019 -288 . 4
4. Y. Qo'chqorov: " Qadim yurtga qaytdi navolar" . Hujjatli adabiyot - T: "Yangi asr avlodi" , 2014 -112 . 8
5. B. Mirzo : " Jayron ko'zli nigirim" She'rlar , nazm. - T: " Yangi Asr Avlodi" , 2017 -120 . 3

6. M. Yusuf : " Xalq bo'l elim " . She'rlar , nazm . Tuzuvchi : Nazira Salomova -T: " O'zbekiston NMUI " , 2017 -288 .
7. Qomus Info onlayn ensiklopediya

DAVLAT SOG'LIQNI SAQLASH MUASSASASI XODIMLARINI BOSHQARISHNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA RAG'BATLANTIRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Tursunov Ilxom Rabbimqo'l o'g'li

Eshonqulov Nizom

Bank-moliya akademiyasi, Toshkent shahri,

O'zbekiston Respublikasi

mr.ilhomtursunov@mail.ru

Sog'liqni saqlash milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishi bo'lib, uning asosiy vazifalari aholi salomatligini saqlashni o'z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda tibbiyot sohasining rivojlanishi juda tez, shuning uchun har yili yuqori natijalarga erishish uchun xodimlarning ishiga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda.

Mahalliy sog'liqni saqlash rivojlanishining hozirgi bosqichidagi eng dolzarb muammolardan biri kadrlar tanqisligi bo'lib qolmoqda. Xodimlardan oqilona foydalanish, kadrlarni to'g'ri tanlash va yosh mutaxassislarni jalb qilish sog'liqni saqlash muassasalarining samarali ishlashining asosiy sharti bo'lib qolmoqda. Menejerlar xodimlarni jalb qilishlari va ushlab turishlari kerak, bunda xodimlar nafaqat ma'lum bir lavozimda ishlashga, balki to'liq fidoyilik bilan ishlashga ham qiziqish bildiradigan sharoitlarni yaratadilar.

Xodimning har qanday harakati uning ehtiyojlarini qondirish yoki maqsadlariga erishish nuqtai nazaridan oqibatlariga olib kelishi kerak. Boshqaruvning asosiy vazifalaridan biri har bir xodim faoliyatining sabablarini aniqlash va ularni korxonaga maqsadlari bilan muvofiqlashtirishdir. Shu bilan birga, menejerlar har bir xodim foydali investitsiya ekanligini hisobga olishlari kerak, ayniqsa ular professional tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lsalar.

Tashkilot ichidagi rag'batlantirish tizimi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- xodimlarni belgilangan vazifalarni sifatli bajarishga undash;
- mehnat unumdorligini oshirish;
- jamoa ichida qulay psixo-emotsional iqlimni yaratish;
- kadrlar almashinuvining pasayishi;
- yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish va saqlash;
- korporativ madaniyatni yaratish.

Tadqiqotning maqsadi tibbiyot xodimlarining moliyaviy ahvoldan qoniqishini tahlil qilish va davlat sog'liqni saqlash muassasasi faoliyati

samaradorligini oshirish uchun rag'batlantiruvchi to'lovlarning ball tizimini ishlab chiqishdir.

Materiallar va usullar. 2022 yilning birinchi choragida Samarqand shahridagi bolalar shifoxonasi xodimlari o'rtasida anketa so'rovnomasi o'tkazildi. So'rovnomada 40 kishidan iborat xodimlar jamoasi tasodifiy tanlov (20 shifokor va 20 hamshira) ishtirok etdi. Xodimlar tarkibida ayollar ustunlik qildi (92,5%). Ishchilarning yoshi quyidagicha taqsimlandi: 10%i 30 yoshgacha bo'lgan ishchilar, 65%i 31 yoshdan 45 yoshgacha, 25%i 40 yoshdan oshgan xodimlarni tashkil qildi.

Natijalar va munozara. So'rov natijalariga ko'ra, ish haqi ishning ustuvor yo'nalishi (78,4%) va barqaror daromad mehnat jarayonining asosiy jihati (67,3%) hisoblanadi. Aksariyat qismi ish haqi darajasidan qoniqmaydi (65,3%) va ish haqini adolatsiz deb hisoblaydi (66,7%). So'rov natijasida rag'batlantirishning iqtisodiy omillari aniq ekanligi aniqlandi. Moddiy rag'batlantirish to'lovlarni taqsimlash uchun tibbiyot xodimlarining samaradorligini baholash mezonlari shkalasi ishlab chiqilgan bo'lib, u 10 balldan iborat. Shunday qilib, ballar ma'lum bir nuqtaga berilgan birlik va koeffitsientning mahsuloti sifatida hisoblanadi va xodimning shaxsiy ballari (XSB)10 ballning har biri uchun to'plangan ballar yig'indisidir.

Moddiy rag'batlantirish miqdorini hisoblash mahalliy protokol tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan algoritmgaga muvofiq amalga oshiriladi:

1. Har oy to'g'ridan-to'g'ri menejerlar (shifokorlar uchun – tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, boshliqlar uchun – bosh vrach o'rinbosarlari, o'rta tibbiyot xodimlari uchun-katta hamshiralalar va boshqalar) har bir xodim uchun ma'lumotlarni taqdim etadilar (hisoblangan XSB bilan to'ldirilgan shakl va XSB olish shartlari mavjudligini yoki yo'qligini tasdiqlovchi hujjatlar) maxsus tashkil etilgan rag'batlantirish komissiyasiga to'lovlar.

2. Komissiya tarkibiga turli tarkibiy bo'linmalar, shu jumladan buxgalteriya bo'limi, kadrlar bo'limi va ma'muriyat xodimlari kirishi kerak. Qarorning xolisligi uchun komissiya a'zolari har chorakda qayta saylanadi.

3. Komissiya joriy oy uchun to'lov miqdorini byudjet mablag'lari doirasida hisoblab chiqadi, bu protokol bilan tasdiqlanadi va xodimlarning hisobvaraqlariga qo'shimcha hisoblash uchun buxgalteriya bo'limiga o'tkaziladi.

4. Bunday holda, ish samaradorligi mezonlari dispanser va statsionar bo'limlarning xodimlariga qaratilgan, ammo agar kerak bo'lsa, tibbiy muassasaning har bir yordamchi bo'linmasining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra o'zgartirilishi mumkin.

Xulosa. Davlat sog'liqni saqlash muassasasida rag'batlantirish tizimini rivojlantirishning asosiy istiqboli tashkilotning barcha guruhlar uchun qiziqish

uyg'otadigan har tomonlama rag'batlantirish orqali yuqori malakali xodimlarni jalb qilish va saqlash orqali tashkilot maqsadlariga erishishdir. Mehnatni rag'batlantirish dasturlarini amalga oshirish har doim moliyaviy xarajatlarni talab qiladi, ammo ularning ta'siri mablag'larni oqlaydi. Barcha toifadagi xodimlarning sifatli ishlashiga turtki berish, xodimlarni boshqaruv va o'zini takomillashtirish jarayonlariga jalb qilish, xizmat ko'rsatish ko'lamidan va umuman sog'liqni saqlash tizimidan qat'i nazar, tibbiy muassasani boshqarishning asosiy masalalaridan biridir.

Ko'rsatilgan xizmatlarning sifati va miqdorining aniq ko'rsatkichlariga erishish orqali tibbiyot xodimlarining samaradorligini baholash mezonlari asosida rag'batlantiruvchi to'lovlar tizimi ishlab chiqilgan. Ushbu motivatsiya tizimining asosiy vazifasi xodimning intensiv va samarali ishlashga bo'lgan ichki istagini, motivatsiya tizimining labilligini oshirish orqali tashkilot maqsadlariga erishishga shaxsiy qiziqishini, xodimlarning mehnat samaradorligining o'zgarishiga tezda javob berish qobiliyatini shakllantirishdir. Shunday qilib, faoliyatni baholashning ball tizimini joriy etish samarali ish haqi tizimini yaratishga va xodimlarning ish haqini individual ko'rsatkichlarga qarab oshirishga olib keladi.

PAXTA URUG'INING XUSUSIYATLARI ASOSIDA LINTERNING UZATISH FUNKSIYASINI ANIQLASH

Qurbonov Navruzbek Muzaffar o'g'li
“TIQXMMI” milliy tadqiqot universiteti t.f.n prof.

Gazieva Rano Teshabaevna
tayanch doktorant

Annotatsiya. Ushbu maqolada paxta urug'larini dastlabki qayta ishlash bosqichlaridan biri bo'lgan linterlash jarayonini amalga oshiruvchi 5LP linter qurilmasining dinamik xususiyatlarini hisobga olgan holda uning uzatish funksiyasini aniqlash keltirilgan.

Аннотация. В данной статье представлено определение передаточной функции линтерного устройства 5LP, осуществляющего процесс линтинга, являющегося одним из начальных этапов обработки семян хлопчатника, с учетом его динамических характеристик.

Abstract. This article presents the definition of the transfer function of a linter device 5LP that performs the process of linting, which is one of the initial stages of processing cotton seeds, taking into account its dynamic characteristics.

Kalit so'zlar: Linter, paxta urug'i, linterlash, uzatish funksiyasi.

Texnologik jarayonda o'zining xususiy tebranishlariga (fizik-mexanik xossalarning notekisligi sababli) ega bo'lgan o'rnatilgan rejimni o'tish jarayonlari

bilan bog'lash uchun linterni boshqaruv obyektini sifatida ko'rib chiqish va o'rnatilgan jarayonning xarakteristikalariga analitik tavsif berish zarur. Bu jarayon berilgan sharoitlarga ko'ra o'zgarishi mumkin, bunda sharoitlar qayta ishlanayotgan urug' xom ashyosining xossalari bo'yicha mashinaning holati va boshqalar xossalari bo'yicha aniqlanadi.

Boshqaruv obyektini sifatida linter o'zining alohida xususiyatlariga ega, ularga ishchi kamerada bo'lish davrida rostlanayotgan muhitning sifat o'zgarishlari kiradi.

Linterning xususiyatlari rostlanayotgan parametrning o'zgarish xarakteriga ta'sir etuvchi rostlanayotgan muhitning sifat o'zgarishlaridan, arrali disklarning o'tmaslanishi natijasida urug'lik valigi zichligi kattaligining uzluksiz dreyfidan iboratdir. Xatto sifat ko'rsatgichlari bo'yicha bir turdagi xom ashyoni qayta ishlashda, arrali silindrni almashtirish natijasida davriy ravishda linterlash rejimi o'zgaradi, bu almashtirish urug'lik valigi zichligining tebranishlar amplitudasi ortishi xisobiga rostlanayotgan parametrning o'rtacha qiymatini o'zgarishiga olib keladi. Bundan tashkari, qayta ishlanayotgan urug'larning tabiiy fizik-mexanik xossalari notekisligi, ularni ta'minlagich yordamida uzatish va turli tasodifiy omillarning mavjudligi rostlanayotgan parametrga, ya'ni mashinadan chiqayotgan paxta urug'ining butunligiga ta'sir etadi.

Obyektdagi rostlash jarayoni linterning sig'imiga bog'liq bo'ladi. Biz 5LP linteri misolida oladigan bo'lsak, bu linterning sig'imlari urug'lik tarog'i bilan fartukning joyini o'zgartirishiga bog'lik ravishda o'zgaradi. Ishchi kameraning o'zgarishi rostlash jarayonining yanada yaxshiroq o'tishiga imkon yaratadi. Sababi bunda yuzaga keladigan g'alayonlar zichlikning berilgan qiymatidan nisbatan kamroq og'ishiga olib keladi va natijada linterlashning sifat ko'rsatgichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Urug' berishning notekisligi ta'minlagich shaxtasida urug'lar sathining tebranishlari, jin sexidan kelayotgan urug'lar oqimining chiziqli va hajmiy zichligi bilan hamda ta'minlagichning ta'minlovchi barabani berayotgan urug'likning notekisligi bilan belgilanadi. Tajriba yo'li bilan linterning ishchi organlari tomonidan urug'ni uzatish vaqti davomida va mashina uzunligi bo'yicha ta'minlovchi baraban oldidi 20.13 % ni, tekislovchining oldida esa 16.48% ni tashkil etishi aniqlangan [1]. Urug'lar valigining chiziqli aylanish tezligining o'zgarish koeffisienti 9.6% ga teng.

Ma'lumki, linterlash jarayoniga boshqaruvchi yoki g'alayonlovchi omillar ta'sir kursatadi [2]. Boshqaruvchi ta'sir yo'q bo'lganda, obyektning xarakatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bunda g'alayonlar jarayonni boshqarish bilan kompensasiya qilinmaydi ya'ni u boshqarilmaydi. Bu holda X_b boshlangich g'alayon $\Delta\theta_{kir}$ yoki $-\Delta\theta_{chiq}$ ga teng, yoki umumiy xolda $(\Delta\theta_{kir} - \Delta\theta_{chiq})$. Demak,

linterga (obyektga) kelayotgan urug' tomonidan qo'yilgan g'alayon, ya'ni $X_b = \Delta\theta_{kir}$ va jarayonning chiqish koordinatalariga bog'lik emas deb xisoblash mumkin.

Sifat ko'rsatkichlarining oniy (boshlang'ich) qiymatlari kirishda quyidagicha:

$$\theta_{b\ kir} = \theta_{o\ kir} + \Delta\theta_{kir} \quad \text{va} \quad \theta_{b\ chiq} = \theta_{o\ chiq}$$

yuzaga kelgan g'alayon darhol jarayonning rejim ko'rsatkichiga ta'sir qiladi. Masalan, jindan kelayotgan urug'ning puchligini oshiradi, uruglar tarog'ining holatini o'zgartirmasdan koldirsak, u xolda uruglar valigining zichligi darhol oshadi, natijada chiqayotgan urug'larning butunligi (puchligi) ham o'zgaradi. $\Delta\theta_{kir}$ va θ_{chiq} ning qiymatlari linterning ishchi kamerasida urug'ning puchligi darajasiga bog'lik bo'ladi. Shuning uchun umumiy holatda θ_{kir} va θ_{chiq} kattaliklarning qiymati oniy g'alayon paydo bo'lgandan va N chiqish kattaligi o'zgargandan keyin, vaqt o'tishi bilan doimiy qolmaydi.

$$\theta_{kir} = \theta_{kir}(N) \quad \text{va} \quad \theta_{chiq} = \theta_{chiq}(N)$$

bu yerda N – jarayon rejimining ko'rsatkichini ko'rsatadi va bu holatda harakat ko'rsatkichi hamdir.

Boshqaruvchi ta'sir tomonidan kompensatsiyalanmagan g'alayon mavjud bo'lganda, linterlash jarayonini vaqt davomida (dinamikasinini) ifodalovchi tenglama quyidagi ko'rinishida bo'ladi:

$$\frac{dv}{dt} = \delta v + \mu \quad (1)$$

(1) tenglikdan foydalanib quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\frac{Tdv}{\delta dt} \pm v = \frac{1}{\delta} \mu \quad (2)$$

O'z o'zini to'g'rilash koeffitsienti δ – o'lchamsiz kattalikdir, shuning uchun ham

$\frac{T}{\delta} = T_n$ kattalik vaqt o'lchamini saqlab qoladi va linterlash jarayonining vaqt doimiysi deb ataladi. Birinchi darajali differensial tenglamaning (1) umumiy yechimi sifatida unga o'xshash tenglamaga (o'ng qismi nolga teng) integral summasi v_1

$$T \frac{dv}{dt} + \delta v = 0 \quad (3)$$

va boshlang'ich tenglamaning (1) ixtiyoriy v_2 xususiy yechimi hisoblanadi. Bunda qo'shimcha o'xshash tenglama (kompensatsiyalanmagan g'alayon bo'lmaganda) ichki kamerada erkin harakatlanayotgan urug'ni ifodalaydi. Xususiy yechim esa tashqi ta'sirlar ostida urug'ning majburiy harataklanishini ifodalaydi. (1) tenglamaning umumiy yechimi quyidagicha bo'ladi:

$$v = v + v_{II} = \frac{M_0}{\delta} + ce^{-\frac{\delta}{T}t}$$

$t=0$ bo'lganda, berilgan o'rnatilgan rejimga ega bo'lamiz, ya'ni $N=N_0$, $\Delta N=0$ hamda urug'ning butunlik(yoki puchlik) dan o'g'ishi nolga teng bo'ladi.

Bunda $C = -\frac{\mu_0}{\delta}$ va natijada

$$v = \frac{\mu_0}{\delta} (1 - e^{-\frac{\delta}{T}t})$$

O'z o'zini tekislash koeffisienti musbat bo'lganda ($\delta > 0$), obyekt sifatida ko'rsatkichining og'ishi (urug'ning puchligi) eksponenta bo'yicha o'zgaradi.(1-rasm) va quyidagi chegaraga intiladi

$$v_{\delta > 0} = \frac{\mu_0}{\delta} (1 - e^{-\frac{\delta}{T}t})_{\delta > 0} \rightarrow \frac{\mu_0}{\delta} = k\mu_0$$

Ko'rsatilgan chegaraviy kattalik obyektning vaqt doimiysiga bog'liq emas. Obyektning vaqt doimiysi faqat o'tish jarayonining rejimiga va davomiyligiga ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, sifat ko'rsatkichining og'ishi $\delta > 0$ bo'lganda cheksiz ortmaydi va $t = \frac{T}{\delta} = T_n$ vaqt o'tgandan keyin chegaraviy og'ish kattaligining 0.632 qismiga teng keladi va $t = 3T_n$ bo'lganda amalda (95%) yangi o'rnatilgan qiymatga erishadi.

$$v = \frac{\mu_0}{\delta} (1 - e^{-\frac{\delta}{T}t})_{t=3T_n} = \frac{\mu_0}{\delta} (1 - e^{-3}) \approx 0,95 \frac{\mu_0}{\delta}$$

Buning natijasida linterni statik obyekt sifatida qabul qilish mumkin. Tadqiqotlar [3] shuni ko'rsatdiki, linter birinchi darajali aperiodik zveno xususiyatlariga mos ya'ni

$$W(p) = \frac{k}{Tp + 1}$$

Ekspremental tadqiqotimiz natijasida barcha haqiqiy zvenolarda zvenoga kirishda ta'sir qilish momenti va chiqish reaksiyasi momenti orasidagi bu ta'sir ma'lum bir vaqt oralig'ida amalga oshishi aniqlandi. Berilgan butunlik bilan kelayotgan urug' biror vaqt τ oralig'ida qayta ishlangandan so'ng, shunday zvenoning uzatish funksiyasiga teng bo'ladi ammo $e^{-p\tau}$ ga ko'paytirilgan kechikishga ega bo'lmaydi.

Demak, tarqalgan parametrlari mavjud bo'lgan statik obyektlarning dinamik xususiyatlarini hisobga olib,[3]linterning uzatish funksiyasini umumiy holda quyidagicha yozish mumkin:

$$W(p) = \frac{k}{Tp + 1} e^{-p\tau}$$

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ф.С. Кулдашев, З.Э. Юсупов. Математическая модель асинхронного двигателя пыльного цилиндра и ворошителя как объекта управления процесса линтерования; Магистратура талабаларининг илмий мақолалар тўплами, II том. Тошкент. ТТЕСИ. 2014. 250 –252-б.
2. Общая теория линтерования/ Нуралиев О., Корабельников Р.В. ТИТЛП–Ташкент, 1999 . – 2 с.
3. Деп. В УЗНИИТИ 2 . 7.9 . № 301-Уз.23.
4. Seed Cotton and Multiple Lint Cleanings at Gins: Effect on Grade, Price and Bale Value ; Zolon Marion Looney. 9 September 2018
5. www.researchgate.net
6. www.sciencedirect.com

IXTISOSLASHMAGAN OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RUS TILINI O'QITISHNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARI.

Achilov Muzaffar Norquliyevich

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi O'zbek va xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi
MNN.Achilov@gmail.com

Аннотация. Мақоламизда иxtisoslashmagan oily ta'lim muassasalarida rus tilida muloqotga kirishishi, yangi zamonaviy texnologiyalar asosida ma'lumotlarni tez va samarali usullar orqali sifatli o'zlashtirish ko'nikmalari hamda qobiliyatlarini har taraflama rivojlantirish metodlarining ma'lum usullarini ko'rib chiqamiz. Rus tilidagi zamonaviy adabiyotlardan foydalanish, o'z fikrini bayon eta olish, rus tilida muloqotga tayyorlashning kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish muhimligini qayd etib o'tamiz.

Калит со'злар: Zamonaviy texnologiyalar, axborotni olish va uzatishni, rolli o'yinlar, kommunikativ muloqot, motivatsiya.

Аннотация. В нашей статье мы рассмотрим отдельные способы неспециализированного семейного общения на русском языке в общеобразовательных учреждениях, способы качественного усвоения информации посредством быстрых и эффективных методов, основанных на новых современных технологиях и методов всестороннего развития способностей. Отмечаем важность использования современной литературы на русском языке, умения выражать свое мнение, развития коммуникативных компетенций.

Ключевые слова: Современные технологии, получение и передача информации, ролевые игры, общение, мотивация.

Annotation. In our article, we will consider certain methods of non-specialized family communication in Russian language in educational institutions, methods of qualitative assimilation of information through quick and effective methods based on new modern technologies and methods of comprehensive development of abilities. We note the importance of using modern literature in the Russian language, being able to express one's opinion, and developing communicative competencies.

Keywords: Modern technologies, receiving and transmitting information, role-playing games, communication, motivation.

Kirish. Bugungi kunning talabi ta'lim sohasi oldiga yangi talablarni qo'yimoqda ya'ni oily va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida har bir shaxs egallashi zarur bo'lgan rus tili faniga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ana shu jihatdan ixtisoslashmagan oily ta'lim muassasalarida rus tilini o'rgatish jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish texnologiyalaridan samarali foydalanish metodlari, nutqiy malakalarni rivojlantirish va uni zamonaviy ta'lim talablariga mosligini ta'minlash katta ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning rus tilida muloqotda kirishishi, yangi zamonaviy texnologiyalar asosida ma'lumotlarni tez va samarali usullar orqali sifatli o'zlashtirish ko'nikmalari hamda qobiliyatlarini har taraflama rivojlantirish zarurati muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda Respublikamizda rus tilini o'qitishda integrallashgan yondashuv asosiy o'rin egallamoqda. Ayniqsa, rus tilidagi zamonaviy adabiyotlardan foydalanish, xalqaro ommaviy axborot vositalari orqali o'z fikrini bayon eta olish, rus tilida chop etilgan adabiyotlardan foydalanish, hamda o'z ustida ishlashni rivojlantirish va ko'nikmalarni kengaytirish davrning talabi bo'lib qolmoqda. Shu sababli bugungi kun yosh avlodni rus tilida muloqotga tayyorlashning kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Talabalarning rus tilida kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish axborot olish qayta ishlash va boshqarish bilan bog'liqdir. Bu jarayonning samarali amalga oshirilishi esa bir qator omillarga bog'liqdir. Ularning eng asosiysi rus tilida muloqot o'rnatib zaruriy axborotni olish va uzatishni ta'minlashdir. Shunda haqqoniy axborot almashinuv sodir bo'ladi. Bunda esa kommunikativ kompetensiyani egallash orqali erishiladi. Bunda esa bizga talabalar bilan ishlashda mavzuga oid topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarib, muloqotdoshi bilan rus tilida kommunikativ aloqani o'rnatish hamda uni kengaytirish muhim ahamiyat kasb

etadi. Shu sababli o'quvchilarning rus tilidagi mashg'ulotlarida asosan so'zlarni tarjimai bilan o'rganishi zarur bo'ladi. Rus tilini o'qitishda kompyuterdan o'rinli foydalanishni, ta'limni kasbiy yo'naltirganlik prinsipini amalga oshirish yo'llari hamda zarur shart sharoitlarni yaratish muammosiga alohida to'xtalish rejalashtirilgan. O'quvchilar bilan rolli o'yinlar rejalashtirilgan bo'lib, bundan asosiy maqsad o'quvchilarni o'quv jarayonida faollashtirish, rus tilini o'rganishga nisbatan motivatsiyani shakllantirishdir. Bunday o'yinlar kommunikativ muloqotni yanada rivojlantirishiga zamin yaratiladi. Rus tilini o'rganishga bo'lgan munosabat qisman barqaror bo'lganligi sababli uni ijobiy tomonga o'zgartirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar o'rnida shuni alohida ta'kidlab o'tish zarurki, talabalar oldidagi kelajak kasbiy faoliyati uchun tegishli kompetensiyalarni egallagan nazariy bilimlarni amaliyotda samarali qo'llay oladigan mutaxassislarini tayyorlash dolzarb vazifa sifatida qo'yilgan. Shu bilan birga mamlakatlar orasida ijtimoiy-siyosiy, diplomatik, iqtisodiy va boshqa munosabatlar jadal rivojlanib borayotgan bir paytda rus tilini kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislik fanlarini o'rganish jarayonida talabalarning rus tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga imkon beruvchi metodlarni ishlab chiqarish, turli mavzudagi o'quv materiallarini tayyorlash samarali natijalarni beradi.

Список использованной литературы

1. Амелина, Е. В. Русский язык в таблицах и схемах / Е. В. Амелина. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2010.
2. Антонова, Е. С. Русский язык и культура речи : учебник / Е. С. Антонова, Т. М. Воителява. – М. : Академия, 2007.
3. Баринава, Г. А. Фонетика современного русского литературного языка. Народные говоры / Г. А. Баринава, М. Я. Гловинская, С. М. Кузьмина и др. Русский язык и советское общество, 1968. – Кн.
4. Валгина, Н. С. Русский язык : учебник / Н. С. Валгина, Д. Э. Розенталь, М. И. Фомина. – М. : Высшая школа, 1968.

Internet saytlari.

5. www.tdpu.uz
6. www.Ziyonet.Uz
7. w.w.w.google.uz

АБДУЛЛАХОН II ВА ХЎЖА САЪД

*Р.Р.Нурқулова**Абдулла Қодирий номидаги Жиззах давлат педагогика институти,
тарих факультети, тарих ўқитиш методикаси кафедрасининг доценти,
Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган халқ таълими ходими*

Аннотация. Ушбу илмий мақолада шайбонийзода Абдуллахон II хукмронлиги даврида Бухоро хонлигининг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ҳаётида Жўйбор хўжаларининг, хусусан, Хўжа Саъднинг тутган мавқеи, унинг хўжалиги, бошқаруви ҳақида манбалар асосида ёритилган.

Калит сўзлар. Шайбонийхон, Абдуллахон II, Бухоро хонлиги, Жўйбор хўжалари, Хўжа Муҳаммад Ислон, Хўжа Саъд хўжалиги, бошқаруви, Қишлоқ хўжалиги, Савдо, Хунармандчилик.

Мустақиллик йилларида инсон маънавиятининг таркибий қисмларидан бўлиб, умуминсоний ва маънавий қадриятларни сақлаб қолишда ҳамда авлоддан-авлодга ўтишга ёрдам бериб келган ислом дини тарихи, диний қадриятлар ва уларнинг намоёндалари шахсиятини ўрганиш ва ёритишга кизиқиш ва эътибор кучайди.

Ўрта асрларда ҳам Бухоро бутун мусулмон оламида “Қуввати дини ислом” деб тан олиниб, муътабар марказлардан бири ҳисобланар эди. Шу боис, Бухоро мадрасаларида таълим олиш учун мусулмон мамлакатларидан кўплаб толиби илмлар ҳамда олиму-уламолар ташриф буюрар эдилар.

Улар орасида ислом динини тарғиб қилиш мақсадида Бухорога келган муйбор хўжаларининг ажодлари ҳам бор эдилар.

Жўйбор хўжалари ўзларининг аслзода ва валийлар авлоди эканликларини кўрсатиш мақсадида “... ўз шахсларини ота томонидан Муҳаммад пайғамбар авлодларига, она томондан эса Чингизхон ва Жўчига олиб бориб тақайдилар”.¹

Маълумки, бу даврда ислом дини кенг тарқалиб, мустаҳкамланиб, унинг халққа таъсир доираси кучли эди, айниқса, пайғамбар ва унинг авлодларига ихлоси кучли эди. Шу боис, Жўйбор хўжаларининг ўз насл-насабларини пайғамбар авлоди билан боғлаганлари уларнинг халқ ўртасида обрўсини кўтариб, мавқеларини янада мустаҳкамлади.

Улар Сомонийлар давридан бошлаб, “Нақиб ал-нуқабо” (улуғ Нақиб) ва шайхулислом каби лавозимларда фаолият кўрсатганлар.

Жўйбор хўжалари хонадонининг вакиллари Бухоро хонлигида кучли иқтисодий қудратга ва катта сиёсий нуфузга эга эдилар. Айниқса,

¹ Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Тошкент. “Ўқитувчи”, 1991, 26-бет.

хўжаларнинг “Нақшбандия-хожагон” тариқоти вакиллари эканлиги ҳам, уларнинг обрўсини янада кўтарди.

XVI асрнинг иккинчи ярмида Бухоро хонлигининг ижтимоий-сиёсий ҳаётида муҳим ўрин эгаллаган Жўйбор хўжаларининг йирик вакилларидан бири Саъд ҳисобланади. Хўда Саъд “Нақшбандия-Хожагон” тариқотининг йирик вакилларидан бўлиб, Муҳаммад Исломнинг катта ўғли ва барча бойликларининг ягона меросхўри эди. Хўжа Саъд она томонидан Жомурийлардан бўлган амир Музаффар Тумоннинг набираси ҳисобланади.

Тарихчи Ҳофиз Таниш Бухорий ўзининг “Абдуллонома” асарида Хўжа Саъдиддин Абу Бакр ҳақида: “... халқнинг мурожаатгоҳи, ислом маросимини жонлантирувчи, маърифатда ягона, бенишонликда нишона, яккаю-ягона ҳазрат ва асли жаноб Самаднинг (яъни, Тангрининг) яқинидир”² деб ёзади.

Юқоридаги хусусиятларга ва юқори нуфузга эга бўлган Хўжа Саъд ўз даврида омма ўртасида Хўжа Калон номи билан машҳур бўлган.

У жуда катта молу-мулкка эга бўлган 1588 йилда Абдуллахон Ҳирот шаҳрини эгаллаганида она томонидан бобоси Муҳаммад Тўмоннинг катта миқдордаги мол-мулкни набираси Хўжа Саъдга беришади. Ундан ташқари Хўжа Саъд отаси Муҳаммад Исломдан қолган катта меросий мулкнинг ҳам эгаси эди.

Маълумотларга кўра, Хўжа Саъд “2 минг жуфт 206 (17 минг гектор) сермахсул ер, 2,5 минг қўй, 1000 туя, бир минг йилқи, 12 та ҳаммом, 10 та сардоба, 2 та карвонсаройэгаси ҳам ҳисобланар”³ эди.

Хўжа Саъд ўзининг ер мулкларидан йилига 1,6 миллион олтин танга ҳисобида даромад олган.

Бундан ташқари, ўша ҳар бир шаҳарда ғалла сақлайдиган омборхоналари ҳам бўлган. Хўжа Саъднинг “биргина ғалладан оладиган йирик даромади 60000 тоннага тенг бўлган”⁴.

Хўжа Саъднинг ер-мулклари хон ҳамда муридлари томонидан ҳадя қилинган ерлар ҳисобига ҳам тобора кўпайиб борган.

Чунончи, Абдуллахон II 1584-1585 йилларда Бадахшон ва Кўлоб вилоятларини эгаллаш учун кураш олиб борди.

Абдуллахон II бу вилоятларни эгаллагандан кейин, Бадахшонни Хўжа Саъдга тортиқ қилди. Бадриддин Кашмирийнинг ёзишича, Хўжа жуда катта еру-мулкни ўз тасарруфига қўшиб олган.

Хўжа Саъд ўзининг ихтиёрида бўлган катта ҳудудлардаги мулкларини бошқарув услубига муҳим эътибор қаратган. Аввало, ҳар бир соҳа бўйича

² Ҳофиз Таниш Бухорий. “Абдуллонома”, Биринчи китоб. Тошкент. 1999. 81-бет.

³ Б.Аҳмедов. Тарихдан сабоқлар. Тошкент. “Ўқитувчи”. 1991. 26-бет.

⁴ Ўша китоб. Ўша бет.

махсус кишилар тайинланган. Улар ўз соҳаси бўйича раҳбар ва жавобгар ҳисобланган. Улар орқали катта ҳажмдаги ер-мулк ҳудудлари бошқарилган.

Хўжа Саъд ўзининг катта ҳудудлардаги мулкларини бошқаришда, уларни жойлашувига қараб, саркорликларга бўлади. “Матлаб ут - толибин” асари муаллифининг маълумотларига кўра, барча ҳудудлар ўнта саркорликларга бўлинган эди. Булар: Бухоро, Балх, Қарши, Самарқанд, Термиз, Ҳисор, Бадохшон, Хуросон ва Марвдан иборат эди. Бу ерларда Хўжа Саъднинг махсус қўйган одамлари барча ҳисоб-китоб ҳамда молиявий ишлар ва хўжаликларга доир бошқа масалалар билан шуғулланар эдилар.

Отаси Муҳаммад Ислом сингари Хўжа Саъд ҳам мамлакатнинг турли ҳудудларидаги ерларни обод қилишга катта эътибор берган. У ўз ерларини “ўлик ерлар” ҳисобига яъни сувсиз, фойдаланилмаётган ерларга ариқ қаздириб, бундай ерларга “жон” ато қилиш ҳисобига ҳам кўпайтириб борган. Бундай ерлар ҳосилдор экин майдонларига айлантирилиб обод бўлган. Бу янги ерлардан мўл-кўл ҳосил олинган. Обод мевали боғлар яратилган. Бундай тадбирлар Хўжа Саъд ва унинг авлодларининг ўз даврининг тадбиркор ва ишбилармон кишилари бўлганлигидан далолат беради.

Улар аввало, ўз бойликларини янада кўпайтиришни мақсад қилиб қўйган бўлсалар ҳам, айти пайтда, мамлакат иқтисодини кўтаришга, уни обод қилишга катта ҳисса қўшдилар.

Абдуллахон II нинг Хўжа Калонга яъни Хўжа Саъдга ихлоси ва эътиқоди кучли бўлганлигидан, унга ўзи яшайдиган маҳаллага яқин жойлардан обод қишлоқлар ажратиб берди, аммо Хўжа бу марҳаматни қабул қилмай, “Зироатсиз, ёлғиз, ўлик” бир ердан, бир парча қабул қилди, холос. У ерга бир қанча ариқлар қаздиртириб, сув келтирди ва чиройли боғларни барпо қилдирди ҳамда бу билан ўша ерларга жон киритди.⁵

Кўринадики, бошқа авлодлари сингари Хўжа Калон ҳам қаровсиз, сувсиз, чўл бўлиб ётган ерларни обод қилишни мақсад қилиб қўйган. Бундан “ўлик” ерларга сув олиб бориб, уларга “жон” киритган, ҳаёт ато этган ва обод қилган. Чўл ва биёбонлар ўрнида серҳосил экин майдонлари, боғу – бўстонлар, обод қишлоқлар бунёд этилган.

Обод қилинган ерлардан мўл-кўл ҳосил олиниб, катта даромадга эришилган. Бу билан Хўжанинг бойликлари янада кўпайган бўлсада, айти пайтда, хонликнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётига ҳам катта таъсир кўрсатган.

Аслида эса, барча Жўйбор хўжалари хўжалигининг асосини авлоддан-авлодга ўтиб келаётган меросий бойликлар ташкил қилар эди.

⁵ Ҳ.Т.Бухорий. “Абдуллонома”. Биринчи китоб. Тошкент. 1999. 83-бет.

Хўжа Саъдга ҳам отаси Муҳаммад Ислоннинг барча бойликлари меросий мулк бўлиб қолган эди. Шу ўринда айтиш жоизки, хўжалар диний уламолар бўлганлари учун ҳам муҳтож камбағалларга эҳсонлар тарқатишга, уларнинг хожатларини чиқаришга катта эътибор берганлар.

Хўжа Калон яъни Хўжа Саъд “... ҳамisha муҳтожлик саҳросида ташна бўлганларга меҳрибончилигининг тиниқ суви билан сероб қиларди: уларнинг хожатларини чиқаришда ва харажатларини кўтаришга ниҳоятда тиришарди”⁶.

Бундан ташқари, Хўжа Саъд “Жўйбор шайхлари” асарида кўрсатилишича, шунчалик камбағал ва муҳтожларни қўллар эдики, ҳар куни 1000 нон ёптириб, муҳтожлар ва мадрасада ўқийдиган толиби-илмларга тарқатар эди.

Хўжа Саъд шунчалик моҳир тадбиркор эдики, унга турли соҳалардан даромад тўхтовсиз тушиб турар эди. Чунончи, Хўжанинг турли шаҳарларда савдо-хунармандчилик дўконлари савдо расталари, ёпиқ бозорлари, карвонсарой ва тегирмон, ҳаммомлари бор эди. Уларнинг барчасидан катта даромад тушиб турар эди.

Ундан ташқари, Хўжа Саъднинг шаҳарларда махсус кешлари олди-сотди билан шуғулланар эдилар.

Хўжа катта бойликларнинг эгаси бўлиб, унинг кўчмас мулклари ва чорвачиликдан оладиган йиллик даромади 1600 минг тангани ташкил қилар эди.

Хўжалар бойликларининг тобора кўпайиб боришининг асосий сабабларидан бири, уларнинг барча солиқлардан озод қилинганлиги ҳам эди.

Хўжа Саъд отаси Муҳаммад Ислон сингари бунёдкор киши бўлиб, ўз бойликлари ҳисобидан масжид, мадрасалар, хонақоҳлар ва бошқа диний муассасалар қуришга катта эътибор берди. Улардан бири 1598 йилда қурилган Хўжа масжиди эди.

Ҳофиз Таниш Бухорийнинг “Абдуллонома” асарида ёзишича Хўжа Саъд катта обрў, нуфуз ва бойликларга эга бўлиш билан бирга, юксак инсоний фазилатлар соҳиби эди: “Ўзининг қўл остидаги кишилар билан баробар ҳисоблайди ... хос ва авомдан ҳеч киши у билан учрашганда саломлашиш фарзини адо этишда ул қутлишавкат ва муборак хумоюндан саломи аввал бўлмайди”⁷.

Хўжа Калон фақат Бухоро хонлигида катта обрўга эга бўлиб қолмасдан, унинг номи Туркия, Ҳиндистон ва Қошғорда машҳур эди. Бу

⁶ Б.Аҳмедов. Тарихдан сабоқлар. Тошкент. “Ўқитувчи”. 1991. 17-бет.

⁷ Ҳ.Т.Бухорий. “Абдуллонома”. Биринчи китоб. Тошкент. 1999. 85-бет.

мамлакатларнинг ҳукмдорлари унга совға-салом юбориб турар эди. Шоирлар эса унга атаб шеърлар ёзар эди.

Хўжа Калон яъни Саъд отаси сингари Бухоро хонлигининг диний раҳномаси, шайхулисломии эди. Хонликда унинг мавқеи баланд, обриси катта эди. Буни бошқа энг нуфузли кишилар қатори Абдуллахон II нинг тахтга ўтириш маросимидаги иштироки гувоҳлик беради.

Бу ҳақда “Абдуллонома” асарининг муаллифи: “... Олий ҳазрат ҳокон Абдуллахонни оқ кигизга ўтқаздилар, кигизнинг бир учини салтанат устунни амир Қулбобо Қўқалдош, иккинчи учини давлатнинг суюқлиси Турдикахон, учинчи учини Саййид Ҳасанхўжа Нақиб, тўртинчи учини қутблар қутиби, Саййидлар паноҳи Калонхўжа ўзининг марҳаматли қўллари ила тутдилар”⁸.

Хўжа Калом Абдуллахон II нинг асосий маслаҳатчиси эди. Абдуллахон II ҳам хўжани ўзининг пири ҳисоблаб, унинг айтганларидан чиқмас эди. Отаси Искандархон каби Абдуллахон II ҳам Хўжа Саъднинг муриди эди.

Мухтасар қилиб айтганимизда, XVI асрнинг иккинчи ярмида Жўйборий Хўжа Саъд Бухоро хонлигининг ижтимоий-сиёсий ҳаётида муҳим ўрин эгаллади. Хўжа Саъд Бухоро хонлигида қишлоқ хўжалигини ривожлантиришда, ички ва ташқи савдони, ҳунармандчиликни тараққиётига муносиб ҳисса қўшди.

Хўжа Саъд хонлик ҳудудида тинчлик ва осойишталикни таъминлашга доимо ҳаракат қилди. У Шайбонийзодалар ўртасидаги ўзаро низоларга барҳам бериш учун Жўйборий Хўжа Саъд Бухоро хони Абдуллахон II нинг диний раҳномаси сифатида, унинг ҳокимиятни мустаҳкамлашга ёрдам берди ва уни қўллаб-қувватлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Т.: “Ўқитувчи”, 1994.
2. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. Т.: “Ўқитувчи”, 1991.
3. Ҳ.Т.Бухорий. “Абдуллонома”. Биринчи китоб. Тошкент. “Шарқ”. 1999.
4. Тўраев Ҳ. Чорбақр ёки Жўйбор авлиёлари. Бухоро. 2001.
5. Тўраев Ҳ. Нақшбандий шайхлари. “Ёшлик”. №1 сон, 1996.
6. Иванов П.П. Хозяйство джуйборских шейхов. М. “Наука”, 1954.
7. Рахмонова Л. Жўйбор шайхлари хўжалигига доир қизиқарли ҳужжат. “Фан ва турмуш”. №6 сон, 1969.
8. Ҳасанхўжа Насорий Музаққир аҳбоб (Дўстлар ёдномаси) Тошкент. “Халқ мероси”, 1998.
9. Ражабов Қ., Иноятов С. Бухоро тарихи. Тошкент, “Тафаккур”, 2016.

⁸ Ҳ.Т.Бухорий. “Абдуллонома”. Биринчи китоб. Тошкент. 1999. 86-бет.

10. Эшов Б. Ўзбек давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. Дарслик. Тошкент, 2012.

BUDJET TIZIMI BYUDJETLARI IJROSI NAZORATINING SHAKLLARI VA USULLARI

Abdumannopov Kamronbek G'ayratjono'g'li
O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi tinglovchisi
kamronbek2999@gmail.com

Ma'lumki, **O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi** ushbu budjet mablag'larini shakllantirish, ularni maqsadli, oqilona va samarali sarflanishini ta'minlash hamda mazkur budjetlarning xarajatlari ustidan nazorat qilish zarur hisoblanadi. Ushbu maqsadlarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish borasida ham qator tadbirlar samarali amalga oshirilmoqda. Jumladan, Davlat budjetining Parlament tomonidan tasdiqlanishi, Openbudget.uz axborot portalining ishga tushirilishi.

“Ochiq budjet” axborot portalida vazirlik va idoralarning budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq faoliyatida maqsadli indikatorlar ijrosini monitoring qilish va hisobotini tuzish hamda uning keng jamoatchilikka ochiqligini ta'minlash tizimini ishga tushirish;


Xususan, mamlakatimizda yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan progressiv makroiqtisodiy va faol investitsiya siyosati natijasida davlat moliyasini isloh qilish hamda davlat moliyaviy nazorati sohasida katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-73-son “O'zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida”gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qaroriga asosan 40 ta birinchi darajali mablag' taqsimlovchi organlarning 2022–2024-yillar uchun budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlari tasdiqlandi. Shuningdek, mazkur qarorda dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishda quyidagi: hisobot yili yakuni bo'yicha Hisob palatasi maqsadli indikatorlarning bajarilishini auditdan o'tkazish; 40 ta birinchi darajali mablag' taqsimlovchi organlarning maqsadli indikatorlarning bajarilishi yuzasidan vazirlik va idoralar rahbarlarining hisobotlarini Oliy Majlis Qonunchilik palatasida har chorak yakunida eshitib borish amaliyotini joriy etish;

Budjet daromadlari va xarajatlari bo'yicha rejaning bajarilishi haqida ma'lumotlar bilan ta'minlash moliya organlari budjet hisobining asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu ma'lumotlar asosida budjet ijrosi jarayoni ustidan nazorat qilish va tezkor rahbarlik amalga oshiriladi. Bu maqsadlar uchun moliya organlari budjet daromadlari va xarajatlari, bank muassasalaridagi budjetning pul mablag'lari,

budjet bo'yicha ochilgan kreditlar va berilgan mablag'lar, budjetlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar, ssudalar va boshqalar hisobini yuritadi. Mahalliy moliya organlari respublika budjetini kassa ijrosining hisobi bo'yicha va moliyalashtirishga doir operatsiyalarni banklar tomonidan bajarilishini nazorat qiladi.

Moliya organlarining bosh buxgalterlari o'z ishlarida O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti ijrosi qoidalarini tartibga soluvchi amaldagi me'yoriy hujjatlarga rioya qiladi. Moliya organlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari, shaharlar va tumanlar moliya organlari)ning bosh buxgalterlari quyi moliya organlarida, budjet mablag'larini bosh tasarruf qiluvchilarida va markazlashtirilgan buxgalteriyalarda buxgalteriya hisobini yuritishni tashkil qilish tartibi va uslubi, hisobotni tuzish masalalari bo'yicha ko'rsatmalar beradi va nazorat olib boradi, tegishli budjetlarda turuvchi budjet tashkilotlari xarajatlar smetalari ijrosini taftish qilishda xodimlar qatnashuvini ta'minlaydi. Moliya organi buxgalteriya xizmati budjet ijrosining va xarajatlar smetalarining hisobi va hisoboti tashkil qilinishining nazoratini joylarda tekshirish va ko'zdan kechirish, topshiriladigan hisobotlarda xatolar aniqlangan hollarda, olinadigan davriy va yillik hisobotlarni ko'rib chiqish yo'li bilan amalga oshiradi.

Davlat moliyaviy nazorati organlarining so'nggi ikki yil faoliyati tahliliga to'xtalsak. Davlat moliyaviy nazorati departamenti va uning hududiy boshqarmalari tomonidan 2020-yilda budjet mablag'larining samarali va maqsadli sarflanishi ustidan olib borilgan 4729 ta (2019-yilda 8074 ta) nazorat tadbiri davomida 246 mlrd.so'mlik (2019-yilda 142,6 mlrd.so'm) budjet intizomini buzish, budjet mablag'larini asossiz ishlatilgani aniqlangan hamda ushbu summaning 168,8 mlrd.so'mini budjetga qaytarilishi ta'minlangan. 2020-yilda yuqoridagi qonunbuzarliklarning vazirliklar va idoralar bo'yicha holati quyidagilarni tashkil etdi.



1-rasm. 2020-yilda budget mablag'larining asossiz va noqonuniy sarflanishining vazirliklar va idoralar o'rtasidagi taqsimot¹⁷

2020-yilda budget mablag'larining asossiz va noqonuniy sarflanishining vazirliklar va idoralar o'rtasidagi taqsimoti 2021-yilda budget qonunchiligini buzilishini hamda budget mablag'larining sarflanishida xato-kamchiliklarni aniqlash yuzasidan o'tkazilgan 7133 ta nazorat tadbiri natijasida 1072,1 mlrd.so'mlik budjt kamomadi aniqlangan. Ushbu xatokamchilikka yo'l qo'ygan shaxslarga nisbatan tegishli choralar ko'rilgan. Hukumat tomonidan davlat moliyaviy nazorati sohasidagi o'zgarishni davom ettirish, tizimni yanada takomillashtirishga oid keng ko'lamli tizimli ishlar olib borilmoqda. Mazkur islohotlarning uzviy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60- sonli Farmoni qabul qilindi hamda "Davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish va 2023-yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta'minlash"¹⁸ kabilar ustuvor vazifalar etib belgilangan va ushbu masalalar yuzasidan yo'l xaritasi tuzib olingan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, byudjet tizimi byudjetlarining mablag'larini samarali va oqilona sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada rivojlantirish, budget mablag'larini aniq maqsadli yo'nalishlar bo'yicha sarflanishini tartibga solish, byudjet siyosatidagi

¹⁷ "Uzreport" axborot agentligining www.uzreport.news axborot portali

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni III bo'lim 21-maqсад.

asosiy ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, davlatning uzoq muddatga tuzgan strategik islohotlari yo‘nalishlarini belgilash hamda ko‘zlangan maqsadlarga erishish uchun muhim omillardan hisoblanadi.

“ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА АКТИВЛАР СИФАТИНИ ТАСНИФЛАШ ҲИСОБОТИ”

Солметов Фуломжон Абдурасулович

Банк-молия академияси тингловчиси

Янги Ўзбекистонда тижорат банклари томонидан иқтисодиётнинг деярли барча (саноат, қишлоқ хўжалиги, ўрмон хўжалиги, транспорт ва алоқа, қурилиш, савдо ва умумий овқатланиш, хизмат кўрсатиш, туризм, таълим каби) йўналишларини кредитлаш жадал суръатларда ривожланиб келмоқда. Албатта бу амалга оширилаётган ишларни мухтарам президентимиз томонидан 2020 йилда имзоланган ПФ-5992-сонли фармонда “кредит портфели сифати ва таваккалчиликларни бошқариш сифатини яхшилаш, кредитлаш ҳажмлари ўсишининг мўътадил даражасига амал қилиш, мувозанатлашган макроиқтисодий сиёсат юритиш, корпоратив бошқарувни такомиллаштириш ва халқаро миқёсда амалий тажрибага эга бўлган менежерларни жалб қилиш, молиявий таваккалчиликларни баҳолаш учун технологик ечимларни татбиқ этиш орқали банк тизимининг молиявий барқарорлигини таъминлаш;” каби вазифаларни бажарилишига қаратилган десак хато бўлмайди.

Ватанимизда фаолият юритаётган 33 та тижорат банклари томонидан иқтисодиётни турли жабхалари ва вакилларига ажратилган кредитларнинг умумий қолдиғи 2022 йилнинг 1 октябр ҳолатига 362,9 млрд сўмни ташкил этдиб, ушуб кўрсаткич ўтган 2021 йилнинг мос даврига нисбатан 51,3 млрд сўмга ёки 14% га юқоридир.

Мазкур кредитларнинг иқтисодиётга кўрсатаётган ижобий таъсирини мамлакатимиз ЯИМнинг 2022 йилни 9 ойидаги ўсиши ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 17% га ошганида ҳам ўз аксини топган. Маълумот учун: 2021 йилнинг 9 ойида ЯИМ 520,8 млрд сўмни ташкил этган бўлса, 2022 йилнинг 9 ойи якунлари бўйича бу кўрсаткич 627,5 млрд сўмга етганлигини статистик маълумотлардан кўриш мумкин.

1-жадвал: Ялли ички маҳсулот (ЯИМ) тўғрисида маълумот акс этган жадвал келтирилган:

млрд.сўм

№	Кўрсаткичлар	2021 йил				2022 йил		
		I чорак	I ярим йиллик	9 ойлик	йиллик	I чорак	I ярим йиллик	9 ойлик
1	2	3	4	5	6	7	8	9
I.	ЯИМ (номинал)	133,905.4	320,817.8	520,839.6	734,587.7	162,784.6	389,631.2	627,476.9
	ўтган йилга нисбатан реал ўсиши,	102.6	107.2	107.4	107.4	105.8	105.4	105.8

фоизда							
--------	--	--	--	--	--	--	--

Кредит қўйилмаларининг муддатлар бўйича тақсимланиши, Ўзбекистон Республикаси Марказий банки сайтига жойлаштирилган, 2022 йил 9 оyi яқунлари бўйича шакллантирилган статистик бюллетенда келтирилган жадвал.

2-жадвал: Муддатлар бўйича кредит қўйилмалари тўғрисида маълумот акс этган жадвал келтирилган:

млрд. сўм

Сана	Жами	шу жумладан:					
		қиска муддатл и кредитла р	шундан:		узок муддатл и кредитла р	шундан:	
			миллий валютад а	чет эл валютаси да		миллий валютад а	чет эл валютаси да
1	2	3	4	5	6	7	8
01.01.2021 й.	276,975	28,245	16,988	11,256	248,730	121,880	126,850
01.02.2021 й.	277,755	29,703	17,551	12,152	248,052	120,430	127,622
01.03.2021 й.	280,215	31,163	18,564	12,599	249,052	120,645	128,407
01.04.2021 й.	283,485	31,550	19,037	12,513	251,935	122,788	129,147
01.05.2021 й.	292,029	32,596	19,923	12,673	259,433	126,343	133,090
01.06.2021 й.	297,778	32,393	20,184	12,209	265,385	129,206	136,179
01.07.2021 й.	300,459	29,834	17,421	12,413	270,626	132,603	138,022
01.08.2021 й.	302,693	29,736	16,521	13,215	272,956	135,150	137,806
01.09.2021 й.	307,204	29,825	16,644	13,181	277,379	137,358	140,021
01.10.2021 й.	311,591	31,361	18,131	13,230	280,230	138,752	141,478
01.11.2021 й.	316,200	33,652	20,148	13,504	282,549	139,480	143,069
01.12.2021 й.	320,813	34,061	20,787	13,274	286,752	141,232	145,520
01.01.2022 й.	326,386	33,379	19,716	13,664	293,006	144,007	148,999
01.02.2022 й.	324,139	34,489	20,618	13,870	289,650	143,183	146,468
01.03.2022 й.	327,180	33,972	20,587	13,385	293,208	145,246	147,962
01.04.2022 й.	340,259	36,336	20,588	15,749	303,922	149,368	154,555

01.05.2022 й.	340,255	36,716	20,803	15,913	303,539	153,147	150,392
01.06.2022 й.	345,201	37,442	21,332	16,111	307,759	156,581	151,177
01.07.2022 й.	343,572	33,748	17,355	16,393	309,825	160,504	149,321
01.08.2022 й.	346,390	35,726	17,550	18,176	310,664	162,858	147,806
01.09.2022 й.	355,490	38,831	17,936	20,895	316,659	167,150	149,509
01.10.2022 й.	362,933	41,917	20,215	21,702	321,016	170,405	150,611

Мазкур кредитларнинг ўз вақтида сўндирилиши ва тижорат банки учун муаммоли кредит қарзига айланмаслигини таъминлаш мақсадида, тижорат банкларининг тегишли мониторинг бўлимлари ходимлари томонидан ҳар бир банкнинг ўзи ишлаб чиққан кредит сиёсати талабларига мувофиқ ойлик ва чораклик мониторинглар амалга оширилиб келинади, бунда асосий эътибор қарз олувчи (биргаликда қарз олувчи, кафил) нинг молиявий аҳволи, тўлов қобилияти қай даражада барқарор эканлиги, кредит таъминоти сифатида тақдим этилган гаровнинг мониторинг ўтказилаётган вақтдаги ҳолати қандай, агар қарз олувчи юридик шахс бўлса, унга ажратилган кредитлар қарздор томонидан банкка тақдим этилган бизнес режага мувофиқ ишлатилганми, бизнес режада кўрсатилган лойиҳанинг ишга тушишидан кейин ундан келадиган фойда кредит ҳамда унга ҳисобланган фоизларни ўз вақтида ва тўлиқ сўндирилишига етадими деган саволларга қаратилади.

Ушбу мониторинглар натижасида тижорат банклари ҳар бир кредитни мониторинг натижасидаги ҳолатига қараб, тегишли тоифаларда таснифлаб борадилар. Мазкур кредитлар (активлар) сифатини таснифлаш тартиби Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2015 йил 14 июлда 2696-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган низом талаблари асосида амалга оширилади.

Низомга мувофиқ активлар 5 тоифада таснифланади:

1 – стандарт активлар – Тижорат банки кредит қайтарилмаган ҳолда чекловларсиз ва эркин равишда уни таъминот ҳисобидан ундириб олишга ҳақли. Таъминотга доир тақдим этилаётган барча ҳужжатлар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда расмийлаштирилиши лозим. Бундан ишончли (эътимодли) активлар мустасно бўлиб, уларнинг асосий қарзи ва (ёки) фоизлари бўйича муддати ўтган қарздорликлари мавжуд бўлмаса, бундай активлар сифати «стандарт» деб таснифланади. Сифати «стандарт» деб таснифланган активлар қайтарилишида муаммолар кузатилмайди. Қарздор томонидан охириги 180 кунда активларнинг асосий қарзи ва (ёки) фоизлари бўйича муддати 30 кунгача кечиктирилган ягона ҳолат мавжуд бўлса, ушбу активлар сифати «стандарт» деб таснифланади, ишончли (эътимодли) активлар бундан мустасно.;

2 – субстандарт активлар – Қарздорнинг молиявий ҳолати барқарор ҳисобланган, лекин айрим салбий ҳолатлар ёки тенденциялар мавжуд бўлиб, агар улар бартараф этилмаса, молиялаштирилган лойиҳанинг амалга ошишига ёки қарздорнинг активни ўз вақтида тўлаш қобилиятига нисбатан шубҳа пайдо бўлиши мумкин бўлган активлар сифати «субстандарт» деб таснифланади. Қуйида келтирилган омиллардан ҳеч бўлмаганда биттаси мавжуд бўлса, активларнинг сифати «субстандарт» деб таснифланади: молиявий ҳолати ёки таъминотни назорат қилиш борасида шубҳалар бўлса; кредит ҳужжатларида етарлича ахборот ёки таъминот бўйича ҳужжатлари бўлмаса; қарздорнинг 2-сон картотекаси мавжуд бўлиб, ундаги тўлов ҳужжатларининг муддати 90 кундан ошмаган бўлса (2-сон картотекасида ушбу активни сўндириш бўйича тўлов талабномаси мавжуд бўлган ёки фаолияти мавсумий хусусиятга эга қарздорлар бундан мустасно); охириги 180 кун ичида активларнинг асосий қарзи ва (ёки) фоизлари бўйича муддати 30 кунгача кечиктирилган бир нечта ҳолатлар мавжуд бўлса; ишончли (эътимодли) активларнинг асосий қарзи ва (ёки) фоизлари бўйича 90 кундан ошмаган муддати ўтган қарздорлик мавжуд бўлса; таъминланган активлар бўйича асосий қарз ва (ёки) фоизлар бўйича 31 кун ва ундан ортиқ, лекин 90 кундан ошмаган муддати ўтган қарздорлик мавжуд бўлса.;

3 – қониқарсиз активлар – Қуйида келтирилган омиллардан ҳеч бўлмаганда биттаси мавжуд бўлса, активларнинг сифати «қониқарсиз» деб таснифланади: асосий тўлов манбалари қарз тўлаш учун етарли бўлмаса, таъминотга қўйилган мулкни ва қарз олувчининг бошқа асосий воситаларини сотиш, тўланиши лозим бўлган қарзларни узайтиришларни ҳисобга олган ҳолда қўшимча тўлов манбаларини топиш талаб этиладиган бўлса; қарз олувчининг жорий молиявий ҳолати ёки унинг пул маблағларининг мўлжалланаётган оқими мажбуриятларни қоплаш учун етарли бўлмаса; қарз олувчининг капитали етарли даражада бўлмаса; қарздорнинг 2-сон картотекасида 91 кун ва ундан ортиқ, лекин 180 кундан ошмаган муддатга кечиктирилган тўлов ҳужжатлари мавжуд бўлса (2-сон картотекасида ушбу активни сўндириш бўйича тўлов талабномаси мавжуд бўлган ёки фаолияти мавсумий хусусиятга эга қарздорлар бундан мустасно); ушбу соҳага нисбатан тенденция ва истикболлар барқарор бўлмаса; банк активининг таъминот қийматига нисбати банкнинг ички ҳужжатларида кўрсатилган чегарадан кўп бўлса (ишончли (эътимодли) активлар бундан мустасно); асосий қарз ва (ёки) фоизлар бўйича 91 кун ва ундан ортиқ, лекин 180 кундан ошмаган муддати ўтган қарздорлик мавжуд бўлса.

4 – шубҳали активлар – Қуйида келтирилган омиллардан ҳеч бўлмаганда биттаси мавжуд бўлса, активларнинг сифати «шубҳали» деб таснифланади: «қониқарсиз» активларнинг ҳеч бўлмаганда бирорта кўрсаткичи, шунингдек айрим бошқа салбий тавсифлари мавжуд бўлса (бозорда осон сотиладиган таъминотнинг мавжуд эмаслиги ёки таъминланмаган активларнинг мавжудлиги ёхуд қарз олувчининг банкрот деб эълон қилиниши); яқин келажақда активнинг қисман тўланиш эҳтимоли мавжуд бўлса; қарздорнинг

2-сон картотекасида 181 кун ва ундан ортиқ, лекин 365 кундан ошмаган муддатга кечиктирилган тўлов ҳужжатлари мавжуд бўлса (2-сон картотекасида ушбу активни сўндириш бўйича тўлов талабномаси мавжуд бўлган ёки фаолияти мавсумий хусусиятга эга қарздорлар бундан мустасно); асосий қарз ва (ёки) фоизлар бўйича 181 кун ва ундан ортиқ, лекин 365 кундан ошмаган муддати ўтган қарздорлик мавжуд бўлса;

5 – умидсиз активлар – Қуйида келтирилган омиллардан ҳеч бўлмаганда биттаси мавжуд бўлса, активларнинг сифати «умидсиз» деб таснифланади: қарздор ва лизинг олувчидан ундирилган, гаровга қўйилган мол-мулкка бўлган ҳуқуқлардан фойдаланиш йўли билан тижорат банки томонидан балансга қабул қилинган кундан бошлаб уч ой муддатда сотилмаган ва банк фаолиятини кенгайтириш учун сотиб олинган бинодан икки йил мобайнида фойдаланилмаган ҳамда банк фаолияти учун ортиқ фойдаланилмай қўйилган пайтдан бошлаб бир йил мобайнида сотилмаган бўлса; қарздорнинг 2-сон картотекасида муддати 366 кун ва ундан ортиқ кунга кечиктирилган тўлов ҳужжатлари мавжуд бўлса; асосий қарз ва (ёки) фоизлар бўйича 366 кун ва ундан ортиқ кунга муддати ўтган қарздорлик мавжуд бўлса.

Юқорида келтириб ўтилганларни ўрганиб чиқиб, кредитлашнинг ўсиш суръатлари мўътадиллигини таъминлаш ва кредит портфели сифатини яхшилаш бўйича тижорат банклари маъсулиятларини янада оширишлари лозимлиги ҳамда банкларда кредитлар хали муаммога айланмай туриб, ушбу кредитлар ичида муаммоли кредитга айланиши мумкин бўлган кредитларни аниқлаш бўйича эрта огоҳлантириш сигналларини жорий қилиш ва такомиллаштириш зарур деган фикрга келдим.

“ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА АКТИВЛАР СИФАТИНИ ТАСНИФЛАШ ҲИСОБОТИ”

Солметов Фуломжон Абдурашулович

Банк-молия академияси тингловчиси

Янги Ўзбекистонда тижорат банклари томонидан иқтисодийнинг деярли барча (*саноат, қишлоқ хўжалиги, ўрмон хўжалиги, транспорт ва алоқа, қурилиш, савдо ва умумий овқатланиш, хизмат кўрсатиш, туризм, таълим каби*) йўналишларини кредитлаш жадал суръатларда ривожланиб келмоқда. Албатта бу амалга оширилаётган ишларни мухтарам президентимиз томонидан 2020 йилда имзоланган ПФ-5992-сонли фармонда “кредит портфели сифати ва таваккалчиликларни бошқариш сифатини яхшилаш, кредитлаш ҳажмлари ўсишининг мўътадил даражасига амал қилиш, мувозанатлашган макроиқтисодий сиёсат юритиш, корпоратив бошқарувни такомиллаштириш ва халқаро миқёсда амалий тажрибага эга бўлган менежерларни жалб қилиш, молиявий таваккалчиликларни баҳолаш учун технологик ечимларни татбиқ этиш орқали банк тизимининг молиявий

барқарорлигини таъминлаш;¹⁹ каби вазифаларни бажарилишига қаратилган десак хато бўлмайди.

Ватанимизда фаолият юритаётган 33 та тижорат банклари томонидан иқтисодиётни турли жабхалари ва вакилларига ажратилган кредитларнинг умумий қолдиғи 2022 йилнинг 1 октябр ҳолатига 362,9 млрд сўмни ташкил этдиб, ушуб кўрсаткич ўтган 2021 йилнинг мос даврига нисбатан 51,3 млрд сўмга ёки 14% га юқоридир.

Мазкур кредитларнинг иқтисодиётга кўрсатаётган ижобий таъсирини мамлакатимиз ЯИМнинг 2022 йилни 9 ойидаги ўсиши ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 17% га ошганида ҳам ўз аксини топган. Маълумот учун: 2021 йилнинг 9 ойида ЯИМ 520,8 млрд сўмни ташкил этган бўлса, 2022 йилнинг 9 ойи якунлари бўйича бу кўрсаткич 627,5 млрд сўмга етганлигини статистик маълумотлардан кўриш мумкин.

1-жадвал: Ялпи ички маҳсулот (ЯИМ) тўғрисида маълумот²⁰ акс этган жадвал келтирилган:
млрд.сўм

№	Кўрсаткичлар	2021 йил				2022 йил		
		I чорак	I ярим йиллик	9 ойлик	йиллик	I чорак	I ярим йиллик	9 ойлик
1	2	3	4	5	6	7	8	9
I.	ЯИМ (номинал)	133,905.4	320,817.8	520,839.6	734,587.7	162,784.6	389,631.2	627,476.9
	ўтган йилга нисбатан реал ўсиши, фоизда	102.6	107.2	107.4	107.4	105.8	105.4	105.8

Кредит қўйилмаларининг муддатлар бўйича тақсимланиши, Ўзбекистон Республикаси Марказий банки сайтига жойлаштирилган, 2022 йил 9 ойи якунлари бўйича шакллантирилган статистик бюллетенда келтирилган жадвал.

2-жадвал: Муддатлар бўйича кредит қўйилмалари тўғрисида маълумот²¹ акс этган жадвал келтирилган:

млрд. сўм

Сана	Жами	шу жумладан:			
		қисқа	шундан:	узок	шундан:

¹⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 12.05.2020 йилдаги ПФ-5992-сон

²⁰ Статистический бюллетень Центрального банка – 9 месяцев 2022 года Лист-1.1

²¹ Статистический бюллетень Центрального банка – 9 месяцев 2022 года Лист 5.3.5

		муддатл и кредитла р	миллий валютад а	чет эл валютаси да	муддатл и кредитла р	миллий валютад а	чет эл валютаси да
1	2	3	4	5	6	7	8
01.01.2021 й.	276,975	28,245	16,988	11,256	248,730	121,880	126,850
01.02.2021 й.	277,755	29,703	17,551	12,152	248,052	120,430	127,622
01.03.2021 й.	280,215	31,163	18,564	12,599	249,052	120,645	128,407
01.04.2021 й.	283,485	31,550	19,037	12,513	251,935	122,788	129,147
01.05.2021 й.	292,029	32,596	19,923	12,673	259,433	126,343	133,090
01.06.2021 й.	297,778	32,393	20,184	12,209	265,385	129,206	136,179
01.07.2021 й.	300,459	29,834	17,421	12,413	270,626	132,603	138,022
01.08.2021 й.	302,693	29,736	16,521	13,215	272,956	135,150	137,806
01.09.2021 й.	307,204	29,825	16,644	13,181	277,379	137,358	140,021
01.10.2021 й.	311,591	31,361	18,131	13,230	280,230	138,752	141,478
01.11.2021 й.	316,200	33,652	20,148	13,504	282,549	139,480	143,069
01.12.2021 й.	320,813	34,061	20,787	13,274	286,752	141,232	145,520
01.01.2022 й.	326,386	33,379	19,716	13,664	293,006	144,007	148,999
01.02.2022 й.	324,139	34,489	20,618	13,870	289,650	143,183	146,468
01.03.2022 й.	327,180	33,972	20,587	13,385	293,208	145,246	147,962
01.04.2022 й.	340,259	36,336	20,588	15,749	303,922	149,368	154,555
01.05.2022 й.	340,255	36,716	20,803	15,913	303,539	153,147	150,392
01.06.2022 й.	345,201	37,442	21,332	16,111	307,759	156,581	151,177
01.07.2022 й.	343,572	33,748	17,355	16,393	309,825	160,504	149,321
01.08.2022 й.	346,390	35,726	17,550	18,176	310,664	162,858	147,806
01.09.2022 й.	355,490	38,831	17,936	20,895	316,659	167,150	149,509
01.10.2022 й.	362,933	41,917	20,215	21,702	321,016	170,405	150,611

Мазкур кредитларнинг ўз вақтида сўндирилиши ва тижорат банки учун муаммоли кредит қарзига айланмаслигини таъминлаш мақсадида, тижорат банкларининг тегишли мониторинг бўлимлари ходимлари томонидан ҳар бир банкнинг ўзи ишлаб чиққан кредит сиёсати талабларига мувофиқ ойлик ва чораклик мониторинглар амалга оширилиб келинади, бунда асосий эътибор қарз олувчи (*биргаликда қарз олувчи, кафил*) нинг молиявий аҳволи, тўлов қобилияти қай даражада барқарор эканлиги, кредит таъминоти сифатида тақдим этилган гаровнинг мониторинг ўтказилаётган вақтдаги ҳолати қандай, агар қарз олувчи юридик шахс бўлса, унга ажратилган кредитлар қарздор томонидан банкка тақдим этилган бизнес режага мувофиқ ишлатилганми, бизнес режада кўрсатилган лойиҳанинг ишга тушишидан кейин ундан келадиган фойда кредит ҳамда унга ҳисобланган фоизларни ўз вақтида ва тўлиқ сўндирилишига етадими деган саволларга қаратилади.

Ушбу мониторинглар натижасида тижорат банклари ҳар бир кредитни мониторинг натижасидаги ҳолатига қараб, тегишли тоифаларда таснифлаб борадилар. Мазкур кредитлар (активлар) сифатини таснифлаш тартиби Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2015 йил 14 июлда 2696-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган низом²² талаблари асосида амалга оширилади.

Низомга мувофиқ активлар 5 тоифада таснифланади:

1 – стандарт активлар – Тижорат банки кредит қайтарилмаган ҳолда чекловларсиз ва эркин равишда уни таъминот ҳисобидан ундириб олишга ҳақли. Таъминотга доир тақдим этилаётган барча ҳужжатлар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда расмийлаштирилиши лозим. Бундан ишончли (эътимодли) активлар мустасно бўлиб, уларнинг асосий қарзи ва (ёки) фоизлари бўйича муддати ўтган қарздорликлари мавжуд бўлмаса, бундай активлар сифати «стандарт» деб таснифланади. Сифати «стандарт» деб таснифланган активлар қайтарилишида муаммолар кузатилмайди. Қарздор томонидан охириги 180 кунда активларнинг асосий қарзи ва (ёки) фоизлари бўйича муддати 30 кунгача кечиктирилган ягона ҳолат мавжуд бўлса, ушбу активлар сифати «стандарт» деб таснифланади, ишончли (эътимодли) активлар бундан мустасно.;

2 – субстандарт активлар – Қарздорнинг молиявий ҳолати барқарор ҳисобланган, лекин айрим салбий ҳолатлар ёки тенденциялар мавжуд бўлиб, агар улар бартараф этилмаса, молиялаштирилган лойиҳанинг амалга ошишига ёки қарздорнинг активни ўз вақтида тўлаш қобилиятига нисбатан шубҳа пайдо бўлиши мумкин бўлган активлар сифати «субстандарт» деб

²² Постановление Правления Центрального банка Республики Узбекистан, зарегистрировано 14.07.2015 г., рег. номер 2696

таснифланади. Қуйида келтирилган омиллардан ҳеч бўлмаганда биттаси мавжуд бўлса, активларнинг сифати «субстандарт» деб таснифланади: молиявий ҳолати ёки таъминотни назорат қилиш борасида шубҳалар бўлса; кредит ҳужжатларида етарлича ахборот ёки таъминот бўйича ҳужжатлари бўлмаса; қарздорнинг 2-сон картотекаси мавжуд бўлиб, ундаги тўлов ҳужжатларининг муддати 90 кундан ошмаган бўлса (2-сон картотекасида ушбу активни сўндириш бўйича тўлов талабномаси мавжуд бўлган ёки фаолияти мавсумий хусусиятга эга қарздорлар бундан мустасно); охириги 180 кун ичида активларнинг асосий қарзи ва (ёки) фоизлари бўйича муддати 30 кунгача кечиктирилган бир нечта ҳолатлар мавжуд бўлса; ишончли (эътимодли) активларнинг асосий қарзи ва (ёки) фоизлари бўйича 90 кундан ошмаган муддати ўтган қарздорлик мавжуд бўлса; таъминланган активлар бўйича асосий қарз ва (ёки) фоизлар бўйича 31 кун ва ундан ортиқ, лекин 90 кундан ошмаган муддати ўтган қарздорлик мавжуд бўлса.;

3 – қониқарсиз активлар – Қуйида келтирилган омиллардан ҳеч бўлмаганда биттаси мавжуд бўлса, активларнинг сифати «қониқарсиз» деб таснифланади: асосий тўлов манбалари қарз тўлаш учун етарли бўлмаса, таъминотга қўйилган мулкни ва қарз олувчининг бошқа асосий воситаларини сотиш, тўланиши лозим бўлган қарзларни узайтиришларни ҳисобга олган ҳолда қўшимча тўлов манбаларини топиш талаб этиладиган бўлса; қарз олувчининг жорий молиявий ҳолати ёки унинг пул маблағларининг мўлжалланаётган оқими мажбуриятларни қоплаш учун етарли бўлмаса; қарз олувчининг капитали етарли даражада бўлмаса; қарздорнинг 2-сон картотекасида 91 кун ва ундан ортиқ, лекин 180 кундан ошмаган муддатга кечиктирилган тўлов ҳужжатлари мавжуд бўлса (2-сон картотекасида ушбу активни сўндириш бўйича тўлов талабномаси мавжуд бўлган ёки фаолияти мавсумий хусусиятга эга қарздорлар бундан мустасно); ушбу соҳага нисбатан тенденция ва истиқболлар барқарор бўлмаса; банк активининг таъминот қийматига нисбати банкнинг ички ҳужжатларида кўрсатилган чегарадан кўп бўлса (ишончли (эътимодли) активлар бундан мустасно); асосий қарз ва (ёки) фоизлар бўйича 91 кун ва ундан ортиқ, лекин 180 кундан ошмаган муддати ўтган қарздорлик мавжуд бўлса.

4 – шубҳали активлар – Қуйида келтирилган омиллардан ҳеч бўлмаганда биттаси мавжуд бўлса, активларнинг сифати «шубҳали» деб таснифланади: «қониқарсиз» активларнинг ҳеч бўлмаганда бирорта кўрсаткичи, шунингдек айрим бошқа салбий тавсифлари мавжуд бўлса (бозорда осон сотиладиган таъминотнинг мавжуд эмаслиги ёки таъминланмаган активларнинг мавжудлиги ёхуд қарз олувчининг банкрот деб эълон қилиниши); яқин

келажакда активнинг қисман тўланиш эҳтимоли мавжуд бўлса; қарздорнинг 2-сон картотекасида 181 кун ва ундан ортиқ, лекин 365 кундан ошмаган муддатга кечиктирилган тўлов ҳужжатлари мавжуд бўлса (2-сон картотекасида ушбу активни сўндириш бўйича тўлов талабномаси мавжуд бўлган ёки фаолияти мавсумий хусусиятга эга қарздорлар бундан мустасно); асосий қарз ва (ёки) фоизлар бўйича 181 кун ва ундан ортиқ, лекин 365 кундан ошмаган муддати ўтган қарздорлик мавжуд бўлса;

5 – умидсиз активлар – Қуйида келтирилган омиллардан ҳеч бўлмаганда биттаси мавжуд бўлса, активларнинг сифати «умидсиз» деб таснифланади: қарздор ва лизинг олувчидан ундирилган, гаровга қўйилган мол-мулкка бўлган ҳуқуқлардан фойдаланиш йўли билан тижорат банки томонидан балансга қабул қилинган кундан бошлаб уч ой муддатда сотилмаган ва банк фаолиятини кенгайтириш учун сотиб олинган бинодан икки йил мобайнида фойдаланилмаган ҳамда банк фаолияти учун ортиқ фойдаланилмай қўйилган пайтдан бошлаб бир йил мобайнида сотилмаган бўлса; қарздорнинг 2-сон картотекасида муддати 366 кун ва ундан ортиқ кунга кечиктирилган тўлов ҳужжатлари мавжуд бўлса; асосий қарз ва (ёки) фоизлар бўйича 366 кун ва ундан ортиқ кунга муддати ўтган қарздорлик мавжуд бўлса.

Юқорида келтириб ўтилганларни ўрганиб чиқиб, кредитлашнинг ўсиш суръатлари мўътадиллигини таъминлаш ва кредит портфели сифатини яхшилаш бўйича тижорат банклари маъсулиятларини янада оширишлари лозимлиги ҳамда банкларда кредитлар хали муаммога айланмай туриб, ушбу кредитлар ичида муаммоли кредитга айланиши мумкин бўлган кредитларни аниқлаш бўйича эрта огоҳлантириш сигналларини жорий қилиш ва такомиллаштириш зарур деган фикрга келдим.

KUNGABOQAR NAVLARINING BARG SATHIGA EKISH TIZIMLARI VA MINERAL O'G'ITLAR ME'YORLARINING TA'SIRI

M. Abdug'aniyeva

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti tayanch doktoranti
Annotatsiya. Andijon viloyatining o'tloqi tuproqlari sharoitida kungaboqarning mahalliy va xorijiy navlarini barg sathiga ekish tizimlari va mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish me'yorlarining ta'siri o'rganildi.

Kalit so'zlar: kungaboqar, nav, o'tloqi tuproq, urug', ekish tizimi, ko'chat qalinligi, barg sathi.

Аннотация. В условиях луговых почв Андижанской области изучено влияние систем посадки местных и зарубежных сортов подсолнечника на облиственность и нормы подкормки минеральными удобрениями.

Ключевые слова: подсолнечник, сорт, пастбищная почва, семена, система посадки, толщина всходов, уровень листьев.

Abstract. In the conditions of meadow soils of the Andijan region, the influence of planting systems of local and foreign varieties of sunflower on foliage and fertilizing rates with mineral fertilizers was studied.

Key words: sunflower, variety, pasture soil, seeds, planting system, seedling thickness, leaf level.

Mamlakatimizda boshqoli don ekinlaridan bo'shagan maydonlarda takroriy ekinlar, jumladan, kungaboqar yetishtirish xalqimizning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini yanada to'laroq qondirish imkonini beradi.

Vazirlar Mahkamasining 2021 yilning 4 martdagi □Mavjud yer maydonlaridan samarali foydalanish va 2021 yil hosili uchun qishloq xo'jaligi ekinlarini oqilona joylashtirish to'g'risida"gi qaroriga asosan joriy yilda g'alladan bo'shagan maydonlardan ham samarali foydalanish evaziga ikkinchi ekin sifatida 55 ming gektar maydonga kungaboqar ekilishi rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.05.2022 yildagi □Iste'mol bozorlarida narxlar barqarorligini ta'minlashga va monopoliyaga qarshi choralarning ta'sirchanligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-145-sonli Farmonida aholini yog' mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish va bozor narhini kamaytirish maqsadida kungaboqar ekin maydonlarini bosqichma-bosqich kengaytirib borish vazifasi yuklatilgan.

Ushbu vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida 2022 yilda Andijon viloyatining o'tloqi tuproqlari sharoitida kungaboqar navlarini urug' hosildorligiga ekish tizimlari va mineral o'g'itlar bilan oziqlantirishga me'yorlarining ta'sirini aniqlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi.

Ilmiy ishning maqsadi, Andijon viloyatining o'tloqi tuproqlari sharoitida kungaboqarning mahalliy va xorijiy navlarini takroriy ekin sifatida yetishtirish va yuqori hosil olishda, ekish tizimlari va ma'danli o'g'itlar me'yorlariga bo'lgan talabini ishlab chiqishdan iboratdir.

Tajriba tizimi 16 ta variantdan iborat bo'lib, 3 takrorlanishda bir yarusda joylashtiriladi. Tajriba dalasida egat kengligi 60 sm, uzunligi 50 m. Har bir bulakchalar maydoni 240 m², hisobga olinadigan maydon 120 m². Tajribalarning umumiy maydoni 1,2 ga. Tajriba 3 yil davomida 1:1 (g'o'za:bug'doy) almashlab ekish tizimida olib boriladi.

1-jadval

Tajriba tizimi

№	Kungaboqar navlari	Urug' ekish tizimi	Nazariy ko'chat qalinligi, ming dona/ga	Ma'danli o'g'itlarning yillik me'yorlari, kg/ga
---	--------------------	--------------------	---	---

1	Dilbar	60x25-1	66,4	N ₁₅₀ P ₇₅ K ₁₀₀
2		60x30-1	55,3	N ₁₅₀ P ₇₅ K ₁₀₀
3		60x25-1	66,4	N ₁₈₀ P ₉₀ K ₁₂₀
4		60x30-1	55,3	N ₁₈₀ P ₉₀ K ₁₂₀
5	Yangi zamon	60x25-1	66,4	N ₁₅₀ P ₇₅ K ₁₀₀
6		60x30-1	55,3	N ₁₅₀ P ₇₅ K ₁₀₀
7		60x25-1	66,4	N ₁₈₀ P ₉₀ K ₁₂₀
8		60x30-1	55,3	N ₁₈₀ P ₉₀ K ₁₂₀
9	Berezanskiy	60x25-1	66,4	N ₁₅₀ P ₇₅ K ₁₀₀
10		60x30-1	55,3	N ₁₅₀ P ₇₅ K ₁₀₀
11		60x25-1	66,4	N ₁₈₀ P ₉₀ K ₁₂₀
12		60x30-1	55,3	N ₁₈₀ P ₉₀ K ₁₂₀
13	Rodnik (R 453)	60x25-1	66,4	N ₁₅₀ P ₇₅ K ₁₀₀
14		60x30-1	55,3	N ₁₅₀ P ₇₅ K ₁₀₀
15		60x25-1	66,4	N ₁₈₀ P ₉₀ K ₁₂₀
16		60x30-1	55,3	N ₁₈₀ P ₉₀ K ₁₂₀

Eslatma: Tajriba tizimida ko'rsatilgan fosforli va kaliyli o'g'itlari ekish oldidan shudgor ostiga to'liq miqdorda beriladi.

Tajribada kungaboqar ekinining to'rtta (Dilbar, Yangi zamon, Berezanskiy, Rodnik (R 453)) navlari, ikki xil ekish (60x25-1; 60x30-1) tizimi, ma'danli o'g'itlarning ikki xil (N₁₅₀P₇₅K₁₀₀ kg/ga, N₁₈₀P₉₀K₁₂₀ kg/ga) me'yorlarini qo'llash belgilangan.

Tajriba o'tkazish davomida o'simliklar ustida fenologik kuzatuv ishlari PSUYEAITI da qabul qilingan "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (2007) qo'llanmasidan foydalanildi.

Tajriba variantlarida kungaboqar navlarini yetishtirish agrotexnologiyalari Andijon viloyatida takroriy ekin sifatida kungaboqar yetishtirish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyanomalarga asosan olib borildi.

Tadqiqot olib borish davomida variantlarda parvarish qilinayotgan kungaboqar navlarini barg sathi fazalar kesimida aniqlab borildi.

Jumladan, kungaboqarning "Dilbar" navi urug'lari 60x25-1 va 60-30-1 tizimlarda ekilib, ma'danli o'g'itlarning N₁₅₀P₇₅K₁₀₀ kg/ga me'yorlari qo'llanilgan 1-2 variantlarda barg sathi o'rganilganida 2 juft barg chiqarish davrida 1011,4-936,6 m²/ga, 4 juft barg chiqarish davrida 2086,8-1921,5 m²/ga, 6 juft barg chiqarish davrida 3141,5-2808,1 m²/ga ni tashkil etgan bo'lsa, ushbu nav urug'lari 60x25-1 va 60-30-1 tizimlarda ekilib, ma'danli o'g'itlarning N₁₈₀P₉₀K₁₂₀ kg/ga me'yorlari qo'llanilgan 3-4 variantlarda barg sathi o'rganilganida 2 juft barg chiqarish davrida 1077,3-989,7 m²/ga, 4 juft barg chiqarish davrida 2186,0-2015,2 m²/ga, 6 juft barg chiqarish davrida 3225,4-2979,9 m²/ga ni ko'rsatib, ma'danli o'g'itlarning N₁₅₀P₇₅K₁₀₀ kg/ga me'yorlari qo'llanilgan 1-2 variantlarga nisbatan barg sathi 2 juft barg chiqarish davrida 65,9-53,1 m²/ga, 4 juft barg chiqarish davrida 99,2-93,7 m²/ga, 6 juft barg chiqarish davrida 83,9-171,8 m²/ga yuqori

bo'lganligi aniqlandi.

Kungaboqarning □Yangi zamon□ navi urug'lari 60x25-1 va 60-30-1 tizimlarda ekilib, ma'danli o'g'itlarning $N_{150}P_{75}K_{100}$ kg/ga me'yorlari qo'llanilgan 5-6 variantlarda barg sathi o'rganilganida 2 juft barg chiqarish davrida 1073,8-972,6 m²/ga, 4 juft barg chiqarish davrida 2209,6-1986,6 m²/ga, 6 juft barg chiqarish davrida 3271,1-2914,6 m²/ga ni tashkil etgan bo'lsa, ushbu nav urug'lari 60x25-1 va 60-30-1 tizimlarda ekilib, ma'danli o'g'itlarning $N_{180}P_{90}K_{120}$ kg/ga me'yorlari qo'llanilgan 7-8 variantlarda barg sathi o'rganilganida 2 juft barg chiqarish davrida 1119,1-1010,8 m²/ga, 4 juft barg chiqarish davrida 2305,5-2076,1 m²/ga, 6 juft barg chiqarish davrida 3403,6-3014,5 m²/ga ni ko'rsatib, ma'danli o'g'itlarning $N_{150}P_{75}K_{100}$ kg/ga me'yorlari qo'llanilgan 5-6 variantlarga nisbatan barg sathi 2 juft barg chiqarish davrida 45,3-38,2 m²/ga, 4 juft barg chiqarish davrida 95,9-89,5 m²/ga, 6 juft barg chiqarish davrida 132,5-99,9 m²/ga yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Kungaboqarning □Berezanskiy□ navi urug'lari 60x25-1 va 60-30-1 tizimlarda ekilib, ma'danli o'g'itlarning $N_{150}P_{75}K_{100}$ kg/ga me'yorlari qo'llanilgan 9-10 variantlarda barg sathi o'rganilganida 2 juft barg chiqarish davrida 940,9-873,7 m²/ga, 4 juft barg chiqarish davrida 2058,5-1862,1 m²/ga, 6 juft barg chiqarish davrida 3087,8-2753,1 m²/ga ni tashkil etgan bo'lsa, ushbu nav urug'lari 60x25-1 va 60-30-1 tizimlarda ekilib, ma'danli o'g'itlarning $N_{180}P_{90}K_{120}$ kg/ga me'yorlari qo'llanilgan 11-12 variantlarda barg sathi o'rganilganida 2 juft barg chiqarish davrida 1008,8-931,8 m²/ga, 4 juft barg chiqarish davrida 2175,6-1956,5 m²/ga, 6 juft barg chiqarish davrida 3186,3-2872,1 m²/ga ni ko'rsatib, ma'danli o'g'itlarning $N_{150}P_{75}K_{100}$ kg/ga me'yorlari qo'llanilgan 9-10 variantlarga nisbatan barg sathi 2 juft barg chiqarish davrida 67,9-58,1 m²/ga, 4 juft barg chiqarish davrida 117,1-94,4 m²/ga, 6 juft barg chiqarish davrida 98,5-119,0 m²/ga yuqori bo'lganligi aniqlandi.

2-jadval

*Kungaboqar navlarini ekish tizimlari va ma'danli o'g'itlar bilan oziqlantirish
me'yorlarini barg sathining shakllanishiga ta'siri*

№	Kungaboqar navlari	Urug' ekish tizimi	Nazariy ko'chat qalinligi, ming dona/ga	Ma'danli o'g'itlarning yillik me'yorlari, kg/ga	Kungaboqar navlarining barg sathi, dona/sm ²			Kungaboqar navlarining barg sathi, m ² /ga		
					2 juft barg chiqarish davrida	4 juft barg chiqarish davrida	6 juft barg chiqarish davrida	2 juft barg chiqarish davrida	4 juft barg chiqarish davrida	6 juft barg chiqarish davrida
1	Dilbar	60x25-1	66,4	N ₁₅₀ P ₇₅ K ₁₀₀	156,4	322,7	485,8	1011,4	2086,8	3141,5
2		60x30-1	55,3	N ₁₅₀ P ₇₅ K ₁₀₀	174,3	357,6	522,6	936,6	1921,5	2808,1
3		60x25-1	66,4	N ₁₈₀ P ₉₀ K ₁₂₀	167,8	340,5	502,4	1077,3	2186,0	3225,4
4		60x30-1	55,3	N ₁₈₀ P ₉₀ K ₁₂₀	182,6	371,8	549,8	989,7	2015,2	2979,9
5	Yangi zamon	60x25-1	66,4	N ₁₅₀ P ₇₅ K ₁₀₀	164,7	338,9	501,7	1073,8	2209,6	3271,1
6		60x30-1	55,3	N ₁₅₀ P ₇₅ K ₁₀₀	178,9	365,4	536,1	972,6	1986,6	2914,6
7		60x25-1	66,4	N ₁₈₀ P ₉₀ K ₁₂₀	171,2	352,7	520,7	1119,1	2305,5	3403,6
8		60x30-1	55,3	N ₁₈₀ P ₉₀ K ₁₂₀	185,7	381,4	553,8	1010,8	2076,1	3014,5
9	Berezanskiy	60x25-1	66,4	N ₁₅₀ P ₇₅ K ₁₀₀	143,8	314,6	471,9	940,9	2058,5	3087,8
10		60x30-1	55,3	N ₁₅₀ P ₇₅ K ₁₀₀	160,7	342,5	506,4	873,7	1862,1	2753,1
11		60x25-1	66,4	N ₁₈₀ P ₉₀ K ₁₂₀	155,2	334,7	490,2	1008,8	2175,6	3186,3
12		60x30-1	55,3	N ₁₈₀ P ₉₀ K ₁₂₀	171,5	360,1	528,6	931,8	1956,5	2872,1
13	Rodnik (R 453)	60x25-1	66,4	N ₁₅₀ P ₇₅ K ₁₀₀	172,6	352,6	524,8	1122,5	2293,1	3412,9
14		60x30-1	55,3	N ₁₅₀ P ₇₅ K ₁₀₀	189,4	379,5	562,5	1028,4	2060,7	3054,4
15		60x25-1	66,4	N ₁₈₀ P ₉₀ K ₁₂₀	181,2	367,8	547,3	1181,4	2398,1	3568,4
16		60x30-1	55,3	N ₁₈₀ P ₉₀ K ₁₂₀	196,4	392,4	586,4	1061,9	2121,6	3170,5

Kungaboqarning □Rodnik (R 453)□ navi urug'lari 60x25-1 va 60-30-1 tizimlarda ekilib, ma'danli o'g'itlarning N₁₅₀P₇₅K₁₀₀ kg/ga me'yorlari qo'llanilgan 13-14 variantlarda barg sathi o'rganilganida 2 juft barg chiqarish davrida 1122,5-1028,4 m²/ga, 4 juft barg chiqarish davrida 2293,1-2060,7 m²/ga, 6 juft barg chiqarish davrida 3412,9-3054,4 m²/ga ni tashkil etgan bo'lsa, ushbu nav urug'lari 60x25-1 va 60-30-1 tizimlarda ekilib, ma'danli o'g'itlarning N₁₈₀P₉₀K₁₂₀ kg/ga me'yorlari qo'llanilgan 15-16 variantlarda barg sathi o'rganilganida 2 juft barg chiqarish davrida 1181,4-1061,9 m²/ga, 4 juft barg chiqarish davrida 2398,1-2121,6 m²/ga, 6 juft barg chiqarish davrida 3568,4-3170,5 m²/ga ni ko'rsatib, ma'danli o'g'itlarning N₁₅₀P₇₅K₁₀₀ kg/ga me'yorlari qo'llanilgan 13-14 variantlarga nisbatan barg sathi 2 juft barg chiqarish davrida 58,9-33,5 m²/ga, 4 juft barg chiqarish davrida 105,0-60,9 m²/ga, 6 juft barg chiqarish davrida 155,5-116,1 m²/ga yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, kungaboqar o'simligini barg sathining shakllanishi ekish tizimlariga va mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish darajasiga bog'liq ravishda o'zgarib boradi. Ammo, mineral o'g'itlardan me'yordan ortiqcha foydalanish o'simlikda generativ organlari susayib, vegetativ organlarining rivojlanib, urug' hosildorligini keskin kamaytirib yuborishi ilmiy adabiyotlarda o'z isbotini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Atabaeva X., Umarov Z «O'simlikshunoslik» «O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi» Toshkent – 2004. B. 152.
2. Amanov A.A., Anarbaev D.L., Idiyatullina D.L va boshqalar. “Moyli ekinlardan (kungaboqar, soya, maxsar) yuqori hosil yetishtirish agrotexnologiyasi bo'yicha tavsiyalar”. Toshkent-2017. 8.B.
3. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. O'zPITI, T. 2007. 1 31 . b.
4. Nurmatov Sh.N., Azizov T.B., Anarboyev I.U., To'xtaev S. Kungaboqardan mo'l hosil yetishtirishning takomillashgan agrotexnologiyasi //O'zbekiston

qishloq xo'jaligi ilmiy – ishlab chiqarish markazi, O'zbekiston moyli va tolali ekinlar tajriba stantsiyasi. Toshkent-2009. 8-9.B.

5. Oripov O., Xalilov N.X. “O'simlikshunoslik” Toshkent-2007. 218- 367. B.

NEYMINGLARNING MILLIY TILGA TA'SIRI

Nigora Alpomishova Baxtiyor qizi
TerDU, II kurs magistranti
nigoraalpomishova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatidagi korxonalar, muassasa, tashkilot va boshqa tadbirkorlik obyektlari nomlari tahlil va tanqid etilgan. Bu nomlar adabiy tilga salbiy ta'sir ko'rsatilayotganligi misollar orqali ko'rsatib berilgan. Nomlash bo'yicha ba'zi takliflar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: milliy til, neyming, jamiyat, til madaniyati, xalq madaniyati, milliy nom, ijtimoiy burch, tadbirkorlar.

O'zbek tili naqadar boy til. Haqiqatan ham, hatto rossiyalik tilshunos olimlar, professor A. M. Kozlyanina ham “*O'zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador*” – deb bejiz ta'kidlamagan. Shunday ekan ona tilimizning go'zalligini, jozibadorligini, sofligini keyingi avlodlarga yetkazish bizning vazifamizdir. Negaki, ona tilni ulug'lash, asrab-avaylash o'sha tilda so'zlashadigan har bir insonning muqaddas burchidir. Ammo so'nggi yillarda respublikamizda tadbirkorlik faoliyati obyektlari, korxonalar, muassasa va tashkilotlarga xorijiy tillarda nom qo'yish urfga aylanib bormoqda. Ayniqsa, keyingi besh-olti yil ichida nom yaratishda eng ko'p ruscha va inglizcha so'zlarga murojaat qilish odat tusiga aylandi. Bu esa jamiyatdagi iste'molchilar uchun tushunmovchiliklarni tug'diryapti. Masalan, “GUSTER HOTEL”, “HOTEL TERMIZ PLAZA”, “ASSON HOTEL” va hokazolar. Bu qatorni juda ham ko'p davom ettirish mumkin. Ushbu nomlar orqali bu mehmonxonalar kim uchun ekanligini va qanaqa shart-sharoitlarini anglab yetolmaydi. Til – jamiyat a'zolari o'rtasidagi fikr almashish, aloqa vositasi bo'lishi kerak, ammo hozirgi kunda yurtimizdagi nomlar jamiyatdagi o'rta yosh va yuqori yosh vakillari uchun tushunarsiz bo'lmoqda. Inson o'zi tushunmagan so'zlardan ta'sirlanmaydi va zavq ham olmaydi. Shu nomlar o'rniga o'zbekona, milliy nomlardan qo'yishsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Masalan, “SAYYOH”, “SARBON” va “IZZAT” mehmonxonasi kabi nomlar qo'yilsa, o'zligimizga qaytgan bo'lar edik hamda ko'zlagan maqsadimizga yetgan bo'lamiz.

Har qanday holatda ham nom, albatta, davlat tilida yaratilishi kerak. Nomlarning o'zga tillarda qo'yilishi, bir tomondan, tilning sofligiga putur yetkazsa, ikkinchi tomondan, kishilarda milliy tilga bepisandlik, hurmatsizlik kayfiyatini hosil qiladi. Shuningdek, korxonalar, muassasa, firma, savdo obyektlari

yoki mahsulotga til egalari uchun tushunarsiz bo'lgan xorij tillaridagi nomlarning qo'yilishi fuqarolar bilan kommunikativ aloqa o'rnatilishiga to'sqinlik qiladi.

Avvalambor, yangi nom tanlashda muayyan tilning lingvistik me'yorlariga amal qilish barobarida xalq madaniyati, dunyoqarashi, mentaliteti, psixologiyasi kabilarni ham inobatga olish lozim bo'ladi. Shundagina bu nom korxonalar, muassasa va tashkilot nomlari foydanuvchilar o'rtasida manfaatli kommunikatsiyani bajaradi, nomlar orqali keng tarqalishga, mashhur bo'lishga, bozorda raqobatbardosh bo'lishga yordam beradi.

Tadbirkorlik obyektlari, korxonalar, muassasa va tashkilotlarga nom qo'yish jarayonini me'yorlashtirish, xalqimizning ma'naviyati va madaniyatiga, mentalitetiga yot bo'lgan nomlarning oldini olish, yangi nomlarning o'zbek adabiy tili me'yorlariga mos bo'lishini ta'minlash maqsadida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi kishilarni *nomlash texnologiyasi* (neyming) asoslaridan xabardor qilish, ularga uslubiy ko'rsatmalar berish, yangi nomlar zaxirasini yaratish dolzarb muammolardan biridir²³.

Keyingi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarining jadallik bilan rivojlanib borayotganligi, zamonaviy savdo majmualari, korxonalar, ko'plab maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari qurilayotganligi, xususiy firmalar barpo qilinayotganligini hisobga olsak, bir-biridan farqli, takrorlanmas yangi nomlarni yaratish oson ish emas, albatta. Yurtimizda barpo qilinayotgan mana shunday zamonaviy inshootlar, ishlab chiqarish obyektlari, savdo majmualari, firma, korxonalariga milliy g'ururimiz bo'lgan ona tilimiz me'yorlariga mos holda "brend nom" berishga yurtdoshlarimiz o'zlarini mas'ul deb bilishlari shart. Bu o'zi ishlab chiqargan mahsulotlar, savdo do'konlari, maishiy xizmat obyektlari, tibbiy xizmat muassasalari, xususiy o'quv markazlari va boshqa tadbirkorlik faoliyati turlarini yo'lga qo'yayotgan millatdoshlarimiz uchun hayotiy zarurat bo'lishi bilan birga, ijtimoiy burch ham hisoblanadi.

Shahar ko'chalarida sayr qilsangiz dilingiz yayrab, ko'zingiz quv Naydi, ammo do'kon, kafe va go'zallik salonlarining ajnabiy nomiga ko'zingiz tushganda beixtiyor g'ashingiz keladi. Masalan, quyidagi nomlar: "STOP SINA" SOMSA", "VOSTOK RESTORAN", "XAN-SULTON" restoran, "FEREDUN CAFE", "EPA" ta'mirlash ustaxonasi va hokazolar. Buyuk hikoyanavis adib Abdulla Qahhorning gaplari esimga tushadi: "Nima uchun ko'cha harakati qoidasini buzgan kishiga militsiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi". Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlari,

²³Lutfullayeva D.E. O'zbek tilida nom yaratish texnologiyasi (tadbirkorlik faoliyati obyektlari, iste'mol tovarlari nomlari) monografiya. 5-bet

madaniyati uning tilida o'z ifodasini topadi. Til – millat ko'zgusi, til – millat ruhi, til – millat tafakkuri va til – milliyligimizning yorqin ifodasi deb bejiz aytilmagan. Bunday tilimizga yot, ajnabiy nomlar va jumlar milliy mentalitetimizga salbiy ta'sirini o'tkazmaydi deb kim ayta oladi?

Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko'hna va serqirra madaniyati o'zbek tili ta'sirida shakllangan. Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy shu tilda bebaho asarlar yaratib, dunyoni lol qoldirgan. Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida davlatimiz delegatsiyalari tashrifi, yoshlarimiz yutuqlari, sportchilarimiz g'alabalari sharafiga o'zbek tilida madhiyamiz kuylanmoqda. Biz o'z ona-tilimizni asrab-avaylashimiz, uning nufuzini oshirishimiz, go'zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz, dunyoga tanitishda o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. Agar biz o'z tilimizning ko'rkamligi, boyligini dunyoga tarannum etsak, millatimiz yanada charog'on bo'ladi va birligimiz mustahkam bo'ladi. Tillarni saqlab qolish va rivojlantirish uchun BMT ekspertlarining fikricha, bu tildan ta'lim tizimida keng foydalanishni yo'lga qo'yish kerak. Nomlash jarayonini siyosat darajasiga chiqarib, o'zbeklashtirish kerak.

Bugungi kun millatdoshlarimizdan milliy tilimizni asrash, rivojlantirish hamda kelajak avlodga bus-butun yetkazib berish vazifasini talab etadi. Bu sharaflilik mas'uliyatni o'zbekman deb baralla ayta oladigan jamiyatimizning har bir soha vakili, millatning har bir farzandi his etmog'i va bajarmog'i ham qarz, ham farzdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lutfullayeva D.E. O'zbek tilida nom yaratish texnologiyasi (tadbirkorlik faoliyati obyektlari, iste'mol tovarlari nomlari) monografiya. – Toshkent, 2021.
2. Lutfullayeva D. E., Saparniyazova M. O'zbek tilida nom yaratishning lingvistik asoslari. // Ilm sarchashmalari. 2019. №11.
3. Xudoyberganova D. Tashkilot, korxonalar va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug'ati. – Toshkent, "Malika print CO", 2021

БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТИ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Шукуров Файзулла Бобонорович
Банк-молия академияси тингловчиси

Охириги йилларда мамлакатимиз давлат молиясини бошқариш тизимининг барча босқичларида, хусусан давлат молиявий назорати ва ички аудитини амалга оширишда кенг қўламли ислохотлар амалга оширилаётган бўлсада, тизимда қатор камчиликлар мавжуд. Бизга маълумки, хозирги кунга қадар Давлат молиявий назорати тизими ҳамда уни ишлаш принципи

мустақиллик давридан аввалги йиллардаги давлат молиявий назорат тизимидан кескин фарқ қилмасдан келмоқда.

Чунки, ўша даврда бюджетдан ажратилган маблағларни сарфланишида фақатгина қонун ва қонун ости ҳужжатлар талаблари тўғри бажарилиши, бюджет маблағларини талон тарож ва ўзлаштиришларга йўл қўйилмаслиги текширишнинг асосий мақсади бўлган бўлса, ҳозирда ҳам молиявий назоратни амалга оширишда ушбу мақсадларга кўпроқ урғу берилмоқда, яъни, барча операциялар амалга оширилганидан сўнг, қонун ҳужжатларига зид бўлмаган ҳолда бюджет маблағларидан оқилона фойдаланилганлиги, ўзлаштириш, камомад, режадан ортиқча харажатлар амалга оширилмаганлигига баҳо бериш билан чекланиб қолинмоқда.

Мамлакатда охириги йилларда иқтисодий ўсишни таъминлаш, халқ фаровонлигини ошириш, халқни рози қилиш борасида амалга оширилаётган сабъ-ҳаракатлар натижасида бюджетдан ажратилаётган ҳамда давлат кафиллиги асосида жалб қилинаётган ташқи қарзлар йилдан йилга ортиб бормоқда. Шу билан бирга, ажратилаётган маблағлардан мақсадсиз ва ноқонуний фойдаланиш ҳолатлари ҳам ортиб бормоқда. Амалиёт шуни кўрсатмоқдаки, бюджет ташкилотларида ўтказилган текширишларда аниқланган хато камчиликлар йилдан йилга ортиб бормоқда. (1-жадвал)

Йиллар	Аниқланган Камомад {Млрд.сўмда}
2017	91,1
2018	68,1
2019	142,6
2020	246,0

1-жадвалда Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг Давлат молиявий назорати департаменти ва унинг ҳудудий бошқармалари томонидан 2017-2020 йилларда бюджет маблағларини мақсадли сарфланиши юзасидан амалга оширилган назорат ишлари натижалари.²⁴

Рақамларга эътибор берадиган бўлсак, Давлат молиявий назорати департаменти ва унинг ҳудудий бошқармалари томонидан 2017 йилда бюджет интизомига риоя этилиши ва бюджет маблағларнинг мақсадли фойдаланиши юзасидан ўтказилган назорат тадбирларида 91.1 млрд. сўм миқдорида бюджет интизоми бузиш, пул ва товар-моддий бойликлар камомади ва асоссиз харажатлар аниқланган бўлса, 2020 йилда ушбу рақам 246 млрд.сўм, яъни кўрсаткичлар 2017 йилга нисбатан 2.7 баробар, 2019 йилга нисбатан эса 1.7 баробарга ошган. Тахлил натижаларидан кўриш мумкинки, бюджет қонунчилигини бузилиши ҳолатлари йилдан йилга ортиб

²⁴ Молия вазирлиги Давлат молиявий назорати Департаменти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

бормоқда. Ортиб боришига эса бир нечта омиллар таъсир қилиши мумкин: текширишлар сони кўпайганлиги, бюджет харажатлари ошганлиги, давлат молиявий назорати ходимлар сони кўпайганлиги, уларни малака кўникмалари ошганлиги ва бошқалар. Аммо бизнинг назаримизда бу омиллар юқоридаги кўрсаткичларни ортишига бу даражада таъсир қилмайди. Бизнинг фикримизча бунга асосий сабаблардан бири молиявий операцияларда ИТ технологияларни етарли тадбиқ қилинмаганлиги, кадрларни малакасини ошириш юзасидан махсус ўқув семинарлар ташкил қилинмаганлиги, ҳар бир назоратчи назорат объектида ўзи малакаси етганича молиявий назорат тадбирини амалга ошираётганлиги, молиявий назорат тадбири даврида даромадлар ва харажатлар назорати тўлиқ қамраб олинмаслиги, ҳудудий давлат молиявий назорати бошқармаларида мутахассисларни ойлик маоши камлиги, улар фаолияти маҳаллий ҳокимият органлари назоратидалиги, тўлиқ мустақил эмасликлари ва бошқалар.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, ҳозирда давлат молиявий назорати тизимидаги аниқ муаммолар мавжудлиги ҳамда уларни замон талабига мос равишда босқичма босқич такомиллаштириш талаб этилмоқда. Ушбу муаммолар эса қуйидагилар:

- Ҳисоб палатаси, давлат молиявий назорати департаменти ва ички аудит ва молиявий назорат хизматлари вазифалари ва жавобгарлик чегаралари, ўзаро маълумотлар алмашилиши, ҳуқуқ тартибот идоралари билан ҳамкорликлари, ҳуқуқлари, молиявий назорат тадбирларини ўтказишда бир бирларини такрорланмаслик чегарали қонун ҳужжати билан тўлиқ белгиланмаган;

- ягона сиёсат юритиш, молиявий назорат органларини услубий таъминлаш, фаолиятини мувофиқлаштириш учун масъул орган белгиланмаган;

- Ҳисоб палатаси ходимларининг меҳнат фаолиятини мустақиллиги қонун билан таъминланмаган;

- Тизимли кадрларни малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш институти мавжуд эмас;

- Молия вазирлигининг Давлат молиявий назорати департаменти ҳуқуқий мақоми тенг бўлган иккинчи бир вазирликда молиявий назорат тадбирини амалга ошириш амалиёти замонавий молиявий назорат амалиётида мавжуд эмас.

Бюджет тизимида давлат молиявий назоратини шундай ташкил этиш лозимки бюджет маблағлари ҳисобидан амалга оширилаётган ноқонуний ҳаракатларга техник жихатдан йўл қўймаслик ёки бундай харажатлар амалга

оширилганда хавф таҳлили орқали реал вақт режимда ошкор бўлиши лозим. Ва албатта, айбдорларга нисбатан доимо қонуний чора кўрилиши лозим.

Мамлакатимизда иқтисодий рақамлаштириш жараёни кенг кўламда олиб борилаётганлиги билан биргаликда, бюджет ҳисобини юритишни ҳам республика бўйича ягона дастурий мажмуада юритилиши жорий этилган. Бундан ташқари, Молия, Ғазначилик тизими иш фаолиятлари ҳам алоҳида ягона дастурий мажмуада юритилиб келинмоқда. Бир қарашда, шу билан иш жараёнида инсон омили натижасида юзага келиши мумкин бўлган хато камчиликларга барҳам берилди деб ўйлаш мумкин. Лекин, барча бюджет ҳисоби операциялари дастурий мажмуаларда юритилишига қарамасдан, бюджет қонунчилигини бузиш ҳолатлари сезиларли даражада камайгани йўқ, аксинча ўсиб бормоқда.

Шу муносабат билан, 2021 йил 27 августда “Давлат молиявий назорати тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”²⁵ Ўзбекистон Давлат молиявий назоратини самарали ва кенг қамровли ташкил этиш, молиявий операцияларда инсон факторини камайтириш, тизимли йўл кўйилаётган молиявий хато-камчиликларни олдини олиш мақсадида қуйидагиларни жорий этиш мақсадга мувофиқ деб ўйлаймиз.

1. “Давлат молиявий назорати ва аудити тўғрисида” Қонун қабул қилиш, Қонунда давлат назорат органлари ва ички аудит хизматларининг вазифаларини аниқ белгилаш;

2. Молия вазирлиги Давлат молиявий назорати департаменти тугатилиб, бўйсунувини Вазирлар Маҳкамасига ўтказиш;

3. Ҳисоб палатаси тизимида Давлат молиявий назорати тизимидаги ходимларни малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш институтини ташкил этиш;

4. Олий таълим муассалари ҳамда тизимда иш фаолиятини бошлаган ходимларга назарий ва амалий ўқув қўлланмаларни ишлаб чиқиш;

5. Ҳисоб палатаси ходимлари меҳнат фаолиятини мустақиллигини қонуний таъминлаш;

Хулоса қилиб айтиш жоизки, охириги йилларда барча соҳаларда олиб борилаётган ижобий ўзгаришлар, жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашув жараёни шиддат билан ривожланаётган бир даврда давлат молиявий назорати тизимини ҳам жаҳон стандартларига мос равишда шакллантириш, сифат жиҳатдан янги босқичга олиб чиқиш Республикамизни иқтисодий ривожланишига ўз хиссасини қўшади.

²⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат молиявий назорати тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6300-сон Фармони, 27.08.2021

**XVI-XIX ASRDA BUXORO XONLIGI VA ROSSIYA DAVLATI
O'RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLARNING
XUSUSIYATLARI***Achilov K.**O'zMU Tarix fakulteti
magistranti*

Аннотация. Некоторые аспекты отношений между Узбекистаном и Республикой Казахстан в области образования

Annotation. Some aspects of relations between Uzbekistan and the Republic of Kazakhstan in the field of education

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalari xalqlar orasida iliq munosabatni rivojlantirish, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasidagi yutuqlarni almashishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Markaziy Osiyo xalqlari hayotida siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan qadimgi dunyo sivilizatsiyasi beshiklaridan biridir. Davlatimiz hududida mavjud bo'lgan qadimgi mamlakatlar o'zining boy o'tmishi va uning ko'p sonli tarixiy obidalari, moddiy va manaviy madaniyati azaldan sharqshunos olimlarni o'ziga jalb etib kelgan. Bu o'rinda, XVI asr ikkinchi yarminida Markaziy Osiyoda u'ziga xos kudrat va mavqega ega bu'lgan Buxoro xonligining bo'shqa davlatlar bilan rivojlangan aloqalar tarixini tadqiq qilib dolzarb hisoblanadi.

XVI-XIX asrlarda Buxoro xonligining qo'shni davlatlar, xorijiy mamlakatlar, jumladan Rossiya bilan bevosita hamda bilvosita amalga oshirgan iqtisodiy aloqalari, tashqi savdo va elchilik munosabatlarini o'rganish barobarida ushbu davlatlar o'rtasida bo'lib o'tgan diplomatik aloqalarga nazar tashlaymiz. Buxoro xonligi va Rossiya imperiyasi diplomatik aloqalarini tadqiq etish orqali Buxoro xonligining XVI-XIX asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, bozorlar, karvonsaroylar faoliyati, savdo yo'llari hamda eksport va import tovarlar turlarini o'rganish va aniqlash, Buxoro xonligining qo'shni hamda xorij mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarining ayrim xususiyatlarini tahlil etish, xonlik bilan savdo aloqalarida vositachi bo'lgan mamlakatlar savdogarlari uchun yaratilgan imtiyozlar va ulardan olingan boj tizimini o'rganish, Mustaqil O'zbekistonning Yevropa va Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi ildizlari ko'p asrlik tarixga ega ekanligini asoslab berishimiz mumkin.

Tarixdan bizga ma'lumki u yoki bu davlat har bir vaqtda rivojlanish davrida tashqi diplomatik aloqalar va savdo aloqalarisiz rivojlana olmagan. Bir so'z bilan aytganda har qanday davlat ham o'z qobig'iga o'ralib taraqqiy etmagan.

Buxoro xonligida Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulola hukumdorlari tomonidan bir qancha savdo va diplomatik munosabatlari amalga oshirilgan. Movoraunnahrda Shayboniylar hokimiyat tepasiga kelgan yillarda va ular hukumronlik yillarda qo‘shni mamlakatlar bilan elchilik, savdo tijorat ishlarini olib borganlar. Xonlikning tashqi savdoni tashkil etishda elchilarning xizmati katta bo‘lgan, chunki diplomatik aloqalarning yaqinligi savdo tijoratining rivojiga ijobiy ta‘sir o‘tkazgan²⁶.

Buxoro xonligining Rossiya bilan munosabatlari XVI asrning ikkinchi yarmidan rivojlana bordi. Buxoro xonligi oliy hukumdori Abdullaxon II Rossiya podshosi Ivan Grozniy bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalarni yo‘lga quydi.

Abdullaxon II tomonidan 1557-1558-yillarda Moskvaga elchilar yuborilgan. Elchilar Astraxan orqali Moskvaga borib Ivan Grozniy huzurida bo‘lganlar. Ular o‘z xonlari nomidan savdogarlarning Volga boylab erkin o‘tishlariga ijozat so‘raydilar. Qaytib kelgan elchilar Moskvadan juda ko‘p o‘q-dori, ov qushlari va matolar bilan qaytganlar.²⁷

Imomqulixon vaqtida Buxoro xonligidan rus davlatiga to‘qqiz marotaba elchilar yuborilgan. Shularning yettitasi bevosita, Astraxan, qolgan ikkitasi esa Sibir orqali yuborilgan.

1613-yili Imomqulixon rus davlatiga Navruzxo‘ja boshchiligida elchilar yuboradi. Bu elchi 300 kishidan iborat savdo karvonlari bilan Qozon, Samara va boshqa joylarda mahalliy hokimiyat tomonidan qabul qilinadi. Ular shuningdek sovut, shunqor, moyna va “xon extiyoji” uchun zarur bo‘lgan rus tovor maxsulotlarini sotib olish va xon mollari rus yerlarida bojsiz sotishga ijozat berilishiga rus podshosidan so‘ragan va bunga javoban ma‘lum miqdorda imtiyozlarga ega bo‘lgan.

Buxorodan, 1622-yilda Chobak Valikov, 1633-yilda Hoji Otaqul, 1640-yilda Xazziyan (Kozziyan), 1642-yilda Xo‘ja Ibrohim, 1670-yilda Mulla Farrux kabi elchilar Rossiya mamlakatiga yuboriladi. Bu kabi elchilik munosabatlarning yo‘lga quyilishi Buxoro xonligi va Rossiya savdosini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilishida muhim rol oynagan.²⁸

1658-yilda Irkutskka 15 ga yaqin buxoroliklar oilalari 130 ga yaqin tuya bilan tashrif buyuradi. 1686-yilda bu hududga ikkinchi karvon tashrif buyurdi. Uning tarkibida 11 savdogar oilasi, 172 ta tuya va 2000 rublga yaqin xomashyo mavjud edi.²⁹

²⁶ Азамат Зиё. Узбек давлатчилиги тарихи. – Т.: «Шарк», 2000. – Б. 244.

²⁷ Зияев Д. Урта Осиё ва Сибирь (XVI-XIX асрлар). – Тошкент, Фан, 1962. – Б.46.

²⁸ Зияев Х. Урта Осиё ва Сибирь (XVI-XIX асрлар). – Тошкент, Фан, 1962. – Б.46.

²⁹ Раджабов С.А. Роль великого русского народа в исторических судьбах народов Средней Азии. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1955. – С. 23–24

1804 yilda Amir Haydarning elchisi Abdulkarim Rossiyaga tashrif buyurdi. 1806-yilda chop etilgan rus jurnallaridan birida Rossiyada yashayotgan o'zbek shajarasi o'zining ishbilarmonligi, so'zamonligi va o'z ishini yaxshi bilishi bilan ajralib turishi aytib o'tilgan edi.³⁰

1857-, 1869- va 1874-yillarda Nasrullohonning elchilari bilan birga Ahmad Donish Rossiya safarida bo'ldi. U Rossiyaga qilgan safaridan ilhomlanib "Buxorodan Peterburgga sayohat" asarini yozgan.³¹

Xulosa qilib aytganda, Buxoro xonligining Rossiya imperiyasi bilan diplomatik aloqalari jahon savdo yo'nalishidagi o'zgarishlar natijasi bo'lib, Yevroosiyo mintaqasidagi siyosiy munosabatlar tizimiga kata ta'sir ko'rsatgan. Rossiya bilan diplomatik munosabatlar turli davrlarda siyosiy ahamiyatdan ko'ra iqtisodiy manfaatlar ustunligi bilan ajralib turadi. Bu ustunlik Rossiyaning O'zbekiston bilan hozirgi munosabatlar tizimida ham muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Rossiya bilan diplomatik aloqalar tufayli O'rta Osiyo xonliklarida diplomatik qoidalar tizimi, yangilangan munosabatlar majmui shakllandiki, unda jahon tajribasi o'zbek davlatchiligiga ham kirib kelgan.

ОИЛАДА БОЛАЛАР ВА ЎСМИРЛАРНИНГ ЭТНОПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК САМАРАДОРЛИГИ

Б.Норбекова

*ЎЗМУ Жиззах филиали Ёшлар психологияси кафедраси катта
ўқитувчиси.*

Аннотация. Мақолада оилада болалар ва ўсмирларнинг этнопсихологик хусусиятларини шакллантиришнинг психологик омиллари хусусида мулоҳазалар юритилади ва самарадорлиги атрофлича ёритилган.

Аннотация. В статье рассматриваются психологические факторы формирования этнопсихологических особенностей детей и подростков в семье, подробно освещается их эффективность.

Annotation. The article examines the psychological factors in the formation of ethnopsychological characteristics of children and adolescents in the family, highlights their effectiveness in detail.

Ташқи омилларнинг асосида субъект яшаётган мамлакатдаги сиёсий аҳвол, миллатнинг ижтимоий-тарихий образи, шахснинг ўз ватани тарихи

³⁰ Абрамов М.М. Из истории Самарканда конца XVIII– начала XIX в. //Тезисы докл. объед. научн. сессии.... Ташкент, 1869, – С.33.

³¹ Перечень товаров, доставленных из Бухары в Ярославль купцом Хаджи Ата кули (1634)// История Узбекистана в источниках. Сост. Б.В. Лунин. – Ташкент: Фан, 1988. – С. 65.

ва маданияти хусусида билиши (когнитив соҳада), жамиятда миллий ўзликнинг намоён этишини ифодаловчи муҳитнинг мавжудлиги, қишлоқда, туманда, шаҳарда, катта шаҳарда, мегаполис ва пойтахтларда ёки ўз ватани ҳудудида яшаши, миллат вакилларининг ўзаро муносабатлари, кўни-кўшни, маҳалла - куй ва ҳамқишлоқларнинг бир-бирини қўллаб-қўвватлаши, миллий урф-одат ва анъаналар, удум ёки маросимларга эътибор ва уларни авайлаб асраш кабилар ётади.

Республикада бевосита ўзбек оилаларида ота-она ва фарзанд, оилада ака-ука, опа-сингилларнинг ўзаро муносабатлари психологиясига оид бир қанча илмий ишлар ва ўқув қўлланмалари Ғ.Б.Шоумаров ва бошқа психологлари томонидан ҳам амалга оширилган. Шу билан бирга Республика психолог олимлари орасида илк бор ўзбек оиласида бир неча авлодлараро ва икки авлод: ота-она ва фарзандлар ўзаро муносабатларнинг ўзига хос этнопсихологик хусусиятлари ўрганилган ва кўп фарзандлик оиланинг катта ёшли аъзоларига ҳурмат, оилада эркак мавқеи, муҳаббат ва оила кабиларнинг бола шахсига таъсири ёритиб берилган [1].

Тадқиқотимиз давомида шаҳар ва қишлоқ оилаларида яшовчи болалар ва ўсмирларда этнопсихологик хусусиятларнинг шаклланиши ва намоён бўлишида ўзига хос тафавутлар мавжудлиги аниқланди. Буларни шаҳарларда яшовчи болалар ва ўсмирларнинг турли миллат вакиллари билан биргаликда истиқомат қилиши, кўп миллатлилиқ жамиятнинг ўзига хос хусусиятлари, шаҳарлар шароитида кўп қаватли уйларда яшаш, шаҳарларда яшовчи аҳолининг яша ва меҳнат тақозасига кўра, ўзаро муносабатларнинг яхши йўлга қўйилмаслиги ва бошқа шу каби омиллар билан изоҳлаш мумкин.

Ички омилларда эса субъектнинг индивидуал хусусиятлари, ёши, жинси, темпераменти, ундаги “реал” ва “идеал” “Мен” образининг шаклланганлиги, шахслараро муносабат типи, ўзини ўзи баҳолаш хусусияти, ўзини ўзи фаоллаштириш даражаси, маданиятлараро мулоқотга психологик тайёрлик, шахс томонидан миллат қадриятларининг идрок этилиши, шахснинг миллий ўзини ўзи англаши, тажриба ва кўникмаси, бошқа миллатларга бўлган муносабат, миллий ва ватанпарварлик туйғусининг намоён бўлиш даражаси ва бошқаларда намоён бўлади.

Қолаверса, инсоният тарихида рўй берган кўпдан-кўп урушлар давомида айрим миллат ва элатлар қириб ташланган, баъзилари қувғинга учраган. Этник идентикликни шакллантириш - ҳар бир миллатнинг миллий ўзини ўзи англаш, миллий характер, миллий онг, миллий менталитет, миллий хусусиятлар, қадриятлар, урф-одат ва анъаналарга риоя этишни ўз ичига

олади. Бу жараён турли миллатларни бирлаштирувчи ягона маконни вужудга келтиришда ҳам муҳим ҳисобланади.

С.И.Королевнинг кўрсатишича, шаклланган этнопсихологик хусусиятлар маълум даражада муҳофаза қилувчи механизм ролини ўйнайди. У худди ғалвирдек, ёт нарсаларни ажратиб уни ё қабул қилади, ёки шу халқда мавжуд бўлган нормалар асосида қайта ишлайди, ёхуд уни инкор этади [2].

Шунинг учун аввало этнопсихологик хусусиятларни шакллантириш, миллатпарварлик, миллий ҳаратер ва миллий туйғуни тарбиялашни тақоза қилади ва бунда қуйидагиларга эътибор қаратиш муҳим ҳисобланади:

- “этник индифферентлик” (бепарволик), яъни шахслар ўртасидаги муомалада миллий омилни эътиборга олмаслик (алоҳида зарур ҳолатлар бундан мустасно);

- шахснинг ўз ватани тарихи ва маданияти хусусида билиши;

- бошқа миллат кишилари билан муносабатда мулоҳазали бўлиш;

- миллий, этник мҳаммолар хусусидаги муҳокамада мазкур масала юзасидан ўзи эга бўлган билимлар ҳажмини ошириш;

- инсон ўзи яшаб турган этник гуруҳнинг маросимлари, расм-русумлари, урф-одатларини билиши зарурлиги;

- тил масаласи - миллатлараро муомала маданиятининг энг муҳим жиҳатларидан бири эканлигини эсда тутиш;

- қўни-қўшни, маҳалла - қуй ва ҳамқишлоқларнинг бир-бирини қўллаб-қўвватлаши;

- миллий урф-одат ва анъаналар, удум ёки маросимларга эътибор ва уларни авайлаб асраш;

- субъектнинг “реал” ва “идеал” “Мен” образининг шаклланганлиги

- шахслараро муносабат даражаси;

- ўзини ўзи баҳолаш хусусияти ва ўзини ўзи фаоллаштириш даражаси;

- миллатлараро мулоқотга психологик тайёрлиги;

- шахс томонидан миллат кадриятларининг идрок этилиши;

- шахснинг миллий ўзини ўзи англаши, тажриба ва кўникмаси;

- бошқа миллатларга бўлган муносабат;

- миллий ва ватанпарварлик туйғусининг намоён бўлиш даражаси.

Этнопсихологик хусусиятларни шакллантиришда тил масаласини ҳал этишда оммавий ахборот воситалари ва аввало телевидениенинг аҳамияти жуда катта. Телевидение, радио ва матбуотда миллийликни тарғиб қилувчи рукнлар, эштиришлар, кўрсатувлар дастурларини кўпайтириш ва уларда бачкана ва беҳаё ибораларнинг ишлатилишига барҳам бериш, шахснинг

миллий ва диний туйғуларини топталамаслик миллий ўзликни англашда катта аҳамият касб этади.

Қолаверса, миллий ўзликни англашни шакллантириш учун жамият кўп соҳалар бўйича ҳаракат қилиши зарур бўлади. Қуйида шу соҳаларнинг айримларига тухталиб ўтамиз.

Илмий-таҳлилий йўналиш - миллий хусусиятларни шакллантиришнинг, миллий ўзликни англашнинг ва миллий туйғуни тарбиялашнинг илмий-услубий асосларини ишлаб чиқишни кўзда тутди.

Таълим, услубий йўналиш - барча поғоналардаги таълим муассасаларида миллий фазилат ва хислатларни, ўзга миллат вакилларига сабр-тоқат билан қарашни шакллантиришга ва миллатлараро мулоқотни ўргатишга қаратилган таълим дастурлари ва технологияларини яратиш ва жорий этишни, психологик тренинглар (машғулотлар) орқали уни шакллантиришни назарда тутди.

Меъёрий, услубий ва ташкилий йўналиш - доираларида миллий хусусиятларни шакллантириш бўйича услубий ҳужжатлар мажмуасини ишлаб чиқиш ҳамда оммавий ахборот воситаларида эълон қилинган, кўрсатилган ва эшиттирилган материалларни ижтимоий-психологик ва этнопсихологик жиҳатдан экспертиза (текширув)дан ўтказиш учун шароит яратиш, жумладан интерактив таълим воситалари ва ўйинлардан фойдаланган ҳолда янги коммуникацион технологиялар ва таълим дастурларини ишлаб чиқиш, миллатчилик, агрессия, миллатлараро тотувликни таъминлаш, миллатдошлари орасидаги муҳтожларга кўмак кўрсатиш, миллатдошлари ва миллатлараро мулоқот самарадорлигини ошириш методикасини ишлаб чиқиш талаб этилади.

Технологик ва моддий-молиявий йўналиш - миллийликни шакллантириш борасида тажриба тўплаш, дунёқараш барқарорлигини ижтимоий-коммуникацион технологиялар тизимини шакллантириш, шу асосда иқтисодиётнинг инновацион (янги) тармоқларини яратиш вазифасини кўзлайди.

Абу Наср Форобий ўзининг “Фозил одамлар шахри” асарида кадриятларни эгаллаш, уларни авлодларга етказишда муҳим восита ҳисобланган педагогик масалаларни ижтимоий фанларнинг муҳим қисми сифатида талқин этади. Унинг фикрича, мавжудотнинг энг буюк ва етук маҳсули бу - инсон. Инсоннинг ҳар томонлама яхлит ва ўзаро узвий боғлиқ бўлган қисмлардан иборат эканлигини айтиб, уни бир бутун яхлит ҳолда ўрганишни тавсия қилади [3].

Миллий ўзликни шакллантириш муҳитини яратиш шубҳасиз осон вазифа эмас. Тарбия - тоқатсизликнинг олдини олишда энг самарали восита ҳисобланади, шу сабабли ёшларни миллийлик руҳида тарбиялашни бугунги кундаги биринчи даражали вазифа деб ҳисоблаш лозим бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Цзен Н.В. Пахомов Ю.В. Психотренинги. Игры и упражнения. - М.: Физкультура и спорт, 1988.- 250 с.
2. Стефаненко Т. Г. Индивидуальные стратегии конструирования этнической идентичности // Идентичность и толерантность / под ред. П. М. Лебедевой. М. : Изд-во ИЭА РАН,2002. С. 41.
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. - Т.: Ўзбекистон, 1993. -222 б.

XXI ASR BOSHLARIDA ROSSIYA FEDERATSIYASINING ICHKI VA TASHQI SIYOSATI

Sherzodbek Xudoyberdiyev

ADU, Tarix yo`nalishi 2- kurs magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada XXI asr boshlarida Rossiya Federatsiyasining ichki va tashqi siyosati haqida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: Rossiya Federatsiyasi, tashqi siyosati, ichki siyosati, davlat hokimiyati, tarix, siyosiy-tarixiy vaziyat, tarixiy hodisalar.

Abstract. This article talks about the domestic and foreign policy of the Russian Federation at the beginning of the 21st century.

Key words: Russian Federation, foreign policy, internal policy, state power, history, political-historical situation, historical events.

Абстракт. В данной статье рассказывается о внутренней и внешней политике Российской Федерации в начале 21 века.

Ключевые слова: Российская Федерация, внешняя политика, внутренняя политика, государственная власть, история, политико-историческая ситуация, исторические события.

O'tmish va tarixiy xotira insoniyat tarixining barcha davrlarida e'tibor markazida bo'lib kelgan. Bu e'tibor natijasida ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar orqali tarixiy hodisalar, shaxslar va jarayonlar bilan bog'liq ko'plab savollarga javob izlangan. Ushbu jarayon inson o'tmishda nima sodir bo'lganligini yozishni boshlashi bilan va tarixshunoslikni paydo bo'lishiga asos bo'lgan. Tarix va tarixiy jarayonlar, siyosiy-tarixiy vaziyat ularning ro'y berishidagi asosiy sabab va xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishda har tomonlama tahlil qilish tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishida katta omil sanaladi.

XXI asrda dunyo juda keskin o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda, milliy davlatlar nafaqat jiddiy siyosiy balki kuchli ijtimoiy iqtisodiy muammolarga ham duch kelmoqda. Qiyinchiliklar o'ta global bo'lib ko'plab mamlakatlar siyosatiga ta'sir qiladi. Bugungi global kontekstda keng tarqalgan tendensiya milliy-davlatlarning o'z kuchi va ta'siri haqida qayg'urishidir. Hozirgi kunda ortib borayotgan geosiyosiy keskinliklar va muommolar global harakterga ega, ko'plab mamlakatlar siyosatiga ta'sir qiladi. Ayni paytda, akademiklar va amalyotchilar dunyo "qattiq" va "yumshoq" kuchga oid eski taxminlar va qat'iy tafovutlardan uzoqlashishi kerak ekanligini tan olishni boshladilar, chunki iqtisodiy siyosiy muommolarni endi harbiy kuch yoki siyosat innovatsiyasi bilan hal qilib bo'lmaydi.

Rossiya Federatsiyasi Yevropaning sharqida, Osiyoning shimolida joylashgan mamlakat. Maydoni jihatidan dunyoda eng katta mamlakatdir.

Rossiya – boshqarishning respublika shakliga ega bo'lgan demokratik Federativ Respublika. B.Yelsin 1999-yil dekabr oyida iste'foga chiqdi. Vaqtincha prezident lavozimini egallagan Vladimir Putin 2000-yil mart oyida bo'lib o'tgan saylovlarda Rossiya prezidenti etib saylandi.

Rossiya Prezidenti V.V.Putin siyosati. V.Putin o'zining kuchli davlat hokimiyati tarafdori sifatida davlat hokimiyatining roli va obro'yini mustahkamlashga qaratildi. Xalqaro maydonda Rossiyaning roli tikladi. 2008-yil avgust oyida Gruziya o'zining tarkibiy qismi hisoblangan Janubiy Osetiya va Abxaziyada konstitutsion tartibni tiklash maqsadida bu hududlarni artilleriyadan bombardimon qilishni boshladi. Shundan so'ng mojaroga Rossiya qo'shinlari aralashib, Gruziya hududigacha bostirib kirdi va Rossiya – Gruziya munosabatlari keskin yomonlashdi.

Rossiya Prezidenti V.V.Putin tashqi siyosati. 2014-yil fevral oyida Ukrainada hokimiyat almashdi. Qrimda hokimiyatga kelgan rossiyaparastlar Kiyevdagi yangi hukumatni tan olmadi. 2014-yil 16-martda ular referendum o'tkazib, uning nati-jasiga binoan Qrimning mustaqiligini e'lon qildi va Rossiya Federatsiyasi tarkibiga kirish to'g'ri sida shartnoma imzoladi. Rossiyaning Ukrainaga nisbatan siyosatidagi yana bir muammoli jihat Ukrainaning sharqida, Donetsk va Lugansk viloyatlaridagi voqealar bilan bog'liq. Bu yerda ham Ukrainadagi hokimiyat almashinuvini tan olmagan bir guruh rusiy zabon yetakchilar tomonidan Donetsk va Lugansk Xalq respublikalari e'lon qilinib, o'z armiyalarini shakllantirdi.

Tashqi siyosatda Rossiya hal qilishi lozim bo'lgan masalalardan biri Suriya muammosi. Rossiyaning harbiy-kosmik kuchlari 2015-yil sentabrdan boshlab Suriyadagi janglarda ishtirok etmoqda. Suriyada ISHID (Iroq va Shom islom davlati) va boshqa xalqaro terrorchi tashkilotlarga qarshi kurashda Rossiya bir qator yutuqlarga erishdi.

2010-yil boshida Rossiya aholisi 141 927 297 kishini tashkil qildi.



1950-yildan 2010-yilgacha Rossiya SFNT (qizil) va Rossiya Federatsiyasi (ko'k) aholisi.

Rossiya 1991-yilda Sovet Ittifoqi parchalanishi arafasida 148 689 000 aholi bilan eng ko'p aholiga ega edi. Buning ortidan aholi sonining barqaror qisqarishi kuzatildi, tug'ilishning kamayishi va o'lim darajasining o'sishi tufayli Rossiya aholisi yiliga taxminan 0,5 % ga qisqardi. Biroq, bu tendentsiya so'nggi yillarda sekinlashdi va Rossiya aholisi 2009-yilda 23 300 kishiga ko'paydi, bu 15 yil ichida birinchi marta o'sishdir.

2002-yilda etnik ruslar mamlakat aholisining 80 % ni tashkil qilgan. Yana oltita guruh bir milliondan ortiq kishini tashkil etdi: tatarlar (3,8 %), ukrainlar (2,0 %), boshqirdlar (1,1 %), chuvashlar (1,1 %), chechenlar (0,9 %) va armanlar (0,8 %). Rossiya Federatsiyasi chegaralarida 160 ta muhim etnik guruhlar yashaydi. Rossiyadagi mahalliy xalqlarning mavqei ba'zi joylarda qiyin.

Rossiyaning keng geografiyasi uning iqtisodiy faolligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, dunyo tabiiy resurslarining 30% dan ortig'i mamlakatda to'plangan. 2016-yilda neft va gaz sektori federal byudjet daromadlarining 36% ni tashkil etdi. Rossiya dunyodagi eng katta tabiiy gaz, ikkinchi yirik ko'mir zaxiralari, neft zaxiralari bo'yicha sakkizinchi va eng katta neft zahiralarga ega bo'lgani uchun keng tarqalgan bo'lib energetik super davlat deb ataladi.

Rossiyaning valyuta zaxiralari dunyoda beshinchi o'rinda turadi. Unda 70 millionga yaqin odam ishlaydi, bu dunyodagi oltinchi o'rinda turadi. Rossiyaning yirik avtomobilsozlik sanoati ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyoda o'ninchi o'rinda turadi.

U yuqori texnologiyali harbiy texnikani ishlab chiqish va ishlab chiqarishga qodir yirik va zamonaviy harbiy sanoatga ega va dunyodagi ikkinchi yirik qurol eksportchisi. Rossiya milliardlar soni bo'yicha ham dunyoda beshinchi o'rinda turadi. Rossiya dunyodagi o'n to'rtinchi yirik eksportchi hisoblanadi. 2019-yilda tabiiy resurslar va atrof-muhit vazirligi tabiiy resurslar qiymatini mamlakat yalpi ichki mahsulotining 60% ga teng deb baholadi. Rossiya eng yirik iqtisodiyotlar

orasida tashqi qarz koeffitsientlari bo'yicha eng past ko'rsatkichlardan biriga ega va biznes yuritishning qulayligi indeksida "juda yengil" mamlakatlar orasida yuqori o'rinni egallaydi. Mamlakatda qat'iy belgilangan soliq stavkasi 13% ni tashkil qiladi va yagona menejerlar uchun shaxsiy soliqqa tortish tizimi Birlashgan Arab Amirliklaridan keyin dunyoda ikkinchi o'rinda turadi. Biroq, butun mamlakat bo'ylab uy xo'jaliklarining daromadlari va boyluklarida o'ta tengsizlik ham mavjud edi.

Rossiya 2020-yilda yalpi ichki mahsuloti 1,46 trillion AQSH dollari bilan o'lchangan holda dunyodagi o'n birinchi yirik iqtisodiyot bo'ldi. Nominal YaIM bo'yicha jahon reytingida Rossiya Koreya Respublikasi va Braziliya o'rtasida joylashgan. Taxminan 27,4 ming AQSH dollarini tashkil etib, Rossiyada aholi jon boshiga o'rtacha boyluk 2019-yilda AQSh va Yevropaning aksariyat davlatlaridan ancha orqada, dunyo bo'yicha 92-o'rinni egalladi. Bundan tashqari, jamiyatda tengsizlik kuzatildi, chunki jami daromadning 46 foizini eng boy 20 foiz, eng kambag'al beshdan bir qismi esa olti foizdan kamrog'iga to'plagan. Rossiyaning harbiy qudratiga nazar solsak: Rossiya Federatsiyasining qurolli kuchlari. Ular quruqlikdagi kuchlar, dengiz floti va aerokosmik kuchlarga bo'lingan. Qurolli kuchlarning ikkita mustaqil bo'linmasi ham mavjud: strategik raketa kuchlari va havo-desant kuchlari. Rossiya Federatsiyasining federal qonuniga ko'ra, Rossiya Qurolli Kuchlari, shuningdek Federal xavfsizlik xizmati (FSB), Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi (MVD), Federal xavfsizlik xizmati (FSO) chegara qo'shinlari, tashqi razvedka xizmati. Rossiya qurolli kuchlaridan fuqarolik mudofaasi xizmati (SVR), Bosh shtab (GRU) Bosh boshqarmasi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV); va Rossiya Xavfsizlik Kengashining bevosita nazorati ostida. Rossiya Qurolli Kuchlari dunyodagi eng yirik harbiy kuchlardan biri bo'lib, bir millionga yaqin faol xizmatchilar, dunyoda to'rtinchi o'rinda turadi va 2 millionga yaqin zaxirada. 18 yoshdan 27 yoshgacha bo'lgan barcha erkak fuqarolar qurolli kuchlardagi xizmatga chaqirilishi kerak. Dunyodagi ikkinchi yirik harbiy kuch sifatida Rossiya armiyasi dunyodagi eng katta yadroviy qurol zaxirasini saqlaydi; ikkinchisi dunyodagi yadro qurollarining yarmidan ko'piga egalik qiladi. U ballistik raketa suv osti kemalarining ikkinchi yirik flotiga ega va uch milliondan iborat kam sonli strategik bombardimonchilardan biridir. Rossiya Qurolli Kuchlari dunyodagi eng kuchli quruqlikdagi kuchlarga ega va havo kuchlari va dengiz floti bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Rossiya harbiy xarajatlar bo'yicha dunyoda to'rtinchi o'rinni egallab, 2020 yilda 61,7 milliard dollar sarflagan. 2018 yilda Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlari 35 turdagi qurol va harbiy texnikani qabul qildi, yana 21 tasi davlat sinovlarini o'tkazdi. Xuddi shu yili Rossiya Mudofaa vazirligi YSU TZ jangovar boshqaruv tizimini sotib oldi. YeSU TZ jangovar maydonlarni

boshqarish tizimi 11 ta quyi tizimni o'z ichiga oladi, ular qatorida artilleriya, elektron urush tizimlari, yer usti uskunalari, havo mudofaa tizimlari, muhandislik uskunalari va logistikani boshqaradi. Rossiya armiyasi katta ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish texnologiyasini qo'llaydi. Rossiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatining qattiq kuchi haqida shuni takidlab o'tish kerakki, Rossiyaning Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari hududida qattiq kuch belgilari bor, bular harbiy bazalar, texnika, askarlar, yordamchi harbiy strategik tuzilmalar. Lekin bu qattiq kuchning ananaviy ta'rifga to'liq mos kelmaydi.

Rossiyaning Markaziy Osiyoda harbiy qudratning mavjudligiga qaramay, qattiq kuch strategiyasi geosiyosiy va iqtisodiy manfaatlar shuningdek bir qator muammolar bilan bog'liq bo'lgan tashqi siyosat uchun o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Rossiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatini tahlil qilib shuni ta'kidlash mumkin Rossiyaning Markaziy Osiyoga qiziqishi avvalambor o'zining istaklaridan va mintaqadagi iqtisodiy tasridan kelib chiqadi.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarning zaiflashishi Rossiya tasrning boshqasi bilan almashishiga olib kelishi mumkin, bu esa Rossiya federatsiyasi va butun mintaqaning ichki barqarorligiga tahdid soladi. Bundan tashqari bu barqaror mintaqada davlatlari bilan strategik aloqalar bozorlariga chiqish va Xitoy, Hindiston, Eron va boshqalar bilan hamkorlikning yangi sohalarini ochilishida yordam beradi. Markaziy Osiyo bilan munosabatlar Rossiya ichki manfaatlari bilan bog'liq holda muhim ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo Rossiya bozorlari uchun oziq-ovqat mahsulotlar mashinasozlik yengil sanoat eksportning muhim qismini yetkazib beradi va Rossiyaga mehnat qilish uchun keladigan eng katta muhojirlar oqimi ham Markaziy Osiyo mintaqasiga to'g'ri keladi jumladan O'zbekiston hissasiga to'ri keladi va bu ham mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli tasir qiladi. Rossiya o'zining harbiy-siyosiy salohiyati tufayli mintaqadagi havfsizlikning kafolatidir.

Rossiyaning KXShT doirasidagi harbiy bazalari jangovor harakatlar asosining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ularning muvoffaqiyatni sezilarli darajada oshiradi. Shunday qilib Rossiyaning eng yirik harbiy bazasi Markaziy Osiyo hududida ya'ni Tojikistonda joylashgan. Tojikiston hududida 201 ta harbiy baza, 5,9 ming harbiy xizmatchi, 2020-yilda esa ularning soni qariyb 9 mingga yetgan, harbiy obyektlarning Afg'onistonga yaqinligi, shuningdek, mamlakat ichki barqarorligiga tahdid bilan bog'liqligi sababli Rossiya uchun ham Tojikistonning o'zi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Russia in Central Asia: The Dynamics of Great-Power Politics in a Volatile Region on JSTOR <https://www.jstor.org/stable/43738108>

2. Russian Hard Power Projection: A Brief Synopsis | Center for Strategic and International Studies.

ТАРИХ ҲИТОВЧИЛАРИДА ТАРИХИЙ ИДЕАЛЛАРГА ДОИР БИЛИМЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АХАМИЯТИ

Болтаева Мохичехра Жамшид қизи

Миллий университетнинг Жиззах филиали катта ҳитовувчиси

Аннотация. Ушбу тезисда тарих ҳитовувчиларида тарихий идеалларга оид билимларни ривожлантиришнинг ижтимоий зарурати, педагогик асослари ва мавжуд ҳолатини тадқиқ этиш муҳимлиги йоритилган. Бу ишни амалга оширишдан олдин ижтимоий идеал, диний идеал ва тарихий идеал тушунчаларининг моҳияти билан танишиб чиқиш, луғатларда тарифланишини кўриб чиқиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Калит сўзлар: тарих, педагог, педагогика, ижтимоий идеал, диний идеал, фалсафа, компетенция.

Кириш. Қадриятларнинг қайта тикланиши, халқимизнинг миллий ўзлигини англаш жараёнининг натижасида муҳим ижобий ўзгаришлар рўй бермоқда. Содир бўлаётган бу ўзгаришлар одамларда келажакка ишонч туйғусини, озодлик ва эркинлик ҳиссини тарбияламоқда. Президентимиз томонидан киритилган янги тараққиёт стратегияси бой маданий-маънавий меросимиздан, буюк аجدодларимиз яратган маънавият чашмаларидан баҳраманд бўлишимиз учун имкониятлар яратмоқда. Тарихий қадриятларга асосланган тарбия жараёнини бўлғуси тарих ҳитовувчиларига сингдириш ва уларнинг педагогик фаолияти асосида жамиятда умумаданий билим ва кўникмаларни ривожлантириш устувор вазифалардан бири бўлиб қолмоқда.

Қомусий луғатда “идеал” тушунчаси атама сифатида орзу-интилишларнинг олий мақсадини ифодалайди деб ёзилган [1]. Бошқа хорижий манбада “идеал” тушунчаси юнонча “idea” яъни “намуна”, “меъёр” деган маънони англатади деб ёзилган [2].

Идеалнинг тарихдаги ижтимоий-фалсафий ўрни ХХ асрнинг 60-йилларидан бошлаб хорижий ва Ўзбекистон олимлари фаолиятида ижтимоий-сиёсий, ахлоқий-эстетик идеаллар тарзида тадқиқ этилганлигини кўриш мумкин. Россиялик олим Э. Ильенков «Идеал (лотинча idealis, idea-образ) – олий қадрият: у ёки бу ҳодисани энг яхши тугаши; шахсий сифатлар намунаси, кишилараро муносабатлар хусусиятларини белгиловчи намуна, қоида, идеал образ»[3] деган фикрни билдирган бўлса, А.Н. Яценко идеални инсоннинг ижтимоий фаолияти билан боғлаган ҳолда мақсаднинг мақсадидир [4] деб таърифлайди.

Ҳар биримиз идеал сари интиламиз. Идеал инсон ҳаётидаги энг олий ахлоқий талаб. Унинг бажарилиши шахсни комилликка етказди. Шубҳасиз ҳаётда бунга тўла эришиб бўлмайди, аммо инсон ана шу комилликни ўзига намуна билиб, идеалга интилиб яшаши лозим.

Ижтимоий-ахлоқий идеал билан диний идеал ўхшашдек кўринади, аммо аслида кескин фарқ қилади. Мусулмонлар учун - Муҳаммад алайҳиссалом, насронийлар учун - ҳазрати Исо, яҳудий динидагилар учун - ҳазрати Мусо идеал ҳисобланади. Бу шахслар идеал сифатида ҳеч қачон ўзгармайди. Ижтимоий-ахлоқий ва тарихий идеаллар эса ўзгариши мумкин. Масалан, қачонлардир Ленин - энг юксак ахлоқий идеал сифатида талқин қилинган, ҳозир эса буюк аجدодимиз Амир Темур кўпчилик томонидан тарихий идеал, адолатли давлат раҳбарининг намунавий мисол сифатида кўрилади.

Тарихий идеаллика доир билимлар фақат ўтмиш ҳақидаги маълумотлар, хотиралар ҳам эмас, унинг буюк қудрати, тарбиявий кучи, мураббийлик моҳияти ўтмишни ўрганиш, тадқиқ этиш орқали бугунни баҳолаш, бугунни англаш, бугунги одамларни тушуниш ва уларни йўналтириш борасидаги фикрларни, ғояларни ўзида мужассам этганида. Агар биз тарихга ана шу нуқтаи назардан қарайдиган бўлсак, унинг бутун кўламини, инсоният ва жамият тараққиётидаги ролини чуқурроқ англаймиз.

Идеал тушунчаси Афлотун давридан бошлаб ўрганиб келинади. Ҳозирги кунда идеални, инсониятнинг келажаги ва тараққиёт йўллари сифатида қўйидаги йўналишларга ажратиш мумкин: “Етук жамият”, “етук давлат” – “олтин давр” концепцияси, “Бахт”, “бахтиёр ҳаёт қуриш” ғоялари, ижтимоий адолат концепцияси, демократик, фуқаролик жамияти кабиларга. Буюк ғарб олими С.Рюдигер идеал тушунчаси XIX аср охири XX аср бошларида Шиллер томонидан илк бор мукамалликни ифодаловчи мажоз сифатида қайд этилган деб таъкидлаб ўтган [5].

Бўлғуси тарих фани ўқитувчиларида тарихий идеалларга доир билимларни ривожлантиришнинг педагогик асоси сифатида таълим жараёнидаги тарихий хотирага бўлган ижтимоий эҳтиёни ҳам келтириб ўтиш жоиз. Тарихий идеаллар ҳар доим ижобий мақсадда хизмат қилган. Чунки тарихий идеаллар бизга аجدодларимиздан мерос қолган. Тарихий идеал ҳар бир халққа хос бўлган қадриятлар, урф-одатлар, анъаналар ҳамда турли билимларни ўзида ифода этиши билан ҳам ажралиб туради. Ҳозирги вақтда баъзи миллат вакиллари ўз миллати эркинлиги ҳиссини йўқотиш чегарасида. Ҳар бир миллатнинг ўзи белгилаб олган ҳаётий режалари, жамият тараққиёти истиқболларини белгилаши ақлнинг шунчалик қуруқ ўйини эмас. Зеро, юксак асосга эга бўлган миллий мақсадлар, миллат ҳаётини сақлаб туради.

Ҳар бир миллат вакили ўз ҳаётларини ана шу миллий мақсадлар ва идеалларга мослаб, мувофиқлаштириб яшайди. Бундан хулоса қилишимиз мумкинки, миллий мақсадларни амалга оширишда тарихий идеалларнинг улуғворлик кучи ва намунавийлик даражасидан педагогик жараёнда фойдаланиш, бўлғуси кадрларда тарихий идеалларга ўхшаш асосида ижтимоий тараққиётга таъсир кўрсатиш имкониятларини яратиш жоиз.

Беруний миллий тарихий тафаккур ривожига салбий ҳолатлар, замонавий терминология тили билан айтганда этноцентризм масаласига тўхтаб ўтиб, «Бу аҳмоқлик, давоси йўқ бир касалликдир, бу шундайки, уларнинг эътиқодларида дунёда ўз ерларидан бошқа ер йўқ, ўз жинсларидан бошқа халқ йўқ, ...ўзлариникидан бошқа илм йўқ ва динларидан бошқа дин йўқ» [6], – деб ёзган. Ушбу сўзлардан олимнинг ўзга халқларни камситиш, бир миллатни бошқасидан нисбатан юқори қўйиш ҳолларига кескин танқидий муносабат билдирганини англаш мумкин. Демак, тарихий идеаллика доир билимлар бўлғуси тарих ўқитувчисининг эгосентристик қарашлари, миллатчилик дунёқарашини шаклланишига таъсир кўрсатмаслиги, бунда иллатларга асос бўлмаслигига алоҳида эҳтибор қаратиш лозим. Шу сабабга кўра педагогик жараёнда тарихий идеалларга доир билимларни ривожлантириш миллатчилик туғусини шаклланишига, сепаратизмни ривожланишига асос бўлмаслиги, аксинча мотивация бағишлаши, улардек бўлиш истаги ва ҳаракатини юзага келтириши жоиз.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Фалсафа: қомусий луғат. Тузувчи ва маъсул муҳаррир Қ.Назаров. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 142 б.
2. Новейший философский словарь / Сост.А.А.Грицанов. – Мн.: Изд. В.М. Скакун, 1998. С.252.
3. Ильенков Э. В. Философия и культура. – М.: Издательство Политической литературы, 1991. -195 с
4. Яценко А. Н. Целепологание и идеал. –Киев: Наука, 1977. – 171 с.
5. Рюдигер С. Шиллер, или Открытие немецкого идеализма. Текст (Коллекция). –М., 2007
6. Абу Райҳон Беруний. Тарайҳалар (Жавоҳирот китобидан). – Т.: Мерос, 1991. – Б. 35. .

ТЕОЛИНГВИСТИКА ЗАМОНАВИЙ ФАН СИФАТИДА

*Эшмуратова Дилдор Уроловна**Термиз давлат университети мустақил тадқиқотчиси*

Аннотация. Мақолада теолингвистика термини ёритилиб, фаннинг янги замонавий фан сифатидаги ўрни ва бошқа фанлар билан алоқадорлиги масалаларига тўхталиб ўтилган.

Калит сўзлар: теолингвистика, дин тили, сакрал тил, теология, лингвистика

Теолингвистика - замонавий тилшуносликнинг янги йўналиши. У ҳозирги вақтда шакилланишининг дастлабки босқичида бўлганлиги боис, унинг конструкцияларини ҳар қандай рефлексли тушуниш зарурдир. Мазкур йўналишда нафақат теолингвистик мавжуд тажрибаларни таҳлил қилишни, балки ушбу фанни лойиҳалаштиришнинг жиҳатларини ҳам ўз ичига оладих[1.58]. *Теолингвистика* сўзи *теология* ёки аксарият европа тилларига хос бўлган “*teo*” олд қўшимчаси (префикс, префиксоид, қўшимча сўзнинг биринчи қисми) ва *лингвистика* сўзларидан иборат. Ўз навбатида “*teo*”- юнон тилидаги *teos* сўзидан олинган бўлиб *худо* деган маънони ва лингвистика эса тил ҳақидаги фанни билдиради. Бир сўз билан айтганда, теолингвистикага диний манбалар, таълимотлар, муқаддас китоблар ва уларга ёзилган тавсифларнинг лингвистик жиҳатдан ўзига хосликлари, услубияти ва фарқларини ўрганувчи тилшуносликнинг бир тармоғи, деб қараш лозим. Кўпгина хорижий тиллардаги изоҳли луғатларида теолингвистика маъноси *диний тилни ўрганиш* тарзида шарҳланган[2.222].

Мазкур термин биринчи бўлиб Белгиялик лингвист Ж.П.Ноппен томонидан 1981 йилда қўлланилган ва шу боис Ж.П. Ноппенни тилшунослик соҳасида теолингвистининг отаси сифатида эътироф этишади. Кейинчалик 1995 йилга келиб, англиялик лингвист Девид Кристал ўзи тузган энциклопедик луғатга теолингвистикани лингвистик термин сифатида киритган[2.91-92]. Теолингвистика – бу инсон сўзининг қандай эканлигини тасвирлашга ҳаракат қиладиган фан. Унда асосий бирлик ўлароқ Худони англатувчи нутқ бирликлари ишлатилади. Диний ва қатъийликка тўғри келмайдиган вазиятларда функциялар тўғридан-тўғри бир томонлама алоқа стандартлари, иккинчи томонлама уни метафора ёки нутқ акти каби машхур шаклларда тасвирлаш мантиқга тўғри келади. Дарҳақиқат, бундай услубий бўёқлар тилни бойитиш билан бирга ундаги хилма хилликни ҳам таъминлай олади.

Инглиз илоҳиёшунос тилшуноси Д. Кристелнинг Кембриж тил энциклопедиясида “*теолингвистика*” атамаси изоҳи келтирилиши туфайли

бу термин алоҳида машҳурликка эришди. Кейинчалик немис теологи А.Вангер 1999 йилда тақдимот қилиш жараёнида “*теолингвистика*” атамасидан фойдаланди ва мазкур атамани тилшуносликдаги “социолингвистика” ва “нейролингвистика” терминлари билан солиштириб изоҳлади. А.Вагнер ўз тақдимот нутқида теолингвистика социолингвистика ва нейролингвистикани ўз ичига олади, деб таъкидлайди. Ҳамда у мазкур фаннинг предмет ва вазифаларини ҳам белгилаб беради.

Теолингвистика атамасини поляк тилшунослигига биринчи марта Е.Кучарска Дрейс олиб кирди. Бу эса, бугунги Польша теолингвистик мактабининг шаклланишига асос бўлди.

Сўнгги ўттиз йилликда дунёнинг турли мамлакатлари тадқиқотларида теонимларнинг (Нидерландия, Германия, Буюк Британия, Польша, Сербия, Украина, Беларус, Россия, Словакия, Белгия ва бошқалар)[3] турли лисоний хусусиятлари ўрганилишга ҳаракат қилинганлиги масаланинг долзарблигидан далолатдир.

Теолингвистика термини жорий қилингунга қадар тилшуносликда дин, диний маросимлар, унга боғлиқ бўлган урф-одатлар ва диний тилларнинг ўзаро муносабатларини ва боғлиқликларини англатувчи диний тил, дин тили, сакрал тил, диний маърифий услуб, конфессиянал тил, муқаддас тил ва шу каби бир қанча терминлар билан номланиб келинган[3.12]. Лекин, юқоридаги терминлар бир лексик гуруҳга мансуб бўлса-да, улар ўзаро синоним бўла олишмаган. Бу борада А.С.Гадомский қўйидагича таъриф келтиради, дин ва тилнинг ўзаро муносабати натижасида пайдо бўлган, тилларда акс этган диний сўз ва терминлар ҳамда уларнинг кенг ва тор доирадаги маъноларини ўрганувчи фан– теолингвистикадир[11.287-289]. А.С.Гадомский кейинчалик ушбу таърифига бироз ўзгартириш киритади: “теолингвистика – бу дин ва тилнинг ўзаро кесишиши натижасида пайдо бўлган, диннинг тилда ўз аксини топган ва унинг номоён бўлишини тадқиқ этувчи фан”[11.287-289].

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш мумкинки, теолингвистика замонавий фан сифатида ривожланишнинг илк босқичидадир. Ушбу фанни тизимлаштириш бугунги кунда муҳим масалалардан ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Поставалова В. И. Теолингвистика в современном религиозном дискурсе. Института языкознания РАН. Москва, Россия, С.58.
2. Степаненко В.А Теолингвистика? -Да Теолингвистика! Вестник ИГАУ-2012. – Ст 222
3. Mavlonov.O.A. So’z san’ati xalqaro jurnali. №5 ISSN 2181-9297 Doi Journal 10.26739/2181-9297. Toshkent-2019 –b.12

4. Постовалова В.И. Новый реализм в лингвофилософской мысли XX-XXI вв.; Wanger, Andreas. Theolinguistik?-Theolinguistik! In: Internationale Tendenzen der Syntaktik, Semantik, Semantic und pragmatik. Akten des 32. Linguistischen Kolloquiums.; Постовалова В.И. Наука о языке в свете идеала Цельного знания: в
5. Ярцева В.Н. Языкознание большой энциклопедический словарь—М:
6. Большая Российская энциклопедия, 1998.
7. Xoliqova A. Diniy atamalarning o'zbek linvo-madaniyatidagi o'rni. So'z san'ati xalqaro jurnali №5 Toshkent –2019, b –14
8. Гадамский. А С. О лакунах в системе лингвистической науки: проблема взаимодействия языка и религии // Ученые записки
9. Тварического национального университета- Филология том 20 (59) №1.
10. Симферополь: ТНУ, 2007. –с.287–292.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПРОДОЛЖИТЕЛЬНОСТИ СУШКИ ХЛОПКА-СЫРЦА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ЧИСЛА ОБОРОТОВ БАРАБАННОЙ СУШИЛКИ

А.М.Шодмонкулов.

Джиззакский политехнический институт

Разработана, изготовлена и внедрена цепной привод для барабанной сушилки 2СБ-10 [1, 2, 3].

Известно, что числа оборотов существующих барабанных сушилок равна 10 об/мин. Поэтому этот показатель мы выбрали базовым при изучении показателей усовершенствованного сушильного барабана. Исследованы следующие обороты барабанной сушилки: 8, 10 и 12 об/мин.

При проведении опытов количества и средняя скорость движения агента относительно хлопка-сырца, а также плотность теплоносителя для всех вариантов не менялся. Опыты проведены на сушильном барабане 2СБ-10, внутри которого установлены тормозящие спицы, но на разработанном цепной приводе.

Продолжительность сушки хлопка-сырца в барабанной сушилке (времени пребывания хлопка-сырца в барабане) определяли методом окрашенной хлопком спускаемый с приемной патрубки барабана и временем нахождения этого хлопком внутри барабана. Перед началом опытов установили производительность подачи хлопком в сушильный барабан в выбранных значениях, равных 8, 9 и 10 т/час. Повторность каждого варианта опытов выбрали равным 3. Продолжительность опытов при установленных режимах работы составлял 30 мин. Во время проведения опытов использовали хлопок сырец селекционного сорта С-6524 первого

промышленного сорта с влажностью 13,8 % и засоренностью 4,6 %. Результаты опытов приведены в таблице 1.

Таблица 1.

Определение продолжительности сушки хлопка-сырца в зависимости от режима работы и производительности сушильного барабана

Исследованные режимы работы барабанной сушилки, об/мин	Продолжительность сушки мин., в зависимости от производительности сушильного барабана, т/час		
	8	9	10
8	6,8	6,6	7,1
	6,9	6,9	7,0
	7,3	7,4	6,7
средние	7,0	6,96	6,93
10	5,8	5,7	5,6
	6,0	6,3	5,9
	5,9	6,0	6,2
средние	5,9	6,0	5,9
12	5,1	5,0	5,3
	5,0	5,1	5,1
	4,7	4,8	4,9
средние	4,93	4,96	5,1

Как видно из таблицы 1 продолжительность сушки хлопка-сырца в барабанной сушилке не зависит от производительности подачи хлопка-сырца в сушильный барабан. При выбранных значениях производительности сушильного барабана по высушиваемому хлопку 8, 9 и 10 т/час, например, при режиме работы барабана со скоростью 8 об/мин находится в пределах 7 мин.

Однако, как видно из приведенных данных таблицы 3.3 не зависимо от производительности сушильного барабана по высушиваемому хлопку продолжительность сушки изменяется в зависимости от режима работы, то есть от скорости вращения сушильного барабана. Если при выбранной скорости вращения сушильного барабана 8 об/мин продолжительность сушки хлопка-сырца находится в пределах 7 мин. то с увеличением скорости вращения сушильного барабана 12 об/мин продолжительность сушки хлопка-сырца уменьшается до 5 мин. Таким образом, можно сказать, что продолжительность сушки хлопка-сырца в барабанных сушилках не зависит от его производительности по высушиваемому хлопку, а зависит только от режима работы, то есть от скорости вращения барабанной сушилки.

Использованная литература

1. Джамалов Р. И др. Разработка ресурсосберегающей технологии сушки и его внедрение в производства. НТО, АО «Пахтасаноат ilmiy markazi», Ташкент, 2020, 34 с.

2. R.K. Jamolov , A.M. Shodmonkulov. IMPROVEMENT OF THE DRIVE OF THE DRYER 2SB-10 IN ORDER TO REDUCE ITS ENERGY CONSUMPTION. American Journal of Interdisciplinary Research and Development ISSN Online: 2771-8948 Website: www.ajird.journalspark.org Volume 03, April, 2022.
3. Першин В.Ф. Машины барабанного типа: основы теории, расчета и конструирования.-Воронеж:Изд. ВГУ ,1990. 243 с.

EKOLOGIK MADANIYATNING RIVOJLANISHI IJTIMOIIY TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA TUTGAN O'RNI

Almamatova Zebo Xudayberdiyevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Biologiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ekologik madaniyatning rivojlanishini ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida tutgan o'rnini va ekologik madaniyat insoniyatning yangi madaniyati bo'lib, u insonning ekologik jihatdan sog'lom xulq-atvori, faoliyati va inson va ijtimoiy-tabiiy muhit o'rtasidagi munosabatlarning yangi sifat darajasini rag'batlantiradigan qadriyat yo'nalishlarini belgilaydi. Keng ma'noda ekologik madaniyat insoniyat madaniyatining yangi mazmunidir.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, atrof-muhit, qadriyat, madaniyat, xulq-atvor, ijtimoiytabiiy muhit, tabiat, falsafiy madaniy olimlar, ekologik inqiroz, yangi ekotsentrik, fan, san'at, urfodat va an'analar.

Аннотация. В статье рассматривается роль развития экологической культуры как фактора общественного развития и экологической культуры новой культуры человечества, представляющей собой новый качественный уровень экологически здорового поведения и деятельности человека и отношений между человеком и окружающим миром. Социально-природная среда определяет ценностные ориентации, которые поощряют. В широком смысле экологическая культура представляет собой новое содержание человеческой культуры.

Ключевые слова: экологическая культура, окружающая среда, ценность, культура, поведение, социоприродная среда, природа, философская культурология, экологический кризис, новая экоцентрика, наука, искусство, обычаи и традиции.

Abstract. In the article, the role of the development of ecological culture as a factor of social development and ecological culture is a new culture of mankind, which is a new qualitative level of ecologically healthy behavior and activities of humans and relations between humans and the social-natural environment. defines

the value orientations that encourage. In a broad sense, ecological culture is a new content of human culture.

Keywords: ecological culture, environment, value, culture, behavior, socio-natural environment, nature, philosophical cultural scientists, ecological crisis, new ecocentric, science, art, customs and traditions .

Bizning davrimizda inson ekologiyasi nafaqat yer va inson haqidagi fan, balki yangi ma'no va yangi ijtimoiy taraqqiyot bo'lib, uning natijasi hayvonot dunyosi va atrof-muhitga qadrlil munosabatda bo'lgan ekologik madaniyatdir. Ekologik madaniyat ilmiy va badiiy tizim sifatida tasniflanadi, insonning atrof-muhit sohasidagi qadriyat yo'nalishi, shuningdek, ma'lumotlarni faol himoya qilish va takomillashtirish. Ekologik madaniyatning rivojlanishi turli muammolarni hal qilish va texnologiyani ishlab chiqish jarayoni bilan bog'liq.

Ekologik madaniyat insoniyatning yangi madaniyati bo'lib, u insonning ekologik jihatdan sog'lom xulq-atvori, faoliyati va inson va ijtimoiy-tabiiy muhit o'rtasidagi munosabatlarning yangi sifat darajasini rag'batlantiradigan qadriyat yo'nalishlarini belgilaydi. Keng ma'noda ekologik madaniyat insoniyat madaniyatining yangi mazmunidir. Tadqiqot muammosini har tomonlama tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, insonda tabiat oldidagi burchlarini yangicha tushunish, yangi dunyoqarashni shakllantirish juda qiyin.

Moiseev inson tabiat bilan birlashishi kerak bo'lgan jahon davri paydo bo'layotganini yozgan; davr zo'ravonliksiz bo'lishi kerak degan ma'noda universaldir. Madaniyatning ruh ekologiyasi, inson yashayotgan muhiti sifatidagi bu zamonaviy ta'rifi III ming yillikda madaniyat qaysi yo'nalishda borishi, inson va tabiatning birlashuvi sodir bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. O'zini madaniyatda topish, o'zining madaniy qiyofasini shakllantirish - bu inson madaniyat bilan tanishish jarayonida ta'lim orqali hal qilishi kerak bo'lgan vazifadir. Madaniyat ta'limning madaniyat yaratuvchi funktsiyasi amalga oshirilganda shaxsning o'z-o'zini ongini rivojlantirish, uning ma'naviy yuksalish vositasi rolini to'liq bajaradi. Ilg'or pedagogik fikr har doim shaxsning shakllanishida tabiatning rolini yuqori baholagan, insonning ma'naviy hayoti tabiat bilan eng uzviy bog'liq degan pozitsiyaning haqiqatini ta'kidlagan. Ko'pgina pedagoglar tabiatga ruhsiz munosabatda bo'lishga, uni rasmiy o'rganishga va tor amaliylikka qarshi bo'lib, tabiat to'g'risidagi to'liq bilimlarni o'quv dasturlariga kiritishni taklif qildilar, ularning insonning axloqiy fazilatlarini shakllantirishga alohida ta'sirini ta'kidladilar.

Ekologik madaniyat fenomenini o'rganuvchi ko'plab olimlar ta'kidlaganidek, ta'limda shaxsning ekologik madaniyati asosida jamiyatning ekologik madaniyatini ta'minlashga qodir bo'lgan shunday madaniy qadriyatlarni rivojlantirish kerak.

Falsafiy va madaniy nuqtai nazardan, zamonaviy olimlar ekologik madaniyat ekologik inqiroz va yangi ekotsentrik fikrlash ta'sirida shakllanadigan madaniyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichidir, degan olimlar o'z fikrida. Ekologik madaniyat - bu insonning ma'naviy hayoti, uning qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari, odamlarning boshqa odamlar, atrof-muhit bilan o'zaro munosabati, jamiyatning texnik, iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasiga bog'liq. Shuni aniq ta'kidlash mumkinki, insonning ekologik madaniyati uning integral xususiyatidir va tabiatga ma'lum munosabatni ifodalaydi, insonning dunyoqarashi bilan bog'liq va turli vaziyatlarda barqaror namoyon bo'ladi.

Ekologik madaniyatning tarkibiy qismlarini tahlil qilish. Ekologik madaniyatda uchta asosiy komponent tarkibiy jihatdan ajralib turadi: kognitiv (bilim); qiymat (qiymat yo'nalishlari); faoliyat (ko'nikma va qobiliyatlar). Natijada, ekologik madaniyat insonning fan, san'at, urf-odat va an'analar sohasidagi bilim va ko'nikmalari, qadriyat yo'nalishlari, shuningdek, atrof-muhitni saqlash va yaxshilash bo'yicha faol ishlar tizimi sifatida namoyon bo'lishi mumkin o'zaro bog'liq elementlardan iborat. Uning tarkibiy qismlarini batafsil o'rganish bilan siz ular nimani anglatishini belgilashingiz mumkin: ekologik bilimlar - tabiatshunoslik, ijtimoiy, huquqiy, texnik va boshqalar; ekologik fikrlash - sabab, ehtimollik, bashoratli va boshqa turdagi munosabatlarni o'rnatish qobiliyati; ekologik jihatdan asoslangan xulq-atvor, bunda ekologik bilimlar, ekologik fikrlashning kundalik harakat normasiga o'tishi amalga oshiriladi; his-tuyg'ular madaniyati, ya'ni hamdardlik, tajriba, hayotga hurmat ko'rsatish qobiliyati.

Bir tomondan ekologik madaniyatni ekologik bilimlarning dinamik birligi, tabiatga va atrof-muhitdagi haqiqiy inson faoliyatiga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, ekologik madaniyat - bu tabiatni bir butun sifatida idrok etish jarayoni, hamkorlik quvonchi deb hisoblanishi mumkin u bilan yaratish, koinotning ijodiy jarayonlari bilan tanishish, tabiat uyg'unligi va go'zalligini his qilish. Boshqa tomondan, ekologik madaniyatni rivojlantirishni ekologik ta'limning maqsadi sifatida belgilab, shuni ta'kidlash mumkinki, ekologik madaniyat insonning asosiy sifati bo'lib, uning atrof-muhitni muhofaza qilishga tayyorligini belgilaydi, chunki munosabatlar tizimida "inson- tabiat" tabiiy muhit bilan o'zaro munosabat jarayonida kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatni anglab, o'zini tabiatning bir qismi sifatida anglash muhimdir. Ekologik madaniyatni shakllantirish fan-texnika taraqqiyoti mahsulotlarini ishlatishda ma'naviy javobgarlikni shakllantirishni, madaniy o'zgartirish faoliyati usullarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Atrofimizni o'rab turgan tabiat biz uchun shunday moslashtirilganki, tabiatdagi barchabarcha narsalar faqatgina insonlar manfaati uchun xizmat qiladi. Ammo mana shu go'zal tabiat shunchalar nozikki, unga keltirilgan birgina oddiy zarar

ham kelajakda juda katta to'g'irlab bo'lmas xatolarga olib kelishi mumkin. Mana shunday xatolarning eng kichigi bu atrof muhitni ifloslantirish, suvlarga chiqindi tashlash, o'sib turgan ekinlarni va daraxtlarni behudaga sindirish kabi yomon ishlar hisoblanadi. Bular oddiy e'tiborga loyiq bo'lmagan ishlardek tuyulishi mumkin, ammo, aynan mana shu bee'tiborlik natijasida biz yashayotgan ekologiya qancha zarar ko'rishini yaxshilab o'ylab ko'rmog'imiz lozim. Bunday ishlar esa insonlar tomonidan Alloh bergan ne'matga, omonat qilib berilgan tabiatga hiyonatdir. Nahotki ongli qilib yaratilgan insoniyat ekologiyani ifloslantirish natijasida o'zi va kelajak avlodining salomatligiga putur yetkazayotganini anglamasa!? Axir bizlar ona tabiatni bus-butunligicha asrab kelajak avlodga yetkazib berishga mas'ul emasmizmi!? Tabiatni muxofaza qilish tarbiyasi islom nuqtai nazarida jamiyatning katta yoshdagi a'zolari vazifasidir. Katta yoshdagi kishilar atrof-muhitni muhofaza qilish va ozodalikni asrab avaylashda yoshlarga o'rnak bo'lishlari va bu hususida tarbiya berishlari kerak bo'ladi. Bizning bobolarimiz va buvilarimiz suvga tupurma, ariqlarga chiqindilarni supurma, ko'chalarga axlat tashlama, ko'karib turgan biror narsani nobud qilma deya uqtirgan so'zlarini doimo esimizdan chiqarmasligimiz va yoshlarga ham shularni o'rgatmoqligimiz lozim. Bundan tashqari xalqimiz orasida «Birni kessang o'nni ek» degan purma'no ibora ham mavjud. Darhaqiqat biz bugun kesgan birgina ko'chatning tabiatdagi zarari yillar o'tib uning o'rniga ekan daraxtimiz orqali qoplanadi. Va shunda ona tabiatning toza havosiga, ko'kalamzorligiga putur yetkazmagan hisoblanamiz.

Ekologik madaniyat madaniyatning ko'rinishlaridan biri sifatida umumiy o'z ichiga oladi inson, jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlar sohasi. Bundan tashqari, biz bunday munosabatlar haqida gapiramiz ijobiy ijodkorlikni taqdim etadi, uyg'unlashtirishga qaratilgan odamlar faoliyatining ijobiy va ijodiy boshlanishi inson, jamiyat va tabiat manfaatlari. Shu ma'noda, ekologik madaniyat odamlar faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos usuli sifatida qaraladi, maqsadi bu faoliyatni tabiat bilan uyg'unlashtirish.

Shunday qilib, ekologik madaniyat kontseptsiyasiga oid turli pozitsiyalarni tahlil qilish asosida, biz shunday xulosaga kelishimiz mumkin: ekologik madaniyat qayta ko'rib chiqilgan qadriyatlarga ega bo'lgan madaniyatning yangi turi bo'lib, uni moddiy va ma'naviy qadriyatlar to'plami sifatida belgilash mumkin. Inson faoliyati nafaqat ekologik bilimlar tizimini, balki jamiyatning progressiv rivojlanishi uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoitlarni saqlashga qaratilgan odamlarning xatti-harakatlarining ekologik jihatdan o'ylangan texnologiyasini ham o'z ichiga oladi.

References

1. Стукаленко Н.М. Развитие экологической культуры как фактор общественного прогресса в целях устойчивого развития // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2015. – № 12-5. – С. 929-931
2. URL: <https://applied-research.ru/ru/article/view?id=8058> (дата обращения: 18.09.2022).
3. Захарова Елена Юрьевна. Роль естественных и социальных факторов в формировании экологической культуры человека и общества.